Xulosa qilib aytganda, Finlandiya tajribasi asosida ta’lim jarayonida integratsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarni fanga oid bilimlarni har tomonlama mukammal egallashi, dunyoqarashi va intelektual ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda fanga oid bilimlarni fanlararo aloqadorlik orqali qiziqtirish asosida ma’lumotlarni mazmunan chuqur idrok etadi, o‘z bilimlarini amaliy xususiyatini ochib berish asosida amaliyotda faolroq qo‘llaydi hamda o‘quv jarayonida ortiqcha yuklamalar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpulatova Sh.O. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish // Monografiya. –T.: Ta’lim taraqqiyoti. 2017. – B.65.
2. G.Petrov Oq Nilufarlar yurtida //Matn. –T.: Factor Press. 2021. – B.192. (N.Sultonmurodov tarjimasi)
3. www.xs.uz
4. www.ziyonet.uz

TA’LIM JARAYONIDA MILLIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASI ASOSIDA BAHOLASH USULLARI

B.A.Abdullayev
Qo‘shrabot tumani 69-maktab tarix fani o‘qituvchisi
S.X.Ergasheva, N.E.Xoshimova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 2-kurs talabalari
X.A.Primova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali kafedra professori

Annotatsiya: Ma’lumki, milliy ta’lim tizimida komil insonni tarbiyalashda ma’naviy yetuklik asosiy maqsad bo‘lgan. Shuning uchun o‘quvchi bilimni o‘zlashtirish, ijodkorlik yondashuvi, hamda o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir etish orqali uni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Hozirgi davrda milliy ta’lim ham ana shu an’ana o‘laroq ta’limning milliy xususiyatlari, o‘ziga xosligini hisobga oladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, baholash usuli, tarbiya, milliy ta’lim tizimi.

Bugungi kunda biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati, avvalo ongli fuqarolarga tayanadi. Ongli fuqaro o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonib harakat qiladi. Hozirgi vaqtda dunyodagi ma’rifatli insonlar yurt tinchligi taraqqiyotining asosiy garovi ekanini yaxshi anglab yetmoqda. Shuning uchun yer yuzida tinchlik va barqarorlikni asrash nafaqat bir millat yohud birgina davlatning emas, butun insoniyatning muqaddas va sharafli yumushiga aylanmoqda. Siz televideniya va ommaviy axborot vositalari orqali, jahonning turli joylarida deyarli har kuni terrorchilik va qo‘poruvchilikka guvoh bo‘lmoqdasiz. Biz ham yoshlarimizga tasir ko‘rsatishga intilayotgan yod g‘oyalarga qarshi yoshlarni ilm-ma’rifat bilan, ma’naviyat bilan qurollantirmog‘imiz darkor. Zero, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘sib, ulgayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”! [1, 2].

Masalan, interfaol metodlardan savollarda baholash va raqamlarda baholash usullaridan dars jarayonida foydalanib, yuqori samaradorlikga erishish uchun biz undan (bo‘lim yoki bob yuzasidan) takrorlash mavzularida foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’limdagi jiddiy o‘zgarishlar, jahon pedagogikasi yutuqlari, o‘qitishning tarixiy-milliy texnologiyalari, bu borada sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-ma’rifiy merosi (Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ulug‘bek va boshqalar), inson va ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashda qo‘l keladi [2,3,4].

Interfaol metoddan dars jarayonida foydalanib, yuqori samaradorlikka erishish uchun biz undan (*bo‘lim yoki bob yuzasidan)* takrorlash mavzularida foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Sinfdagi o‘quvchilar soniga mos ravishda (*bo‘lim yoki bob yuzasidan)* mavzular taqsimlanadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli mavzu yuzasidan doskaga chiqadi va o‘quvchilar navbat bilan, doskadagi o‘quvchiga tayyorlangan mavzusidan 3 ta savol berishadi. Doskaga boshqa o‘quvchi chiqqanda esa, navbatdagi o‘quvchi savol berishni davom ettiradi. Savollarga e’tiborli bo‘ling ikkita javobi bor savollar qatnashmasin. O‘quvchi 1 ta savolga to‘g‘ri javob bersa “3” baho, 2 ta savolga to‘g‘ri javob bersa “4” baho, 3 ta savolga to‘g‘ri javob bersa “5” baho.

1-jadval

Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli tayyorlangan mavzusi bo‘yicha berilgan savol jadvali

T\r	Ism, familiya va sharifi	Mavzusi	Berilgan to‘g‘ri javobi	Berilgan qiyin savoli	Bahosi
1	Atamurodov Sardor	5	2		
2	Norboyeva Muhlisa	8	1		
3	Mardiyeva Mohigul	11	1		
4	Murodimova Maftuna	7	3		
5	Ziyotov Samandar	1	3		
6	O‘sarova Marjona	4	2		

Agar doskaga chiqqan o‘quvchi past baho olsa-yu bahosini yaxshilash niyatida bo‘lsa, navbati kelganda doskadagi o‘quvchiga bergan savoliga to‘g‘ri javob bo‘lmasa va bunday qiyin savollar 3 taga yetsa 1 ball, 6 taga yetsa 2 ball qo‘yiladi va bahosi ko‘tariladi.

2-jadval

Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli mavzu bo‘yicha berilgan javob va baholash jadvali

T\r	Ism, familiya va sharifi	Mavzusi	Berilgan to‘g‘ri javobi	Berilgan qiyin savoli	Bahosi
1	Atamurodov Sardor	5	2	1+1+1	5
2	Norboyeva Muhlisa	8	1	1+1+1+1+1+1	5
3	Mardiyeva Mohigul	11	1	1+1	3
4	Murodimova Maftuna	7	3	1+1+1	5\5
5	Ziyotov Samandar	1	3	1	5
6	O‘sarova Marjona	4	2	1+1	4

“**RAQAMLAR TILGA KIRGANDA**” metodi.

Bu metoddan bir mavzu bo‘yicha yoki umumiy takrorlashda foydalanish mumkin. Bunda o‘tilgan mavzularga oid (*sana, yil yoki son*) raqamlar yoziladi.

1) 2 _____

2) 476-yil _____

3) 14 _____

Mavzuga oid ikkita bir xil son yoki sana ishtirok etishi mumkin. Bunda har bir raqamga izoh yoziladi.

1) 2 xil - tarixiy manbalar

2) 476-yil –G‘arbiy Rim imperiyasi quladi

3) 14 yil – Afinada gimnastikaga borish yoshi

4) 2 yil - yunonistonda harbiy xizmat

Mavzuga doir asosiy masalalar yuqoridagidek o‘rganilganidan so‘ng savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilar bilimi umumlashtirildi. Bu metoddan tarix darslarida foydalanishning qulaylik tomoni o‘quvchilarning Xronologik bilimini oshirib, tarixni o‘rganishda muhim hisoblangan jihat tarixiy davrlashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi [5].

Bilimlarni o‘zlashtirish, ijodkorlik ma’naviy kamolot sari intilish orqali amalga oshirilgan. Bu inson ruhiyatiga ta’sir orqali amalga oshirilgan. Hozirgi davrda milliy ta’lim ham ana shu

an'ana o'laroq ta'limning milliy xususiyatlari, o'ziga xosligini hisobga oladi. Bu, ayniqsa, maktabda ijod mahsuli bo'lgan insholarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham insholar orqali o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari aynan ularning his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali ifodalanadi.

Bu metoddan takrorlash darslarida yuqori natijaga erishishimiz mumkin. Chunki o'quvchi bir mavzu bilan chegaralanmaydi, balki qiyin savol berish uchun boshqa mavzu bilan ham tanishadi. Sinfdagi boshqa o'quvchilar esa savolni eshitib, uning javobini ham bilishadi. O'qituvchi faqat sinfni tinchlantirib, ketma-ketlikda savol-javobni nazorat qilish kerak. Shundagina ko'zlagan maqsadga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ta'limda texnologiyalar tajriba va strategiyalarini belgilash //Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi, Samarqand, 2020-yil.

2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2012.

3. Таълимда технологиялар тажриба ва стратегияларини белгилаш // Республика миқёсидаги конференция материаллари тўплами. Самарқанд вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази, - Самарқанд, 2020 йил.

4. Бекмуратов Т.Ф., Ходжимитова Г.М. Метод оценки согласованности информации в рассуждениях экспертов// Доклад АН РУз.,2001, «8-9, с.48-50.

5. W.L. Winston, C.S. Albright, Practical Management Science, (Cengage Learning, 2015).

MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI ANIQLASHDA NOAN'ANAVIY TESTLARNING AHAMIYATI

A.K.Babadjanov
Xorazm viloyati XTXQTMOHM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi
D.N.Kamolova
Navoiy viloyati Navoiy shahar 12-son maktabning matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Matematika darslarida o'quvchilarni bilimini aniqlashda noan'anaviy testlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: test, moslik, jadval, tog'ri ketma-ketlik, savol-javob.

Respublikamizdagi ta'lim maskanlarida o'quvchilar bilimini sinashning test usuli joriy qilinishi ta'lim sifatini oshirishda ijobiy natijalar berayotganligi ma'lum. Ayniqsa, bu usul aniq fanlarni o'rganishda yanada samaraliroqdir. Ammo har qanday yaxshi usuldan ham o'z o'rnida va to'g'ri foydalanilgandagina ijobiy natijalar berishi mumkin.

Hozirgi paytda aholi zich joylashgan joylarda o'rta maktablarning har bir sinfida 30-35 ta, hatto undan ko'p o'quvchi ta'lim olayotganligi sir emas. Shunday vaziyatda o'quvchilar bilimlarini sinashning qulay usullaridan foydalanilmasa, og'zaki savol-javob usuli yetarlicha samara bermaydi. Chunki o'quvchilar sonining ko'pligi va vaqtning kamligi tufayli o'qituvchi o'quvchilar bilimini aniqlashga ulgura olmaydi. Bunday vaziyatda test usulidan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Shuning uchun har bir mavzuga yoki har bir bobga mo'ljallangan testlar tuzish lozim.

Test usulining yaxshi samara bermasligining sabablaridan biri shundaki ko'pincha test nomigagina bo'lib, savol va 4-5 ta javobdan iborat bo'lib qoladi. Yoki juda ko'p savollari bir tipdaligi tufayli o'quvchi uni bajarish jarayonida zerikib qoladi. Shuning uchun har bir fan

o‘qituvchisi test tuzish qonun-qoidalarini, test tuzishga qo‘yilgan talablarini, test va uning turlari haqida yaxshi tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

“Test” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J.Kettel tomonidan 1890-yilda kiritilgan. “Test” atamasi inglizcha “test” so‘zidan olingan bo‘lib, tekshirish, nazorat, sinov ma’nolarini bildiradi. Pedagogikada “test” atamasi o‘ziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega bo‘lgan, o‘quvchilar o‘zlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat. Test topshiriqlari ta’lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda asosan testlarning an’anaviy turidan ko‘proq foydalanilmoqda, ammo ushbu testlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini xolisona baholash uchun yetarli emas. Testlarning noan’anaviy turlaridan ko‘proq foydalanilsa o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab qolmay ularni ijodiy yondashishga undaydi va dunyoqarashini kengaytiradi. Quyida matematika o‘qituvchilari uchun noan’anaviy testlardan namunalar keltirilgan bo‘lib dars jarayonida keng foydalanilsa maqsadga muvofiqdir:

1. Quyidagi buyuk allomalarning nomini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1) Al-Xorazmiy; 2) Ibn Sino; 3) Umar Xayyom; 4) Al-Beruniy; 5) Mirzo Ulug‘bek; 6) Farobiy; 7) Nasriddin Tusiy

						

2. Quyidagi matematik terminlarni aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1) Foiz; 2) Kesishma; 3) teng; 4) birlashma; 5) kichik yoki teng; 6) katta yoki teng; 7) bo‘sh to‘plam

∪	=	∅	%	∩	≤	≥

2. Rasmda berilgan trapetsiyaning qismlariga mos harflarni aniqlang va yozing.



Trapetsiya qismlari	Harflar
Katta asosi	
Balandligi	
Kichik yon tomoni	
Kichik asosi	
Katta yon tomoni	
Diaganallarini kesishish burchagi	
Diaganallari	

3. Rasmda berilgan parallelogramning qismlariga mos harflarni aniqlang va yozing.

Parallelogram	Parallelogram qismlari	Harflar
	*Asosi*	
	Balandligi	
	Yon tomoni	
	Asosi va yon tamonini kesishish burchagi	
	Dioganallarini kesishish burchagi	
	Diaganallari	

5. Quyidagi matematik so‘zlarni mos ta’riflar bilan juftlang.

1	Tenglama		A	Boshlang‘ich tushuncha	
2	Funksiya		B	Ikkita ifodani qiyoslash	
3	Tengsizlik		C	X to‘plamni Y to‘plamga akslantirish	
4	To‘plam		D	Noma’lum qatnashgan tenglikka	
Javob:	1-	2 -		3 -	4 -

6. Geometrik shakllarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

1) Kvadrat 2) teng tomonli 3) romb 4) Paralellogram 5) teng yonli 6) o‘tkir burchakli 7) trapetsiya 8) o‘tmas burchakli

Geometrik shakllar	javob raqamlar
Uchburchak turlari	
To‘rtburchak turlari	

7. Quyidagi ifodalarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

1) 3x 2) 4x+5y 3) $2y^2$ 4) $2x^2+3x$ 5) $(x-1)^2$ 6) 3y
7) 10x-2x 8) $7y^2+2y^2$ 9) 2x-3 10) 9 11) y+x

Algebraik ifodalar	javob raqamlar
Birhadlar	
Ko‘phadlar	

8. Berilgan progressiyalarga mos javoblar bilan juftlang.

№	Progressiyalar		№	Formulalari
1	Arifmetik progressiyani n-hadini formulasi		A	$b_n = b_1 \cdot q^{n-1}$
2	Geometrik progressiyani n-hadini formulasi		B	$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n$
3	Arifmetik progressiya n-hadining yig‘indisini hisoblash formulasi		C	$S_n = \frac{b_n \cdot q - b_1}{q - 1}$
4	Geometrik progressiya n-hadining yig‘indisini hisoblash formulasi		D	$a_n=a_1+d(n-1)$
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

Bunday noan’anaviy testlar yordamida barcha o‘quvchilarning bilimini bir vaqtda aniqroq baholab, ularni mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, mustaqil o‘qishga o‘rganish, intizomli bo‘lish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Qolaversa, bunday testlarni tuzishda

o‘qituvchilarning sabr qanoati, izlanuvchanligi, ijodkorligi oshadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Noan’anaviy testlardan dars jarayonlarida foydalanib borilsa, ta’lim sifatini oshirishda o‘z samarasini beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saxayev M.S. Elementar matematikadan masalalar to‘plami. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1977
2. Umirbekov A.U., Shoabzalov Sh.Sh. Matematikani takrorlash – Toshkent: «O‘qituvchi», 1989
3. Otajonova Z. “Matematika o‘qitishda O‘rta Osiyolik olimlar ijodidan foydalanish”. T.1981
4. “Ma’naviyat – qalb quyoshi”. Ma’lumotnoma. T/ 2008-y
5. “Matematika o‘qitishda tarixiy ma’lumotlardan foydalanish”. T.2005
6. Ne’matova Sh. “Matematika fanini o‘qitishning nazariy masalalari va metodikasi”. T. 2011

SKILLS AND COMPETENCIES A MODERN EDUCATORS NEED FOR SUCCESSFUL ONLINE TEACHING

D.Rasulova
Phd in History Samarkand Region National Center for Training Pedagogiues in New Methodologies

Abstract. A Global pandemic of Covid 19 has shown us that the World’s educators are not ready to organize a successful educational process. During the pandemic uzbek school system was transformed into online version with the help of the Internet and television. In this article we will discuss the problems we have faced and recommendation on the ways to deal with them.

Key words: skills, modern, technology, education, online, e-learning, teacher, content-making, design, communication.

INTRODUCTION

For the successful implementation of online learning, teachers must find a ways and put the efforts to make learning materials conveyable and receivable by students. The ability to make an interesting and useful e-learning content is very important, as in most cases students will not have a direct interaction with a teacher. The purpose of this study was to determine the skills of teachers in the process of creation of content for distantly studying students. To support this research, we used the method of observation, interviews with related parties, and literature review. The results obtained indicate that the application of multimedia in distance learning will further improve the quality of e-learning, because the problem of e-learning lies in the content that cannot explain the learning material, this is because e-learning content usually only contains slides and text materials. The use of information and communication technology is expected to be able to overcome the teaching and learning process so that it can continue to run well despite the economic, social or political situations in the World.

The landscape of higher education has changed dramatically in the last twenty years. The rapid growth in higher education enrollment and employment has been steady. The characteristics of higher education institutions, employment, and students have altered over the last decade. Education outcomes are shifting from focusing solely on cognitive development toward personal, social, and economic development. Financial issues, which include the cost of attendance, tuition, and fees, have various themes and pattern. Consequently, the concepts of teaching, learning, and being a teacher or learner have been remodeled. Different models of teaching impact the relationship between the teacher and the learner and describe the teaching and learning processes. However, the following question may arise: What is the most effective model of teaching?

MAIN BODY

Interestingly, in the educational literature, the examination of the effectiveness of a model or method of teaching is always introduced as a comparison with traditional learning or teaching.

In a large body of literature, traditional learning has been considered an antonym of new types of learning, such as e-learning, as well as virtual, cyber, hybrid, and online learning.

The debate regarding the effectiveness of online learning has been raging for decades. Both technological optimists and skeptics have argued over whether moving toward online learning would yield better learning outcomes than face-to-face learning. Yet, it is apparent that online learning has been popularized as a substantial component at the majority of higher education institutions. Furthermore, almost three- quarters of academic leaders believe that the learning outcomes of online learning are similar to or better than those of face-to-face education.

Some reported benefits of online learning for the learners include offering more flexible learning experiences; opening channels for synchronous and asynchronous communication and interaction; allowing for more collaboration and interaction with peers; providing access to learning resources in various formats. Some argue that online learning have a potential to promote afford and support access to higher education for those who have socioeconomic, academic, and health issues that prevent them from attending on-site classes. Moreover, others add to the noted benefits the potential of online learning to offer cross-cultural experiences in which learners can learn about and communicate with people from other cultures. They also cautiously mention feeling anonymous as another benefit of online learning. Although anonymity may have some disadvantages, it can give the learners more freedom to participate in the learning activities. Online instructors can also benefit from online learning. The advantages that they may gain include more flexibility in regard to teaching location and hours; being able to reuse and immediately update the learning materials; increasing the number of ways to individually communicate, supervise, and direct learners; and enhancing their ability to determine learners' educational needs and design personalized learning experiences accordingly.

Along with amassing evidence in favor of the usefulness of online learning, concerns about the problems that might emerge in online environments have grown. First, it is important to note that online learning is not a replacement for face-to-face education. Moreover, educators should be aware that there is no sole online learning format that is suitable for all faculty and students. Cheating and plagiarism are among the most pressing concerns about online learning and acts as a threat to students' academic integrity.

They may experience feelings of discomfort when dealing with technology-enriched classrooms and related issues. Some of the issues that might deter faculty members from teaching online include wondering if they are qualified to teach online, how to maintain their own identities and attributes as instructors, what the learners' demographic might be, how to meet discipline-related demands, what kind of training they would need, how to be successful online instructors, how to assess and evaluate learning outcomes, and how to deal with stress and feelings of frustration while making the transition to online learning environment.

Teaching online and technology- enriched courses requires adapting pedagogical practices that are more compatible with the integration of technology at the postsecondary level. The principles of feedback, constructivism, and transformative learning seem to be more appropriate to proclaiming the learner-centered approach, which is one of the online learning foundations. Online instructors must pay attention to what they need to create, develop, and manage their online courses and how to effectively communicate with the learners in the absence of physical presence and interaction. For both instructors and learners, it is crucial to consider time management issues. It is also important to note that the sense and control of time have different patterns in online courses.

The roles, characteristics, competencies, and skills that one requires to be a competent and successful online instructor should be identified and highlighted by educational institutions, online learning organizations and authorities, and online learning theorists. Online faculty members need a framework and guideline that support them, improve their skills, and help to design adequate training programs. Moreover, institutions need to develop a general framework to help design and create professional development programs for teachers.

SKILLS FOR ONLINE TEACHING

Pedagogical Skills: Effective online instructors should understand the fundamentals of online teaching and pedagogy. They must demonstrate this understanding through applying a large number of principles and strategies. These principles and strategies include:

−Learning theories, such as learning styles, the adult learning theory, the learner-centered approach, and collaborative learning;

−Designing and implementing appropriate instructional strategies, as well as classroom assessment and student engagement techniques;

−Organizing and facilitating students' participation and providing guidance and support as needed;

−Using criterion-based assessment to evaluate individual and group performance;

−Motivating students and showing enthusiasm and interest;

−Encouraging knowledge construction based upon learners' prior knowledge and life experience;

−Fostering learners' self-assessment and reflection; and

−Promoting group interaction, collaboration, and teamwork.

Content Skills: *Online instructors must be able to do the following:*

−Expressing and mastering extensive knowledge of the content;

−Stating learning goals and objectives that coincide with learners' levels and characteristics;

−Drafting and developing learning and assessment activities that align with learning goals and objectives;

−Developing a course outline that includes all course components and elements;

−Designing a teaching proposal at the general level and identify each of its phases or elements;

−Developing and selecting appropriate and varied learning resources that accommodate different learning styles and preferences;

−Linking the subject and content with scientific, social, cultural, and any other relevant phenomena; and

−Developing an inventory of existing content and resources and any additional content and resources that will be needed.

Technological Skills: Although online learning relies heavily on technology, there is no imperative need for online instructors to be technologically advanced. Online instructors have to possess adequate technological literacy skills to be able to do the following:

−Accessing various technological resources and tools, such as email, Internet browsers, text and video chat applications, and productivity software and applications;

−Understanding the learning and teaching capabilities and limitations of these tools;

−Being aware of the technical potential of, and procedures used to create, e-content, such as e- books and instructional videos; and

−Being alert to the latest updates and renovations of educational technology and software.

These competencies have the following objectives: (1) improving the skills of asking questions for new teachers so that the teaching and learning process does not take place monotonously and not only one-way interaction occurs, (2) improves the skills of new teachers in classroom management so that the teaching and learning process can take place safely and orderly, (3) improving the skills of new teachers in conducting teaching variations, especially variations in the use of media, variations in views and attention, as well as variations in the use of teaching methods, and (4) improving the skills of new teachers in explaining the material being taught. The minimum teaching ability of new teachers is mastering the following teaching skills: opening and closing classes, asking questions, strengthening and implementing teaching variants.

CONCLUSION

Online teaching is demanding. Faculty members might feel uncomfortable teaching online courses due to the multiple roles and responsibilities of teaching online. Online teaching skills and competencies have to be determined in order to help design professional development programs for online instructors. E-learning does not depend on location or time, e-learning also provides knowledge sharing facilities, and provides a more interesting visualization of knowledge. One of the learning's benefits that is part of e-learning is website-based learning, where this learning tries to transform the teaching and learning process into a digital form that is connected using the internet technology. Teachers can motivate students to improve their learning skills by doing innovative ways. E-learning itself has brought major changes to traditional teaching and learning methods in this modern era.

Reference:

1. Abdous, M. H. (2011). A process-oriented framework for acquiring online teaching competencies. Journal of Computing in Higher Education, 23(1), 60-77.
2. Allen, I. E., & Seaman, J. (2011). Going the distance: Online education in the United States, 2011. Babson Survey Research Group and Quahog Research Group.
3. Allen, I. E., & Seaman, J. (2014). Grade change: Tracking online education in the United States. Babson Survey Research Group and Quahog Research Group.
4. Ally, M. (2008). Foundations of educational theory for online learning. Anderson, T. (Ed.), Theory and practice of online learning (pp. 15-44). Edmonton : AU Press.
5. Alman, S. W., & Tomer, C. (2012). Designing online learning: A primer for librarians. ABC- CLIO.
6. Anohina, A. (2005). Analysis of the terminology used in the field of virtual learning. Educational technology & society, 8(3), 91-102.
7. Bailey, C. J., & Card, K. A. (2009). Effective pedagogical practices for online teaching: Perception of experienced instructors. The Internet and Higher Education, 12(3), 152- 155
8. Online Course Design, Journal of Library & Information Services in Distance Learning, 8:1-2, 32-44, DOI: 10.1080/1533290X.2014.916245
9. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2011). The excellent online instructor: Strategies for professional development. San Franscisco: Jossy Bass. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2013).
10. Lessons from the virtual classroom: the realities of online teaching. Oxford: John Wiley & Sons.

НАВЫКИ XXI ВЕКА И ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ

Ш.И.Назарова
Главный специалист отдела повышения квалификации Научно-практического центра педагогического мастерства и международной оценки при Агентстве по президентским образовательным учреждениям

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам развития профессиональной компетенции педагогов образовательных учреждений, навыкам XXI века, которые должны быть сформированы как у учащихся, так и у педагогов. Раскрываются значения терминов – коммуникация, кооперация, креативность и критическое мышление.

Воображение важнее, чем знание:
знание ограничено тем, что мы знаем
и понимаем, тогда как воображение
охватывает целый мир и всё, что
когда-либо будет познано и понято.

А.Энштейн

Сегодня во все мире актуальна образовательная повестка, которая направлена на переход от традиционной формы обучения на формирование предметных знаний и умений, к созданию современных ключевых навыков XXI века. Остро стоит проблема подготовки учащихся к жизни в постоянно меняющемся мире. Новому миру неинтересны просто знания, а интересно, как ты распорядишься этими знаниями, насколько сможешь их адаптировать. Ещё одна немаловажная цель современного образования – развитие индивидуальных качеств, которые помогут ученику безболезненно выйти в мир будущего, где придётся взаимодействовать с разными людьми, искать точки соприкосновения, договариваться, решать общие задачи. И поэтому одной из главных задач современного учителя является помощь ученику в осмыслении учебного процесса и адаптирования к нему.

Профессия педагога – одна из важнейших в современном мире. От него зависит будущее цивилизации. Так как с течением времени меняется общество, требования к современному учителю тоже меняются. Современный учитель должен шагать в ногу со временем. Использовать в своей деятельности инновации и различные методики.

Проведены ряд исследований, целью которых было выяснить, на какие компетенции (навыки) ориентируется профессиональное образовательное сообщество. Исследования проводились в Гонконге, Южной Корее, Сингапуре, Японии, Финляндии, которые являются лидерами современного образования. Исследователи изучили документы, определяющие образовательную политику и образовательные стандарты этих стран, и выделили наиболее часто встречающиеся в них компетенции, ценности и установки, которые должны формироваться у учащихся. Среди них первые позиции занимают 4К компетенции. Концепция 4К – креативности, критического мышления, кооперации и коммуникации - четырёх навыков, которые помогают успешно действовать в любой сфере. 4К компетенции - это компетенции XXI века.

Педагог XXI века – это гармонично развитая и внутренне богатая личность. Он способен к общению, обмену информацией, организации работы и рефлексивной деятельности. Он обладает всеми компетенциями 21 века, так называемыми «softskills». Это комплекс неспециализированных, важных для карьеры навыков, отвечающих за успешное участие в рабочем процессе.

Коммуникативность – это способность к общению, умение наладить с окружающими контакт, производить на людей нужное впечатление. В процессе обучения деятельность педагога должна быть направлена на развитие умений доступно и интересно излагать свои мысли, уверенно выступать перед аудиторией.

Кооперация – это умение работать в команде. Умение слушать и находить точки соприкосновения. Готовность оказать помощь другим и поддержать в сложной ситуации.

Креативность – это одно из самых востребованных качеств в современном мире. Креативный человек способен находить нестандартные, совершенно новые решения знакомых ситуаций, умеет придумывать и воплощать в жизнь новые идеи.

Критическое мышление – это умение анализировать и оценивать, а также рефлексировать. Это наблюдательность и умение обосновать свою точку зрения, способность применять аналитические навыки в разных ситуациях.

Все эти умения важны не только в учёбе, но и на работе, и в жизни. Именно готовность педагога учиться на протяжении всей жизни сможет обеспечить ему плодотворную карьеру и поможет оставаться востребованной личностью.

На данном этапе развития системы образования школе нужен педагог, который владеет креативным мышлением, умеющий самостоятельно решать нестандартные ситуации. Способность педагога творить, исследовать, проектировать зависит от мотивации и интереса к профессии. Профессионально компетентным можно назвать педагога, который на высоком уровне осуществляет педагогическую деятельность, достигает определенных результатов в обучении и воспитании учащихся. И конечно же,

одной из важнейших составляющих профессиональной компетенции – это способность педагога самостоятельно приобретать новые знания и умения.

Развитие профессиональной компетенции – это динамичный процесс усвоения и модернизации профессионального опыта, предполагающий непрерывное развитие и самосовершенствование.

Уровень профессиональной деятельности педагога определяется его педагогическим мастерством. Педагогическое мастерство – это деятельность педагога на уровне образцов и эталонов. Опыт показывает, что одним из эффективных средств развития профессионализма педагога является его участие в коллективном, групповом или самостоятельном индивидуальном труде по разработке программ, методических рекомендаций и др. Разработка таких материалов требует не просто создания продукта, но, прежде всего глубокого изучения учебно-методической литературы, дополнительных источников информации, в том числе Интернет-ресурсов.

Ещё один эффективный способ развития профессиональной компетенции педагога – это его участие в работе районных, городских творческих групп. Цель таких групп - профессиональное развитие педагога. Работа творческих групп выражается в проведении обучающих семинаров, проведении мастер-классов и вебинаров для коллег.

Повышение квалификации педагогических работников также является важным фактором развития профессиональных компетенций педагогов. Необходимо отметить, что ещё одной актуальной компетенцией, которой должен обладать педагог 21 века – это компьютерная грамотность. Современное образование предполагает использование различных педагогических технологий, в том числе и информационных. Информационные технологии должны быть использованы для улучшения профессионального взаимодействия и непрерывного профессионального развития.

Чтобы добиться положительных результатов, педагогу необходимо постоянно анализировать свою работу, выделять достоинства и недостатки своей деятельности, формировать в себе постоянное профессиональное и личностное развитие. Только работая над собой и развивая вышеуказанные навыки современного мира, можно мотивировать учащихся к учению.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING AHAMIYATI

R.B.Baxadirova
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, ta’lim sifatini oshirish va undan ko‘zlangan maqsad, maktabgacha ta’lim sohasidagi yangiliklar va “Ilk qadam” o‘quv dasturi haqida ma’lumot berilgan.

Аннотация. Приведены изменения в сфере дошкольного образования, повышение качества образования и его цели, новости в сфере дошкольного образования и образовательной программы «Первый шаг».

Abstract. Changes in the field of pre-school education, improvement of the quality of education and its goals, news in the field of pre-school education and "First Step" educational program are given.

Hozirgi kunda xalq ta’limi o‘ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o‘ziga xoslik, eng avvalo, ta’lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya’ni o‘zimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o‘z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan jarayonda yosh avlodni o‘qitish davr talabiga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, ta’lim tizimida maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tibor va talab kundan kunga oshib va jadal sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Barkamol avlodni, sog‘lom fikrlovchi shaxsni shakllantirishimiz uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda yangicha ijodiy yondashuvni shakllantirishimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.07.2022-yildagi PQ-322 sonli “Maktabgacha ta’lim sohasidagi Davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori sohaga tegishli har bir shaxsga nisbatan ma’lum vazifalarni belgiladi. Bu qarorga muvofiq davlat xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, sohaga xususiy sektorni jalb qilish hamda mazkur faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab -quvvatlash maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirishni rejalashtirdi:

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshlar oralig‘idagi tarbiyalanuvchilarni bepul bir yillik ta’lim olishiga jalb qilish;

-maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qamrovini kengaytirish;

-xususiy va sherikchilik maktabgacha ta’lim tashkilotlarini sonini ortishi;

-o‘quv mashg‘ulotlarini xorij texnologiyalari asosida olib borish;

-bog‘chalarga inklyuziv ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarni qamrab olish.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga, albatta, erishamiz”,-deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga muvofiq;

-maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni intelektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

-bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash, sohada davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish;

-maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

-maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

-maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarini joriy etish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan taminlash.

“Ilk qadam” o‘quv dasturi-O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim muassasalarining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatining asosiy g‘oyalarini ifodalagan, shuningdek, bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetentsiyalarini belgilaydi.

Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston hududidagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, nodavlar va sherikchilik asosida ochilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llanishi majburiy hisoblanadi.

“Ilk qadam” o‘quv dasturi bolalarni sifatli bilim olishiga qaratilgan bo‘lib, nafaqat tarbiyalanivchilarni, balki pedagoglarni ham maqsadlarini ham o‘z ichiga oladi. “Ilk qadam” o‘quv dasturi bolalar uchun rag‘batlantiruvchi o‘qish sharoitini yaratish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, bolada “Men” tushunchasini shaklantirishga, bolalarning ichki iste’dodlarini yuzaga chiqarishga yordam berdi.

Hozirgi kunga mamlakatimizdagi xoh davlat, xoh xususiy, xoh sherikchilik bog‘chalalariga nazar solsak, jihozlardan tortib barcha kerakli sharoitlar yaratilgan. Bolalar yangi unib chiqqan niholga o‘xshaydi, biz ularni qaysi tarafga yo‘naltirsak, usha tarafga qarab o‘sadi. Biz maktabgacha ta’limni rivojlantirishda, eng avvolo, tizim shaffofligini yo‘lga qo‘yishimiz zarur, qolaversa, pedagog kadrlarni ko‘paytirishimiz va ularni pedagogik va psixologik mahoratini oshirishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganimizda, tarbiyalanuvchilar, tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishimiz zarur. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadimiz bolalarimizni har tomonlama jismioniy, aqliy, estetik, ma’naviy, madaniy jihatdan tarbiyalab kelajakda yetuk shaxslar bo‘lib yetishishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston ”, 2016 – 56 b.

2.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 08.05.2019 yildagi PQ -4312 sonli qarori.

3.M.Quronov Milliy tarbiya. – Toshkent: “Ma’naviyat” 2007-yil, 46-bet.

P5BL МОҲИЯТИ ВА ТАЪЛИМ АМАЛИЁТИГА АЛГОРИТМЛИ ЁНДАШУВ

Г.Ш.Файзуллаева
доцент, Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази

Аннотация. Мақолада бугунги кунда амалиётга кириб келаётган хорижий илғор тажрибалардан бири, таълим самарадорлигини таъминлашга, унинг босқичма-босқич интеграцияланишига хизмат қилувчи P5BL замонавий ёндашувининг мазмун-моҳияти ёритилган.

Калит сўзлар: таълим, асосланган ўқитиш, тузилма, моҳият, мазмун.

Ҳозирда рақобатбардош кадрларга нисбатан ижтимоий буюртма талабларининг ошиши таълим беришнинг глобаллашуви шароитини вужудга келтиради. Бу эса ўқитувчилар зиммасига юкланиш кўпайишига ва мажбуриятларнинг ортишига олиб келмоқда. Бундай ҳолат педагог ходимларнинг фаолиятини нафақат самарали ташкиллаштириш, балки мустақил касбий ривожланиш ва ўз даражасини узлуксиз такомиллаштириш зарурлигини талаб қилади. Кўпгина ривожланган давлатларда, жумладан, ҳозирда республикамизда ҳам илғор тажрибаларни ўрганиш, оммалаштириш, таълим, педагогика, психология ва ўқитиш методикаси олдида турган вазифаларни бажаришда натижадорликка йўналтириш асосида ҳаракатланиш муҳим омил, деб қаралмоқда. Таълим сифатига эришиш учун ижобий самарага эга деб тан олинган турли ёндашувларни тажрибада синаб кўришга эҳтиёж сезилмоқда. Жараённи тўлиқ қамраб олишга мўлжалланган ана шундай ёндашувлардан бири – P5BL технологиясидир.

P5BL ёндашуви – узоқ давом этадиган, аввало, ўқитувчини узлуксиз ривожлантириш, унинг ғояларини амалий фаолиятга тезкор сингдириш ҳамда натижадорлигига эришиш бўйича мавжуд муаммони аниқлаш ва аниқланган муаммо доирасида унинг ечимига олиб борувчи лойиҳа яратиш, уни қадам-бақадам амалга оширишда турли чора-тадбирларни, метод ҳамда технологияларни қўллашни ўзида қамраб олганқуйидаги 5 та босқичдан иборат ўқув моделини акс эттиради (1-расм):

1-расм. P5BLўқув моделининг таркибий компонентлари

Муаммога асосланган ўқитиш (Problem-Based Learning) – бу муаммони ҳал қилишни тушуниш учун иш жараёнининг натижасидир. Муаммо ўқув жараёнининг биринчи элементи. PBL жараёнининг диққат марказида муаммони ҳал қилиш эмас, балки белгиланган ечимларнинг мавжудлиги ва у бошқа кўникмалар, хусусиятларни ривожлантиришдаги аҳамиятлилиги бўлади. У сценарий доирасида аниқланган муаммолардан билим ва тушунчани ошириш учун фойдаланадиган жараён. Ёндашув нафақат янги билим, кўникма ва малакалар(БКМ)ни шакллантиришга, балки уларни метабилимлар билан бирлаштиришга ёрдам беради.

Лойиҳага асосланган ўқитиш (Project-Based Learning) энг муҳим таълим моделларидан бири бўлиб, жараён иштирокчисининг БКМни ривожлантиришда асосий рол ўйнайди, кичик доиралардан тортиб, ташкилотлар даражасидаги ҳамкорлик ва ҳамжамият ҳиссини яратади. Шунингдек, таълим олувчи мақсадларни белгилашни ўрганиш; мустақиллик ва интизом, музокаралар олиб бориш ҳамда кузатиш учун масъулиятни ўз зиммасига олиш; чуқурроқ билим олишни давом эттириш, янги ғояларни ривожлантириш ва кўп тармоқли алоқаларни мустаҳкамлаш; эпчиллик ва педагогик маҳорат каби зарурий сифатларга эга бўлади.

Шахсга йўналтирилган ўқитиш (People-Based Learning) – P5BL жамоавий иш натижасида мақсадга эришилиши кўзланган ёндашувдир. Марказда шахс ва унинг индивидуал-психологик хусусиятларини инобатга олиш муҳим бўлган ушбу технологияда ўз қобилиятини бошқариш, фанни такомиллаштиришда ички имкониятларини юзага чиқариш, ўзгаришларни ҳис қилиш, касбларо кўмаклашув, жамоавий ишда ҳамкорлик, билимлар алмашинуви, хизмат кўрсатишни ўрганиш кабилар назарда тутилади.

Жараёнга асосланган ўқитиш ёки таълим – Process-Based Learning. Тадқиқотчилар ўқув фаолияти давомида ушбу ёндашувни қўллаш белгиланган мақсад ҳамда вазифаларни бажаришда, муаммо ечимига боришда амалга ошириладиган чора-тадбирларнинг узлуксизлигини таъминловчи стратегия эканлигини таъкидлашади. Шу билан бирга илмий жараён кўникмаларини қўллаш ва ўлчаш, фанни соддалаштириш орқали эгаллашни, мазмунлиликни оширади, доимий масъулиятни ҳис қилиш, кузатиш, таснифлаш, таҳлил қилиш, башорат қилиш қобилиятларини ривожлантиради.

Натижага асосланган ўқитиш – Product-Based Learning. Қўшимча билимларни шакллантиришга қаратилган бундай ёндашувда муаммонинг аниқлиги ва жамоанинг ҳамкорликдаги ҳаракати муҳим рол ўйнайди. Ганефрининг таъкидлашича, маҳсулотга асосланган таълим – бу ўқувчини ўқитувчи томонидан ўқув жараёнига фаол жалб этиш учун муайян қийматдаги маҳсулот ишлаб чиқариш компетенциясига йўналтириш натижасида амалга ошириладиган тартиб ёки қадамлар сифатида аниқланади. Демак,

ёндашувда ечилаётган муаммо доирасида жамоавий ишни ташкил этиш нимани кашф қилиши мумкинлиги, етиб борадиган манзил ёки эгалланган компетентлик унинг маҳсулоти сифатида англашилади.

P5BLмодели таълим муассасаси, амалиётчилар ва турли фанлардан талабаларни бирлаштириш, жамоавий муҳитни яратиш маданиятини шакллантиришга қаратилган бўлиб, иштирокчиларнинг ҳар бири лойиҳани амалга оширишда муҳим рол ўйнайди. Олимларнинг фикрича, P5BL модели билан “талаба” жамоаси ва ўқитувчи ўртасидаги ўзаро таъсир натижасида ўқув жараёнини ривожлантириш ҳамда когнитив жараёнларни намоён қилиш осонлашади. Лойиҳага йўналтирилган кўп тармоқли алоқадорлик пайдо бўлади ва нафақат бир жамоа, балки бир нечта жамоа ўртасида ҳамкорлик муҳити оқибатида назариячилар амалиётчилар жамоасига айланади[13], яъники ўрганилаётган ва кўзланган ҳар бир муаммонинг самарадорлигига ишлашга ўтилади. Халқ таълими тизимида ўқитувчиларни узлуксиз касбий ривожлантиришнинг P5BL ёндашувини фаоллаштириш кўпгина муаммоларга ечим топилишига замин яратади.

Хулоса сифатида қуйидагиларни таъкидламоқчимиз:

- P5BL ўқув модели комплекс ёндашув бўлиб, ўз ичида турли метод ва технологияларни бирлаштиради;
- ёндашувнинг муваффақияти – бошқарувчи маҳорати, танланган муаммо ва лойиҳани амалга оширишдаги тартиб билан узлуксиз қўйиб бориладиган қатъиятли қадамларга боғлиқ;
- P5BL ёндашувини нафақат ўқитувчини ўз-ўзини ривожлантириш амалиётида қўллаш, балки таълим тизимида жорий этиш натижадорликни кафолатлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ибрагимов А.А. (2022). Ўқитувчиларнинг касбий билимларини ривожлантиришда муаммога асосланган ўқитиш ёндашувининг имкониятлари. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 120-125.

2. Электрон ресурс: https://www.ualberta.ca/rehabilitation/media-library/faculty-site/research/bsa/person-and-practice-based-learning-1411120.pdf.

3. Aksela, M. &Haatainen, O. (2019). Project-Based Learning (PBL) in practice: Ac teachers’ views of its' advantages and challenges. https://www.researchgate.net/publication/333868087.

4. Fruchter, R. (1998). *Roles of Computing in P5BL: Problem-, Project-, product-, process-, and People-based Learning, Artificial Intelligence for Engineering-Design, Analysis and Manufacturing*, Cambridge University Press. 65- 67.

5. Ganefri, G. (2013). The Development of Production-Based Learning Approach to Entrepreneurial Spirit for Engineering Students. *Journal Asian Social. Science*; Vol. 9, No. 12; 2013. ISSN 1911-2017 E-ISSN 1911-2025.

6. Samuel, K.; Libata, I. &Sabitu, A. (2018). Efficacy of Process-Based Instruction, In Enhancing Secondary School Students’ Academic Performance and Science Skills Acquisition, In Identification of Cations, In Faskari, Katsina State-Nigeria. Issues and Ideas in Education, 6(1), 87–97.

MAKTABLARDA TA'LIMNI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

E.U.Xudoyberdiyev
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsepsiya va strategiya, samaradorlik, ta'limni boshqarish tushunchalariga aniqlik kiritilgan. Strategiyaning belgilanishida konsepsiyaning ahamiyati, maktablarda ta'limni boshqarish strategiyasini belgilashga ta'sir etuvchi muhim omillar xususida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, strategiyani belgilashda SMART maqsad qo'ya olish xususiyati, SMART mezonlarning ahamiyati, undan foydalanishning o'ziga xos jihatlari misollar bilan bayon etilgan. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda rahbar liderligi, jamoa salohiyati, ulardagi iroda kuchi, ichki va tashqi motivatsiyaning o'rni haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'z va iboralar. Konsepsiya, strategiya, samaradorlik, ehtiyoj, ta'limni boshqarish, strategik baholash, strategik rejalashtirish, strategik harakat, strategik natija, SMART maqsad, SMART mezonlar, liderlik, iroda kuchi, motivatsiya.

Maktab ta'limi sifatini rivojlantirishda boshqaruvning ahamiyati muhim ekanligi xalqaro hamjamiyat va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan doim e'tibor qaratiladi. Ta'limi rivojlangan mamlakatlarda maktab direktori davlatning umumiy ta'lim strategiyasidan kelib chiqib, mustaqil holda jamoa bilan birgalikda sifat samaradorligini oshirishga va maktabning imidjini ko'tarishga xizmat qiladigan strategiyani belgilab olishini hamda shu asosida boshqaruvni amalga oshirishini kuzatish mumkin. Bu esa boshqaruvning samarali bo'lishida strategiyaning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Maktab ta'limi sifatini oshirishda maktab direktorining o'rni, boshqaruv strategiyasining ahamiyati haqida 2022-yil 21-noyabr kuni Toshkent shahrida BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Bolalar jamg'armasi (UNICEF) tashabbusi bilan Xalq ta'limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va Ta'lim bo'yicha global hamkorlik fondi (Global Partnership in Education, GPE) birgalikda o'tkazgan Mahalliy ta'lim guruhining ikkinchi uchrashuvida ham alohida ta'kidlandi.

Bugungi kunda insoniyat o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda ta'limning naqadar muhim ekanligini yanada chuqurroq anglab yetdi. Davlat va jamiyatlar dunyodagi o'z o'rnini inson resurslarisiz saqlab qolish yoki mustahkamlash mumkin emasligini tushungan holda ta'lim sifatini oshirishga va ko'proq samaradorlikka erishishga katta e'tibor qaratishmoqda.

Bizga ma'lumki, inson manfaatsiz, ya'ni biror narsaga ehtiyoji bo'lmasa harakat qilmaydi. Shu o'rinda "Ehtiyoj – bu insonning biron-bir kamchilikni fiziologik va psixologik his qilishi, taqdirlash esa inson o'zi uchun qadrli deb hisoblagan barcha narsani his qilish demakdir. Anglab yetilgan ehtiyojlar harakatga undaydi. Odamlarning faoliyati bilan erishiladigan ehtiyojlarning yig'indisi boshqaruv metodlarining iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik singari motivatsion yo'nalishlarini belgilab beradi" [19; 92]. Demak, insonni biror bir faoliyatga undovchi motivatsiya bu ehtiyojdir. Insonlarning mehnat bozori talablariga mos kadr va o'zligini anglagan shaxs bo'lishga intilishi sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Ushbu ehtiyojlarni qondirish ta'lim muassasalaridan samarali faoliyat yuritishni, shuningdek, har bir ta'lim muassasasidan davlat ta'lim standartlarini bajarish, jamiyat va bozor ehtiyojlarini qondirish uchun sifat samaradorligini ta'minlash talab etilmoqda. Bu talabni boshqaruvdagi samaradorlik orqali amalga oshirish mumkin.

Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovning ta'kidlashicha, samaradorlik haqida gapirganda unumdorlik tushunchasini ham yodda tutish zarur. Har qanday faoliyat ozmi-ko'pmi unumli bo'ladi. Unumdorlik – bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir. Boshqaruv

sifatini baholashda mavjud sharoitlardan (moddiy-texnik baza, infratuzilma va h.) unumli foydalanishni inobatga olish kerakligi ta'kidlanadi. Ya'ni boshqaruv imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo'lishi aytiladi. Biz bu vaziyatda boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunishimiz kerak [19; 101-102]. Xullas, boshqaruv samaradorligi deb mavjud sharoit va imkoniyatlardan maksimal foydalanishni tushunish maqsadga muvofiq. Bizningcha, ta'lim sifatini boshqarishda samaradorlikka erishishning eng maqbul yo'li har tomonlama puxta ishlab chiqilgan strategiyadir.

R.X.Djurayev va S.T.Turg'unovlarning ta'kidlashicha, "Strategiya (strategos) grekcha so'z bo'lib, "general san'ati" degan ma'noni anglatadi. ...Strategiya bugungi kunda biror bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxona yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash va faoliyatni oldindan rejalashtirish, bajariladigan vazifalarning yo'nalishini aniqlash, shuningdek, maqsadga erishishda natijalarni oldindan aniqlash va nazorat qilish yo'nalishida keng qo'llanmoqda" [18; 119]. Handiyning fikriga ko'ra, biz oldindan aytib bo'lmaydigan dunyoga duch kelamiz, unda yagona ishonch noaniqlikdir [7]. Bunday muhit rejalashtirishga yondashuvni talab qiladi, u o'zgarmas, tashqaridan qo'yilgan maqsadlar to'plamiga emas, balki muzokaralar olib borilgan va umumiy qadriyatlardan kelib chiqadigan qisqa muddatli bir qator maqsadlar bo'yicha kelishuvga erishishga asoslanishi mumkin [4]. "Rejalashtirishga bunday yondashuv muvaffaqiyatli bo'lishi uchun maktab ichida asosiy qadriyatlar va umumiy qabul qilinadigan vositalar to'g'risida kelishuvga ega bo'lish kerak, ular an'anaviy ierarxik boshqaruv modeliga asoslanmagan, qoidaga bog'liq bo'lmagan moslashuvchan hamda bir-biridan ajratilish xususiyatiga ega fuksiyalarni o'z ichiga qamrab olishiga urg'u berish muhim" [5; 13]. Biz ham maktab ta'limida boshqaruv strategiyasini ushbu xususiyatlarni inobga olgan holda qo'llash tarofdorimiz. Chunki dunyodagi globallashuv, ijtimoiy va iqtisodiy tendensiyalarning tez o'zgarishi natijasida insonlarning ehtiyojlari ham shunga mos tarzda o'zgarib turadi. O'zgaruvchan ehtiyojlarni qondirish uchun esa ta'limni boshqarish strategiyasining moslashuvchanligi va qadriyatlarni inobatga olishi katta ahamiyatga ega.

"Ta'limni boshqarish – bu ta'lim tizimini boshqarish, bunda guruh, inson va moddiy resurslarni birlashtirib, ta'lim tizimini amalga oshirish uchun tuzilmalarni nazorat qilish, rejalashtirish, strategiya qilish va amalga oshirish" [2][6]. "Ta'lim - bu bilim, ko'nikma, qadriyatlar, e'tiqodlar, odatlar va munosabatlarni o'rganish tajribasi bilan jihozlashdir. Ta'lim tizimi davlat vazirliklari, kasaba uyushmalari, nizomlar, idoralar va maktablar kabi ta'lim muassasalaridagi mutaxassislarning ekotizimidir. Ta'lim tizimi siyosiy rahbarlar, direktorlar, o'qituvchilar tarkibi, o'qituvchi bo'lmagan xodimlar, ma'muriy xodimlar va boshqa ta'lim sohasi mutaxassislaridan iborat bo'lib, ularni boyitish va takomillashtirishda hamkorlik qiladi" [1][3].

Ta'limni boshqarish strategiyasi samarali ishlashi uchun ushbu strategiyani faqat maktab direktori emas, balki butun maktab jamoasi hamkorlikda ishlab chiqishi zarur. Aks holda jamoa bu strategiyani o'ziniki deb hisoblamaydi va belgilangan vazifalarni sitqidildan bajarmaydi. Shuningdek, strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. R.X.Djurayev va S.T.Turg'unovlarga ko'ra, "Strategik rejalashtirish ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish..." [18;120]. "Strategik rejalashtirishda biz belgilamoqchi bo'lgan kelajak, avvalambor, manfaatdor ta'lim hamkorlarining turli tarmoqlari kelishuvi orqali belgilanishi kerak. Keyinchalik, bunday kelajakni rejalashtirish uchun o'quv tizimi ishlab chiqilishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tegishli ta'lim tizimi va siyosatining tasviri bu bosqichda ta'minlanishi kerak, so'ngra ketma-ket texnik tahlil va o'zgartirish orqali kelishuvga erishiladi, chunki har qanday ta'limdagi eng muhim strategik boshqaruv muvaffaqiyatining asosiy omili insondir" [8;2]. Shunday ekan,

inson resurlarini boshqarishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan davlat va jamiyatlar konsepsiyasi ta'lim muassasalarida, jumladan, maktablarda ta'limni boshqarish strategiyasini belgilab beradi.

"Global transformatsiya – Rossiya loyihasi" da konsepsiya (lotincha "conceptio" – "tushunish tizimi" bo'lib):

o'zaro bog'langan va yagona tizimni tashkil etuvchi biror narsaga qarashlar majmui;

har qanday hodisani tushunish, izohlashning ma'lum bir usuli; ularni yoritishda asosiy nuqtai nazar, yetakchi g'oya;

hodisalarga – dunyoda, tabiatda, jamiyatda qarashlar tizimi;

yetakchi g'oya, konstruktiv tamoyil - ilmiy, badiiy, texnik, siyosiy va boshqa faoliyat turlarida muammoni hal qilish usullari tizimi;

har qanday hodisani tushunish, farqlash va izohlash, faqat unga xos bo'lgan mulohazalar va xulosalarni yaratish usuli" [17; 42] ekanligi ta'kidlangan bo'lsa, V.S.Styopina tomonidan 4 jildda tahrirlangan "Yangi falsafiy entsiklopediya"da "...talqinlar to'qnashuvi jarayonida ma'nolarni tushunish va anglash harakatini yoki ularning natijasini turli tushunchalar bilan ifodalash..." [20] deb izoh berilgan. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasining birinchi jildida "Konsepsiya (lot. "conceptio" – majmua, tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar..." [9] sifatida ta'riflangan. Ushbu ta'riflar asosida ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan yondashib, ta'lim konsepsiyasi – ta'lim sifati va muhitini yaxshilash uchun xizmat qiladigan barcha omillar, nazariyalar, g'oyalar, davlat hamda jamiyat ehtiyojlari majmuasi bo'lib, davlatning ta'lim siyotini amalga oshiruvchi va boshqaruv strategasini belgilab beruvchi yetakchi g'oya ekanligiga diqqatimizni qaratdik. Konsepsiyani amalga oshirishda strategiya zaruriy vosita ekanligini ham nazardan qochirmasligimiz zarur. Bu haqda yuqorida ham ta'kidlagan edik. Chunki bu ikki tushuncha bir-birining qo'llab-quvvatlovi bilan natijalarni ma'lum bir obyektda aks ettiradi. Natijaning ijobiy yoki salbiy bo'lishi konsepsiya va strategiyaning o'zaro mosligi hamda puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq.

Ta'lim ekotizimining barcha darajalarida boshqaruv talab etiladi; boshqaruv institutini rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, ko'rib chiqish, baholash va integratsiyani o'z ichiga oladi. Agar biz maktab ta'limi boshqaruvida konsepsiya asosida strategiyani to'g'ri belgilab olmas ekanmiz, yaxshi ta'lim muhitini yarata olmaymiz, bu esa o'z-o'zidan ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir qiladi.

Ta'lim sifati – bu ta'lim jarayonining jamiyatdagi holati va natijadorligini, uning shaxsning fuqarolik, turmush va kasb sohalaridagi bilimdonligini rivojlantirishda jamiyat (turli ijtimoiy guruhlar) ehtiyojlari va kutgan natijalariga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya demakdir. [19; 102]

Sifat o'z-o'zidan taminlanib qolmaydi. Sifatga erishish uchun, avvalo, uni rejalashtirish kerak. Sifat ta'lim muassasasi strategiyasining asosiy ko'rsatgichi hisoblanadi, shuningdek, o'z o'rnida strategik rejalashtirish ham ta'lim sifatini boshqarish tizimidagi eng asosiy omillardan biridir. Sifatga esa strategik rejalashtirishsiz erishish mumkin emas. Maktablarda ta'lim sifatini rejalashtirish uzoq muddatli muhim maqsadlarni belgilab olish bilan bog'liq hodisadir. Puxta ishlab chiqiligan strategiya muvaffaqiyatning belgisidir. Chunki o'z strategiyasiga ega maktab oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida uzoq bir necha besh yoki o'ng yilda qanday xavf-xatar va imkoniyatlar mavjudligini ko'zgudagidek ko'rib turadi. Shu asosda maqsadi yo'lidagi harakatini bosqichma-bosqich amalga oshiririb boradi. Shuning uchun strategik rejalashtirish uzoq muddatli ustuvor vazifalarga e'tibor qaratish imkonini beradi, ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga ko'maklashadi. Maktablar o'zining strategiyasiga ega bo'lmay turib, kelajakdagi imkoniyatlari haqida va ulardan qanday samarali foydalanish mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo'la olmaydi. "Strategik rejalashtirishning yetakchi maqsadlari ta'lim muassasasini rivojlantirishning muayyan vaqt oralig'iga mo'ljallangan umumiy dasturini ishlab chiqish bilangina emas, balki ushbu ta'lim muassasasi ko'rsatadigan ta'lim xizmatlarining eng muhim yo'nalishlarini, shuningdek, bu yo'nalishning iste'molchilar ehtiyojiga nechog'li mosligini tushunib olish va ularni qayta ko'rib chiqish bilan belgilanadi" [19; 112].

Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirishga oid islohatlar amalga oshirilmoqda va islohatlar negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi", "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" kabi bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda davlatlatning ta'lim siyosati va strategiyasi belgilangan bo'ladi. Respublikadagi har bir maktab shu asosida o'z strategiyasi ishlab chiqishi va amalga oshirishi bugunning dolzarb masalasidir. Biz diqqatimizni qaratmoqchi bo'lgan asosiy muammo ham xuddi shu joyda ko'zga tashlanadi. Kuzatishlarimiz natijasida shu xulosaga keldikki, maktablarning ko'pchiligida o'zlarining ta'limni boshqarish strategiyasi mavjud emas. Ushbu holatning sabablarini o'rganganimizda maktablar darajasida ta'limni strategiya asosida boshqarish an'anaga aylanmaganligi, shuningdek, strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur ekanligi ma'lum bo'ldi. Maktab rahbarlari va pedagog xodimlarining ta'kidlashicha, hatto yo'l xaritasi va chora-tadbirlar rejasini tuzishda ham muammolarga duch kelishadi. Ularning ko'pchiligida strategiyani qanday qilib belgilash haqida aniq tasavvur yo'q. Shu sababli maktablarda ta'limni boshqarish uchun strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirishga yordam beradigan yangicha yondashuvga asoslangan usul, metod hamda mexanizmlardan foydalanishga zarurat sezilmoqda. Bu esa mavjud mexanizmlarni takomillashtirish kerakligini anglatadi.

Tanya Sammut-Bonnuchi strategik harakatlarni amalga oshirishda to'rtta bosqichni sanab o'tadi: strategik baholash, strategik faoliyatni rejalashtirish, strategik faoliaytni amalga oshirish, strategik faoliyat natijalari. U strategik boshqaruv jarayonini ichki va tashqi muhitni baholashdan boshlash kerakligiga alohida urg'u beradi va baholashni SWOT tahlili (zaif, kuchli jihatlar va tahdidlarni aniqlab olish)ning bir qismi ekanligini ta'kidlaydi. Baholash natijalari asosida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, undan keyin strategiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Strategiyani amalga oshirish bosqichida rahbardan yetakchilik, jamoadan fidoiylik talab qilinadi. Shundan keyin samarali natijaga erishish mumkin [14].

Les Bell ham Bonnuchi kabi strategik rajlashtirishda holatni baholab olish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ammo u muhim bir jihatga e'tibor qaratadi, ya'ni holatlarni baholash va taqqoslash jarayonida maktab ko'rsatgichlarini maktablararo bir-biri bilan taqqoslashdan ko'ra maktab ichidagi farqlarga ko'proq e'tibor berish kerakligiga urg'u beradi [5].

Fikrimizcha, Les Bell strategiyani belgilashda maktab ichidagi farqlarni, ya'ni yutuq va kamchiliklarni aniqlab olib, shu asosida faoliyatni rejalashtirish zarurligini ta'kidlamoqchi. Ayrim tadqiqotlarda esa ta'limni takomillashtirish strategiyasi samarali o'qitish amaliyotini takomillashtirishning asosiy strategiyasi sifatida qaralishi kerakligi va ayni paytda strategik boshqaruv xavfli boshqaruv ekanligiga e'tibor qaratilgan [16]. Albatta, maktablardagi ta'limni boshqarish strategiyasi sifat samaradorligiga xizmat qilishi zarur. Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlar [19] ning tadqiqotlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Strategik boshqaruvning xavfli boshqaruv ekanligi haqidagi xulosa strategiyani belgilashda noto'g'ri tahlil va baholash, rejani aniq va puxta tuzmaslik natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlardan kelib chiqqan. Ushbu kamchiliklarga qurilgan har qanday strategiya ta'lim muassasasining muvaffaqiyatsizligiga sababchi bo'lishi aniq. Yana bir xavfli jihat shundaki, strategiyani faqat rahbarlar ishlab chiqib, qolgan jamoa a'zolari ishtirok etmasa va uni o'ziniki deb his qilmasa ham strategiya amalga oshmay qolishi mumkin. Chunki jamoa o'zniki deb bilmagan strategiyani amalga oshirish uchun o'zida mas'uliyat sezmaydi hamda samaradorlikka erishilmaydi. Maktab boshqaruvida ko'p hollarda rahbar qarorlarni mustaqil chiqarishga odatlangan. Bunga asosiy sabab rahbarning o'zi yoki tor doirada qaror chiqarishi u uchun qulay bo'lsa, boshqa tomondan o'qituvchilarning ko'pchilik qismi maktab taqdiriga ta'sir qiladigan mustaqil fikrlarini bildirishga jur'at topisha olmaydi yoki bildiradigan fikrlarining o'zi bo'lmaydi.

Mohd Faizning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar maktabda strategik boshqaruv va strategik rejalashtirishning ahamiyatini tushunishmaydi. Shuningdek, strategik

boshqaruv o‘qituvchilardan doimiy shaxsiy va kasbiy rivojlanishni talab qilidi hamda jiddiy mas’uliyat bilan ishlashni taqozo qiladi [15]. Ushbu tadqiqot natijalari kuzatuvlarimiz asosida chiqargan xulosalarimizga mos keladi va maktab rahbarlari hamda jamoasi uchun ta’limni boshqarish strategiyasini belgilashda qulay, tushunarli, aniqlikka asoslangan mexanizm zarur ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Yuqorida bir necha tadqiqotlarda keltirilgan strategiyani belgilashga oid ilmiy asoslar va tavsiyalarni ko‘rib chiqdik. Strategiya ma’lum bir maqsadga erishish yo‘llarini oldindan rejalashtirish ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, SMART maqsad qo‘yish orqali, SMART mezonlar va SMART modeli asosida strategiyani belgilash ta’limni boshqarish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Chunki bu model maqsadni qanday tanlash kerak, uni amalga oshirishda nima qilish kerak va natijaga erishilganligini qanday bilish mumkin degan savollarga javob beradi.

Maktab o‘zining ta’limni boshqarish strategiyasini belgilab olmoqchi. Bunday vaziyatda maktab rahbari va jamoasi oldida qanday qilib bir vaqtning o‘zida davlat ta’lim standarti hamda ta’lim muassasasi ustavida belgilangan vazifalardan ortib katta maqsadlarni amalga oshirish (standartdan yuqori bo‘lgan samaradorlikka erishish) mumkin degan savolga duch kelishadi. Avvalo, ular tushunishi kerakki, o‘z oldiga SMART maqsadlar qo‘yishni bilsagina muvaffaqiyatga erisha oladi. Chunki fikrni tartibga keltirish, urinishlarga diqqat qaratish, vaqt va mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda ko‘zlagan narsalarga erishish imkoniyatiga aynan SMART maqsadlar orqali ega bo‘lish mumkin.

SMART – inglizcha qisqartma so‘z bo‘lib, “aqlli”, “dono”, “topqir” kabi ma’nolarni anglatadi.

SMART maqsadlar va uning mezonlari Peter Drukerning keng tarqalgan “Maqsadlar bo‘yicha boshqarish” konsepsiyasi bilan bog‘liq. Ushbu atama dastavval 1981-yilning noyabr oyida Jorj T. Doranning “Boshqaruv sharhi” nashrida ishlatilgan. Shundan so‘ng professor Robert S. Rubin (Saint-Luis universiteti) SMART haqida “Sanoat va boshqaruv psixologiyasi jamiyati” uchun yozilgan maqolada qayd etgan. Uning ta’kidlashicha, SMART turli insonlar uchun turlicha ma’nolarni anglatadi.

SMART qisqartma so‘z bo‘lganligi uchun mohiyatini tushunishda uni yoyib, har bir so‘zning ma’nosiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. SMARTning kengaytmasidan quyidagi ma’nolar kelib chiqadi va maqsadlarga erishish mumkinligiga ishonch hosil qilish, ya’ni strategiyani belgilashda ijobiy natijaga erish uchun ularning har biriga diqqat qilamiz:

Specific – Aniq (sodda, tushunarli, ahamiyatli).

Measurable – O‘lchab bo‘ladigan (mazmunli, rag‘batlantiruvchi).

Achievable – Erishib bo‘ladigan (kelishilgan, yetishsa bo‘ladigan).

Relevant – Mos, tegishli (oqilona, real va manbali, natijalarga asoslangan).

Time bound – Chegaralangan (vaqtga bog‘liq, ma’lum vaqt bilan cheklangan, vaqt chegaralangan, o‘z vaqtida).

Shuningdek, Professor Rubin SMART atamasining ta’rifi samaradorlik va fikr-mulohazalarning ahamiyatini aks ettirishi uchun yangilanishga muhtoj bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. SMART me’zonlarining yangilanishlarni inkor etmasligi strategiyaning moslashuvchan bo‘lishiga imkon beradi. Demak, strategiya yuqoridagi me’zonlarga mos bo‘lganda, uni amalga oshirish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Aytish mumkinki, maktablarning ta’limni boshqarish strategiyasi SMART bo‘lishi uchun amalga oshirili kerak bo‘lgan maqsad va vazifalari aniq, hamma uchun tushunarli, ma’lum bir o‘lchovlar bilan o‘lchab bo‘ladigan, erishsa bo‘ladigan, maktabning faoliyat yo‘nalishiga mos keladigan, belgilangan muddatda amalga oshirish munkin bo‘lishi kerak.

Shu talablardan kelib chiqib har bir me’zonga alohida to‘xtalib o‘tamiz hamda strategiyani aniq va puxta belgilashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz:

1. Aniq. Strategiya uchun tanlangan maqsadlar sodda va aniq bo‘lishi lozim, shundagina butun jamoa nimani amalga oshirish kerakligini his qilib, ko‘rib, bilib turadi. Erishilishi kerak

bo‘lgan natija tasavvurda yaqqol gavdalanadi. Strategiyaning xomaki nusxasini tayyorlash mobaynida ushbu besh savolga javob izlashga harakat qilish lozim:

Nimaga erishmoqchimiz?

Nega aynan shu maqsadga yetishmoqchimiz?

Bu jarayonning ishtirokchilari kimlar?

U qayerda joylashgan?

Qanday resurs va cheklovlar mavjud?

Misol. Maktablarning strategiyasi ta’lim sifati samaradorligiga erishish va bu orqali o‘zi uchun zamon talablariga mos ta’lim-tarbiya beradigan maktab imidjini yaratish.

2. O‘lchab bo‘ladigan. Maqsad yo‘lida to‘xtamasdan harakatlanish va motivatsiyani yo‘qotib qo‘ymaslik uchun tanlangan maqsad biror bir o‘lchov bilan o‘lchanadigan bo‘lishi muhim. Harakatlar natijasini baholash diqqatni jamlashga, o‘rnatilgan sanadan og‘ishmaslikka va maqsadga yaqinlashib borish zavqini tuyushingizga ko‘maklashadi. O‘lchab bo‘ladigan maqsadlar shunga o‘xshash savollarga javob berish orqali shakllanadi:

Qancha?

Qanday?

Nechta?

Maqsadga erishganimni qanday bilaman?

Misol. Maqsadga erishish uchun esa bir qancha vazifalarni bajarish kerak. Aytaylik, strategiyaga ushbu vazifalar kiritildi: 5 yil ichida respublika reytingdagi kuchli yigirmata maktablar qatoridan joy olish, 3 yil ichida pedagog xodimlarning 60 foizini oliy toifali o‘qituvchilar qatoriga kiritish va 20 foizining xorijda malakasini oshirish, 4 yil ichida xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilarni tashqi attestatsiyadan o‘tkazish hamda 60 foizining ijobiy natijaga erishishini ta’minlash, 3 yil ichida 3 nafar o‘quvchining xalqaro, 10 nafar o‘quvchining mahalliy olimpiadalarda sovrindor bo‘lishiga erishish, 5 yil ichida budjetdan tashqari ishlab topilgan mablag‘lar miqdorini 30 foizga oshirish va h. Ushbu vazifalar bajarilsa, ta’lim sifati samaradorligiga ham erishiladi. Eng muhimi ushbu maqsad va vazifalar yuqoridagi savollarga javob berish orqali tanlanlab olinishi muhim. Shundagina strategiyaning o‘lchovi mavjud bo‘ladi.

3. Erishsa bo‘ladigan. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u real va erishsa bo‘ladigan bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, u maktab jamoasining qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishi bilan birgalikda uni amalga oshirishning iloji bo‘lishi kerak. Erishish mumkin bo‘lgan strategiya belgilanganda, unga yanada yaqinlashtiruvchi oldin ahamiyat berilmagan imkoniyatlar va resurslarni aniqlab olish zarur. Erishsa bo‘ladigan strategiya odatda shu kabi savollarga javob beradi:

Bu maqsadni qanday amalga oshirishim mumkin?

Boshqa cheklovlar, misol uchun ijtimoiy, siyosiy, moliyaviy jihatdan ushbu strategiya qanchalik real?

Misol. Ta’lim sifati samaradorligiga erishish uchun zarur bo‘ladigan imkoniyat va resusrlar talabga javob beradimi? To‘siqlarni bartaraf etish mumkinmi? Bunga maktabning salohiyati yetadimi? Agar yetmasa nima qilish kerak? kabi savollarga javob topish kerak bo‘ladi. Misol uchun, yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun imkoniyat va vaqt yetarlimi? Buning uchun kerakli manbalar bormi? Buni uddalash mumkinmi?

4. Mos. Bu bosqichda strategiya maktab uchun ahamiyatli ekanligi va boshqa reja, vazifalarga hamohang bo‘lishiga ishionch hosil qilish kerak. Strategiyani amalga oshirishda maktab rahbariyati qo‘llab-quvvatlash va ko‘makka muhtojlik sezadi, ammo bular ustidan javobgarlikni ham o‘z bo‘yniga olishi muhim. Mos maqsadlar ushbu savollarga “ha” deya oladi:

Harakat qilishga arziydimi?

Shu narsa hozir kerakmi?

Bu maktabning boshqa urinishlariga, ehtiyojlari bilan mosmi?

Shu maqsadga yetishishga mosmi?

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan mos keladimi?

Misol. Ta'lim sifati samaradorligi dunyo hamjamiyati, shuningdek, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarga to'liq mos keladi. Hozirgi islohatlar maktab ta'limini zamon talablari darajasiga ko'tarishga qaratilgan. Shunday ekan ushbu ushbu strategiya yuqoridagi savollarga "ha" deya oladi.

5. Muddatli. Strategiya muddatga ega bo'lishi kerak. Ushbu mezon strategiya doirasida uzoq muddatli belgilangan vazifalardan kundalik vazifalar ustuvor bo'lib qolishining oldini olishga yordam beradi. Strategiyani belgilashda odatda quyidagi savollarga javob berish lozim.

Qachon?

Besh yil ichida nima qila olaman?

Bir yil ichida nima qila olaman?

Olti oy oralig'ida nima qila olaman?

Bir oy ichidachi?

Bir hafta ichidachi?

Bugun nima qila olaman?

Misol. Ta'lim sifati samaradorligiga erishish uchun belgilangan yuqoridagi vazifalarning bajarilish muddatiga qat'iy amal qilish talab qilinadi. Ushbu vazifa doirasida bugun nima ish qilinganligi juda muhim. Agar bugun biron-bir ish bajarilmasdan kundalik ishlar bilan shug'ullanilsa, natija uzoqlashib boraveradi.

SMART mezonlari asosida strategiyani belgilash – g'alaba qozonish uchun o'ta muhim. Geil Metyus tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maqsadlarni shunchaki boshda saqlashdan ko'ra, ularni yozib olish yutuqlarga erishda muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu sabali strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan bajarilishi kerak bo'lgan va bajarilgan ishlarni yozib borish muvaffaqiyatga erishishda juda muhim. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasining (APA) ma'lumotlariga qaraganda, tadqiqotlar maqsadlarga yetishishda uch omil mavjudligini bildiradi:

O'zgarish uchun motivatsiya

Xatti-harakatni kuzatishga ishtiyoq

Uni amalga oshirish uchun iroda kuchi

Maqsadlar samarali ishlashi uchun ko'zlangan maqsad yoki motivatsiyani yuzaga keltirayotgan sababni topish kerak.

Insonda motivatsiya 2 xil bo'ladi:

1. Ichki motivatsiya.
2. Tashqi motivatsiya.

Belgilangan strategiyani amalga oshirishda maktab jamoasiga iroda kuchi va motivatsiya eng kerakli qurol. Bugungi kunda xalq ta'limiga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilyapti, pedagog xodimlarning maqomi oshirilyapti, ishlashi uchun yaxshi sharoitlar yaratib berilmoqda. Xalq ta'limi tizimi jozibadorligini oshirish uchun ko'plab islohatlar amalga oshirilyapti. Shuningdek, maktab rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirishlar tashqi motivatsiya hisoblanadi. Ammo tizimda faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlar o'z kasbini ich-ichidan yaxshi ko'rmasa, shu kasbni hayotining mazmuni deb bilmasa o'zi ham muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi, ta'limni ham rivojlantira olmaydi. Shu sababli har qanday holatda muvaffaqiyatga erishish uchun ichki motivatsiya juda muhim. Maktablarning ta'limni boshqarish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ham, avvalo, maktab jamoa a'zolarining ichki motivatsiyaga ega ekanligi, keyin maktab rahbariyatining ularni motivatsiyalashi zaruriy omil hisoblanadi.

Demak, maktablarning ta'limni boshqarish strategiyasi SMART mezonlari asosida belgilanishi 50 foiz muvaffaqiyatni kafolatlaydi. Qolgan 50 foizi esa maktab rahbarining liderligi, jamoaning salohiyati va boshqa omillarga bog'liq. Shuningdek, salohiyatli jamoa iroda kuchi hamda motivatsiya ega bo'lsa, belgilangan maqsadga yetish yanada osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Educational Administration”. www.rand.org. Retrieved 2018-11-09.
2. “Master of Arts (Educational Management) National Institute of Education (NIE), Singapore**”**. *www.nie.edu.sg*. Retrieved 2018-10-18.
3. “What Is Educational Management?”. Retrieved 2018-10-17.
4. Bell L. (1999), .Back to the Future, the development of education policy in England., The Journal of Educational Administration, vol. 37, nos. 3 & 4, pp.200. 228.
5. Bell L. (2002), Strategic Planning and School Management: full of sound and fury, signifying nothing?, The Journal of Educational Administration, pp 13. DOI: 10.1108/09578230210440276
6. Connolly, Michael; James, Chris; Fertig, Michael (2017-12-20). “The difference between educational management and educational leadership and the importance of educational responsibility”. Educational Management Administration & Leadership. 47 (4): 504 *–519.* doi*:*10.1177/1741143217745880**.** ISSN 1741-1432**.** S2CID 148809630**.**
7. Handy C. The Empty Raincoat; Making sense of the future, London, Arrow Business Books. 1995.
8. Mohd Faiz Mohd Yaakob, Akhmad Habibi, Muhammad Rushydi Musa, Roskifzan Othman (2019), Strategic management and strategic planning in school: Is it worth for teachers?, Academy of Strategic Management Journal · January 2019, pp 2.
9. O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi. Birinchi jild. - T.: 2000.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, - T.: 2019.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni, - T.: 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”, - T.: 2022.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, - T.: 2022.
14. Sammut-Bonnici T. Strategik menejment. Wiley Encyclopedia of Management - Vol 6 International Management, 2015. DOI: 10.1002/9781118785317.weom060194).
15. Yaakob M.F.M., Habibi A., Musa M.R., Othman R. Strategic management and strategic planning in school: is it worth for teachers? Article in Academy of Strategic Management Journal. January 2019.
16. Yureva O.Y., Yureva O.V., & Burganova L.A. (2016). Strategic management in higher education system: Methodological approaches. Academy of Strategic Management Journal, 15(2).
17. Глобальная трансформация - Русский проект**.** — Internal Predictor USSR. - 42 с. - ISBN 9785906265012**.** Архивная копия от 23 июля 2016 на Wayback Machine.
18. Джурфев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Тошкент; “Ворис-Нашриёт”, 2006, 119 б.
19. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Т.: “Турон-Иқбол”: 2006. – 92 б.)
20. Новая философская энциклопедия: В 4 тт. М.: Мысль. Под редакцией В. С. Стёпина. 2001.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GAP BO‘LAKLARINI O‘RGANISHDA TUSHUNCHALAR TAHLILI METODIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

N.Sh.Mamatkulova
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tushuncha,og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘qish savodxonligi, matn.*

Bugungi kunda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikri aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim sanaladi. O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalar yaratuvchanligini shakllantirish hamda rivojlantirish davr talabidir. Chunki ijodiy fikrlash ― yangi bilimlar, innovatsion g‘oyalar tug‘ilishining asosi hisoblanadi.

Gapning bosh bo‘laklarini kuzatish bilan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Gapni o‘rganish me’yoriga qarab uning tarkibiy qismlari,xususan, so‘z birikmasi haqidagi tasavvuri aniqlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, butun o‘quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma’lum tinish belgilari qo‘yilishi haqida amaliy ma’lumotlar beriladi.

Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni ajratishga o‘rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo‘laklarni o‘rganishga muqaddima bo‘ladi. O‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘rganishga o‘tadilar. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta’rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Gapda so‘zlarning bog‘lanishiga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo‘laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so‘z (hokim va tobe so‘z)ni, so‘zlarning grammatik jihatdan, ya’ni qo‘shimchalar orqali bog‘lanishini bilib oladilar.

Shunday qilib, o‘quvchilarda gap bo‘laklari haqidagi tasavvurni o‘stirish gapni o‘zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gap bo‘laklarini ikkita katta guruhga(bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga) bo‘linishini o‘zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo‘laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o‘zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo‘laklar esa bosh bo‘laklarni aniqlovchilik va to‘ldiruvchilik vazifasini bajaradi. Ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyatini ochish uchun o‘quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo‘lagiga bog‘lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo‘laklarni xususiyatlari gapni yoyish (yig‘iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, o‘quvchilar *„Qaldirg‘ochlar uchib keldi“* gapini yozadilar. Fikrni to‘liq ifodalash uchun gapga *qayerga?* va *qachon?*so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni qo‘yish topshiriladi. O‘quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo‘lagi (ikkinchi darajali bo‘lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar. O‘quvchilarda gapda so‘zlarning bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko‘nikmalar qatoriga kiradi.

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Ushbu uslub o‘tilgan (chorak yoki o‘quv yili tugagan) o‘quv predmeti yoki bo‘lim barcha mavzularini o‘quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish orqali o‘z bilimlarini tekshirib,

baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan. Masalan, *„Daraxtlar gullaydi"* gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi.

— Daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qaysi so‘zni qo‘shish kerak?

— Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi)

— Bu so‘z gapning qaysi bo‘lagi bo‘ladi? (Ikkinchi darajali bo‘lak)

— U gapning qaysi bo‘lagiga bog‘lanadi, ya’ni tobelanadi? (Kesimga bog‘lanadi)

— Gapga egani izohlaydigan yana bitta so‘z qo‘ying. Qanday gap hosil bo‘ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

Tushunchalar	**Mazmuni**
Daraxtlar	Ega
Gullaydi	Kesim
Mevali, bahorda	Ikkinchi darajali bo‘lak
O‘quvchi	
O‘qidi	
Kitobni	
Qiziqarli	

Mashg‘ulotni o‘tish tartibi: o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. O‘quvchilar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi. O‘quvchilar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materiallarda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar. O‘quvchilar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida (tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday) izoh yozadilar. O‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi. Har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqini aniqlaydilar. Kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

O‘qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to‘liq amalga oshsin. Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni so‘rash va mustahkamlash paytida interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning darsga qiziqishlarini oshiradi. Motiv hosil bo‘lgach, dars davomida o‘quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o‘rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirih muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv-bilish foliyatlarini tashkil etishda interfaol metodlarga ko‘proq e'tibor berishi o‘quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari. Toshkent, 2017. https://lex.uz/docs/-3153714.

2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi loyihasi. Ona tili, 2020. – 165 b.

3. Matchonov S. va boshqalar. 4-sinf O‘qish kitobi. Toshkent: “Yangiyo‘l polygraph service”, 2020. –160 b.

XORIJIY ILG‘OR TAJRIBALARNI O‘RGANISH ASOSIDA MILLIY TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

L.A.Sultonova
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. Xalqaro baholash tajribalarini o‘rganish asosida O‘zbekiston maktablarida ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha fikrlar bildirilgan. Shuningdek, Amerika, Singapur, Janubiy Koreya kabi ilg‘or mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari keltirilib, xalqaro tadqiqot dasturlarining mazmun-mohiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, ta’lim mazmuni, ta’lim tizimi, innovatsion ta’lim, o‘qitish metodikasi, zamonaviy jamiyat, raqobatbardosh kadr.

Аннотация. На основе изучения международного опыта оценивания были высказаны мнения о развитии системы образования в школах Узбекистана. Он также подчеркивает специфику системы образования в развитых странах, таких как США, Сингапур и Южная Корея, а также содержание международных исследовательских программ.

Ключевые слова: международные программы оценивания, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, содержание образования, система образования, инновационное образование, методы обучения, современное общество, конкурентоспособные кадры.

Abstract. Based on the study of international experience in assessment, opinions were expressed on the development of the education system in schools in Uzbekistan. It also highlights the specificity of the education system in developed countries such as the United States, Singapore and South Korea, as well as the content of international research programs.

Keywords: International assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, educational content, education system, innovative education, teaching methods, modern society, competitive personnel.

KIRISH

Bugun davlat va jamiyatning olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish maqsadida mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, tajribali mutaxassislarga bo‘lgan talabi kun sayin oshib bormoqda. Shak-shubha yo‘qki, bunday raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida ta’lim tizimining roli beqiyos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy ta’lim tizimini yuqori bosqichlarga olib chiqish uchun aksariyat chet davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”da uzluksiz ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jahon ta’lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pog‘onalarga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston 2030-yilda PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi reytingida birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-sentabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorining qabul qilinishi va qarorga ko‘ra PIRLS,TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro

tadqiqotlarni tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilanganligi, ularda ishtirok etish, ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda zamonaviy xalqaro baholash dasturlarining talablari va metodologiyasini hisobga olish samarali yo'l ekanligini ta'kidlash joizdir [7] .

MUHOKAMA

Shunday ekan, mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishda qanday afzalliklar bor?

Birinchidan, tadqiqotlarning natijalari yurtimiz ta'lim sifatini va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ikkinchidan, milliy ta'lim tizimini yuqori bosqichlarga olib chiqish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarni jahon talablariga mos ravishda yangilashda qo'llaniladi. Uchinchidan, xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarning sifat darajasini ko'tarishga yordam beradi. To'rtinchidan, mahalliy mutaxassislarimizda xalqaro baholash va monitoring tadqiqotlarini o'tkazish bo'yicha ko'nikma shakllanadi. Beshinchidan, milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat maretiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. Oltinchidan esa jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega, kreativ fikrlay oladigan, raqobatbardosh, barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda, PISA (o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring), TALIS (o'qitish va o'rganish xalqaro tadqiqoti) singari bir qator dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

PIRLS - (The Progress in International Reading Literacy Study) 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan dasturdir. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TIMSS - (The Trends in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4-sinfi va tayanch maktabning 8-sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

TALIS - (Teaching and Learning International Survey) turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan.

PISA - (Programme for International Student Assesment) turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Bu dastur 1997-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, har uch yilda o'tkaziladi. Dastlab ushbu dasturdan 2000-yilda foydalanilgan.

PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoring 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

Bular: tabiiy-ilmiy savodxonlik, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, moliyaviy savodxonlik va kompyuter savodxonligi.

Xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqotni quyidagi vositalar yordamida amalga oshiradi:

- O'quv topshiriqlaridan iborat test to'plami.
- O'quvchilar uchun o'zi tahsil olayotgan ta'lim muassasasi haqida anketa savollari.
- Maktab rahbarlari uchun o'zi pedagogik faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasi haqida anketa savollari.
- Test va anketa savollarini o'tkazayotgan rahbar uchun anketa savollari.
- Ta'limni boshqarish organlari xodimlari uchun anketa savollari.

➢ Test topshiriqlarini tayyorlash va olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish yuzasidan ko‘rsatmalar.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta’lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, ta’lim sifatini orttirishni talab etadi.

2015-yilda o‘tkazilgan PISA tadqiqot natijalariga ko‘ra, Singapur har uch toifada (o‘qish savodxonligi yo‘nalishi, matematik savodxonlik yo‘nalishi va tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishi) birinchi o‘rinni egallaydi [8]. Shuningdek, Janubiy Koreya, Yaponiya, Estoniya kabi mamlakatlarni ham yuqori o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, bu mamlakatlarning ta’lim tizimida asosan qanday jihatlarga e’tibor beriladi?

Singapur ta’lim tizimi dunyodagi eng yosh tizimlardan biri va ayni paytda deyarli eng samaralisi hisoblanadi. Bu yerda boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, bolalar olti yoshdan maktabga qabul qilinadi va maktab ta’limi boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflarga bo‘linadi. Tizim shaxsiy fazilatlarni har tomonlama rivojlantirish tamoyiliga, maktabda ham, undan tashqarida ham rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi. O‘quvchilarga yondashuv qat’iy, lekin ayni paytda individualdir. Maktab har bir bolaga iste’dodlarni aniqlash va rivojlantirishga yordam berishga intiladi. O‘qitish metodikasi va o‘quvchilarning rivojlanishidagi farqni ikkita eng yaxshi maktabda ko‘rish mumkin: Angliya-Xitoy maktabi va Raffles maktabi.

Bular Singapurda eng namunali maktablar deb topilgan. Ularga hamma kirishga intiladi. Lekin bu maktablarda ta’lim osmon bilan yer kabi farq qiladi. Raffles maktabi an’anaviy ravishda vazirlar, hukumat amaldorlari, turli tashkilotlarning xodimlari va bo‘lajak olimlarni tarbiyalaydi. Angliya-Xitoy maktabi eng yaxshi bankirlar, ishbilarmonlar va tadbirkorlarni yetishtiradi. Bu maktabda o‘ylash va ijodkorlikka e’tibor qaratiladi. Singapurdagi eng yaxshi shifokorlar, huquqshunoslar, bank xodimlari – bu maktab bitiruvchilaridir. Ammo nafaqat bu ikkita maktab o‘quvchilari, balki Singapur bitiruvchilarining aksariyati yuqori ball bilan maktabni tamomlaydilar.

Bizga ma’lumki, Singapur – ta’lim sohasida yetakchi davlat. Bu ko‘p jihatdan oilalarga bog‘liqdir. Maktabdan so‘ng, bolalar juda ko‘p qo‘shimcha mashg‘ulotlarga borishadi. O‘quvchilar orasida raqobat ham juda yuqori. Davlat universitetlariga o‘qishga kirish oson emas, chunki ular unchalik ko‘p emas. Davlat universitetiga kira olmaydiganlar xususiy universitetlarga yoki chet elga borishadi. Lekin qoida tariqasida, hamma qaytib keladi, chunki Singapurda shtat bolaligidanoq xizmat motivini bolalarga singdiradi. Davlat mamlakat hududida iqtisodiy o‘sish, farovon yashash uchun barcha sharoitlar, imkoniyatlar yaratishga harakat qiladi. Shu bois u fuqarolardan mamlakat ravnaqiga hissa qo‘shish istagini kutadi.

Singapurda o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchilar tayyorlanadigan bitta pedagogik universitet bor. Shuning uchun bu yerda ajablanarli darajada katta raqobat bor. Universitetni tamomlagan talabalar nafaqat yaxshi bilim va bahoga ega bo‘lishlari kerak, shuningdek, ular insonning shaxsiy fazilatlari o‘qituvchilik faoliyatiga qanday mos kelishini ko‘rsatadigan testlardan ham o‘tishlariga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra universitet bir yilda atigi 70 nafar talabani qabul qilishga tayyor. Talaba pedagogika oliygohiga kirishi bilan Ta’lim vazirligining xodimi bo‘ladi va vazirlik bilan abadiy bog‘lab qo‘yiladi. Uning mavqeyi, barcha to‘lovlari, qo‘llab-quvvatlashlariga ega bo‘ladi.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish har hafta o‘tkaziladi. Maktabning butun jamoasi zalga yig‘iladi, vazirlik xodimi yoki boshqa mutaxassislar kelib, har qanday mavzuda treninglar o‘tkazadilar. Bu treninglar bepul o‘tkaziladi. Bu vaqtda bolalar jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishadi, o‘qituvchilar bir necha soat o‘qishadi va keyin darslarini o‘rgatish uchun qaytib kelishadi.

Shuningdek, Janubiy Koreyaning ta’lim tizimidagi tajribani o‘rganish ham muhim hisoblanadi. Bu yerda o‘quvchilarning qiziqishini rag‘batlantirish uchun maktablarda fakultativlar joriy qilingan. Bu mamlakat konstitutsiyasiga muvofiq, boshlang‘ich va o‘rta maktab (1-9-sinflar) har bir fuqaro uchun majburiy bo‘lib, ta’lim mazmuni o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatiladi. Talabaning kelajakda kerakli bilimlarni egallash qobiliyatiga rahbarlik qilib, u estetik,

vatanparvarlik va milliy g‘oyaga hurmat ruhida, mustaqil va erkin fikrlaydigan, mas’uliyatni anglagan holda tarbiyalanadi.

Janubiy Koreya hukumati 2009-2011-yillar uchun milliy o‘quv dasturini qayta ko‘rib chiqdi, u mamlakatning milliy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirildi va asta-sekin amaliyotga joriy etildi.

Yaxshilangan o‘quv dasturi umumiy va ixtiyoriy qismdan iborat bo‘lib, 1-9-sinflarni to‘rt guruhga bo‘ladigan baholash tizimi ham joriy qilingan: 1-guruh - 1-2-sinflar, 2-guruh - 3-4-sinflar, 3-guruh - 5- 6 -sinflar, 4 -guruh - 7-9 -sinflar. Bu yondashuv o‘quv dasturini bir yildan ortiq emas, balki bir necha yil davomida ishlab chiqish imkonini beradi, ya’ni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, bu ularning ta’lim natijalarini to‘g‘rilashga zamin yaratadi.

Amerika dunyodagi eng yirik ta’lim tizimlaridan biriga ega. AQSh ta’lim tizimi turli ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etiladi, bu yerda o‘quvchilar yoshi, maqsadlari va qobiliyatlariga qarab turli darajadagi ta’lim olishlari mumkin. AQSh maktablarining 88% davlat tasarrufida bo‘lib, qolgan 12% xususiy maktab-internatlarga (ularning soni 2000 ga yaqin) va diniy maktablarga bo‘linadi. Amerika qo‘shma shtatlardagi xususiy maktablar jahon ta’limining yuqori standartini ta’minlovchi nufuzli ta’lim muassasalari sifatida e’tirof etiladi. Amerikada o‘qish 5 yoshdan boshlanib, 18 yoshgacha davom etadi. Boshlang‘ich maktabda o‘qitiladigan fanlarning chuqur o‘rganishga va uyga beriladigan vazifalarning murakkablik darajasi bog‘liq holda iqtidorli va o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar uchun alohida sinflar mavjud. Uchinchi sinfdan boshlab har bir bola maxsus imtihonlar topshiradi va ularning natijalariga ko‘ra ta’lim berishda o‘qituvchilar ma’lum bir fanlarga e’tiborlarini qaratadilar. O‘rta maktabda majburiy fanlarga matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar (shu jumladan, jahon tarixi) va jismoniy tarbiya fanlari kiritilgan. 8-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘qiydigan fanlarini mustaqil tanlashlari mumkin.

AQSH ta’limida yuqori darajadagi raqobat o‘ziga xos jihat hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishni talab qiladi.

NATIJALAR

Mazkur tahlillarga ko‘ra yuqorida ta’kidlangan mamlakatlar va O‘zbekiston maktablarining o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, ular o‘quvchilarni katta miqdordagi umumiy fanlar bilan zo‘riqtirmaydilar. Eng boshidan boshlab bolaga asosiy fanlar beriladi, ular atrofida ta’lim tashkil qilinadi. Bu mamlakatlarda ota-onalar bolaning test savollariga to‘g‘ri javob berishi va ma’lumotlarni yodlab olishi yetarli emas deb hisoblaydi va maktabda oladigan bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy jamiyat va biznes talablariga javob berishini xohlaydi.

XULOSA

Yuqorida ta’kidlangan fikrlardan xulosa shuki, bugun bolaning samarali muloqot qila olish, jamoada ishlash, o‘rganilayotgan masalaga tanqidiy va ijodiy munosabat bildira olish hamda kamida bitta chet tilda yuqori darajada muloqot qilish qobilyati qadrlanmoqda. Xorijiy tajribalar esa o‘quvchilarda aynan shu ko‘nikmalarni shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgandir. Xalqaro baholash tadqiqotlari materiallarida ham aynan shu ko‘nikmalarni aniqlashga e’tibor berilgan.

Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yoshlarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta’lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko‘rsatib beradi va milliy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. г. Ташкент, 29 апреля 2019 г., № УП-5712.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi “2017-2018 o‘quv yilida ta’lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to‘g‘risida”gi 299-sonli buyrug‘i.

3. Measuring student knowledge and skills. Ó OECD, 1999.
4. The PISA 2003 Assessment framework-Mathematics, Reading, Science and Problem Solving, Knowledge and Skills. OECD.
5. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018.
6. Ковалева Г.С., Э.А.Красновский Примеры открытых заданий по чтению PISA–2000, Центр оценки качества образования ИСРО РАО, 2003.
7. https://www.lex.uz
8. http://www.oecd.org/pisa/

O‘QITUVCHILARNING DARSLARNI LOYIHALASHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

G.B.Izzomidinova
Samarqand shahar 5-maktab informatika o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab matematika o‘qituvchilarini darslarini loyihalashda interfaol va o‘yin texnologiyalarini qo‘llash kompetentligini takomillashtirish haqida.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, interfaol, pedagogik texnologiya, o‘yin texnologiyasi, loyihalash.

Zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta’limning yangi usullarini, shaxsning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yangi pedagogik texnologiyalarni, ijodiy tashabbusni, o‘quvchilarning axborot sohalarida mustaqil navigatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun universal qobiliyatni shakllantirishni talab qiladi. O‘quv mashg‘ulotining metodik rivojlanishi amaliy yo‘naltirilgan yo‘nalishga ega bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar o‘z kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi va chuqurlashadi.

Ta’limini modernizatsiya qilish, o‘qituvchining shaxsni o‘z-o‘zini anglashga qaratilishi, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda yangi imkoniyatlar yaratish o‘qituvchining doimiy kasbiy o‘zini-o‘zi yaxshilashini talab qiladi. Ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanishining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni modernizatsiya qilish butun axborot almashinuviga, ishlatilayotgan kompyuter texnikasi hajmining va interfaol o‘quv qo‘llanmalarining kengayishiga, barcha maktablarni multimediali vositalaridan keng foydalanishga olib keldi.

Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta’lim usullarinigina qo‘llashni maqsad qilgan bo‘lsa, hal etib bo‘lmaydi. Maqsadga erishishning eng to‘g‘ri yo‘li, bu dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Ta’lim muassasalarida matematika fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

- o‘yinli texnologiyalar;

- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Bu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘qituvchilarining yo‘nalishlarini hisobga olib, malaka oshirish jarayoni modullarini o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinishi: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi.

Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Bu uch faoliyatni mujassamlashtirgan kompyuter o‘yinlaridan foydalanish bilan dars jarayonini yaxshi o‘zlashtirilishi, dars samaradorligiga erishish bir muncha osonlashishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab matematika fani o‘qituvchilari darslarni loyihalashda an’anaviy shakllarga nisbatan, interfaol usulda ta’lim texnologiyalarini to‘g‘ri tanlash hamda unumli foydalanish natijasida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri o‘zgaradi: o‘qituvchining faoliyati o‘quvchilarning faol faoliyatiga yo‘l ochadi bunda o‘qituvchining vazifasi ularning tashabbusi uchun darsda yetarli shart-sharoitlarni yaratishdir.

Matematika darslarida ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish davomida o‘quvchilarda:

tanqidiy fikrlashni;
kerakli vaziyatda qaror qabul qilishni;
vaziyatni tahlil qilishni;
o‘zaro do‘stona muloqot o‘rnatishni shakllantirishga yozdam beradi.

O‘quvchi o‘quv jarayonining to‘liq ishtirokchisi, uning tajribasi bo‘ladi bu ta'lim bilimining asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi tayyor bilim bermaydi, lekin ishtirokchilarni mustaqil izlanishga undaydi va yordamchisi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куликова Е.С. Квест - технология как современная интерактивная педагогическая технология в образовательном процессе. Всероссийская научно-практическая конференция «Современные образовательные технологии и педагогические инновации как инструмент управления качеством образования» 2018 г. (265-269 стр.).

2. Осяк, С.А. Образовательный квест – современная интерактивная технология [электронный курс]

3. Научный интернет-журнал «Мир науки» 2016, Том 4, номер 5 (сентябрь-октябрь)

4. Журнал «Современные проблемы науки и образования». – 2015.№1
(часть 2).

5. Косолапова М.А. Технологические подходы в организации профессиональной подготовки к педагогической деятельности в высшей школе /Косолапова М.А.; Томский гос. пед. ун-т. – Томск, 2007. – 177 с. – Библиогр. : с. 104 – 110. Деп. В ИНИОН РАН № 60426.

O‘QUVCHI YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘LLASHNING TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLI

Z.Sh.Pardayev - Samarqand VPYMO‘MM
E.Z.Haydarova - Samarqand shahar 49-maktab O‘IBDO‘

Annotatsiya. Yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish barcha davrlarda mamlakatning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu haqda buyuk mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Navoiylar qator hikmatlarni meros qilib qoldirishgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu maqolada o‘quvchi yoshlarni

kasb-hunarga o‘rgatishning bugungi ahvoli, tarixi va istiqboli qadriyat sifatida o‘rganiladi.

Аннотация. Учить молодое поколение ремеслу было самой актуальной проблемой страны во все времена. Об этом свои ценные мысли оставляли в наследство Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Фараби, Алишер Навои. Особое внимание уделяется этому вопросу и в Национальной программе по подготовке кадров. В данной статье изучается современное состояние, история и развитие направления обучения молодёжи ремеслу как ценность.

Abstract. Creating a sphere to direct young generation to profession is one of the actual tasks in the country. Our great thinkers, A.R.Beruni, Ibn Sino, Farobi, Navoi pointed about it as a wise inheritance. The issue is taken into consideration as a significant question in National training program. The article shows opportunities, present situation, history and bright future in directing young generation to profession.

Tayanch so‘zlar: kasb, mutaxassislik, kasbiy mahorat, kasbning kelajagi, kasbga yo‘naltirish, kaslar olami, kasbiy ta’lim va tarbiya.

Ключевые слова: профессия, специальность, профессионализм, будущее профессии, профориентация, мир профессий, профессиональное образование и воспитание.

Keywords: profession, specialty, professionalism, the future of the profession, career guidance, the world of professions, vocational education and upbringing.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratilgan qator qonun va qarorlar ishlab chiqilib, qabul qilingan va ular shu sohani rivojlantirish uchun dastur bo‘lib xizmat qilmoqda. Qilinayotgan ishlardan ko‘zda tutilgan maqsad, shubhasiz, ta’lim tizimini tubdan yangilash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirish, mamlakatimizda fan-texnika taraqqiyotiga erishish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, o‘z xalqini farovonlik sari eltuvchi rahbar kadrlarni tayyorlash, o‘z kasbini sevuvchi ishchi-xodimlarni voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu masalalarning ijobiy hal etilishi respublikamiz ta’lim-tarbiya, fan-texnika sohasining rivoji, ijtimoiy-sotsial turmush tarzining yaxshilanishi, siyosiy-iqtisodiy salmog‘ining yuksalinishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi kasbiy targ‘ibot va tashviqotni o‘z ichiga olgan kasbiy ma’rifat (kasbiy axborot); u yoki bu soha, kasbga bo‘lgan shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual (yakka tartibda), guruhiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy maslahatlar, ko‘proq muvofaqqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan kasbni tanlab olishga qaratilgan kasbiy tanlov, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o‘rganish jarayonida burch, mas’uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o‘quvchilarda shakllantirishga qaratilgan. Undan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, kasb klasifikasiyasi, kasblar professiogrammasi, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to‘g‘risidagi axborotlarni berishdan iborat bo‘lib, ular asosida o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasbni tanlaydi.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqida: «…bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz» - deya ta’kidlab o‘tgan edilar. Yurtboshimiz tomonidan aytilgan ushbu fikrlar nechog‘lik haqiqat ekanligini, mustaqillik yillarida orttirgan tajribalarimiz va jahon ta’lim tizimidan o‘rganilgan ma’lumotlar isbotlab turibdi.

Biroq, bugungi kunda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qish-o‘qitish va ta’lim-tarbiya jarayoni qanday ahvolda? Bu dargohlarda bilim olgan «bitiruvchi» yoshlar oliy o‘quv yurtlariga kirib, talaba bo‘lish arafasida biror kasbga nisbatan ongli qiziqishlarini namoyon qila olishmoqdami? Oliy o‘quv yurtlariga kirib o‘qiyotgan talabalarning necha foizi

shu sohaga qiziqib: - «Men kelajakda, albatta, shu kasb egasi bo‘laman!» - deb qat’iy ayta oladilar.

TDPU tadqiqotchisi Sirojiddin Shirmatov xalq ta’limi jurnalining 2009-yil 5-sonida (61-bet) chop ettirgan «O‘qituvchi faoliyatida pedagogik muloqot madaniyati» nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirgan: «O‘qituvchining pedagogik mahorati mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o‘tkir dunyoqarashi, ma’naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati har qanday dars va darsdan tashqari ta’lim tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta’minlovchi va o‘qituvchi muloqotini tashkil etuvchi omildir» [2].

S.Shirmatov maqolada, o‘qituvchining pedagogik mahorati talabalarni darsga jalb eta olishi, kasbga nisbatan qiziqishini kuchaytirishi mumkinligini aytib o‘tadi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Kimga nimani o‘rgatish, qanday o‘rgatish lozimligini bayon etadi. Tadqiqotchi S.Shirmatov aytib o‘tgan fikrlar juda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida aytilgan. Shubhasiz, yetuk malakali kadrlarni yetishtirishda bilimdon, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati yuqori, teran fikrli ustoz-murabbiylarning o‘rni beqiyos. Ammo oliy o‘quv yurtiga o‘z qat’iyatsizligi, ota-onasining qistovi yoxud boshqalarning qiziqtirishi bilan kirib olgan, shu sohaga ehtiyoj sezmagan, o‘zining qiziqishi va layoqatini namoyon eta olmaydigan yoshlarga qanday qilib ta’lim-tarbiya berish, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin? Bunday hodisalar yuz bermasligi uchun harakatni maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy, o‘rta maxsus, kasb-hunar maktabllarida boshlash kerak emasmikan?

Ta’kidlangan fikrni inobatga olgan holda, biz maktabgacha tarbiya muassasalari va umumta’lim maktablarida yoshlarning kasbiy qiziqishi va layoqatlarini o‘rganishimiz, ana shularga asoslanib, kasb tanlash ishlarini tashkil etishimiz, olib borishimiz, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlab, sohalarga yo‘naltirishimiz zarur. Umumta’lim maktabini bitiruvchi o‘quvchilar qaysi akademik lisey yoki kasb-hunar maktabida o‘qishni davom ettirmoqchi ekanligini aniq bilsinlar. Tanlagan sohasiga qiziqishi, intilishi, ehtiyoji va layoqati bo‘lsin. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: - «(I-IV sinflarda) bilim olish, o‘zlashtirish ehtiyoji, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlar, mehnat ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lish hamda kasb tanlashlar shakllantiriladi» [1] – deb ta’kidlab o‘tilgan. Demak, o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini boshlang‘ich sinfdanoq shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, «…zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash…» [1] maktabgacha tarbiya va umumiy ta’lim rahbariyati zimmasiga bir qator mas’uliyatlarni yuklash ijobiy natijalarga erishishda xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida:

- bolalarning qiziqish va layoqatlarini turli usullar (masalan: aqliy, jismoniy, ko‘ngilochar o‘yinlar va hokazo) yordamida izchil o‘rganib borish;
- ota-onalar bilan doimiy muloqot o‘rnatish va farzandlarining qiziqishlarini yetkazib borish;
- bolalarning qiziqishlarini yakka tartibda va jamoaviy ruhda shakllantirib borish;
- bog‘cha bitiruvchilari haqida batafsil ma’lumotlar (masalan: aqliy-jismoniy imkoniyatlari, kasbiy qiziqish va layoqatlari) ni to‘plash va uni bola o‘qishi mumkin bo‘lgan umumta’lim maktabiga yetkazish va boshqalar.

Umumiy ta’lim maktablari, boshlang‘ich (I-IV) sinflarida:

- bolalarda umummadaniy, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish;
- bilim va o‘zlashtirishga nisbatan ehtiyoj uyg‘otish va uni izchil shakllantirib borish;
- ijodiy fikrlash va atrof-muhitga nisbatan ongli munosabat hamda kasbiy xislatlarni tarkib toptirish;
- o‘quvchilarning qiziqish va layoqatlarini o‘rganib, ularni maktabgacha tarbiya muassasasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar bilan taqqoslash;
- o‘rganilganlar asosida keyingi ta’lim-tarbiyaviy hamda kasbga yo‘naltirish jarayonlarini

tashkil etish va olib borish;

- o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkillashtirish va olib borish;
- ota-onalar bilan hamkorlikda ishlar olib borishni yo‘lga qo‘yish;
- iqtidorli o‘quvchilar bilan yakka tartibdagi mashg‘ulotlar olib borish va boshqalar.

Umumiy ta’lim maktablari, yuqori (V-IX) sinflarida:

- o‘quvchilarning kasbiy qiziqish va layoqatlaridan kelib chiqqan holda turli yo‘nalishdagi fan to‘garaklarini tashkil etish hamda ularga o‘quvchilarni jalb etish;
- soha xodimlari, kasb egalari bilan uchrashuv va suhbatlar tashkil etish;
- kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida ishlab chiqarish va agro korxonalarga ekskursiyalar uyushtirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda kasbiy intilish, qiziqish, layoqat va ehtiyojlarni qat’iy takomillashtirish;
- umumiy ta’lim bitiruvchilarini, ota-onalar bilan maslahatlashgan holda, ularning kasbiy qiziqish va layoqatlarini e’tiborga olib, akademik litsey yoki kasb-hunar maktablariga o‘qish uchun yuborish yoki umumiy o‘rta ta’lim maktablarining X-XI sinflarida o‘qishni davom ettirish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tartib asosida tashkil etilgan kasbga yo‘naltirish ishlari ijobiy natijalarga olib kelishi, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarning yetishib chiqishida alohida ahamiyatga ega.

Kelgusida o‘quvchilarni kasb yo‘llash ishlariga e’tiborni yanada oshirish, yoshlarning kasbni ongli tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga asoslangan mexanizmlarni yaratish va amaliy-pedagog faoliyatda uni qo‘llash lozim. Bunda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish: bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to‘g‘ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo‘yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, o‘zbekiston xalq xo‘jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, predmeti, maqsadi bo‘yicha shajaralanishi, o‘quvchilarni o‘z qiziqish va moyilliklari, o‘z xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘z asab tuzilishi, psixikasi, o‘z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to‘g‘risida ma’lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o‘zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, hududda joylashgan o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlashi; o‘qishni davom ettirish imkoniyatlari, kelgusi mavqeini bilishi asosida tashkil etilib borilishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, har bir yoshda kasb tanlash ehtiyojga aylanishini ta’minlash, ulug‘ mutafakkirimiz Forobiy ta’kidlaganlaridek: “...har bir kishi o‘z ehtiyojiga aylangan kasbda faoliyat olib borishi lozim...”. Bu qoidaga amal qilish haqiqiy, fidoiy, mahoratli kasb egalarining tayyorlanishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997.
2. Xalq ta’limi jurnali. 2009 yil, № 5, 61 bet.

O‘QITUVCHINING KASBIY MAHORATI VA UNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

E.Z.Haydarova - Samarqand shahar 49-maktab O‘IBDO‘
Z.Sh.Pardayev - Samarqand VPYMO‘MM

Annotatsiya. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tajribalarining tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni

to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish har bir mamlakat qatori bizda ham eng dolzarb masalalardan sanaladi. Maqolada ushbu masalaning ta’lim samaradorligidagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация. Формирование в нашей стране нового поколения кадров, подготовленных на основе анализа опыта подготовки кадров и достижений мирового уровня в системе образования, обладающих высокой общей и профессиональной культурой, творческой и общественной активностью, умением самостоятельно ориентироваться в социально-политической жизни, способных выдвигать и решать задачи перспективы. из актуальных вопросов. В статье освещается значение этого вопроса в эффективности обучения.

Abstract. The formation of a new generation of personnel in our country, trained on the basis of the analysis of the experience of training and world-class achievements in the education system, possessing a high general and professional culture, creative and social activity, the ability to navigate independently in socio-political life, able to put forward and solve problems prospects. from topical issues. The article highlights the importance of this issue in the effectiveness of training.

Tayanch so‘zlar: ta’lim sifati, kadrlar tayyorlash, fan-texnika, kadrlar tarbiyasi, kasbiy munosabatlar, ta’lim berish texnologiyasi.

Ключевые слова: сфера образования, подготовка кадров, наука и техника, кадровое воспитание, профессиональные отношения, технология воспитания.

Keywords: the sphere of education, personnel training, science and technology, personnel education, professional relations, technology of education.

Mustaqillik sharofati bilan qator an’analarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldik, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi uchun chin ma’noda, fidoiylik bilan xizmat qiluvchi “milliy kadrlar” tayyorlash tizimini yaratishga erishdik. Bu borada mamlakatimizda ikkita eng muhim hujjat qabul qilingan va ulardan biri “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hisoblanadi. Aynan ushbu hujjatda, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoit muhim ahamiyat kasb etishi yoritib beriladi.

Fan-texnikaning jadal rivoji, bu sohada erishilayottan yutuqlarning benihoyat ko‘pligi, axborot ko‘lamining kengayib borayotganligi pedagog kadrlarning malakaviy darajasiga nisbatan yuqori talablarni qo‘ymoqda. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda o‘qituvchilar mutaxassislik asoslarini puxta o‘zlashtirgan, yangiliklarni o‘z vaqtida anglay oladigan, ayni vaqtda axborotlarning qaysi biridan ko‘proq foydalanish zarur ekanligini his qiladigan bo‘lishlari zarur.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq, keng qamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rin egallaydigan, o‘ta murakkab, og‘ir sinov va qiyinchilikni yengishga qodir, “yangi va zamonaviy sharoitlarda voyaga yetayotgan, eski tuzumning barcha asoratlaridan holi bo‘lgan, o‘z kelajagiga qat’iy ishonadigan, yuksak bilimli, mustaqil fikrlaydigan, barkamol o‘g‘il-qizlar haqli ravishda bizning g‘ururimiz” va kelajagimizdir. Zero, barkamol o‘g‘il-qizlar tarbiyasi yuqori malakali pedagoglar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Uyg‘onish davrining bir qator mutafakkirlari ta’lim-tarbiyada o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari, muhit, sharoitni hisobga olish muhim deb sanab, uni muvaffaqiyat garovi, ta’lim-tarbiyada samaradorlikka erishish, maqsadga yetishning muhim omillari deb bilishgan.

Jumladan, Beruniy o‘qitish vositasi va usullari haqida fikr yuritar ekan, “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirb qo‘ymaslikdir, hadeb bir narsani o‘qiyverish zerikarli bo‘ladi va toqatni toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag‘ishlaydi”, - deydi.

Sharqda “Shayxur rays” (“Olimlar raisi”) unvoni bilan mashhur bo‘lgan al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinoning “Tadbir ulmanozil” asarida bayon etilgan o‘qitish usullari hozirgi davr talim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir: “Bola baquvvat bo‘lib, so‘zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so‘ng u savod o‘rganishga qobil bo‘ladi, shundan so‘ng savodga o‘rgata borish mumkin. Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g‘amxo‘r va dinga ishongan o‘qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo‘ladi. U sog‘lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo‘la oladigan tarbiyachi bo‘lishi kerak”.

Ibn Sino o‘quvchiga bilim berishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va mas’uliyatli burchi masalasiga alohida to‘xtalib, o‘qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o‘rganishi va bilimlarini tekshirib ko‘rishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so‘ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o‘qituvchiga shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi:

– bolalar bilan muomalada bosiq jiddiy bo‘lishi, berilayotgan bilimning o‘quvchilar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berishi;

– ta’limda turli o‘qitish usullari va shakllaridan foydalanishi;

– o‘quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

– fanga qiziqtira olishi;

– berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

– bilimlarni o‘quvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

– har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishishi zarur”.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa, sinf tartibida o‘qitishni afzal, deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

Umuman, ibn Sinoning ta’lim texnologiyasida o‘qitish jarayonida qaysi uslublardan foydalanilmasin – og‘zaki, ifodali, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko‘rinishlardagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir, o‘quvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan.

Yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlar ta’lim mazmuniga ilg‘or g‘oyalarni singdirishni taqozo etmoqda. Zero, pedagogik tizim barcha davrlarda ham jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Bu vaziyatni anglash hozirgi zamon o‘qituvchisining kasbiy mahoratini uzluksiz takomillashtirib borishni talab etadi. “Joyingda turish uchun, doimo olg‘a intilish kerak”, – degan ekan pedagoglardan biri. O‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lishi, ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashi, fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlari orqali mashg‘ulotlarni tashkil etishi, fundamental bilimlardan o‘z o‘rnida foydalana olishi uchun o‘z ustida uzluksiz mustaqil ishlashi, bilimi va mahorati oshirib borishi kerak. Maqsad – jahon ta’limi standartlariga to‘la javob bera oladigan, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik layoqatiga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekan, bunda o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini anglab yetishi lozim.

O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishda barcha turdagi ta’limning alohida o‘rni bor. Jumladan, mustaqil ta’lim, o‘qituvchining o‘z ustida doimiy ishlashi, bilimlarni o‘zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bo‘yicha o‘quv jarayonining subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir. O‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirib borishda o‘zining shaxsiy qiziqishi, intilishi, ehtiyoji, motivi, qat’iy qo‘yilgan maqsadlari bo‘lib, o‘qituvchi ularga erishmog‘i lozim. Ana shunda bu ta’limdan samarali natija kutish mumkin.

Mustaqillik - shaxsning alohida xususiyati, layoqati, faolligi, diqqatini jamlash qobiliyati, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida bor kuchni sarf etish kabi xususiyatlar birligidir. Demak, mustaqil bilim olishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi o‘zini boshqarish qobiliyatining

rivojlanishi bilan bog‘liq ekan. Mustaqil bilim olayotgan subyektni ta’lim jarayonida hech kim o‘qishga majbur etmasligi muhim omillardan bo‘lib, ta’lim oluvchi bu vazifani o‘z istagi bo‘yicha amalga oshirishi kerak.

Mustaqil bilim olish sabablarining rivojlanishi subyektni ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi va shu bilan uning oldiga – mustaqil bilim olish qanday bo‘lishi kerak degan savol va ba’zi jiddiy talablarni qo‘yadi. Ya’ni, faoliyatning yakuni oldindan aniq bo‘lgan o‘qitish jarayonidan farqli ravishda mustaqil bilim olishda subyekt aniq bo‘lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijani qayd etishi, buning uchun u bilim, ko‘nikma va malakalarning aniq hajmini o‘zlashtirishi kerak. Mustaqil bilim olishda maqsad, tamoyil, usul, metod, vosita va shartlarni aniq ko‘rsatish, ma’lum hajmdagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish ko‘zda tutilib, ularni amalga oshirish so‘zsiz bajarilishi lozim.

Mustaqil bilim olish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko‘zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo‘yish alohida ajralib turadi. Agarda ta’lim olish umumiy rivojlanishni ta’minlashda xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi kasbiy shakllanish yoki kasbiy mahoratni o‘stirish hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi qat’iy reja asosida ishlashi, o‘z oldiga qo‘ygan har bir topshiriqni astoydil, nihoyasiga yetkazib bajarishi lozim. O‘quv topshiriqlarini asta-sekin murakkablashtirib borish, o‘zining ijobiy natijasini berib, o‘qituvchining kasbiy mahoratining takomillashib borishida muhim o‘rin tutadi.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MATEMATIK INTEGRATSIYA

N.Yunusova, D.Ibodullayeva
Samarqand viloyat PYMO‘MM o‘qituvchilari

Annotatsiya. *Mazkur maqolada biologiya fanini o‘qitishda matematik integratsiyaning ahamiyati va matematik ifodalardagi talqinlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *integratsiyalashgan ta’lim,matematik amallar,proporsiya, STEAM, fanlararo integratsiya, moddalar va energiya almashinuvi, integratsiyaning maqsadi, DNK, Xardi-Xaynberg qonuni.*

Har bir davlatning kelajagi va ravnaqi, davlatda yuritilayotgan ta’lim islohatlari sifatiga bevosita bog‘liqdir. O‘zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorligini ta’minlash maqsadida davlat o‘z milliy ta’lim dasturini boshlang‘ich negizlaridan boshlab ishlab chiqadi va kapitalini inson intellektiga qaratadi. Chunki raqobatbardosh kadrlargina barqaroror jamiyat asoslarini qura oladi. Iqtisodning raqobatbardoshligi hamda jahon davlatlari darajasida innovatsiyalarda liderlikka erishish yo‘lida yangi impulslarni izlash, mehnat bozori hamda biznes, yuqori texnologik ishlab chiqarish zarurati ta’lim oldiga turli yo‘nalishdagi bilimlarga ega, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan, muammolarni anglab turli hayotiy vaziyatlarda yechimini topib, innovatsion loyihalar yarata oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasini qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga ko‘ra innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM pedagogika asoslarini o‘zlashtirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi.

Integratsiyalashgan ta’limni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad – bu ta’lim jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o‘rtasida barqaror aloqa o‘rnatish, o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashi, ekologik muammolarni tushunishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashdir.

Tabiiy fanlarni, jumladan, biologiya fanini o‘qitishda har mavzu doirasida matematik integratsiya muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi fikrini teranlashtirish,uning dunyoqarashini

kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, muammolarni to‘g‘ri yecha olishida yordam berishda matematik bilimlarning o‘rni beqiyosdir.

Shu sababli biologiya fanining takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida qayta ishlangan 7- 8 -9 -10-sinf darsliklari kompetentlik asosida yangidan nashr qilindi, va mavzularga berilgan topshiriq va masalalar bizni faqatgina biologiya fanini emas, balki boshqa fanlarni ham unga bog‘lab qo‘ymoqda. E’tibor qiladigan bo‘lsak genetika, DNK va RNK, energiya almashinuvi bosqichlariga oid savollarda faqat matematik usullar bilan bilan yechilishi kerak bo‘lgan savollar ko‘payib bormoqda. Hozirgi kunda pedagoglarimiz oldida turga eng asosiy muammolar ham shunda. Masalan: 9-sinf darsligida energiya almashinuvi mavzusiga doir berilgan masalalarni olaylik. Masalalar tuzilishini tushunishimiz uchun biologiya fanini, jarayon tenglamasini yozish uchun kimyo fanini va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun matematika fanini bilishimiz zarur. Masalalarni yechishda biz o‘zimiz uchun eng maqbul va oson usullarni tanlay olishimiz zarur. Matematik tarzda tuzilgan savollar o‘quvchilarni biologiya fani bilan birgalikda matematika fanini ham yaxshi bilishi kerakligini anglatmoqda. Matematika fanini yaxshi bilgan o‘quvchi esa biologiya fanidan masalalarni qiynalmay yechadi va mohiyatini tez anglay oladi.

Energiya almashinuviga doir masalalarni ishlash uchun quyidagilarni bilib olishimiz kerak.

Energiya almashinuvi 3 bosqichdan iborat.

1-bosqich

Kam miqdorda energiya ajraladi

↑100% tarqaladi

Energiyani 《 ↓0 % to‘planadi

2-bosqich(hujayra_sitoplazma)

Nomlari: glikoliz, to‘liqsiz, oraliq, kislorodsiz, anaerob, chala parchalanish, achish.

1 molekula (180gr) glukozani parchalanishi misolida

200 kJ energiya ajraladi

↑120 kJ tarqaladi (60%)

200kJ 《

↓80 kJ 2 ta ATF da (40%)to‘planadi

3-bosqich (mitoxondriyada)

Nomlari: aerob, to‘liq parchalanish, O2 li nafas olish, oksidlanish deyiladi.

2600 kJ energiya ajraladi

↑1160 kJ tarqaladi (44,6%)

2600 kJ 《

↓1440 kJ 36 ta ATF (55,4%)to‘planadi

1 ta 180 gr glukoza ($C_6H_{12}O_6$)

Sitoplazmada 200 kJ

2800 kJ 《

Mitoxondriyalarda 2600 kJ

120 kJ issiqlik sifatida tarqaladi

200 kJ 《

↓80 kJ 2 ta ATF da to‘planadi

2800 kJ

↑1160 kJ issiqlik sifatida

2600 kJ 《

↓1440 kJ 36 ta ATF da

Energiya almashinuviga doir masalalar yechish

1. Achish jarayonida issiqlik sifatida 720 kJ energiya ajralgan bo‘lsa, aerob bosqichida necha mol sut kislota parchalangan(a) va ATF da to‘plangan kJ(b) miqdorini aniqlang.

Ishlanishi:

Achish ya’ni glikoliz bosqichida 1 mol glukozani parchalanishidan 2 mol sut kislotasi va 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi

1 mol $C_6H_{12}O_6$ — 2 mol $C_3H_6O_3$ — 120 kJ issiqlik 2 ~~ATF~~

80 kj ATFda 120 kj issiqlik sifatida

120 kj energiya ajralganda achish jarayonida 2 ta sut kislata hosil bo‘ldi.

720 kj energiya ajralganda achish jarayonida x ta sut kislata hosil bo‘ldi.

$$x = \frac{720 * 2}{120} = 12$$

Aerob bosqichida 2 mol sut kislotasi parchalanganda mitoxondriya ATF larida 1440 kJ energiya to‘planadi

2 mol $C_3H_6O_3$ — 1440 kJ

12 mol $C_3H_6O_3$ — x

$$x = \frac{12 * 1440}{2} = 8640\ kj$$

Javob: 12 mol sut kislota parchalangan (a) va 8640 kJ energiya ATF da to‘plangan kJ(b).

DNK molekulasini o‘rganish yuzasidan tuzilgan masalalar ham matematik bilimlarga asoslangan.

Masala: DNK molekulasida jami nukleotidlar soni 3600ta bo‘lib, adenin nukleotidlar soni 20%ni tashkil qilsa ushbu DNK molekulasidagi vodorod bog‘lar sonini toping?

Yechish: 3600 ----- 100%

720-X ----- 20%

Agar adenin nukleotidlar soni 720ta bo‘lsa timin nukleotidlari soni ham 720 ta bo‘ladi.

720+720=1440

3600-1440=2160

2160:2=1080

Adenin-720ta,Timin-720ta,Sitozin-1080,Guanin-1080.

Adenin va timin nukleotidlari orasida 2ta vodorod bog‘ bor.Sitozin va guanin nukleotidlari orasida 3ta vodorod bog‘ mavjud.

720 * 2=1440

1080 * 3=3240

3240+1440=4680 ta vodorod bog‘ mavjud.

Javob: 4680ta vodorod bog‘i mavjud.

Genetika bo‘limini o‘rganishda ham matematik savodxonlik asosiy o‘rinni egallaydi. Odam genetikasini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, tajribalar olib borish mumkin bo‘lmaganligi sababli populyatsion-statistik metoddan foydalanamiz.

Ushbu metod yuzasidan ingliz matematigi Xardi va nemis antropogenetigi Vaynberglar ish olib borishgan va o‘zlarining formulalarini yaratishgan.

$A^2+2Aa+a^2=1$

Ushbu formula yordamida populyatsiyalardagi genlar chastotasini va geterozigota hamda gomozigota organizmlar sonini aniqlash mumkin.

Masala: Agar Markaziy Osiyo populyatsiyasida A-ko‘zning qoraligini ta’minlovchi gen 60%, a-ko‘zning ko‘kligini ta’minlovchi gen 40%ni tashkil qilsa, gomozigota organizmlarning uchrash foizini toping?

$A^2+2Aa+a^2=1$

$6^2+2*6*4+4^{2=}1$

36+48+16=100

Javob:Gomozigota organizmlar 36%ni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan dars natijalari o‘quvchilarning ijodiy faoliyati rivojida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya – bir necha o‘quv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta’kidlashicha, integratsiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Matematik savodxonlik

o‘quvchilarning mantiqiy intellektini rivojlantiribgina qolmay, ixtirochilik, muhandislik qobiliyatini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Biologiya, Toshkent-2017-y. 6-aprel VM 187-Qarori.

2.Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-son Qarori 08.12.2018.

3.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.2019-yil 29-aprel.

4. G‘afurov A., Abdukarimov A., Tolipova J., Ishankulov O., Umaraliyeva M., Abduraxmonova I.. Biologiya . Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent, 2017.

5.www.edu.uz

SINF RAHBARLIK FAOLIYATINI YANGILASHDA XALQARO TAJRIBALARGA ASOSAN MILLIY O‘ZIGA XOSLIK (MALAKA OSHIRISH KURSLARI MISOLIDA)

D.J.Nurmanova
Samarqand viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda sinf rahbarlarini xalq ta’limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammolari, malaka oshirish tizimini – “Lefe learning” tamoyili asosida takomillashtirishdagi muammolar va ularni tahlil qilishda xorijiy tajribalar haqidagi fikrlar tahlil qilingan. Sinf rahbarlik faoliyatini yangilashda xalqaro tajribalarga asosan milliy o‘ziga xoslik (malaka oshirish kurslari misolida), yangiliklar hamda sinf rahbarining kompetentligini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, malaka oshirish, lefe learning, kompetentlik, sinf rahbari, milliy o‘ziga xoslik, xalqaro tajribalar, normativ-huquqiy hujjatlar, metodik tavsiya, kasbiy sifat.

Аннотация. В статье анализируются проблемы непрерывного профессионального развития классных руководителей в системе народного образования, проблемы совершенствования системы квалификации на основе принципа «Lefe learning» и зарубежный опыт их анализа. На основе международного опыта обновления деятельности классного руководителя анализируются вопросы национального самосознания (на примере курсов повышения квалификации), нововведения, вопросы повышения компетентности классного руководителя и представлены методические рекомендации.

Ключевые слова: учителя начальных классов, повышение квалификации, заочное обучение, компетентность, классный руководитель, национальная идентичность, международный опыт, нормативно-правовые документы, методические рекомендации, профессиональные качества.

Annotation. In this article, the problems of continuous professional development of class leaders in the public education system, the problems of improving the qualification system based on the principle of “Lefe learning” and foreign experiences in their analysis are analyzed in this article. Based on international experience in the renewal of classroom leadership activities, issues of national identity (in the example of advanced training courses), innovations, and issues of improving the competence of the classroom leader are analyzed and methodical recommendations are presented.

Keywords: primary school teachers, professional development, lefe learning, competence, class leader, national identity, international experiences, normative and legal documents, methodical recommendation, professional quality.

Milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va kasb-hunar maktablari pedagoglariga 2020-yil 1-noyabrdan boshlab sinf (guruh) rahbarligi uchun qo‘shimcha to‘lovlar 1,5 baravarga oshirilishi” haqida ko‘rsatma berilgan.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda xalq ta’limi xodimlarini kasbiy rivojlantirish va malakalarini uzluksiz oshirishlari ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga sinf rahbari sifatidagi kompetentligini rivojlantirishlarining ish samaradorligini kafolatlaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbari faoliyati faoliyatini tashkil etish haqida”gi 41-sonli buyrug‘i bilan sinf rahbarlariga qo‘yilgan talablar o‘zgarib yangi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi yangi Nizom tasdiqlandi. Shunga ko‘ra sinf rahbarlari o‘z ish faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyruqlariga, mazkur nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiy amalga oshirib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlarini sinf rahbari sifatida kasbiy rivojlantirishlari uchun bugungi kunda qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, xalq ta’limi xodimlarining kasbiy kompetentligini yanada takomillashtirish uchun hayot davomida o‘qish tamoyili asosida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi ishlab chiqildi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining elekron veb-saytida mashg‘ulotlar tashkil qilinib pedagog xodimlar o‘qitib kelinmoqda.

Demak, turli islohotlarni, shu jumladan, chet el ta’limidagi u yoki bu ibratli ish uslubini joriy qilishda milliy o‘ziga xoslikni Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti, o‘quv uslubiyat markazlari bilan bamaslahat ish ko‘rish maqsadga muvoffiqdir. O‘ylaymizki, pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot insitituti Respublika o‘quv-metodika markazlari ham chet el ta’limini joriy etish boyicha o‘quv muassasalarimizga o‘zlarining nazariy-metadologik tavsiyalarini beradilar.

Berilgan yangiliklar, ma’lumotlar, axborotlar asosida har bir pedagogik jamoa o‘z pedagogik faoliyatlarini tahlil etib, uni qayta ko‘rib chiqadilar. Mamlakatimiz ta’limini yangi bosqichlarga ko‘tarishga o‘z hissalarini qo‘shadi, degan umiddamiz.

Finlandiya

Mamlakatda na elita va na “bo‘shroq” maktablar bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o‘quvchi ta’lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo‘lib, o‘nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to‘lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o‘quvchilarga bo‘lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko‘ra, bu o‘ziga xos "pedagogik" laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta’lim beriluvchi o‘quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta’lim tizimi mavjud – bog‘chalardan tortib to universitetlargacha. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta’lim olish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta’lim muassasasiga berishni ma’qul ko‘rishmoqda, zero Finlandiyada

barcha maktablar birdek yaxshi. Bundan tashqari fin ta'lim tizimida "o'rta" bosqichining 7 tamoyili mavjud. Bular: tenglik, bepul, individuallik, amaliyot, ishonch, istak-xohish va mustaqillik.

1. O'quvchilar boshlang'ich maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi.
2. Majburiy ta'lim 9 yil.
3. Xususiy maktab yo'q.
4. Finlandiyada o'qituvchilar maqomi va ijtimoiy mavqeyi juda yuqori.
5. Maktabni tugatgandan so'ng markazlashgan imtixon (Milliy Matriculation Test) topshirishlari talab qilinadi.
6. Darslar oralig'ida 15 daqiqa tanaffuz beriladi va bu vaqtda o'quvchilar turli o'yinlar o'ynaydilar.
7. Finlandiya rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qitiladi va juda yaxshi natijalarga erishganlar.
8. 13 yoshigacha 4 ta tilni o'rganadilar.
9. Maktablar o'rtasida raqobat yo'q.
10. O'quvchilarning tushliklari davlat byudjeti tomonidan qoplab beriladi.
11. Har bir o'quvchiga AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniyaga qaraganda 30 % dan kamroq mablag' sarflaydi.
12. Finlandiyada sinf rahbarligi yo'q, ammo har 7 ta o'quvchiga 1 tadan o'qituvchi to'g'ri keladi.
13. O'qituvchilarning ilmiyligi kamida magistrlik diplomiga ega.

Germaniya

Germaniya konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan:

1. Boshlang'ich sinda 6 yoshdan 10 yoshgacha o'qiydi, ya'ni 4 yil.
2. Davlat maktablari mutlaqo bepul.
3. Mamlakatda umumiy ta'lim vazirligi yo'q. Har bir mintaqaning o'z qoidalari bor.
4. Sinf rahbarlari uchun sinf soatlari yo'q. Shu sababdan sinf o'quvchilar bilan rahbari haftada 1 marotaba suhbatni masofaviy o'tkazadi.
5. Sinf rahbarligi uchun haq to'lanadi.
6. Boshlang'ich sinfning asosiy maqsadi-o'quvchiga asosiy bilimlarni berishi kerak.
7. Har bir sinfda o'rtacha 25 nafar o'quvchi bor.
8. Maktab formasi yo'q, hamma o'ziga qulay kiyimda kiyinadi.
9. Boshlang'ich sinfning dastlabki 2 yili oddiy o'yin shaklida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarga baho qo'yilmaydi.
10. 3-sinfdan boshlab o'quvchilarga baho qo'yila boshlaydi.
11. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

1 – a'lo;
2 – yaxshi;
3 – qoniqarli;
4 – yetarli;
5 – yetarli emas;
6 – qoniqarsiz.

Fransiya

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka orgatish va shunga xos kasbga yonaltirishdan iborat.

1. Har yili sinf rahbarlari almashtiriladi.

2. Sinf rahbarining asosiy vazifalari ota-onani maktab bilan bog‘lash va hujjatlarni yuritish uchun

3. Fransuz maktablarida alohida sinf soati mavjud emas.

4. Maktabda faoliyat olib boradigan istalgan o‘qituvchiga sinf rahbarlik berilmaydi. Buning uchun maktab rahbariyatining qarori va o‘qituvchining xohishiga bog‘iq holda tayinlanadi.

Shvetsariya

Shvetsariya — dunyoda sayyohlar eng ko‘p boradigan mamlakatlardan biri sanaladi. Ammo bu o‘lka chet elliklarni nafaqat betakror tabiati-yu purviqor tog‘lari, balki yuqori sifatli ta’lim tizimi bilan o‘ziga jalb qiladi. Hatto mamlakatdagi rivojlangan ta’lim tizimi xorijliklarni o‘ziga chorlovchi asosiy tashrif qog‘ozi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kuzatuvlarga ko‘ra, jahonga mashhur siyosatchilar, davlat arboblari, yirik biznesmenlarning ko‘pchiligi Shvetsariyada ta’lim olgan. Hozir ham boy oilalar farzandlarining Shvetsariya o‘quv yurtlarida tahsil olishi urfda. Xo‘sh, bu mamlakatdagi ta’lim tizimi qanday jihatlari bilan dunyoda yetakchilik qilmoqda?

Avvalo, Shvetsariya ta’lim tizimi universalligi bilan jahonga mashhur. Ya’ni, u bir vaqtning o‘zida ingliz-amerika, fransuz va nemis maktablariga xos xususiyatlarni birlashtiradi. Bu tizim mamlakatda 4 ta rasmiy til — fransuz, nemis, italyan va retoromat tillarining amal qilishi natijasida shakllangan. Zamonaviy Shveytsariya 26 ta har biri mustaqil kichik ma’muriy hududiy bo‘linma va viloyatlarga bo‘lingani bois, mamlakatdagi boshlang‘ich va o‘rta maktablar kichik bo‘linmalarga, universitetlar esa federal hukumatga bo‘ysunadi. Shuningdek, Shvetsariya ta’limda mehmondo‘stlik modelini boshlab bergan birinchi davlat bo‘lib, uning maktab va universitetlari sayyohlik biznesining asosi hisoblanadi.

1. Shvetsariyada yagona ta’lim tizimi mavjud emas. Shuning uchun turli tumanlarida sinf rahbarlarining vazifalari har xil.

2. Shvetsariyada o‘qituvchilik juda obro‘li va yaxshi maosh oladigan kasblar sirasiga kiradi.

3. Boshlang‘ich sinf rahbari ko‘p fanlardan o‘zi o‘qitadi va sinfdan tashqari ishlar uchun ham uning o‘zi mas’ul sanaladi.

4. Alohida sinf soatlari yo‘q, lekin o‘quvchilar bilan haftalik suhbatlar o‘tkaziladi.

5. Ularda o‘rta maktabga o‘tgandan so‘ng sinf rahbarining vakolatlarini 2 ta kuratorga taqsimlaydi.

Italiya

Italiyada davlat maktab tizimi yoki ta’lim tizimi 1859-yildan beri mavjud. Italiya qonunlariga ko‘ra boshlang‘ich ta’limni majburiy qildi va savodxonlik darajasini o‘sitishni maqsad qildi. Ammo qishloq hududlarida bolalar ko‘pincha maktabga yuborilmas edi va savodsizlik darajasi 1861-yillarda deyarli 80% ni tashkil etardi.

Italiyada umumiy o‘rta ta’lim 6 yoshdan 16 yoshgacha majburiy va besh bosqichga bo‘linadi: bolalar bog‘chasi, boshlang‘ich maktab, quyi o‘rta maktab, o‘rta maktab va universitet. Italiyada ta’lim bepul va Italiyada istiqomat qiluvchi barcha millat bolalariga bepul ta’lim beriladi. Italiyada ham xususiy, ham davlat ta’limi tizimi mavjud.

1. Boshlang‘ich ta’limi 5 yil.

2. 1-sinfga 6 yoshdan qabul qilinadi.

3. Boshlang‘ich ta’limdagi barcha asosiy darslar o‘qish, yozish, rasm chizish, matematika va boshqalar.

4. Haftasiga 5 kun o‘qitiladi.

5. 5 yillik boshlang‘ich sinfni tugatgandan so‘ng og‘zaki va yozma shaklda imtihon topshiradilar.

6. Imtihon natijalari “O‘tgan” yoki “O‘tmagan” deb baholanadilar.

7. Baholar raqamlar o‘rniga “A’lo”, “Yaxshi” va hokazolar tarzida baholanadilar.

8. Xususiy maktablarda o‘qigan o‘quvchilarga maktabni tugatgandan so‘ng ularga maktabni tugatganligi haqidagi sertifikatlar berilmaydi.

Daniya

Daniyada umumiy o‘rta ta’lim olish 15-16 yoshgacha bo‘lgan bolalarda majburiy. Chunki umumiy ta’lim u yerda taqdim etiladi va yoshlarning qariyb 82 foizi qo‘shimcha ravishda o‘zlar ta’lamoqchi bo‘lgan sohalar bo‘yicha ma’lumot oladi. Hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan ta’lim odatda bepul va hamma uchun ochiqdir. Daniyada boshlang‘ich maktab va yuqori maktabni taxminan 15,6% bolalar xususiy maktablarda vaucher tizimida o‘qiydi.

2013-yildagi ma’lumotlarga asoslanib, Daniya ta’lim tizimi 0.873 ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, Avstraliya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya ostidagi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi. Daniyada savodxonlik darajasi erkaklar va ayollar uchun taxminan 99% tashkil etadi.

1. Daniya maktablari har bir sinfda 20 tadan o‘quvchi o‘qitiladi. Kamdan-kam hollarda 28-30 tagacha o‘quvchi o‘qitiladi. Bunday sinflar munitsipalitet sinf (shaharlarga qarashli maktablarning qishloqdagi filial maktabi)lariga ruxsat beriladi.
2. Boshlang‘ich sinfda imtihonga yo‘naltirilmaydi va imtihon olinmaydi.
3. Har bir sinfda sinf rahbari mavjud.
4. Sinf rahbari fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi.
5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan barcha fanlarni o‘zi o‘qitadi.
6. 7 yoshdan 16 yoygacha majburiy ta’lim. Ta’lim davomiyligi 9 yil va u mutlaq bepul hisoblanadi.

Muxtasar qilib ayganimizda, hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy shartlaridan biri sinf rahbarlarini ish faoliyatlariga tayyorgarliklarini diagnostika qilish pedagogik va kasbiy bilimlarini integratsiyasini ta’minlashdan iborat;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni taklif sifatida belgilashni joiz deb topdik:

✓ Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini sinf rahbari sifatidagi faoliyat mazmunini yangilash aynan xorijiy tajribalarni milliy o‘ziga xoslik bilan malaka oshirish kurslarida “Sinf rahbarlari uchun mustaqil kursi”ni tashkil etishni, shu kursda malaka oshirishlari metodik tomondan tavsiya etishimiz maqsadga muvofiqdir;

✓ Kasbiy faoliyatda malaka oshirish va pedagoglarni uzluksiz o‘z ustida ishlashi, kasbiy ehtiyojlari, kognitiv bilimlar, ota-onalar o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarga doir xususiyatlarni ham singdirish maqsadga muvofiqdir;

✓ Pedagogik va kommunikativ munosabatlarni takomillashtirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini sinf rahbarlikdagi ish faoliyatini ishlab chiqarishdan uzilmagan holda “Lefe learning” tamoyili asosida tashkil qilishda milliy o‘ziga xoslikni xorijiy tajribalar bilan uyg‘nlashtirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug‘iga ilova. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom.

5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: "O'qituvchi", Darslik. 2014. -144 b.

6. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. – T.: "Yoshlar nashriyoti uyi", Monografiya. 2020. -183 b.

7. Raximqulova M.B. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Xalq ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 6-son 2021-yil (maxsus). 79-83 bb.

8. Maxsudov P.M. Professional ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlash: muammo va takliflar. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 42-49 bb.

9. Jumanov A.A. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 50-56 bb.

10. Mallayeva O. Xalq ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish muammolari (malaka oshirish misolida). Xalq ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 3-son 2021-yil (may-iyun). 57-61 bb.

11. Jo'rayeva S.N. Zamonaviy pedagog imijini shakllantirishda psixologik omillar ta'siri. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №1 (86) 2020 yil. 49-55 bb.

12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2006. –B. 17-18.

13. Шепель В.М. Имиджелогия: секреты личного обаяния. – М., 1997.

14. Крилсунова И. Создай свой имидж. СПб. «Лань», 1997.

TEXNOLOGIYA TA'LIMINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

B.Doniyev
Samarqand VPYMO'MM dotsenti

Annotasiya. Texnologiya ta'limini o'qitishning o'ziga xosligi. Texnologiya ta'limini tashkil etish. Kasbga yunaltirish.

Kalit so'zlar: texnologiya ta'limi, ta'lim va tarbiya, sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy-tarbiya.

Texnologiya ta'limini o'qitishni tubdan yangilashga ehtiyoj, uning tarixi, nazariyasi va amaliyotining ahvoli davr taqozosi bilan inqiroz darajasiga kelib qolganligi bosh sabablardan hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi o'qitilishining inqiroziga sabab bo'lgan qator juz'iy va joriy omillarning ba'zilarini keltirib o'tish ta'bir joizdir:

1. Texnologiya ta'limining metodologik asosini tashkil etuvchi mehnat tayyorgarligi, kasb-hunar tayyorgarligi, mehnat ta'limi uslubiyati to'g'risidagi g'oyalar va nazariyalarning yaratilishida O'zbekistonning etnografik, tarixiy, milliy va mahalliy sharoitlari, xususiyatlarining aks ettirilmaganligi;

2. Texnologiya ta'limining uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimidagi o'rnini, mohiyatini belgilaydigan g'oyalarning, nazariyalarning yaratilmaganligi;

3. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida texnologiya ta'limining o'quv uslubiy asosi (ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, dasturlar, uslubiy qo'llanmalar va b.q.) to'liq ravishda yaratilmaganligi va amaliyotga joriy etilmaganligi;

4. Texnologiya ta'limini boshqa fanlarga nisbatan amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagining e'tiborga olinmayotganligi va bu holning qo'shimcha moddiy-texnikaviy ashyolar talab qilishi, bunday jihozlarning (turli stanoklar, materiallar, qurilmalar, asboblar, qo'shimcha sexlar, tajriba-yer uchastkalari, maxsus himoya va ish kiyim-boshlari, binolar, 3 fazali elektr energiya manbalari, traktorlar, mashinalar va b.q.) ta'minotining juda og'ir ahvolga tushib qolganligi.

5. Texnologiya ta'limida sinf-dars o'quv tizimi, sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etiladigan ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarning o'zaro uzviy bog'liqligining saqlanishiga rioya qilinmasligi;

6. Texnologiya ta'limi uzluksiz amalga oshiriladigan barcha o'quv muassasalarning (bog'chalar, boshlang'ich va tayanch maktabi, maxsus kasb-hunar maktablari, liseylar, kollejlar, oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish markazlari va kurslarida v.b.) o'zaro uyg'unlashgan faoliyatini tashkil etishda bosh rolni o'ynaydigan, asosiy ijrochi o'qituvchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonining mazmunini, hajmini, yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqib, uni tubdan yangilash zarurligi.

7. Texnologiya ta'limining o'quv-dars tizimining, uning sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda maktab, oila, jamoatchilik, otalik korxonalari (davlat tasarrufidagi va xususiy yo'nalishdagi), maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, kasb-hunar bilim yurtlari, oliy bilim yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzviy va doimiy ravishda amalga oshirilmasligi;

Yosh avlodni kelajak hayotga, mehnat faoliyati jarayoniga va ma'lum kasb-hunarlarga tayyorlashda, umumta'lim maktablarining moddiy texnikaviy ta'minotini yaxshilashda, o'quvchi-bitiruvchilarning jinoyatchilik yo'llariga kirib ketishlarining oldini olishda, ularni kelgusida oila boshqarish, boqish va biror kasb-hunarni egallash orqali jamiyat boyligiga boylik qo'shadigan, ishlab chiqarish ishida halol qatnashadigan mehnatkash kishilar bo'lib yetishishlarida mehnat ta'limining imkoniyatlari beqiyosdir.

Texnologiya ta'limining o'ziga xos bo'lgan ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, vazifalarini amalga oshirishda turli xil ijtimoiy, ilmiy, pedagogik-nazariy, amaliy, uslubiy va moddiy-texnikaviy sharoitlar yaratilmog'i lozim. Bunday shart-sharoitlar quyidagilardir:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi qo'shimcha fan sifatida emas, asosiy fanlar darajasida o'qitilishini ta'minlash;

2. Texnologiya ta'limining umumta'lim maktab kursi tuzilishidan kelib chiqib, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, hozirgi zamondagi mehnat mazmuni, amaliy ko'nikma va malakalarni, ishlab chiqarish unumli mehnati bilan bog'liq holda olib borish;

3. Texnologiya ta'limini o'qitishda:

- ishlab chiqarishning texnikaviy-texnologik, xalq xo'jaligi asoslarini;
- ijodni rivojlantiruvchi, politexnik, kasbiy yo'nalishdagi topshiriqlarni berib borishi;
- qishloq xo'jalik asoslarini, texnikasini, texnologiyasini va kishilarini o'rganishini;
- mashg'ulotlarda ko'rgazmalilikni, o'qitishning og'zaki bayon qilish, amaliy va mustaqil ishlash, ilmiy-tadqiqot usullarini birgalikda bog'lab olib borishni ta'minlash.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning texnologiya ta'limini amalga oshirishda uning nazariyasi va amaliyotida tarixiy, milliy mahalliy, etnografik, jo'g'rofiy, tabiiy, iqlimiy va sharqona xususiyatlarini hisobga olish va ushbu ta'limning kelgusida rivojlanishida bu omillarga ustuvor qoidalar sifatida rioya qilish;

5. Texnologiya ta'limining boshqa fanlardan farq qiladigan xususiyatlarini, jumladan, uning ko'proq amaliy va ishlab chiqarish yo'nalishida ekanligini nazarda tutib:

- o'qitishning sinf-dars tizimini takomillashtirish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni hozirgi zamon talablari ruhida mazmunan va shaklan qayta ishlab chiqish bilan amaliyotga qo'llash;
- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida texnologiya ta'limining uzviyligini ta'minlash;
- texnologiya ta'limining amalga oshirilishi jarayonining yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanishining takomillashtirilishini tubdan qayta ko'rib chiqish;
- davlat, xususiy, qo'shma va shaxsiy korxonalarda o'quvchilarga mehnat ta'limi asoslarining o'rgatilish jarayonini ma'lum bir tizimga solib, boshqarilishini, nazorat va rahbarlik qilinishini ta'minlash.

6. Texnologiya ta'limining o'quv-uslubiy ta'minoti, pedagogik-nazariy asoslari, dasturlar, tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, ularning ta'riflarini va ilg'or pedagogik tajribilarini davriy matbuotda, radio va televideniyeyada yoritib borilishi, ko'rsatmali va tarqatma materiallar va boshqalar bilan ta'minlanishini yaxshilash;

7. Texnologiya ta'limining moddiy-texnikaviy ta'minoti – turli xil stanoklar, asboblar, moslamalar, qurilmalar, jihozlar, binolar, elektr energiyasi, materiallar, yonilg'ilar, yer uchastkalari, traktor va mashinalar va boshqalar bilan ta'minlanishini yaxshilash;

8. Xalq hunarmandchiligining mehnat talimining mazmunidagi an'anaviy yo'nalishlar safiga yangi yo'nalish sifatida kiritishning nazariy-ilmiy, uslubiy, pedagogik, amaliy-tashkiliy, moddiy-texnikaviy va kadrlar bilan ta'minlash masalalari tizimini ishlab chiqib amalda qo'llash;

9. Hozirgi paytda, ko'pgina hollarda o'rta umumta'lim maktablaridagi mavjud texnologiya ta'limi darslarining umumiy miqdorini o'tgan yillardagiga nisbatan qisqartirib yubormaslik. Chunki, sinflardagi mehnat ta'limi darslarini qisqartirib boshqa fanlar hisobiga berib yuborish o'quvchilarning ko'pgina fanlardan (masalan, tabiatshunoslik, fizika, jo'g'rofiya, botanika, biologiya, kimyo, matematika, tasviriy san'at va h.k.) egallagan nazariy bilimlarini, qonuniyatlarini hayotga, amaliyotga faqat mehnat ta'limi mashg'ulotlarida yaqqolroq qo'llashlari, sinab ko'rishlari mumkinligini nazarda tutmoq lozim.

Adabiyotlar:

1. Doniyev B.B. Mehnat ta'limi o'qituvchisi kasbiy faoliyatini nazorat qilish metodikasi. Monografiya. –Samarqand: SamDU, 2015. –B.13-14.

2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. 8 b.t.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HUQUQIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH

Z.T.Raxmanova
Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy munosabatlarni shakllantirishda sinf rahbarining roli, o'quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirishda maktab jamoasining o'rni haqida

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, o'z-o'zini himoya qilish.

Abstract. In this article, the role of the class leader in the formation of legal relations among primary school students, the role of the school team in the development of legal consciousness of students is discussed.

Keywords: legal education, legal awareness, legal culture, self-defense.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль классного руководителя в формировании правоотношений у учащихся начальных классов, роль школьного коллектива в развитии правосознания учащихся.

Ключевые слова: правовое образование, правосознание, правовая культура, самозащита.

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'limdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar huquqiy jihatdan chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan birga milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilishi, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, fuqorolik burch va mas'uliyatini shakllangan bo'lib voyaga yetishlari kerak. O'quvchilarni huquqiy tarbiyalashda maktab miqyosida olib boriladigan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda xalqning boy merosidan unumli foydalanish, uning tizimli asosini ishlab chiqish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni samarali amalga oshishishiga sababchi bo'ladi, buni biz o'zimiz olib borgan tajribalar va muqaddam olib borgan ishlarni tahliliy xulosasidan bilish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy tushunchalarni shakllantirish - bu har bir o'quvchining ichki hayoti, muhit kechinmalari, aqliy qobiliyatlari, idrokini mujassamlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida xizmat qilish, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarni hurmat qilish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish, ma'rifatli, bilimli, huquqiy jihatdan madaniyatli, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxs bo'lib yetishishi demakdir.

Jahonda ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan, umumiy o'rta ta'limning natijaviyligi va sifatini ta'minlashda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar maktab yoshidagi o'quvchining shaxs bo'lib kamol topishtirish jarayonida o'zlikni anglash, o'z-o'zini tahlil qilish, ijtimoiy munosabatlarning yuksak darajasi va o'z-o'zini namoyon etishiga ta'sir etuvchi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy ta'lim paradigmalarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda.

Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida maktab o'quvchilarining o'z qarashlariga, o'ziga xosliklariga ega bo'lish, unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi hamda umumilmiy bilimlar tizimini shakllantirish texnologiyalari, ijtimoiylashishi hamda ijtimoiy shaxs sifatlarining shakllanish xususiyatlari, ijtimoiy faoliyatining o'sish imkoniyatlariga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur ishlanmalar tadqiqot yo'nalishlari va vazifalarini tanlashda innovatsion yondashuvlar, o'quvchilarning nostandart fikrlash va maqbul qaror qabul qilish, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jamiyat talablariga moslashish ko'nikmalarini hosil qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quv-texnik ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim standartlari va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ta'lim oluvchilarning ma'naviy jihatdan yetuk, jismoniy baquvvat, aqlan teran, jamiyatdagi o'zgarishlarni, yangiliklarni o'z vaqtida ilg'ab oladigan inson kapitalini yaratish faoliyatiga yo'naltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash"[2] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada o'quvchilar ijtimoiylashishining psixologik qonuniyatlari asosida o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning mezonlari, pedagogik-psixologik optimal prinsiplari, integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib, umumiy o'rta ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatini oshiradi.

Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993- yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shaklantirishdan iboratdir"[3] .

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy

munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo‘lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta’lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.[4]

Pedagogik jarayonda huquqiy ta’lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o‘lchanadi:

-o‘quvchilar tomonidan "O‘zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" kabi o‘quv fanlarining o‘zlashtirilish darajasi, ya’ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me’yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o‘quv yurtlari ichki tartib-qoidalari, shuningdek, o‘quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;

- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko‘lami.[4]

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotning ma’lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, aholining keskin sur’atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo‘lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo‘llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog‘ida ko‘zga tashlanadi. Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Demak, biz maktab o‘quvchilarida huquqiy ongni shakllantirishga poydevor yaratishimiz kerak. Boshlang‘ich maktabda esa shu vazifani ilk tushunchalarini tarkib toptirishga harakat qilishimiz lozim. Kishi qancha keng qamrovli huquqiy bilimga ega bo‘lgan sayin shu darajada madaniyatli bo‘la boradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi milliy dasturida: «Ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy ta’lim hamda tarbiyasini takomillashtirish»,- zarurligi alohida ta’kidlangan. Shuning uchun huquqiy ta’lim-tarbiyaning maqsadi har bir o‘quvchiga amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan huquqiy bilimlarni belgilangandavlat standartlaridan kam bo‘lmagan hajmda olish imkoniyatlarini berishdan iboratdir. Huquqiy ta’lim maktabda maktabda uzluksiz ravishda olib boriladi.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma’rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarurruriy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot g‘oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o‘z ta’siriga ega bo‘lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha’ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi. – Ma’rifat g., 1993, 3 mart.

4. Umumiy pedagogika (tarbiya nazariyasi). O‘quv qo‘llanma. Tuzuzvchi Ziyayev Adhamjon Nisomuxammatovich - Qo‘qon. 2020

MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILAR KREATIVLIGINI OSHIRISH OMILLARI

M. Qo‘chqorov
Namangan viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning puxta, chuqur o‘zlashtirilishining kafolati. Bilish jarayonining taksonomiyasi. Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini belgilash. Masalani o‘quvchilarning bilimi, mahorati va malakasining darajasiga moslashtirish. Umumsinf, guruh va individual bajariladigan mustaqil ishlar.*

Kalit so‘zlar: *bilish jarayoni, darsning xarakteri, kreativ ijodkorlik, esdalik, hayotiy masalalar.*

O‘qituvchilarning fan asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish hamda o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantiruvchi mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning puxta, chuqur o‘zlashtirilishining kafolati bo‘la oladi.

Zamonaviy darslarga qo‘yilayotgan yuksak talablar o‘qituvchini har bir darsga juda puxta o‘ylab tayyorlanishga ijodkorlik bilan yondashuvni majbur qiladi. O‘quvchi oldiga qo‘yilgan bilishga doir aqliy vazifaning aniqligi, ma’lum bir kategoriyalarda ifodalanganligi kabi jarayonlar bilish jarayonining taksonomiyasi bo‘lib u o‘qituvchidan:

❖ Aniq o‘quvchichilarga eslash yoki esga tushirishda nimalarga e`tiborni qaratish,qanday fakt ma’lumotlardan foydalanishlari uchun ko‘rsatmalar berib borishi;

❖ O‘quv maqsadini ajratish va unga aniqlik kiritish, tartibga solishni, birinchi bo‘lib xal etiladigan asosiy vazifani, belgilashni hamda istiqbolli kelajakda xal etiladigan maqsadlarni tartibga solishni;

❖ O‘quvchilarning egallagan ko‘nikma va malakalarini xajmi, miqdorini tekshirish uchun zarur bo‘lgan etalonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bilish va o‘zlashtirishda xotiraning tutgan o‘rni juda katta ahamiyatga ega. Taniqli amerikalik psixolog Karl Sishorning aytishicha esda qoldirishning tabiiy qoidalarini buzganligi uchun ham odamlarning ko‘pchiligi o‘zlarining tug‘ma tabiiy xotiralaridan 10% gina hayotlari davomida foydalanadilar.

Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini belgilash bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarning boshqa tipik shakllaridan o‘zining davriyligi, tizimli emasligi, faqat bir marotabaligi, individualligi bilan tubdan farqlanadi. Ko‘pgina mashg‘ulotlarning shakllari darsni to‘ldiradi va uni xususiy va umumiy maqsad hamda vazifalarni to‘ldirishga qo‘shimcha rol o‘ynaydi.

Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini belgilash darsini samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyligi, belgilagan maqsad va vazifalarining aniqligi, shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkil etish uchun tanlangan metod va usullarini mavjud texnik vositalaridan unumli foydalana olishi, o‘quvchilarning tayyorgarligi, ularning yoshi inlividual xususiyatlarini hisobga olib darslarni tashkil eta olishi bilan bog‘liqdir.

Maxsus fanlarni oqitishda o‘quv maqsadlar bilan bog‘liq masalalarning eng muhimi uning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish masalasidir. Darsning tuzilish qonuniyatlari haqida gapirishdan avval uni qanday strukturaviy birliklardan tashkil topishini belgilab olish va aniqlash kerak bo‘ladi, dastlab dars haqida fikr bildira turib, uni tarkibiga kiritilgan ketma-ketligi va davomiyligiga qarab “dars sxemasi” degan atama qo‘llana boshlandi. Keyinchalik darsga qo‘yilgan vazifalar va ularni hal qilish uchun tanlangan mashqlar ular meyyoriga qarab “dars rejasi” degan atamalar qo‘llandi. Maxsus fanlarni oqitishning mazmuni dars mashg‘ulotlarini

sifatini belgilovchi to‘rtta asosiy komponentning umumiyligida ifohalanadi. Bu elemenlar o‘zaro uzviy bog‘langan va darsning xarakterli *komponentlari* deb ataladi, ular:

a)darsning tarkibiga kiritilgan mashqlar. Darsning mazmunining eng yirik xarakterli komponentidir. Lekin bunday tushuncha bir tomonlama bo‘lib, tarbiyalash, bilim berish vazifalarini xal qilishda shug‘ullanuvchilar uchun faoliyat predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Mashqlar jarayonining umumlashtirilgan predmetining mazmuni, boshqa ma’noda dars mazmunining bir qirrasi xolos.

Darsning tuzilishi dastur materiallarini belgilangan vazifa asosida izchil o‘rganishni yo‘lga qo‘yadi. Dars uchun rejalashtirilgan vazifalarni hal qilishda qo‘llaniladigan ta’limning uslubiyotiga aniqlik kiritish va uni qo‘llash uchun darsning qismlari yoki ularni ayrim bo‘laklaridan qanday foyhalanish lozimligini belgilaydi.

Matematika qiziqarli fan. Shu fanning qiziqarli jihatlari orqali bolaga tushuntirish kerak. Buning uchun o‘qituvchi fanning, kasbning mohir ustasi bo‘lishi kerak. Bunda o‘qituvchiga matematik o‘yinlar, masalalar yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda matematik darsi shunday tomonga qaratilgan bo‘lsinki, u shu fanga qiziqish uyg‘otish, 2-tomondan esa har bir o‘quvchini o‘z qobiliyatini ko‘rsatishga yordam berish zarur. Asosiy vazifa o‘quvchilarni qiziqarli o‘yinlar yordamida mustaqil ishlarga o‘rgatish va nafosat tarbiyasini berishdir.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda zarur ko‘nikmalarni hosil qilish, kreativ-ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va matematikani yuqori saviyada o‘tishdan iboratdir, buning uchun ma’lum sharoit, zamin yaratish kerak bo‘ladi.

Masalani o‘quvchilarning bilimi, mahorati va malakasining darajasiga moslashtirish lozim. Mustaqil ishlarni tekshira turib o‘qituvchi nafaqat baho qo‘yadi, balki ushbu holatda ular nimani o‘zlashtirganini, yaqin kelajakda nimani o‘zlashtirishi kerakligini hisobga oladi. Matnli arifmetik masala, tenglama, to‘rt amallarni bajarish uchun esdalik maktab amaliyotida keng tarqalgan. Tarkibli arifmetik masala yechish uchun esdaliklar namunasi keltiramiz. Masalani o‘qing va unda nima to‘g‘rida so‘z yuritilayotganini aytib bering.

Masalada nima ma’lum va nima noma’lumligini belgilang. Agar matnda masalani tushunish qiyin bo‘lsa, uni qisqacha yozing. (yoki masalaga chizma chizing).

Qisqacha yozuvda har bir son nimani ko‘rsatishini tushuntiring va masala savolini qaytaring.

Masala savoliga darhol javob berish mumkinmi? Agar mumkin bo‘lmasa, nima uchun ? Avval nimani, so‘ngra nimani bilish mumkin? Uni yechish rejasini tuzing.

- Masalani yeching va javobini yozing.
- O‘z javobingizni to‘g‘riligini tekshiring.
- O‘zingizga “qiziqarli” savollar bering va unga javoblar bering.

Bunday esdaliklar o‘quvchilarga masalalarni mustaqil yechishga yordam beradi. Ammo, agar ular unda ko‘rsatilgan har bir operatsiyani bajarishni o‘rgangan bo‘lsa, uni sinfda, jamoa bo‘lib amalga oshirilsagina esdalikning yordami kattadir. Shuning uchun esdalik yordamida masala yechish jarayonida taxminan 6-9 dars davomida har bir masalani o‘quvchilardan biri ovoz chiqarib o‘qiydi va muhokama ham oshkora olib boriladi. So‘ngra ular masala tizimidan mustaqil foydalanishni o‘rganishlari kerak. Shu maqsadda keyingi 10-15 darsda masalani yechishda ular esdalikdan foydalanishni davom ettiradi, ammo masalani ichida o‘qiydi, muhokama esa ovoz chiqarib o‘qib boriladi. Shu tariqa ular beixtiyor masala tizimini o‘zlashtiradi. Va nihoyat, shunday vaqt keladiki, ular butun masala tizimini to‘liq egallab o‘zicha va tez xulosa chiqarib va esdalik- ko‘rsatmaning keragi bo‘lmaydi. Bu esa ularda tarkibli masalani bajarishga yondashuvning umumiy uslubi shakllanganini ko‘rsatadi.

Bunga umumsinf (umumiy), yakka, guruh bo‘lib bajariladigan mustaqil ishlar kiradi. Umumsinf ishi - bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar bitta, bir xil mustaqil ishni bajaradilar. Yakka holdagi mustaqil ish - bu har bir qatnashchi umumiy masalani yechishda mustaqil holda alohida faoliyat yuritish demakdir. Guruhiy ishlashda bir necha o‘quvchidan iborat (ikki va undan ko‘p) guruh tuziladi va o‘zaro aloqada kelishgan faoliyatni amalga oshiradi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda hisoblash, o‘lchash va grafik ko‘nikmalaridan ma’lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo‘lib, ko‘p marta takrorlashgacha yetkaziladi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimini pasaytirishga olib keladi.

Arifmetik misollarni yechish bilan bog‘liq hilma-xil topshiriqlar mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchilardan fikrlash quvvatini, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni turli amalaiy sharoitlarda qo‘llay olishni kreativ fikrlashni talab etadi.

Adabiyotlar:

1.Bikbayeva N. U va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.

2.Jumayev M. E, Tadjiyeva Z G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.

3. Azizxodjayeva N. N. “O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnoogiyasi” T., 2000

4. Saidaxmedov N.S. Yangi pedgogik texnologiyalar -T: Moliya nashr. 2003 y.

NEW APPROACHES TO ASSESSING STUDENTS' PERFORMANCE DURING THE CLASS

G.O.Kanaatova

National center of training teachers for new methods of the Republic of Karakalpakstan

Lecturer at the Department of Language Teaching Methods

Annotatsiya. Maqolada dars sifatini oshirishda o‘quvchilar bilimini baholash yo‘llari haqida so‘z boradi. Bunda baholash mezonlarga asoslanadi - eng yuqori natijaga erishishda o‘quvchining roli, bu talim oluvchining muayyan topshiriq bo‘yicha bajargan ishining darajasi va sifatini tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: ta'lim mezonlari, tavsifi, standarti, sifati.

Аннотация. В статье рассматриваются способы оценки знаний учащихся в повышении качества уроков. В данном случае оценка основана на критериях - роли ученика в достижении наивысшего результата, которая характеризует уровень и качество работы, выполненной учеником над тем или иным заданием.

Ключевые слова: критерия, дескриптор, стандарт, качество образования.

Annotation. The article discusses ways to assess the knowledge of students in improving the quality of lessons. In this case, the assessment is based on criteria - the role of the student in achieving the highest result, which characterizes the level and quality of the work performed by the student on a particular task.

Keywords: criteria, descriptor, standard, quality of education.

A good teacher – is a person with a high professional level, intellectual and creative potential. The formation of a person occurs through activity. For this reason, it is the main task of a modern teacher to provide quality education to students.

Due to the "traditional" method, which is limited to specific training, it is not possible to effectively combine knowledge with other knowledge accumulated by students, and therefore there are cases of mechanical memory, inattentively learning.

Currently, pedagogy is in the process of radically reconsidering the traditional assessment of students’ educational achievements. Changing education in line with the modern requirements of society should be accompanied by changes in learning strategies and methods of assessing student achievement.Improving the quality of education in the country has become a major issue. The quality of the lesson is measured by the student's knowledge and assessment. In the previous curriculum, we would try to assess the assessment only by asking the student himself and asking questions from other students.In this case, the student is not satisfied with his grades, and

sometimes becomes frustrated, and his interest in the lesson decreases. This is due to the fact that there is no feedback on the evaluation criteria that allow to increase the interest in learning.

The concept of criterion is the principle of making a decision on the assessment of something in accordance with the proposed requirements. Each criterion has a descriptor, which gives a clear idea of the correctness of the results of the lesson. Assessment according to the descriptor determines the achievement of the goal set by the student. If we look at the criteria-based assessment in order to improve the quality of the lesson, as a result, the student will know why he is assessing himself during the self-assessment.

Criteria - criteria for the implementation of learning tasks, ie.a set of actions to be performed by students in the process of work.

Descriptor (Standard) - a conclusion that determines the level and quality of the work performed by the student on a particular task. The descriptor is the result of each step of the reader in achieving the highest result.

Criteria-based assessment is a set of criteria that meet the learning objectives and content of students 'learning achievements, help to shape students' learning competencies, and are clearly defined, shared, and known to all participants in the learning process.If a child is told that he or she has reached a certain level, it does not help him or her understand what needs to be done to achieve the best results; in addition, if the child is analyzed in order to explain what he or she brought to such an assessment in his or her work, the assessment criteria will allow him or her to understand what needs to be done later to improve the child's outcome.

The purpose of the evaluation of the criteria:

- Improving the quality of lessons at school
- Reaching the level of education of schoolchildren to international standards

Criteria can be formed in the teaching of literature with the help of the following descriptors.

- Knowledge and understanding
- Application
- Critical thinking
- Communication and reflection

To study the work of T. Gayipbergenov in the 9th grade on the topic "The legend of Maman Biy" in the assignment of tasks based on the criteria in the lesson:

1. Being aware of the content of the poem
2. Selection of an important episode of the poem
3. Distribution of roles and casting

(casting criteria: image perception, speech culture, diction)

Students will be given the opportunity to choose their music and costumes.

Criteria developed by the teacher and students

- Knowledge and understanding of the content of the work
- Speech culture
- Diction
- Image capture
- Gesture
- Ability to work together in groups

Criteria related to the writing of the work

1. Proper design of the project

1 mark - coverage of of a section in a project
2 marks -coverage of two sections in a project
3 marks - c overage of all departments in a project

2. Relevance of the work to the topic

1 mark - Lack of information about T. Kayipbergenov
2 marks- Availability of some information about T.Kayipbergenov
3 marks - Lack of information about T. Kayipbergenov

3. Using the artictic words utilized by T.Kayipbergenov
1 mark -2-3 words
2 marks -4-5 words
3 marks - 6 -10 words
4.Giving instructions
1-0-mark for 1 instruction
2 marks for 2-3 instructions
3 marks for 4-6 intructions
5. Errors in writing the assignment
1 mark 6 -5 mistakes
2 marks 4-3 mistakes
3 mark 2-1 mistake
Changing the mark to the score
15-11 marks - " 5 "
10 -7 marks -" 4 "
6 -3 marks -" 3 "
2-0 mark - " 2"

As a result of such criteria-based assessment, students become accustomed to a realistic assessment of their knowledge and know why they are being assessed. Of course, these criteria are given as an example. The teacher can develop his own criteria-based assessment scale according to them, depending on the abilities of students.

Activity in doing home tasks	1 mark
Activity during classes	1 mark
Sharing his/her thoughts	1 mark
Understanding the content of a novel	1 mark
Ability to analyze the structure of a novel	1 mark
Using time efficiently and how well perform in group work	1 mark
Behaviour	1 mark

Changing mark to the score.
7-6 marks - " 5 "
5-4 marks -" 4 "
3-2 marks -" 3 "
1.- mark " 2 "

The practical significance of the evaluation of the criteria
- The work of a single student is evaluated;
- The work performed is compared with a pre-existing model;
- The student knows a clear assessment algorithm that allows him to evaluate his work and can provide parents with information;
- Assessment based on criteria is assessed in accordance with the purpose of specific training.

Significance of the evaluation criteria:
For teachers:
- Development of criteria for quality results;
- Analysis and obtaining information on the possibility of planning their activities for the future
- Improving the quality of education
- Use of different types of assessment;
- Proper placement of the curriculum:
- The use of all kinds of cognitive activity and thinking;

For parents:

- Acquaintance of the child with the evidence on the quality of knowledge
- To monitor the success of the child's education
- Supports the education of his child and gives him the opportunity.

Significant changes are taking place in the whole complex of relations that arise in the pedagogical process in the modern school, and the consequences of these changes are the creation of new conditions for learning, changes in the composition, changes in technology. The modern requirements of teaching are the education of a hard-working, competitive, prominent person.

REFERENCES:

1. Жумақаева Б.Д. «Қазақ әдебиетін оқыту әдістемесі». Оқулық. «Қыздар университеті» баспасы Алматы, 2015 жыл
2. Пахратдинов Ә. Қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. - Н.: «Билим», 2004.
3. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Ниҳол” нашриёти, 2013, 2016.–279 б.
4. Йўлдошев Ж., Ҳасанов С. Педагогик технологиялар.– Т.: “Молия-иқтисод” нашриёти, 2009.

Internet dárekleri:
htpp://www.zionet.uz
htpp://www.ustaz.kz
htpp://www.bilim.kz
htpp://www.orlew.kz

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA STEAM TA’LIMNING AHAMIYATI (BIOLOGIYA –KIMYO – FIZIKA – MATEMATIKA)

T.Zaynizoda
Samarqand tumani 50-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada biologiya darslarida integrallashgan o‘qitishni joriy qilish biologiya fanining kimyo va matematik ifodalardagi talqinlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Integratsiyalashgan ta’lim, STEAM, fanlararo integratsiya, moddalar va energiya almashinuvi, integratsiyaning maqsadi*

Hozirgi tez o‘sayotgan dunyoda o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy- axloqiy va intelektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv tarbiya jarayoniga ta’limning inovatsion shakllari va usullarini joriy etish zarurati uyg‘onmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish **t**og‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash va ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

➢ har bir o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchang motivasiyani shakllantirish;

➢ iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilarni tanlash va individual yondashish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;

➢ yoshlarni tarbiyalsh va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullarini va yo'nalishlarini joriy etish;

➢ o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish.

Integratsiyalashgan dars natijalari o'quvchilarning ijodiy faolyati rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o'quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.

Integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad - bu ta'lim jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o'rtasida barqaror aloqa o'rnatish, o'quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashi, ekologik muammolarni tushunishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalash, tabiiy va iqdisodiy fanlarni o'qitishda "STEAM"yondashuvni joriy etishdir.

"STEAM" – real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy-texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o'qitishdir. STEAM ta'limi tabiiy va iqdisodiy fanlar yo'nalishidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Shu sababli biologiya fanining takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlangan 8-9 sinf darsliklari kompitentlik asosida yangidan nashr qilindi, va mavzularga berilgan topshiriq va masalalar bizni faqatgina biologiya fanini emas balki boshqa fanlarni ham unga bog'lab qo'ymoqda. E'tibor qiladigan bo'lsak genetika, DNK va RNK, energiya almashinuvi bosqichlariga oid savollarda faqat matematik usullar bilan bilan yechilishi kerak bo'lgan savollar ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda pedagoglarimiz oldida turga eng asosiy muammolar ham shunda. Masalan: 9-sinf darsligida energiya almashinuvi mavzusiga doir berilgan masalalarni olaylik. Masalalar tuzilishini tushunishimiz uchun biologiya fanini, jarayon tenglamasini yozish uchun kimyo fanini va hisob kitoblarni amalga oshirish uchun matematika fanini bilishimiz zarur. Masalarni yechishda biz o'zimiz uchun eng maqbul va oson usullarni tanlay olishimiz zarur. Matematik tarzda tuzilgan savollar o'quvchilarni biologiya fani bilan birgalikda matematika fanini ham yaxshi bilishi kerakligini anglatmoqda. Matematika fanini yaxshi bilgan o'quvchi esa kimyo fanidan masalalarni qiynalmay yechadi va mohiyatini tez anglay oladi.

1-masala. Anaerob nafas olish jarayonida sitoplazmada 14 molekula sut kislota hosil bo'ldi. Parchalangan glyukozaning miqdorini aniqlang .

BERILGAN: Kislorodsiz muhutda 14 molekula sut kislota

Parchalangan $C_6 H_{12} O_6$ =?

YECHISH: 1mol C6 H12 O6 → 2mol $C_3 H_6O_3$

x C6 H12 O6 → 14 mol $C_3 H_6O_3$

x= $\frac{14*1}{2}$ =14:2=7

JAVOB: 7 molekula glyukoza parchalangan.

2-masala. Dissimilatsiya jarayonida 7 mol glukoza parchalangan. Agar 2 mol glukoza to'liq parchalangan bo'lsa, qancha (mol) ATF sintezlangan?

BERILGAN: 7 mol C6 H12 O6 parchalangan

2 mol C6 H12 O6 to'liq parchalansa,

ATF=?

YECHISH:

1mol $C_6 H_{12} O_6$ →38mol ATF 1mol $C_6 H_{12} O_6$ →2mol ATF

2 mol $C_6 H_{12} O_6$ → xmol ATF 5 mol $C_6 H_{12} O_6$ → x mol ATF

X= 38*2= 76:1= 76 mol X= 5*2=10:1=10 mol ATF

7 mol $C_6 H_{12} O_6$

2 mol to‘liq parchalangan } 76+10=86 ATF

5 mol to‘liqsiz parchalangan

JAVOB: 2 mol glyukoza to‘liq parchalansa, 86 mol ATF hosil bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasidagi bunday islohotlar o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirish bilan birga, izlanuvchanlik, darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, asosan yosh-avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo‘sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli, yetuk o‘quvchilarni tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Научно-методический электронный журнал «Иностранные языки в Узбекистане», призванный консолидировать усилия специалистов и распространять опыт в области изучения и преподавания иностранных языков, способствует развитию методики обучения иностранным языкам. Журнал актуален оперативным информированием читателей о состоянии и перспективах развития лингводидактики, методики преподавания языков, теоретической лингвистики, переводоведения, литературоведения и культуры, популяризация гуманитарного знания, предоставление ученым площадки для публикации результатов своей научной деятельности и исследований, осуществление информационной деятельности.

Газета «Учитель Узбекистана» предоставляет большой материал для изучение, анализа всех вопросов, касающихся образования и воспитания, с точки зрения общества, государства, страны и народа, содействие в нахождении научных, практических решений проблем педагогической сферы.

Использование публицистических текстов позволяет современному учителю идти в ногу со временем. Этого требуют стремительный прогресс, небывалое расширение возможностей получения информации, постоянное развитие информационно-коммуникационных средств, необходимость быть курсе новостей, прежде всего по своему предмету, а также политических, экономических и социальных событий, происходящих в стране и мире. У молодежи возрастают потребности, стремления к освоению современных знаний, специальностей, востребованных на рынке труда.

Список литературы:

1. Качалкин А.Н. Роль СМИ в межнациональном общении. Менталитет и речевой этикет нации // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Учебное пособие./ Отв. ред. М.Н.Володина. М., 2003. С. 216-225.
2. Иностранные языки в Узбекистане» (www.fledu.uz)
3. info@marifat.uz, uchitel@marifat.uz.

KVANT GENETIK ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARINI TAHLIL QILISH

Sh. A.Toirov, Sh.A.Omonqulova, J.B.Xonimqulov

Annatatsiya: Ushbu ishda kvant algoritmlarga genetik algoritmlarni qo‘llagan holda masalalani yechish jarayonlari keltirlgan. Ular modellashtirilgan genetik mexanizmlarga asoslangan muttasil evristik optimallashtirish usullari, ya'ni mutatsiya, krossover, selektsiya va boshqalar kabi populyatsiyaning dinamik jarayonlari hisoblanadi. Ushbu jarayon kvant genetik algoritmlar deb nomlanuvchi yangi sinfini paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu ishda biz yangi genetik algoritmlar sinflarining munozarasi, kelajakdagi imkoniyatlari va yaxshi tomonlarini taqdim etamiz.

***Kalit so'zlar**: kvant-genetik algoritmlar, kvant evolyutsion algoritmlari, qisqartirilgan kvant genetik algoritmi, kvant hisoblashlar.*

Kirish

1980-yillarning oxirlarida genetik algoritmlar optimallashtirish va bu algoritmni o'rganish usuli sifatida etarlicha imkoniyatga erishildi. Ushbu yillar davomida fizik Richard Feynman kvant mexanikasi asosida ishlaydigan kompyuter kvant kompyuter haqida o'ylardi. Biroq, kvant kompyuterida ishlashga qodir bo'lgan gibrit algoritmni loyihalash bo'yicha ajoyib g'oyaning paydo bo'lishi uchun biroz vaqt kutish kerak edi. Genetik algoritmlar- bu Darvinning tabiiy tanlanish va organizmlarda mavjud bo'lgan irsiy mexanizmlarga asoslangan qidirish algoritmlaridir. Oddiy genetik algoritmda genlar xromosoma deb nomlanadigan massivlarda kodlanadi. Odatda, algoritm xromosomalarning dastlabki yig'indisi bilan boshlanadi, shuning uchun tasodifiy ravishda hosil bo'lgan dastlabki yechimlar to'plami. Endi algoritm eng maqbul yechimni izlash uchun populyatsiyaning ustiga chiqib boradi. Har bir naslda populyatsiyadagi xromosomalar tanlanishdan oldin f baholanadi, ularning muvofiqlik qiymatlari olinadi va kodlanadi. Xromosomalar baholanishi bilanoq, algoritm Darvin tomonidan ilgari surilgan kontseptsiyasiga asoslangan holda, "ota-ona" yoki keyingi avlodning juftlashadigan jarayonini tanlaydi va eng yaxshilari omon qoladi. Xromosomalarning yangi avlodlari olinishi bilan algoritm krossover va mutatsiya kabi genetik mexanizmlarni modellashtiradi. Krossover holatida, bu genetik mexanizm qidiruv maydonida mavjud bo'lgan maqbul yechimlarga populyatsiyani yaqinlashtirishni targ'ib qiluvchi induvidlar o'rtasida birlashtirish paytida sodir bo'ladi [1].

Kvant hisoblash esa bu yangi paydo bo'lgan axborot fanlari va kvant fanlariaro fan. Birinchi kvant algoritmini Shor tomonidan raqamlarni faktorlashtirish uchun taklif qilingan. Grover, shuningdek, ma'lumotlar bazalarida tasodifiy qidirish uchun kvant algoritmini taklif qilai, bu algoritmining murakkabligi ($\sqrt{N}$) tartibida qisqartiriladi. Yaqinda kvantni hisoblash katta e'tiborni jalb qildi va u juda qiziqish uyg'otadigan tadqiqot sohasiga aylandi. 2010 yilda shu soha olimlari sun'iy intellektda ma'lum maqsadlarga erishish uchun kvant hisoblashdan foydalanish mumkinligini taklif qildi. So'nggi o'n yillikda kvantli kompyuterni tadqiq qilish "Kvant genetik algoritmlari" deb nomlanuvchi yangi sinfini paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu ishda biz yangi genetik algoritm sinflarining munozarasi, kelajakdagi imkoniyatlari, ijobiy tomonlarini haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz [2].

Asosiy qism

Kvant genetik algoritmlarni kvant hisoblash printsiplaridan kelib chiqqan xolada klassik optimallashtirish usullari sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Hozirgi vaqtda kvant sun'iy intellektining muammolaridan biri haqiqiy kvant evolyutsion algoritmlarini va kelajakda kvant kompyuterida bajarilishi mumkin bo'lgan dasturlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Biroq, biz oddiy genetik algoritmning asosiy bosqichlarini kvant versiyasiga tarjima qilganimizda ba'zi muammolar paydo bo'ladi. Bu paradoksal holat, chunki oddiy genetik algoritm Groverning kvant algoritmiga o'xshaydi va u oddiy genetik algoritmlar parallel izlash usullari bo'lib hisoblanadi. Kvant genetik algoritmlaridagi asosiy muammolardan biri bu xromosomalarning superpozitsion holatini buzmasdan induvidlarning populyatsiyasini o'lchash xolatini topishdir. Bundan tashqari, bugungi kunda hal qilinmagan eng muhim masalalardan biri bu kvant kompyuterda krossover operatorini qanday amalga oshirish haqida. Mutatsiyani kvant kompyuterida osonlikcha amalga oshirish mumkinligini hisobga olsak, ya'ni Pauli(x) darvozasidan foydalangan holda, bu maqsadda kvant-mexanik hodisalar yordamida krossoverni qanday bajarish kerakligi aniq emasligi aytilgan [1].

Eng qiziqarli g'oyalardan biri 2006 yilda kvant kompyuterida genetik algoritmni amalga oshirishda birinchi qadamlarni qo'yish orqali taklif qilingan. Ushbu ishlarning mualliflari qisqartirilgan kvant genetik algoritmi deb nomlanadigan haqiqiy kvant evolyutsion algoritmini taklif qilishdi. Algoritm quyida keltirilgan asosiy bosqichlardan iboratdir:

Barcha mumkin bo'lgan xromosomalarni superpozitsiyasini yaratish

F operatori bilan maqsad funksiyani baholaydi

Grover algoritmini qo'llash
Oracle O ga murojaat qilish
Groverning diffuzion operatorini qo'llash
Natija

Birinchi navbatda, algoritm barcha induvidlarning superpozitsiyasini, ya'ni N yoki populyatsiyaning *Q(t)* xromosomalarini yaratish jarayonidan boshlaydi. Ya'ni $|\psi>^{Q(t)}$ hosil qilinadi

Shuning uchun xamma induvidlar faqat bitta yagona kvant registri bilan taqdim etiladi. Ya'ni, butun populyatsiya superpozitsiyadagi yagona xromosoma bilan ifodalanadi:

$$\binom{\alpha_j}{\beta_j}_i = c_0|00\dots00> + c_1|00\dots01> + \dots + c_{2^n-2}|11\dots01> + c_{2^n-1}|11\dots11> \quad (1)$$

Qisqartirilgan kvant genetik algoritmining asosiy bosqichlaridan biri bu yagona kvant registri $|x>_i$ va maqsad funksiya-$|fitness_x>_i$ kvant registri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rib chiqishdan iborat b'ladi.

Shu nuqtai nazardan, biz induvidlarning holatini baholaydigan *F*-ning kvant eshiklariga egamiz (1-rasm). Shunga o'xshash g'oya «Kvant genetik optimallashtirish algoritmi» deb nomlangan haqiqiy kvant evolyutsion algoritmining boshqa versiyasida ham qo'llanilgan. [3]



1-rasm. Fitness kvant eshigi.

Ikkinchi bosqichda algoritm maqsad funksiyaning maksimal moslikni qidiradi. Bu moslikni qidirish 90-yillarning oxirida [6] N qiymatlari orasida maksimal qiymatni qidirish uchun kvant algoritmlar orqali qidirishni taklif qiladi.

F operatori qo'llanilgandan so'ng, qisqartirilgan kvant genetik algoritmi Grover qidiruv algoritmi [5] asosida maksimal maqsad funksiya qiymatini qidiradi. Bu tartibsiz ma'lumotlar bazada qidirishga yo'naltirilgan eng samarali kvant algoritmlaridan biridir. Qisqartirilgan kvant genetik algoritmi quyidagi ikki bosqichni bajaradi.

Birinchidan, Oracle *O* maqsad funksiya qiymatlari to'plamiga ega bo'lgan registrda barcha to'plamlarni belgilash uchun mo'ljallangan bu erda *ψ (nxn)* matritsiadan iborat:

$|\psi>_i$

maqsad funksiya qiymatiga ega bo'lish uchun $O|\psi>^{Q(t)}$ dan foydalanamiz

Ikkinchidan, algoritm Groverning diffuziya operatorini qo'llash yo'li bilan yakunlanadi. Bu operator belgilangan holatlarni topishga, ya'ni $f(|fitness_x>_i) = 1$ bo'ladi. Va nihoyat, $|\psi>^{Q(t)}$ bajarish bilan maksimal darajada xromosoma olinadi. Ushbu bosqichlarning barchasi 2-rasmda ko'rsatilgan kvant tizimida umumlashtiriladi [4].



2-rasm. QKGA ni ifodalovchi kvant davri.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib biz sodda optimallashtirish muammosidan foydalanib, kvant genetik algoritmlarini qanday amalga oshirishligini va funksiyalarni berilgan oraliqlarda maksimal nuqtasini topishda o‘llashimiz mumkindir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ushbu ishda biz kvant hisoblash va kvant evolyutsion hisoblashidagi asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqdik. So‘nggi yillarda kvantli kompyuterni taqlid qilish imkoniyati yangi genetik algoritimlarni, ya'ni kvant genetik algoritimlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda ushbu algoritmlar sinfida tadqiqotlar ikkita tendentsiya o‘rtasida taqsimlangan. Bir tomondan, ba'zi tadqiqotchilar kvant mexanikasida yangi genetik algoritimlar sinfini yaratishga imkon bersa. Bunday holda, tadqiqotchi yaqin kelajakda algoritmni kvant kompyuterida boshqarishni rejalashtirmaydi. Asosiy maqsad raqamli kompyuterda optimallashtirish muammosini hal qilish, yoki kvant genetik algoritimlada apparat texnologiyasini sinab ko‘rish yoki klassik genetik algoritmlar o‘rniga algoritmning yangi sinfidan foydalanib, real muammolarni hal qilishdan iboratdir. Ushbu algoritmlar orqali olib borgan fikrlash tarzimizga ko‘ra, biz ushbu so‘nggi izlanishlar sun'iy intellekt va sun'iy hayotga, shuningdek biologiya kabi fanlarga chuqur ta'sir ko‘rsatishi mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malossini, A.; Blanzieri, E.; Calarco, T. Quantum genetic optimization. IEEE Trans. Evolut. Comput. 2008.

2. Ahuja, A.; Kapoor, S. A quantum algorithm for finding the maximum. 1999, arXiv: quant-ph/9911082.

3. Grover, L.K. A fast quantum mechanical algorithm for database search. In Proceedings of the 28th Annual ACM Symposium on the Theory of Computing (STOC), Philadelphia, PA, USA, 22–24 May 1996.

4. Lahoz-Beltra, R. Quantum genetic algorithm (QGA). Figshare 2016.

5.Lahoz-Beltra, R. Hybrid genetic algorithm (HGA). Figshare 2016.

6. Lahoz-Beltra, R. Reduced quantum genetic algorithm (RQGA).

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Ф.Ж.Гафарова
Учитель математики 6 школы города Самарканд

«Ничто так не способствует процветанию,
могуществу и счастью нации, как образование»
Томас Джефферсон

Нужны ли нам международные оценки? Давайте разберёмся.

Да, эти исследования помогут определить эффективность образования всех стран и образовательных систем.

Позволит определить пробелы (слабые стороны и сильные стороны. Мы будем учиться друг у друга, перенимать опыт. И самое главное, эти исследования помогут создать образовательный потенциал).

Исследование направлены на результаты образовательных систем, то есть образовательных достижениях и позиции учащихся после определенного периода обучения, обычного четвёртого и восьмого классов.

Исследования предназначены для определения связей между на меченным учебным планом, то есть того, чего требует государственная программа и реализуемым учебным планом, то есть тем, что преподаётся в школах. И тем чему учатся учащиеся.

Исследование охватывают широкий спектр навыков и компетенций.

Международные оценочные исследования позволяют определить значимые факторы для обучения. Это-состав и ресурсы школы, климат в школе, безопасность в школе, подготовке учителей и руководителей, обучение в классе, вовлечённость и отношение учащихся.

Глобальная цель образования:

«Обеспечение всестороннего и качественного образование для всех и содействие непрерывному обучению».

На основании постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по организации международных исследований в сфере оценки качества образования в системе народного образования» определено внедрение международных исследований PIRLS, TIMSS, PISA и TALIS в Узбекистане, а в целях реализации этих исследований создан Национальный центр по международным исследованиям оценки качества образования при Инспекции по образованию.

Эти международные оценочные программы и исследования в их рамках организуются Организацией экономического сотрудничества и развития (OECD) и Международной ассоциацией по оценке учебных достижений (IEA) совместно со странами мира на основе определенной периодичности.

Согласно документам соглашения, подписанного между Государственной инспекции по надзору за качеством образования и организациями OECD и IEA, Узбекистан начинает участвовать в Международной программа по оценке образовательных достижений учащихся PISA-2022 (предыдущая PISA-2021) и Международном исследовании качества чтения и понимания текста PIRLS-2021.

Теперь началась работа по подготовке к участию в международной программе TIMSS-2023. Согласно «официальному предложению для участия в тенденциях Международных математических и научных исследований (TIMSS) 2023» был рассмотрен вопрос участия в первый раз Узбекистана в программе TIMSS. На основе диалога между Национальным центром по проведению международных исследований по оценке качества образования при Инспекции по образованию впервые было получено согласие руководства IEA.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) – это программа для оценки уровня владения учениками 4-х и 8-х классов математикой и естественными предметами, и это исследование проводится каждые четыре года.

Помимо сравнения уровня и качества знаний, полученных учащимися 4-х и 8-х классов по математике и естественным наукам, а также определения различий в национальной системе образования в TIMSS также рассматривается содержание образования, получаемого по математике и естественным наукам в школах, образовательный процесс, возможности образовательного учреждения, потенциал его развития.

Программа TIMSS начала свои первые исследования в 1995 году, и до 2019 года они проводились каждые четыре года в 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 и 2019 годах. Следующую 8-периодичность планируется провести в 2023 году.

Число стран, участвующих в программе, также увеличивается. Так, если в 2015 году в исследованиях TIMSS приняли участие 57 стран, то в 2019 году этот показатель составил более 60 государств. Согласно результатам исследования, TIMSS 2015 года самые высокие показатели заняли образовательные системы таких стран, как США, Сингапур, Гонконг, Республика Корея, Япония, Россия, Великобритания.

PISA оценивает уровень читательской, математической и естественнонаучной грамотности 15-летних школьников, а PIRLS – уровень чтения и понимания текста

учащихся 4-х классов. А Международная программа оценки TIMSS оценивает уровень математической и естественнонаучной грамотности учащихся 4-х и 8-х классов. PIRLS и TIMSS могут быть признаны взаимодополняющими программами.

Приоритетным направлением исследований PISA и TIMSS является оценка математической грамотности учащихся. Можно отметить, что такие исследования в нашей стране будут созвучны проводимым реформам республики, где уделяется огромное значение развитию математики.

Узбекистан получит возможность применить опыт развитых стран в системе образования страны через участие в TIMSS и других международных исследованиях, сравнить его результаты с результатами других стран.

В ходе исследования было установлено, в какой степени грамотность учащихся 4-х и 8-х классов Узбекистана по математике и естественным наукам выше, чем у их сверстников в других странах. В ходе исследования поднимаются такие вопросы: Является ли математика и естественные предметы интересной наукой для учащихся 4-х и 8-х классов? Какой вклад вносит семья в овладение детьми математикой и естественными науками? Как сегодня организован процесс преподавания математики и естественных предметов в нашей стране? Имеет ли процесс преподавания математики и естественных предметов в Узбекистане свои особенности по отношению к другим странам, если есть, то, о чем это свидетельствует? В чем отличие методики преподавания математики и естественных предметов в нашей стране от методики преподавания учителей других стран?

Постоянное участие в исследовании с периодичностью раз в четыре года дает возможность осуществлять мониторинг эффективности системы образования нашей страны в глобальном масштабе. Данные программы служат повышению качества образования за счет совершенствования национальной системы оценки качества.

МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ МЕТОДИ – ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛИ

К. Ҳайдаров
Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази, фалсафа фанлари доктори (DSc), доцент

“Юртимизда Учинчи Ренессанс даври пойдеворини барпо этиш учун бизга замонавий илм ва яна бир бор илм, тарбия ва яна бир бор тарбия керак. Бугунги ва эртанги кунимизни, ёшларимиз тақдирини ҳал қиладиган юксак малакали муаллим ва мураббийлар, профессор-ўқитувчилар, ҳақиқий зиёлилар керак”.

Шавкат МИРЗИЁЕВ

Аннотация. Ушбу мақолада узлуксиз таълим тизимида янги, замонавий методларнинг аҳамияти, уларни тизимга жорий этиш омиллари тўғрисида мушоҳада юритилади. Хусусан, мантиқий фикрлаш методининг ўзига хос хусусиятлари, унинг ўқувчилар тафаккурини шакллантиришга таъсири ва бунда ўқитувчининг педагогик маҳорати билан боғлиқ масалалар таҳлил қилинади ва тегишли тавсиялар берилади.

Таянч иборалар: узлуксиз таълим, билиш жараёни, фикрлаш маданияти, мантиқий фикрлаш, тафаккур, хулоса, педагогик маҳорат.

Аннотация. В статье рассматриваются значение новых, современных методов обучения в системе непрерывного образования и факторы, способствующие внедрению их в этой сфере. В частности, анализируются своеобразные особенности метода логического

мышления, его влияние на формирование культуры мышления учащихся и вопросы, связанные с повышением педагогического мастерства учителей, дается соответствующие рекомендации.

Ключевые понятия: непрерывное образование, процесс познания, культура мышления, логическое мышление, заключение, педагогическое мастерство.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги “2022-2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-134-сон Фармонида [1.1] ўқитувчилар малакасини оширишда уларни янги, замонавий методикаларга ўргатиш муҳим вазифа сифатида белгиланди. Бундан кутилган пировард мақсад – таълимнинг энг самарали методларини таълим жараёнига татбиқ этиш орқали кутилган натижага эришиш, яъни ўқувчи ёшларда тафаккур маданиятини шакллантириш, уларни мустақил мантиқий фикрлашга ўргатишдан иборат.

Хўш, мантиқий фикрлаш нима дегани? Мантиқий фикрлаш кўникмалари қандай қилиб шакллантирилади?

Ушбу масалаларга бағишлаб китоблар ёзилмоқда, мақолалар чоп этиляпти ва ҳоказо. Фалсафий ва педагогик мазмундаги адабиётларда мантиқий фикрлашнинг аҳамияти тўғрисида, уни қўллашда педагогнинг маҳорати ва тажрибаси зарурлиги тўғрисида муайян фикр-мулоҳазалар баён қилинган. Масалан, “Жаҳон фалсафаси қомуси”да “мантиқий фикрлаш” деган тушунчага қуйидагича таъриф берилган: “Мантиқий фикрлаш – инсон томонидан кўриб, эшитиб, билиб, ҳис қилиб ва англаниб турган борлиқ, воқелик ёки таассуротларнинг бошқалар учун ҳам тушунарли тарзда тафаккур этилишини англатувчи тушунча” [2.710].

Демак, мантиқий фикрлаш барча соҳаларда, айниқса педагогик фаолиятда жуда муҳимдир. Чунки айнан педагогик фаолиятда изчиллик, мантиқий кетма-кетлик орқали кўзланган натижага эришиш мумкин. Шундан келиб чиқиб, “мантиқий фикрлаш” деган тушунчага янада аниқроқ қилиб, шундай таъриф бериш мумкин: **мантиқий фикрлаш** – бу инсон билан уни ўраб турган оламдаги нарса ва ҳодисалар ўртасидаги муносабатлар, улар ўртасидаги айнанлик ва тафовутларни кузатиш, идрок ва тасаввур қилиш, таққослаш, таҳлил қилиш орқали англаб етиш ва шу асосда фаолиятни тўғри ташкил этиш демакдир.

Мантиқий фикрлаш инсоннинг тафаккур маданияти даражасини билдиради. Шу боисдан мантиқий фикрлаш тафаккур қонунларининг намоён бўлиши ҳамдир. Умуман, мантиқий фикрлашнинг нима эканлигини билиш учун тафаккур қонунларидан яхши хабардор бўлиш лозим. Айният, зиддиятсизлик (нозидлик), учинчиси истисно ҳамда етарли асос қонунлари мантиқий тафаккурнинг моҳиятини ташкил этади.

Айният қонуни оламдаги ҳар қандай нарса ёки ҳодисанинг ўзига тенглигини, фикр-мушоҳадада, ёзишда (матнда), ўзаро сўзлашувда сўзларни тўғри ва бир хил қўллашни билдиради. Зиддиятсизлик (нозидлик) қонуни айни вақтнинг ўзида ҳар қандай воқеа-ҳодисанинг зидди (тескариси) бўлмаслигини тақоза қилади. Етарли асос қонуни фикрнинг чинлиги аввалдан исботланган бўлиши шарт, деган талабга асосланади. Учинчиси истисно қонуни иккита зид фикрдан бири чин, иккинчиси хато, учинчисига ўрин йўқ, деган маънони билдиради. Хуллас, мантиқий фикрлаш жараёнида тафаккурнинг ушбу қонунлари ўзаро уйғун ҳолда намоён бўлади. Мулоҳаза жараёнида ушбу қонунларнинг бузилиши мантиқий хатоликларга олиб келади ва бундай мантиқий хатолар паралогизмлар деб аталади. Паралогизмлар атайлаб ёки билмасдан содир этилиши мумкин. Бундай хатоликларга йўл қўйиш эса педагогнинг фаолиятида нохуш оқибатларга олиб келиши мумкин.

Мантиқий фикрлаш инсоннинг дунёни билишида ғоят муҳим ўрин тутади. Шу боис, мантиқий фикрлашни кундалик турмушда, бизни ўраб турган атроф-муҳитда содир бўлаётган турли туман вазиятларни мулоҳаза ва мушоҳада қилиш, мунозара юритиш ва тушунтириш воситаси деб ҳам аташади.

Инсоннинг дунёни билишида мантиқий фикрлаш универсал характер касб этади. Шундай бўлса-да, мантиқий фикрлашнинг ўзига хос хусусиятлари бор. Биринчидан,

мантиқий фикрлаш дедуктив моҳиятга эга, яъни умумий билимлардан жузъий, алоҳида билимларга қараб йўналиш жараёни ҳисобланади. Аниқроқ айтганда, нарса ёки ҳодиса ҳақида умумий билимлардан алоҳида, конкрет билимларга қараб бориш мантиқий фикрлашнинг мазмунини ифодалайди. Иккинчидан, мантиқий фикрлаш қиёсий ва таҳлилий моҳиятга эга: инсон фикрлаш жараёнида албатта нарса ёки ҳодисаларни ўзаро қиёслайди, керакли ҳолларда таҳлил қилади ва якунда хулосага эга бўлади. Учинчидан, мантиқий фикрлаш конвергент характерга эга, яъни киши муайян хулосага эга бўлиш учун аввалги, ўзаро яқин, ўхшаш фикрларга, билим ва тажрибага асосланади.

Мантиқ (логика) фани, унинг қоида ва тамойилларини яхши билиш педагог ходимлар фаолиятида ғоят муҳим аҳамият касб этади. Мисол учун, “чуқурлиги 3 метр, эни 6 метр чуқурликда қанча тупроқ бор?” ёки “ходани 4 га бўлиш учун уни неча марта арралаш керак?” деган оддий саволлар ҳам ўқувчиларни мантиқий фикрлашга ундайди ва математика дарси машғулотларининг мазмунини оширади (биринчисига жавоб - чуқурда тупроқ йўқ, иккинчисига – 3 марта). Кўриниб турибдики, бундай фикрлар тўғридан тўғри тажрибадан келиб чиқади ва ўқувчилар муаммога дуч келганда, тўғри қарор қабул қилиш қобилиятини рағбатлантиради.

Бугун умумий ўрта таълим тизимида замонавий технологиялар, интерфаол методлардан таълим жараёнида кенг фойдаланиш муҳим ва долзарб масалага айланди. Ҳозир мактаб таълимида тайёр билимларни эгаллашга ўргатиш эмас, балки зарур билимларни ўқувчининг ўзи қидириб топишга ўргатиш устувор аҳамият касб этмоқда. Ўқитувчи ушбу жараёнда ўқувчининг шахс сифатида шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, яъни йўналтирувчилик, “режиссёрлик” вазифасини бажаради. Немис педагоги А.Дистервег айтганидек, “ноқобил ўқитувчи ҳақиқатни шунчаки айтади-қўяди, яхшиси эса уни топишга ўргатади”.

Мантиқий фикрлашда асосий омил билим эканлиги ўз-ўзидан тушунарли. Лекин мантиқий фикрлаш кўп нарсани эмас, балки керакли нарсани билиш деганидир. “Мен кам биламан, лекин билганларимни жуда яхши биламан” [3.70], деган экан бир донишманд. Албатта, давр ўқитувчи олдига янгидан янги масъулиятли вазифаларни қўймоқда. “Бугунги ўқитувчи замонга “мослашиш” эмас, балки ундан бир қадам олдинда юришга интилиши керак” [4.219].

Бугун узлуксиз таълим тизимида “**Ақлий ҳужум”, “Фикрлар ҳужуми”, “Тармоқлар” методи, “Синквейн”, “ББББ”, “Баҳс-мунозара”, “Ролли ўйин”, “Кичик гуруҳларда ишлаш”, “Зигзаг”, “Сўнгги сўзни мен айтай”** каби кўплаб замонавий технологиялар қўлланмоқда. Аслида ушбу методларнинг барчаси ўқувчида мантиқий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган. Масалан, “кластер” методини олайлик. Ушбу методнинг қоидасига кўра доска ёки катта қоғознинг ўртасига асосий сўз (ёки мавзу) ёзилади. Унинг моҳиятини очишга хизмат қиладиган “йўлдош” сўзлар доирачаларга ёзиб қўйилади, чизиқлар билан туташтирилади, бу доирачалар ғоя тугагунча давом эттирилади. Кластер (тутам, боғлам) – ахборот харитасини тузиш йўли бўлиб, барча тузилмаларнинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун асосий омил атрофида ғояларни йиғиш демакдир. У фикрлаш жараёнининг мантиқли давом этишини таъминлайди.

Ёки, “ақлий ҳужум” – бирор бир муаммо бўйича иштирокчи (ўқувчи)лар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали муайян ечимга келинадиган методдир. Ёки, айтайлик, “Бумеранг” технологияси иштирокчиларда танқидий фикрлаш, мантиқни шакллантиришга имконият яратади, хотирани чиниқтиради, ғоя ва фикрларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради. Мантиқий фикрлашни ривожлантиришга қаратилган ушбу методлар, айниқса, тарих, адабиёт, тарбия каби ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда самарага эришиш калитидир.

Ушбу методлар иштирокчиларни ўз фикрини ҳимоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга сингдиришга, очиқ баҳслашиш, эгалланган билимларни таҳлил қилишга, ўз билимларини баҳолаш ва ўзаро баҳслашиш маданиятига ўргатади.

Хулоса қилиб айтганда, мантиқий фикрлашга асосланган машғулотлар бугун таълим ислоҳотларида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, биринчидан, улар педагогларни янги, замонавий методикалар билан "қуроллантиришда" муҳимлиги, иккинчидан, таълимда самарадорликни таъминлашнинг асосий, синалган йўли эканлиги билан ажралиб туради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги "2022-2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. – Т.: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.05.2022 й., 06/22/134/0407-сон.
2. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. –Т.: "Маънавият", 2019. – Б.710.
3. Смешные рассказы: пер. с средневек. ассир. Бар-Эбрая Г.Ю. (Абуль Фарадж). – М.: Политиздат, 1992. – с.70.
4. Ҳайдаров К. Шарқ фалсафасида маънавий тарбия устуворлиги. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2020. – Б.219.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G.Qarshiyeva
O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) fakulteti magistranti

Annotatsiya

Innovatsiya ma'lum bir faoliyatda shakl, metodlar, muammolarni yechishdagi yangicha yondashuv, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash orqali yuqori natijalarni ta'minlash hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, jarayonga kontseptual yonashuvdir.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyasi, pedagogik usullar

Abstract

Innovation is a form, methods, new approach to solving problems in a certain activity, ensuring high results by applying new technologies to the educational process. In short, it is a conceptual approach to the process.

Key words: educational technology, pedagogical methods

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi"

Maktab ta'limining bugungi vazifasi, o'qituvchilarning yangi innovatsion

axborot texnologiyalari orqali dars davomida samarali foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berish hisoblanadi. Shuning uchun ham dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning matematika fanini tushunarli, aniq qilib o'rganib borishi uchun ham, darslarni yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishi va o'rgatishi maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion texnologiya pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faoliyat jarayoni hisoblanadi.

1-4- sinflarda joriy etiladigan yangi texnologiya avvalo, fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash (integrativ), ortiqcha qiyinchilikni bartaraf etish, o'quvchi faoliyatini to'g'ri izga

solish, vaqtdan unumli foydalanish, tashabbuskorlik va ijodkorlik muhitini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday ekan, o‘qituvchi darsda turli pedagogik usullardan foydalansa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida to‘siq yo‘qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi; kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi; chunki darsda majburiy bilim berish bo‘lmay, ilmni ixtiyoriy qabul qilish albatta ijobiy natijaga olib keladi. Buning uchun metodik usullarni tavsiya etishga harakat qildim.

“Olmalar terish” metodi

Bu o‘yinni 1-sinflarga qo‘llash juda yaxshi, chunki 1-sinflar o‘yinqaroq bo‘lganliklari sababli shu singari ko‘rgazmali vositalarga qiziqishadi va ilm olishi ham yuqori bo‘ladi.

Xo‘sh bu o‘yinni qanday o‘ynaymiz?

Bunda sinfda shu tarzidagi ko‘rgazmali vosita bo‘ladi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, har bir guruhdan o‘quvchilarni chiqaramiz,ular olmalardagi misollarni bajarishadi yoki savollarga javob berishadi va savatchalarga solishadi.O‘yin yakunida qaysi guruh ko‘p olmalarni tergan bo‘lsa o‘sha guruh ğolib bo‘ladi. Bu o‘yinni 1-sinflarga 10 ichida qo‘shish va ayirishni o‘rgatish mavzularida qo‘llasa bo‘ladi.

“Qo‘shningni top” metodi.

Bu metodda sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga savollar beriladi. Ikkinchi guruhga javoblar tarqatiladi.

Birinchi guruhdan bir o‘quvchi turib savolni aytadi (masalan misol, masala berilgan bo‘lsin, albatta o‘quvchilarning yoshini inobatga olgan holda savollar beriladi), shu savolga mos ravishda 2 guruhdan bir o‘quvchi javobni aytadi. Javob to‘gri yoki noto‘ğri ekanini savol bergan o‘quvchi aytadi. Bunda o‘qituvchi juda ziyrak va topqir bo‘lishi kerak. Chunki o‘quvchilarning har bir bergan savol va javoblariga diqqat bilan e’tibor berib baholashi kerak. Bu metod asosan 15 daqiqaga bag‘ishlangan.

Bu metodni qo‘llash o‘quvchilarning topqirligini, zukkoligini, bilimini,nutqini hamda matematika faniga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

“Zinama – zina” metodi

Zinama-zina» metodi – o‘yin tarzida tashkil etishga mo‘ljallangan bo‘lib, berilgan topshiriqlar asosida marraga kim birinchi chiqishdan iborat hisoblanadi. Ya’ni bu metodning yo‘lini tushuntiradigan bo‘lsak, ikki o‘quvchiga misollar beriladi, zinaga o‘xshash ko‘rgazma tayyorlangan boladi. Kim birinchi bo‘lib misollarni to‘g‘ri va tez bajarib zinaning yuqorisiga chiqsa g‘olib sanaladi va rag‘batlantiriladi.

Ma’lumki, 1-sinf o‘quvchilarining fikrlari tarqoq bo‘ladi. Shuning uchun ham masalalar yechish jarayonida o‘quvchilar fikrini to‘la qila olish va masala mazmunini yanada tushunarliroq bayon qilish kerak bo‘ladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalgam oshirish yo‘llaridan biri darsda ko‘rsatilgan qurollardan o‘rinli foydalanish bilan birga yaxshi tashkil etilgan og‘zaki suhbat hisoblanadi. Fikrimizning dalili uchun bir masalaning yechilishi namunasini ko‘rib o‘tamiz:

1.Simyog‘ochga 4 ta qaldirg‘och qo‘ngan edi. Yana 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi, so‘ngra 2 ta qaldirg‘och uchib ketdi. Simyog‘ochda nechta qaldirg‘och qoldi?

O‘qituvchi kartochkani ko‘rsatib suhbat o‘tkaziladi. Simyog‘ochga qo‘nib turgan qaldirg‘ochlar 4 ta Bor edi-4 ta q. Qo‘ndi- 3 ta q Uchdi -2 ta q. Qoldi – 2 ta q.

- Bolalar simyog‘ochda avval nechta qaldirg‘och bor edi?
- 4 ta qaldirg‘och bor edi.
- Yana nechta qaldirg‘och kelib qo‘ndi?
- 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi.
- Simyog‘ochda hammasi bo‘lib nechta qaldirg‘och bo‘ldi?
- 7 ta qaldirg‘och bo‘ldi.
- Shundan nechtasi uchib ketdi.

42 - 2 ta qaldirg‘och uchib ketdi.

- Simyog‘ochda nechta qaldirg‘och qoldi.

Kartochkadagi qaldirg‘ochning usti qog‘oz bilan berkitiladi. Bunday tushuntirish orqali o‘quvchilar faqat masala mazmuniga tushunibgina qolmasdan balki, o‘gzaki yechishga ham yetib boradilar. Shundan so‘ng masala sharti yana bir marta o‘quvchilar bilan birgalikda takrorlanadi va shartiga ko‘ra quyidagi tartibda ifoda tuzib yechiladi. Simyog‘ochda 4 ta qaldirg‘och bor edi. Yana 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi: 3+4.

Shundan 2 tasi uchib ketdi: 4+3-2

Endi bu ifoda osonlikcha yechiladi. Ya’ni avval 4 va 3 sonlari qo‘shiladi. Yig‘indi(7) hosil bo‘ladi. Yig‘indidan 2 soni ayriladi. Natijada izlangan son (5) hosil bo‘ladi. Javob: 5 ta qaldirg‘och qoldi. Shundan so‘ng o‘quvchilar yuqoridagilarni daftarlariga yozib oladilar.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish, ta’lim tizimining eng muhim muammolaridan biri. Bo‘lajak pedagoglar uchun zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan chuqur bilimga ega bo‘lishi juda muhimdir. Bu muammoni hal etish yo‘llaridan biri – o‘qitish jarayonida ko‘proq innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan iborat. Bu esa o‘quvchilarni faollashishigagina emas, balki mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashini shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo‘lishi hamda ijobiy kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 9-iyuldagi«Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.
3. L. O‘rinboyeva va b 1-sinf matematika kitobi. Toshkent-2021.
4. L. O‘rinboyeva va b 2-sinf matematika metodik qo‘llanma kitobi. Toshkent-2021.
5. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.-T.: «Ilm-Ziyo», 2005,

TASVIRIY SAN’AT TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

G.A.Tairova
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san’at to‘garaklarini tashkil etishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati, ya’ni ijodkorlikka yo‘naltilganligi, to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlarni o‘rniga to‘xtalgan holda “T” chizma va “Aqliy hujum” metodlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, to‘garak mashg‘uloti, interfaol metod, rasm chizish, ijodkorlik, mustaqil ish.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan tasviriy san’at to‘garaklarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘quvchilarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni to‘liq egallashiga imkoniyat yaratadi. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini va tafakkurini rivojlanishiga, o‘z navbatida esa, olingan bilim va ko‘nikmalarning natijasini kafolatlaydi.

Maktabda faoliyat olib borayotgan to‘garak mashg‘ulotlari shaxsning barkamol kamol topishga, o‘sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o‘quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtidan oqilona

foydalanishga yo‘naltirilgan, uning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshlarga qo‘shimcha ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularning bo‘sh vaqtini sermazmun o‘tkazish, yoshlarning ongiga milliy g‘oya va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishdan iboratdir.

To‘garak mashg‘ulotining maqsadi: Vatan kelajagi, ravnaq topishi uchun komil inson tarbiyalab ta’lim berib borishdan iboratdir. To‘garak mashg‘ulotlarini interfaol usullardan foydalanib olib borish ta’lim sifatini yanada oshiradi. Bola mashg‘ulotda erkin fikrlay olishi, ijodkorlik mahoratini oshkora namoyish eta olishi lozim. To‘garakda bola maktab darslaridan keyingi bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun sharoit yaratilishi zarur. To‘garak mashg‘ulotlari bola o‘z ustida ishlashi, o‘zi qiziqqan yo‘nalishi bo‘yicha shug‘ullana olishi, qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi uchun imkon beradi. Mashg‘ulot davomida dars o‘qtish bilan birga bolalarda o‘zaro ijodiy tajriba almashishadi. Bir yo‘nalishda izlanayotgan, bo‘lajak yosh mutaxassislar shakllanadi. To‘garak bolalarning to‘garaklarni o‘zlari erkin tanlashi, bir vaqtning o‘zida bir necha to‘garakka qatnashi va qiziqishiga ko‘ra to‘garakni almashtirishi mumkin. Bu kelajakda bolalarning biror-bir kasbni tanlashida boshlang‘ich pog‘ona vazifasini o‘taydi.

Quyida to‘g‘rak mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlarni qollash imkoniyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

“Baliq” rasmini chizish” mavzusidagi mashg‘ulotda “Aqliy hujum “metodi asosida baliq turlarini topish mumkin bo‘ladi: zog‘ara, sazan, laqqa, oq amur, seld ……



“Mashina rasmini chizish” mavzusidagi mashg‘ulotda “T” chizma metodi asosida yengil mashinalar va yuk mashinalarga misollar toppish vazifasini beramiz.

Yengil mashinalar	Yuk mashinalar
Neksiya	Kamaz
Malibu	Zil
Kaptiva	Maz
……	……

Keyin esa rasm ishlashga yo‘naltiramiz.



Xulosa qilib aytish mumkinki, tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali integratsiya jarayonini ham amalga oshirish imkoniyatini qolga kiritamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahim Hasanov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Birinchi qism. Toshkent-2006 yil.
2. Rahim Hasanov. Tasviriy san`atni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Ikkinchi qism. Toshkent-2006 yil.
3. S. Abdurasulov, N. Tolipov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent,2007 yil.
4. Ishmuhamedov R. va b.q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: 2010.
5. Azizxodjaeva A.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T: 2006.

ONLINE OCHIQ KODLI PLATFORMALAR ASOSIDA MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

N.U.Shodmonqulova
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika oliy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanib "Materiallar qarshiligi" fanini o'qitish va shu asosda ta'lim jarayonini tashkillashtirish, elektron ta'limda masofali kursni yaratish jarayonida Microsoft Teams ochiq kodli platformasining pedagogik tamoyillarini ishlab chiqish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim, Microsoft Teams, integrativ yondashuv, elektron resurs, IT, o'qitish metodikasi, multimediya, ochiq kodli platforma.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы преподавания предмета "сопротивление материалов" с использованием информационных технологий в техническом высшем образовании и организации образовательного процесса на этой основе, разработки педагогических принципов платформы Microsoft Teams с открытым исходным кодом и формирования практических навыков в процессе создания дистанционного курса электронного обучения.

Ключевые слова: электронное обучение, Microsoft Teams, интегративный подход, Электронный ресурс, ИТ, методика обучения, мультимедиа, платформа с открытым исходным кодом.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SCIENCE OF MATERIALS RESISTANCE BASED ON OPEN SOURCE ONLINE PLATFORMS

Shodmonkulova N.U. - Lecturer of the Samarkand State University of Architecture and Construction

Annotation. This article discusses the issues of teaching the subject "resistance of materials" using information technology in technical higher education and the organization of the educational process on this basis, the development of pedagogical principles of the Microsoft Teams open source platform and the formation of practical skills in the process of creating a distance e-learning course.

Keywords: e-learning, Microsoft Team, integrative approach, Electronic resource, IT, teaching methodology, multimedia, open source platform.

Jamiyatning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham, modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy

texnologiyalar bilan ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Texnika oliy ta'limida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish asosida ta'limning turli ko'rinishlari, shakllari va usullarini rivojlantirish uchun jahonning rivojlangan mamlakatlarida keng ko'lamni ishlar amalga oshirilmoqda. Shularni hisobga olgan holda elektron ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etish aniq tayyorgarlikni talab etadi, ya'ni zaruriy ta'lim darajasiga va moddiy-texnik ta'minotga ega bo'lishni talab etadi. Innovatsion g'oyalar, shaxslararo muloqot va o'zaro muvofiqlik qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy ishlar kasbiy mahorat va muhandislik qobiliyatini rivojlantirish uchun o'qitish vositasi sifatida qaraladi [2].

Materiallar qarshiligi fanini Microsoft Teams ochiq kodli platformasi asosida o'qitish, platforma takibiga multimedia, animatsiya, audio, video, imitatsion modellar, taqdimotlar hamda boshqa barcha turdagi fayllarni biriktirish mumkin. Multimedia asosida o'tilgan dars oddiy darsdan tubdan farq qiladi, talaba ongiga tez yetib boradi va talabaning ijodiy, kognitiv, kreativ hamda obrazli fikrlash qobilyatini rivojlantiradi. Multimedia texnologiyalari moslashuvchanlik, interaktivlik, turli turdagi multimedia ta'lim ma'lumotlarini birlashtirish kabi fazilatlarga ega, shuning uchun ular juda foydali va samarali ta'lim texnologiyasidir. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish matn, tovush, grafika, fotosuratlar, videolarni bir raqamli tasvirda birlashtirgan zamonaviy texnik va dasturiy vositalar yordamida interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio visual effektlarning o'zaro ta'siriga asoslangan.

E-learning ta'limning barcha sohalarida samarali o'quv materiali sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. E-learning o'qituvchilarning malakasini oshirish, masofaviy o'qitish, kadrlarni qayta tayyorlash va talabalarga yordam beradi. E.V.Artikbaevaning so'zlariga ko'ra, e-learning pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasiga asoslanadi, shuningdek mustaqil ta'lim turi hisoblanadi [1, 14].

Texnika oliy talimida "Materiallar qarshiligi" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib Microsoft Teams ochiq kodli platformasiga o'quv materialini saqlash, to'ldirish, tizimlashtirish va tezkor foydalanish qobiliyatiga ega bo'lib, bu mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, o'qituvchining vaqtini kundalik ishlardan ozod qilish va uning sa'y-harakatlarini sifatni yaxshilashga yo'naltirish o'qitish va qo'llaniladigan ta'lim usullarini takomillashtirish. imkonini beradi. Microsoft Teams ochiq kodli platformasining ta'lim tizimiga joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirishga, bu jarayonni ijodiy va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, Microsoft Teams tizimi o'z arsenalida rangli grafika va animatsiyadan foydalanish, tovush va gipermatnli jo'r bo'lish, ishlanmalar bankini doimiy ravishda yangilab turish va takomillashtirish, materiallardan nusxa ko'chirish qulayligi va darslarga tayyorgarlik ko'rish vaqtini tejash hamda ta'lim jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari vositalari o'quv jarayonini boyitadi, o'quv vaqtidan samaraliroq foydalanish va ma'lumotlarni namoyish qilishda katta imkoniyatlarni amalga oshirish imkonini beradi, o'quv materialini o'zlashtirish, faollik va idrok etish tezligiga ma'lum darajada ta'sir qiladi, bu esa eng ijobiy hisoblanadi. Devid Bromvich ta'kidlaganidek, o'rganish nafaqat faktlarni yetkazish, balki intellektual izlash san'atidir, bu talaba bilan yuzma-yuz muloqot qilishni talab qiladi [3].

Ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan Microsoft Teams ochiq kodli platformasi dasturiy va uslubiy ta'minotni takomillashtirishni, asosiy kompetentsiyalarni - axborot va kommunikativ shakllanish va namoyon bo'lish muhitini ta'minlaydigan kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini integratsiyalashni ta'minlaydi.

Microsoft Teams online ochiq kodli platformasida "Materiallar qarshiligi" dars mashg'ulotlari imitatsiya, animatsiya, multimediya va boshqa ko'rinishlarda olib borish imkoni yuqori, joylashtirilgan barcha ma'lumotlar blut texnologiyasi asosida xotiraga saqlanadi.



1-rasm. Microsoft Teams tizimida dars jarayoni.

Ta'lim jarayonida Microsoft Teams ochiq kodli platformalaridan foydalanishning quyidagi yo'nalishlarini keltiyib o'tamiz:

- multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda darslar;
- individual yondashuvga asoslangan darslar, shu jumladan individuallashtirilgan o'quv dasturlari, ko'p bosqichli vazifalar banki keng qo'llanilishi;
- ishbilarmonlik o'yinlari, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatidan real hayotdagi ko'p variantli topshiriqlar berilganda;
- loyiha usulidan foydalanish, uning doirasida amaliy vazifani izchil amalga oshirish kuzatiladi;
- o'zlashtirilayotgan fan bo'limlarini parallel va konsentrik o'rganishdan foydalanish;
- talabalar tomonidan o'quv jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan haqiqiy dasturlarni (hujjatlar, jadvallar, ma'lumotlar bazalari) ishlab chiqishni nazarda tutuvchi muammoli o'qitish usullaridan foydalanish.

Ta'limda Microsoft Teams ochiq kodli platformalaridan foydalanish an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- rangli grafika, animatsiya, tovush, gipermatnlardan foydalanishga imkon beradi;
- doimiy yangilash imkoniyati;
- nashr qilish va ko'paytirish uchun kam xarajatlar;
- viktorina yoki ish kitobi kabi interaktiv web-elementlarni joylashtirish imkoniyati;
- kodirovka qilish uchun qismlarni nusxalash va o'tkazish imkoniyati;
- ko'plab giperhavolalar tufayli materialning chiziqli bo'lmagan o'tish imkoniyati;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda Microsoft Teams ochiq kodli platformalaridan foydalanish o'quv jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u talabalarning intellektual rivojlanishiga, mustaqil bilim olishiga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ko'maklashish shartlarini qondiradi.

ADABIYOTLAR

1. Артыкбаева Е.В. Теория и технология электронного обучения в общеобразовательной школе. (Дисс., д.п.н. 13.00.02-Алматы, 2010). - 332 с.

2. Feltovich, P. J., M. J. Prietula, and K. A. Ericsson. 2006. Studies of Expertise from Psychological Perspectives. In The Cambridge Handbook of Expertise and Performance, edited by Ed. Ericsson, K. A., N. Charness, P. J. Feltovich, R. R. Hoffman, Cambridge University Press, Cambridge, U. K. , Chapter 4 , p47 (2001)

3. Bromwich D. (2015). Trapped in the Virtual Classroom. The New York Review of Books.

BOLA TARBIYASIDA OILA, TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARI, MAHALLA VA JAMOATCHILIKNING O'ZARO HAMKORLIGI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sh.A.Usanov
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Oilaning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir. Shuning uchun jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham tobora ortib bormoqda. Bu borada oilada ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma'suliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid imkoniyatlarini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya uzviyligini ta'minlash hozirgi davrning dolzarb vazifasi ekanligi ta'kidlagan.

Yosh avlodni komil inson qilib yetishtirishda oila bilan maktablarning, mahallaning, jamoatchilikning mustahkam hamkorligida aloqasini ta'minlamay turib, tarbiya sohasidagi ijobiy natijalarni qo'lga kiritib bo'lmaydi.

Azaldan o'zbek mahalalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, yetim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalombor mahalla muxitida shakllangan va rivojlangan. Axir oila mahallaning bir tarkibi hisoblanadi. Shuning uchun mahallaning oilaga ta'sirini ta'minlash ijtimoiy ahamiyatga ega.

Maktablar ota-onalarning pedagogik o'quvini amalga oshiradi va bu borda o'zining tarbiyaviy imkoniyatlarni ishga soladi. Oila esa o'z navbatida o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda, zamonaviy fan asoslarini egallashni tashkil etishda maktab jamoalariga moddiy jihatdan amaliy yordam beradi. Bugun barkamol o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ko'plab tarbiyaviy omillar ya'ni: maktablar, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikdagi ta'siriga muhtojlik tobora ortmoqda.

Xususan, maktablar tarbiyaviy hamkorlikda oilaga pedagogik malakali ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega. Masalan, darsdan keyin o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli, foydali o'tkazishda sanfdan tashqari to'garak ishlarni tashkil etish orqali ularning turli darajadagi qonunbuzarliklari oldi olinadi. Yoki mahallada hashar, obodonchilik yoki bayramlar kabi ommaviy tadbirlarga o'smir va o'spirinlarni jalb qilish oila tarbiyasini yaxshilashga amaliy yordam beradi. Natijada ota-onalarning hotirjam mehnat qilishiga qulay sharoit yaratiladi.

Oilaviy tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan umumiy javobgarlik bevosita umumiy o'rta ta'lim va boshqa muassasalar zimmasiga yuklatiladi. Buning asosiy, birinchi sababi maktablarda ishlaydigan o'qituvchilar, tarbiyachilar bolalar ta'lim-tarbiyasi yuzasidan pedagogika, psixologiya fanlaridan maxsus malakali ma'lumotga egaligidir. Ikkinchi sababi, asosan, ko'pchilik ota-onalarning maktablar bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha ma'lumotlari yo'qligi yoki yetarli tajribaga ega emasligidir. Albatta, ba'zi faol ota-onalar yuqoridagi fanlardan ma'lum darajada ma'lumoti bo'lishi mumkin, ammo buning o'zi yetarli emas.

Demak oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga umumiy tarbiyaviy ta'sirni barcha ta'lim-tarbiya muassasalari va jamoatchilik belgilashi kerak va bunday ma'suliyat ularda ishlaydigan xodimlar zimmasiga yuklatiladi. Ammo amaliyotda bu masalada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar asosan barcha o'quv muassasalarda faqat rasmiy ravishda tashkil etilayotganligi sir emas. Agar oilada salbiy munosabatlar tarkib topgan bo'lsa, bolalarni tarbiyalashda qiyinchilaklar vujudga keladi, bu esa ko'pincha tarbiyasi qiyin bolalarning paydo bo'lishiga va oqibatda qonunbuzarlikka olib keladi.

Shuning uchun barcha ta’lim-tarbiya muassasalari, mehnat jamoalari va keng jamoatchilik (mahalla, oqsoqollar, xotin-qizlar qo‘mitasi, yoshlar ijtimoiy harakati, ichki ishlar, prokratura, sud, adliya va hokozo) bolani tarbiyalashda yagona maqsad asosida hamkorlikda, uzviylikda, uzluksiz oilaga yordam berishi nazarda tutilgan. Amaliyotda bu soha bilan maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari shug’ullanmoqda. Ushbu hamkorlikdagi tarbiyaviy ta’sir bola tarbiyasida amalga oshirilmas ekan, uning samarasi ham shunga yarasha bo‘laveradi.

O‘z vaqtida A.S.Makarenko: «Yaxshi oilalar bo‘ladi, yomon oilalar ham bo‘ladi. Oila zarur darajada tarbiyalaydi, deb kafolat berish mumkin emas. Biz oila istaganidek tarbiyalashi mumkin deya olmaymiz. Biz oila tarbiyasini tashkil etishimiz kerak va bunda davlat tarbiyasining vakili sifatidagi maktab tashkiliy asos bo‘lmog’i lozim», -deb juda o‘rinli ta’kidlagan.

Haqiqatan ham oilalar turlicha. Ular ichida hozirgi zamon pedagogika, psixologiya fanlaridan umumiy ma‘lumotga ega bo‘lmasa ham, ammo xalq tarbiyashunosligidagi oilaviy an’analarni, urf-odatlarni, udumlarni, ma’naviy qalriyatlarni hamda ilg’or tajribalarni o‘rganish asosida bola tarbiyasini namunali tashkil qilingan oilalar va bola tarbiyasini o‘z holiga tashlab qo‘ygan ota-onalarning ijtimoiy pedagogik ma’suliyatsizligini ta’kidlash shart. Va ularni bartaraf etishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishni oilaviy va ijtimoiy hayot taraqqiyoti talab etmoqda.

Bu vazifalarni amalda bajarish juda murakkab, ko‘pqirrali jarayonligini har bir ota-onalar va amaldagi rahbarlar tushunib anglab yetishlari juda muhim. Bu vazifani amaliy hal etishning ilmiy va amaliy yo‘li barcha mehnat jamoalarining ishlab chiqarish sohasi bilan birga jamiyatning ijtimoiy ustivor rivojlanishini ta’minlaydigan yosh avlod tarbiyasi bilan bevosita shug’ullanishni davlat siyosati darajasida yo‘lga qo‘yishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida “O‘quvchilarining ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, bolalar etakchisi, psixolog, ota-onalar, shuningdek, maktab rahbariyati orqali voyaga yetmaganlarishlari bo‘yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, homiylik va vasiylik komissiyalari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda ish tashkil etadi” – deb belgilangan.

Bolalar va yoshlarni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, mehnat tashkilotlari, mahallalar, hayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish» zarurligi va yana «jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik belgilangan.

Haqiqatan ham yoshlarning ta’lim olishida va shaxsni har tamonlama shakllantirishda oila, mehnat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va hatto xalqaro fondlardan foydalanish hamda amalda qo‘llash ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi yangi iqtisodiy sharoitda mehnat jamoalari va xayriya fondlaridan oila tarbiyasini yaxshilashda foydalanish imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

Yosh avlod barkamolligini ta’minlashda oilaviy tarbiyaning samaradorligini tashkil etishda mehnat jamoalari, xayriya va xalqaro fondlardan ota-onalarning bola tarbiyasi sohasidagi ma’lumotlarini oshirish maqsadida alohida ilmiy-amaliy pedagogik jurnallar, tavsiyalar va qo‘llanmalarni nashr qilishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Shuning uchun birinchi galda ota-onalarning pedagogika va psixologiya fanlaridan zaruriy bilimlar bilan qurollantirish va bola tarbiyasida oila, maktab, mahalla, mehnat jamoalari hamda jamoatchidikning hamkorlikdagi ta’sirini yo‘lga qo‘yish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

Oilaviy tarbiyada ota-onalarning bilim saviyasi, umumiy tarbiyaga oid madaniyati, mahorati, ijtimoiy intilishlari, harakatlari, bola tarbiyasidagi turli munosabatlari, tarkib topayotgan amaliy tajribalari bolalar tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab oilalarga ma’lum darajada bolalar tarbiyasiga rasmiy jamoatchilik asosida yordam ko‘rsatilayotganligiga qaramay, ba’zan tarbiyaviy ta’sirlarning hamkorlikdagi bir maqsadga ya’ni barkamol insonni shakllantirish uyg’unlikda yo‘naltira olinmayotganligi achinarlidir. Bu ishlarning bola tarbiyasiga samarali

tarbiyaviy ta'sirini o'tkazishda xuquqiy pedagogik asoslarni ishlab chiqish va amaliyotda oila, ta'lim-tarbiya muassasalari va mehnat jamoalari rahbarlarining hamkorlikdagi javobgarligini ta'minlash hozirgi dolzarb muammodir. Ayniqsa ba'zi maktabda hamkorlikdagi sohta tadbirlar bu borada samara bermayapti. Shuning uchun hamkorlikdagi tadbirlarning haqqoniyligiga erishish lozim.

Kuzatishlar va o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatayaptiki, hali ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajakdagi hayoti haqida hozirgi zamon talabi darajasida ota-onalik ijtimoiy ma'suliyatni his qilmaydilar. O'zlarining ish balan bandliklarini va boshqa sabablarini ro'kach qilib ko'rsatishadi. Eng muhimi kelajakda o'zlarining keksa bo'lganlarida piru badavlat ota-onalar bo'lishini ya'ni o'z farzandlari ardog'ida bo'lib e'zozlanishini, qadrlanishini to'g'ri tasavvur qilmaydilar. Ular oilada ota-onalarning eng asosiy vazifasi oilani moddiy jihatdan ta'minlash deb bilishadi va ularning ba'zilari buning uddasidan ham chiqa olmaydi. Ular farzandlarni aqliy, ma'naviy kamol toptirish, oila hayotini har tamonlama ya'ni moddiy, ma'naviy jihatdan boshqarish, ayniqsa, bolalariga ta'sir ko'rsatishligini tushunmaydi yoki ularning ham uddasidan chiqisha olmaydi. Oqibatda, oila tarbiyasida ko'plab muammolar kelib chiqmoqda. Masalan, ba'zi ota-onalar keksa bo'lgach, o'z farzandlariga o'z vaqtida tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olmay, ularning tarbiyasidan noliydi, hatto sud idoralariga arz qilishgacha boradiganlari ham topiladi. Bunday ota-onalar birinchi navbatda oilada bolalar tarbiyasini bolalari kichikligidanoq to'g'ri tashkil qilishni bilishmaydi. oqibatda bolalariga noto'g'ri tarbiya berganligi tufayli keksalikda jabrlanishadi.

Bola tarbiyasini aql asosida tashkil etishda ota-onalar o'zlari yashaydigan mahalladagi namunali oilalar tajribasi va sinf rahbarlarining amaliy pedagogik maslahatlardan bevosita foydalanishlari darkor. Ota-onalar maktab pedagogik jamoaning faol o'qituvchilari tomonidan tashkil qilinadigan konsul'tatsiyalarida bola tarbiyasini tashkil etish bo'yicha tegishli maslahatlar olishi bu sohadagi ishlarga ijobiy ta'sir etadi. Ota-onalarga bola tarbiyasi haqida bilim berishda sinf va maktab ota-onalar yig'ilishlari, ota-onalarni maktabga chaqirish va sinf rahbarlarining o'quvchilar uylariga borib ota-onalar bilan suhbat va konsul'tatsiya olib borishlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur yo'nalishlarda olib borilayotgan tarbiyaviy tadbirlar ham aksariyat hollarda rasman tashkil etilayotganligi barchaga ayon. Albatta, bu sohada samarali natijalarni qo'lga kiritayotgan maktablar mavjudligini e'tirof etish kerak. Biroq bunday maktablar yutug'i umumiy faoliyatimizni o'nglashga imkoniyat bermaydi. Bu masalani amalda hal etish uchun ta'lim-tarbiya muassasalarining ota-onalar mehnat qiladigan zavod, fabrika, qo'shma korxona, shirkatlar jamoasi, dehqon-fermer nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlar va boshqa jamoalar rahbarlari orqali ota-onalarga bola tarbiyasida kuchli hamkorlikdagi jamoatchilik ta'sirini tashkil etishdir.

Bunday usulni amaliy hayotga joriy etish ota-onalarning sinf, maktab ota-onalar yig'ilishlariga kelmasliklarining, umuman, bola tarbiyasidagi hamkorlikdagi jamoatchilik ta'sirini ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltirgan bo'lardi. Galdagi vazifa ota-onalarni bola tarbiyasidagi kelajak istiqboliga ishontirishdan iborat. Buning uchun ota-onalarda bola tarbiyasi sohasida qiziqishlarini rivojlantirib o'z bolalari bilan oilada tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishga o'rgatish juda muhim. Bu sohada ota-onalarning o'qishini kamida bir oyda bir marta eng bo'lmaganda kech kuz va qish fasllarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz, mazmunli, rang-barang shakllarda tizimli tashkil etish samarali natijalar beradi. Ota-onalar o'qishini hozirgi amaldagi ma'ruza, suhbat, yig'ilishlar shakli bilan bir qatorda ko'rsatmali oila hayotidagi ijobiy yoki yomon tajribalarni video vositasida tomosha qilib, tahlil, muhokama, munozara qilish usullaridan foydalanish samarali natijalar berishi aniq. Bu usullar ota-onalarda bola tarbiyasida mas'uliyatni tarbiyalaydi.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

A.K.Samyayev
Samarqand VPYMO‘MM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA halqaro baholash dasturi , uning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, O‘zbekistonda halqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik hamda geografiyada darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Halqaro baholash dasturlari, qaror va loyihalar, havo harorati, havo bosimi, to‘yingan havo.

Аннотация: В данной статье представлена информация о программе международной оценки PISA, его роли и значении в системе образования, о подготовке к программам международной оценки в Узбекистане, а также об использовании заданий по PISA на уроках географии.

Ключевые слова: программы международной оценки, постановления и проекты, температура воздуха, давление воздуха, насыщенный воздух.

Abstract: This article provides information about the PISA international assessment program, its role and significance in the education system, preparation for international assessment programs in Uzbekistan, as well as the use of PISA assignments in geography lessons.

Keywords: international assessment programs, resolutions and projects, air temperature, air pressure, saturated air.

Bugun mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Eng muhimi, 2018 yil 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

PISA - o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar va topshiriqlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni hosil qilishga undashdir.

Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkazib kelinadi, birinchi marta 2000 yilda o‘tkazilgan bo‘lib 43 ta mamlakatdan o‘quvchi yoshlar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishgan. Yillar kesimida oladigan bo‘lsak 2003 yilda 41 ta mamlakatdan, 2006 yilda 55 ta mamlakatdan, 2009 yilda 75 ta mamlakatdan, 2012 yilda 65 ta mamlakatdan, 2015 yilda 71 ta mamlakatdan va 2018 yilda-78 ta mamlakatdan o‘quvchi yoshlar ishtirok etishganini ko‘rishimiz mumkin.

Savol tug‘iladi, nima uchun PISA xar uch yilda va 15 yoshlilar o‘rtasida o‘tkaziladi? PISA dasturining asosiy maqsadi mamlakatlar ichida ta’lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Uch yillik sikllar davomida dasturni amalga oshirilishi esa o‘z navbatida mamlakatlarga o‘z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta’sirini tahlil qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatini yaratib beradi.

Agarda dasturni o‘tkazish davriyligi qisqa davrlarda amalga oshirilsa, o‘zgarish va yangiliklarning rivojlanishi yoki yetarli ma’lumotlarni to‘play olmaslikni va o‘z navbatida ish unumdorligini kamayishiga olib keladi.

Aynan 15 yoshli o‘quvchi yoshlar o‘rtasida dasturni amalga oshirilishini sababi esa ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a’zo davlatlarning o‘quvchi yoshlari majburiy ta’limning oxirgi bosqichiga o‘tishadi.

Ushbu dasturning mukammalligi shundaki, ushbu dastur butun dunyo bo‘yicha aynan 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning bilim va ko‘nikma darajalarini o‘lchovchi yagona dastur bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, dasturda quyidagi masalalar ko‘tariladi:

Davlat siyosati masalalari;

Maktablar o‘quvchi yoshlarni katta hayotga o‘tishiga munosib ravishda tayyorlay olishyaptimi?;

Aynan ayrim turdagi o‘quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi?.

Aytish mumkinki, o‘quvchi yoshlar butun bir maktab hayoti davrlarida o‘zlari uchun kerak bo‘lgan barcha bilim va malaka ko‘nikmalarini yetarli darajada o‘zlashtira olishmaydi.PISA dasturi esa o‘quvchi yoshlarni nafaqat bilim va malaka ko‘nikma darajalarini oshirishga, balki ularning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va o‘qish strategiyalarini mustahkamlanishiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi.

Bugungi kunda PISA dasturi PISA boshqaruv kengashi qarori asosida ta’lim vazirliklari javobgarligi ostida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan dastur asosida ishlab kelmoqda. Kengash a’zoligi tarkibiga barcha qatnashuvchi a’zo davlatlar va shuningdek sherikchilik maqomidagi hamkor davlatlar kirishadi. Bugungi kunda ushbu maqomga faqatgina Braziliya sazovordir.Kengashga a’zo davlatlarning vakillari hukumat vakillari va ilmiy-pedagog xodimlardan tashkil topgan.Kengash PISA uchun siyosatning ustuvor yunalishlarini belgilaydi va amalga oshirish jarayonida ushbu ustuvorliklarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Bu ma’lumotlar tayyorlash, tahlil qilish va hisobot berishning ustuvor yo‘nalishlari va standartlarini belgilash, shuningdek, PISAni amalga oshirish uchun asos bo‘ladigan ish hajmini aniqlashni o‘z ichiga oladi.2000-2015 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bizga shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda Sharqiy Osiyoda- Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada-Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, bizdan ushbu davlatlarning ta’lim tizimidagi ijobiy tomonlarini tahlil qilishni va qiyoslashni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

PISA dasturi tadqiqotlari davomida biz PISAga a’zo davlatlar ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘zaro taqqoslash va qiyoslash, ta’lim sohasida strategik qarorlar qabul qilishni va o‘z navbatida maktablarimizda berilayotgan bilim saviyasi o‘quvchi yoshlarimizni katta hayotda o‘z yo‘llarini topishida munosib xizmat qilmoqdami kabi savollarga javob topishimizga amaliy yordam ko‘rsatadi.

Kuchli islohatlar davrini o‘tkazayotgan O‘zbekistonimizning o‘quvchilarini ta’limga to‘g‘ ri yo‘naltira olsak , ishonchim komilki , o‘quvchilarimiz PISA xalqaro baholash dasturida munosib ishtirok etib, yuqori o‘rinlarni egallaydi.

PISA topshiriqlariga o‘tishimizdan oldin biz havoning harorati va bosimi to‘g‘risida ma’lumot beramiz.Havoning qanchalik isib yoki soviganligiga havoning harorati deyiladi. Meteorologik stansiyalarda havo harorati yer yuzasidan 2 m balandlikda joylashgan quyosh nurlari tushmaydigan va havo almashinib turadigan qutidagi termometr asbobi yordamida har 3 soatda o‘lchanadi. Shu orqali sutkalik, oylik va yillik o‘rtacha haroratlar aniqlanadi. Havo harorati har 100 m yuqoriga ko‘tarilganda 0.60 C ga, har 1000m yuqoriga ko‘tarilganda 60 C ga pasayadi va tepadan pastga tushganda esa harorat oshadi.

Havoning Yer yuzasiga va undagi barcha narsalarga bosib turadigan og‘irlik kuchi havo bosimi deyiladi. Odam bu bosimni sezmaydi, chunki havo bosimi odam tanasidagi ichki bosim bilan bir xil, ya'ni muvozanatlashgan. Yuqoriga ko‘tarilgan odamga havo bosimining kamayishi seziladi. Agar tog‘da 3000 m balandga ko‘tarilsa, nafas qisiladi, bosh aylanadi, 4000-5000 m balandda burun qonashi, tomirlar yorilishi mumkin.

Havo bosimi barometr asbobi bilan o‘lchanadi (baros – og‘irlik, bosim, metr – o‘lchash). Barometr ikki xil bo‘ladi: simobli barometr va metall barometr — aneroid barometr. Dengiz bo‘yida havo harorati 0° bo‘lganda barometr naychasidagi simob 760 millimetr (mm) ni ko‘rsatadi. Shunda havo bosimi 760 mm simob ustuni og‘irlig‘iga teng bo‘ladi. Bunday bosim normal (me'yordagi) bosim deyiladi. Dengiz bo‘yidan balandlikka ko‘tariladigan bo‘lsa, har 100 m ko‘tarilganda barometrdagi simob 10 mm pasayadi (yoki har 10 m da 1 mm pasayadi). Havo bosimi 1 sm 2 yuzaga 1 kg 330 gr. og‘irlik bilan bosib turadi .

Yuqoridagi ma’lumotlarni bilgan holda, PISA topshiriqlariga o‘tamiz :

Akmal Navoi viloyatining chekka tog‘li tumanlaridan birida yashaydi. Akmallar yashaydigan uy tog‘ning o‘rta qismida dengiz sathidan 1300 metr balandda joylashgan. Qishloqdagi maktab Akmallar uyidan 2000 metr uzoqlikda tog‘ning yuqori qismida joylashgan.

1-Topshiriq. Akmallar yashaydigan uy atrofida havo harorati + 15 0 C, maktab yonida harorat + 9 0 C ga teng bo‘lsa, maktabning dengiz sathidan balandligini toping.

Dastlab haroratlar o‘rtasidagi farq aniqlanadi : + 15 0 C - 9 0 C = +6 0 C .

+6 0 C haroratda farq bo‘lishi uchun balandlikdagi farq 1000 m. bo‘lishi kerak . Balandlikdagi farqni Akmallar yashaydigan uy joylashgan balandlikka qo‘shiladi : 1300 + 1000 = 2300 m

Demak javob : 2300 m

2-Topshiriq. Maktab joylashgan hududda havo bosimi 560 mm.s.u. ga teng bo‘lsa, Akmal yashaydigan uy atrofida havo bosimini toping.

Birinchi topshiriqdan biz maktabning Akmallar yashaydigan uydan 1000 m. baland ekanligini bildik. Havo bosimi har 1000 m. balandlikda 100 mm.s.u. ga pasayadi va balandlikdan pastga qarab esa ortadi.

Demak maktab joylashgan joydagi bosimga (560 mm.s.u), 100 mm.s.u. qo‘shiladi : 560 + 100 = 660 mm.s.u

Javob : 660 mm.s.u

3-Topshiriq. Akmallar yashaydigan uy atrofida havo harorati +26 0 C da 1m 3 havoda 18 gr. suv bug‘i bo‘lsa, maktab joylashgan hududda yog‘in yog‘adimi ? (Javobingizni asoslang)

Keyingi topshiriqni bajarishimiz uchun biz turli haroratlarda 1 m 3 havoning to‘yinishini bilishimiz kerak. Eslab qoling - havo to‘yinsagina yog‘in yog‘adi. Agar Akmallar yashaydigan uy atrofida havo harorati +26 0 C bo‘lsa, maktab joylashgan joyda (1000 m. balandda) harorat 6 0 C ga pasayadi : 26 0 C- 6 0 C = 20 0 C

+ 20 0 C haroratda 1 m 3 havoda 17 gr. suv bug‘i bo‘lsa havo to‘yingan bo‘ladi.

Xulosa : Akmallar yashaydigan uy atrofida havo harorati +26 0 C da 1 m 3 havoda 18 gr. suv bug‘i bo‘lsa, maktab joylashgan hududda yog‘in yog‘adi

TA'LIM JARAYONIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIK TUSHUNCHASI

A.Kudratova
Samarqand VPYMO'MM katta o'qituvchisi
T.Aminov
Urgut tuman –maktab matematika fani o'qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari ijrolarini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror jamiyatni kelajagini belgilab beruvchi 15 yoshli o'quvchilarning funksional savodxonliklarini ya'ni maktab dasturida olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini baholovchi, butun dunyoda e'tirof etilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot doirasida taqdim qilinadigan topshiriqlarning tarkibiy tuzilishi yoritilgan. PISA tadqiqotlarida asosiy yo'nalishlar sifatida tanlab olingan o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy fanlar savodxonliklardan biri matematik savodxonlik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: PISA, ta'lim, sifat, savodxonlik, topshiriq, matematik savodxonlik, mazmun yunalishi, matematik kompetentlik, qo'llash sohasi (kontekst), murakkablik darajasi, tanqidiy va kreativ fikrlash, tadqiq qilish, axborot bilan ishlash, o'qituvchi, munosabat, taraqqiyot.

Анализ заданий международной программы по оценке образовательных достижений учащихся PISA(например математической грамотности)

Аннотация. Статья посвещена международной программе по оценке образовательных достижений. Эта программа оценивает грамотность и умение применять знания на практике 15 летних школьников в разных странах мира. В статье более подробно раскрыта математическая грамотность и типы заданий.

Ключевые слова: PISA, образование, качество, грамотность, задание, математическая грамотность, математическое содержание, математическая компетентность, контекст, степень трудности, критическое и креативное мышление, исследовательская работа с материалом, учитель, отношение, прогресс.

Analysis of the tasks of the international program for assessing the educational achievements of PISA students

(for example mathematical literacy)

Annotation. The article is devoted to the international program for the evaluation of educational achievements. This program evaluates literacy and the ability to apply knowledge in practice of 15 year-old students in different countries. The article reveals in more detail mathematical literacy and type of tasks.

Keywords: PISA, education, quality, literacy, task, mathematical literacy, mathematical content, mathematical competence, context, degree of difficulty, critical and creative thinking, research work with material, teacher, attitude, progress.

Dunyoda mavhumlik, beqarorlik, iqtisodiy inqirozlar va o'zaro nizolar hukmronlik qilar ekan jamiyatda funksional savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kun maktab o'quvchilarining o'z bilimlarini kerakli vaziyatlarda tatbiq etish, fanlar chegarasidan chiqib fikrlash va notanish vaziyatlarda kreativ yondashgan holda muammolarning ilmiy-amaliy yechimlarini topishga o'rgatish, axborotlar oqimi bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, doimiy ravishda o'rganish va rivojlanish, o'zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo'lini va hayotiy ko'rsatmalarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashi lozim. Xususan, o'qitish sifatini takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: o'qitish sifatini kafolatlovchi parametr va indikatorlarni ishlab chiqish; bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi asosida milliy va xalqaro baholash dasturlarini takomillashtirish; o'qitish sifati monitoringining elektron axborot tizimini ishlab chiqish; monitoring natijasida o'qitish sifatini boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni»da XXI asr bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslangan sifatli va samarali ta’limni yo‘lga qo‘yish, yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida xizmat qiluvchi, ijtimoiy munosabatlarda faol, zukko, topqir, tashabbuskor, ijodkor va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab berilgan.

Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligini, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018 yil 8 dekabrdagi 997-sonli qaroriga ko‘ra, umumta’lim maktab o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish va baholashni xalqaro dasturlar asosida amalga oshirish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi hamda 2022 yilda PISA xalqaro dasturlarida mamlakatimiz ilk ishtiroki rejalashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoniga ko‘ra 2030 yilga kelib PISA (*Programme for International Student Assessment*) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi belgilab berildi.

Jahon Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (*Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)*)ning Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi *PISA* – 15 yoshli o‘quvchilarning funksional savodxonligini baholashga qaratilgan bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi o‘quvchilar olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo‘llay olishlarini (funksional savodxonlik darajasini) aniqlashdan iborat. Taqdiqotining boshqa Xalqaro tadqiqotlardan farqi shundaki, u rivojlanishining ushbu bosqichida o‘quvchilar uchun kelajakda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan kompetensiyalarni aniqlash muhim deb hisoblaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, funksional savodxonlik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida shakllanadi.

Kompetensiya – o‘quvchining bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish layoqati [7].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim - o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni [7].

Kompetentlilik - shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati [64].

Funksional savodxonlik – o‘quvchining o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etish qobiliyati hamda kelajak hayotida duch kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishga tayyorligi darajasi [67].

1-rasm. Funksional savodxonlik shakllanish bosqichlari.

Har uch yillik davrda o‘tkaziladigan PISA tadqiqotlarida asosiy yo‘nalishlar sifatida o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy–ilmiy fanlar savodxonliklar tanlab olingan. Har davrda ma’lum bir yo‘nalishga urg‘u beriladi.

1-jadval.

PISA tadqiqoti yo‘nalishlari

Asosiy yo‘nalishlar		
O‘qish savodxonligi (2000, 2009, 2018)	**Matematik savodxonlik (2003, 2012, 2022)**	**Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi (2006, 2015)**
bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati	matematik mulohazalar yuritish xoh u induktiv, xoh u deduktiv bo‘lsin, tabiat va jamiyatda duch kelinadigan hodisalarni matematik belgi va timsollar yordamida, ya’ni matematika tilida ifodalash, hodisalarni tushuntirish va oldindan aytib berishda matematik mulohaza yuritish, matematikaga oid bilim, tushuncha, algoritm, fakt va vositalardan foydalanish qobiliyati	tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolar va fanga oid g‘oyalari bilan shug‘ullanish, ilmiy jihatdan fan va texnologiya to‘g‘risida asosli mulohazalar bilirishga tayyor bo‘lish, hodisalarni ilmiy tushuntirish, ilmiy izlanishlarni baholash va loyihalash, ma’lumotlar va dalillarni ilmiy izohlash qobiliyati
Qo‘shimcha yo‘nalishlar		
Moliyaviy savodxonlik (2012)	**Global muammolarni anglash savodxonligi (2018)**	**XXI asr kompetensiyalari (2022)**
moliyaviy tushunchalarni bilish, tushunish, o‘zining shaxsiy va jamiyat manfaati uchun maqsadli qarorlar qabul qilish, iqtisodiy jarayonlarda ishtirok eta olish qobiliyati	dunyoda ro‘y berayotgan global jarayonlarga tanqidiy yondoshish, millatlararo madaniy, diniy, siyosiy, irqiy hamda boshqa tafovutlarni anglash va munosabat bildirish, o‘zgalar fikrini hurmat qiligan xolda munosabatlarga kirishish qobiliyati	- tanqidiy fikrlash; - ijodkorlik, kreativlik; - tadqiqot va tahlil qilish; - mustaqillik, tashabbuskorlik va qat’iylik; - ma’lumotlardan foydalanish; - tizimli fikrlash; - muloqot qilish; - mulohaza yuritish

Manba: https://www.oecd.org/pisa/

Funksional savodxonlik tushunchasi keng bo‘lib, tadqiqotda baholanadigan savodxonliklar bilan bir qatorda o‘z ichiga quyidagi savodxonliklarni qamrab oladi: sog‘lik sohasidagi savodxonlik, diniy savodxonlik, oilaviy munosabatlar savodxonligi, iqtisodiy va siyosiy masalalar savodxonligi, ekologik savodxonlik, huquqiy savodxonlik, ilmiy va texnologik savodxonlik, kompyuter savodxonligi va b.

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kabiy kompetentliligini o‘rganishni quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirishni talab etadi:

- tarkibiy tuzilishiga ko‘ra (funksional savodxonlik, o‘qituvchi, kasbiy kompetentlilik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi);

- funksionalligiga ko‘ra (amaldagi tatbiqi);

- genetik (faoliyatni o‘tmish, bugun va kelajakda o‘rganish asosida o‘qituvchining kabiy kompetentliligini rivojlantirish).

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 – sonli farmoniQHMMB: 06/19/5712/3034-son29.04.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori
3. “Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha PISA-2021 xalqaro tadqiqodlarida O‘zbekiston Respublikasini ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida” vidioselektor materiallari, 30.01.2019y.
4. PISA–2021 tadqiqodlarining ustivor yo‘nalishi: matematik savodxonlikni baholash –N.Karimovma‘ruzasi
5. PISA-2012 Results: What students know and can do. Students performance in mathematics, reading and science (Volume 1), PISA, OESD Publishing, 2013
6. PISA-2012 Assessment and Analytical Framework. Mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy), PISA, OESD Publishing, 2013
7. In Search of the Human Mind, Harcourt Brace / Sternberg, R. J, Orlando, Fl., 1995.
8. Оценка математической грамотности в исследовании PISA-2012
9. Основные результаты Международного исследования PISA-2012, Астана – 2013 г.
10. Официальный сайт PISA OESD http://oesd.org/pisa
11. Образовательная система «Школа 2100». Педагогика здравого смысла: сб. мат-лов / под науч. ред. А. А. Леонтева. М.: Баласс, Издателский дом РАО, 2003. 368 с.
12. Тошниёзова Раъно Таълимда “Лойиҳалар” методидан фойдаланиш – Самарқанд 2018й.
13. PISA 2021 Mathematics Framework (First Draft). Stockholm: PISA, OECD Publishing, 2018.P. 46.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSINI TASHKIL ETISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

N.Sh.Mamatkulova
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada komil insonni tarbiyalash g‘oyasini amalga oshirishda va dars samaradorligiga erishishda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ta’limiy o‘yinlar muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlagan holda, ya’ni mavzular asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviylik, uzluksizlikni ta’minlashning ahamiyati ko‘rsatilib ta’limiy o‘yin namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili va o‘qish savodxonligi, ta’limiy o‘yin, dars samaradorligi, ko‘rgazmalilik.

Zamonaviy dars deganda o‘quv jarayoniga muammolar,hamkorlikda ishlash,har hil interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etish tushuniladi .

Shunday darslarni tashkillashtirish o‘quvchilarning bilish faolligini shakllantirishga bo‘lgan birinchi qadamdir deyishimiz mumkindir.

Har bir dars mualliflik asaridir ,u dars tartibligi va butunligini o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi faoliyatining maqsad va didaktik topshiriqlariga bo‘ysinishni ta’lim uslubi va vositasini tanlashni o‘z ichiga oladi.Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma:o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Darsni tashkillashtirishda shablondan voz kechish dars jarayonida o‘quvchilar jaolliyatini maksimal ta’minlash; ko‘p fikrli alternativlikni qo‘llab quvvatlash; o‘zaro munosabatni sharoitini ta’minlash maqsadida darsda muloqat funksiyalarini rivojlantirish;emotsional qoniqishni his qilish; o‘quvchilarning materiallarni o‘zlashtirish,qiziqish va layoqati bo‘yicha (yashirin) (pedagogik maqsad) differensiya; shakllantirish vositasi sifatida baholashni qo‘llash.

O‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatish va o‘yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

«Ta'limiy o‘yinlar o‘quvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o‘quvchiga o‘zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko‘pincha, ta'limiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi»

Didaktik o‘yinlar maktab o‘qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o‘yinlar maktab o‘quvchilariga mo‘ljallanadi. O‘yin orqali bola jamoani tushunadi. O‘zi bajarayotgan mashg‘ulotga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O‘yinda ilg‘orlikka, g‘alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o‘rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi.

O‘yin formalariga rol, ishbilarmon, imitasiya va boshqa o‘yinlari kiradi.O‘yin formalari ta’lim jarayonlarida amaliyot faoliyatiga maksimal yaqin bo‘lgani uchun ham ahamiyat kasb etadi.

O‘quv o‘yinlarining asosiy xususiyatlari:

-Ma’lum amaliy faoliyat turlarini modellashtirish;

-Faoliyat olib borilayotgan sharoitni modellashtirish;

-Rollarning mavjudligi,ularni o‘yin ishtirokchilariga bo‘lib berish;

-Butun o‘yin jamoaning umumiy maqsadi borligi;

-O‘yin ishtirokchilarining guruh yoki induvidual faoliyatini baholash;

-Boshqa sharoit va vaziyatda namoyon bo‘lgan qobiliyatlatni shakllantirish va rivojlantiish;

Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o‘yin mantiqi, o‘yinning harakati, o‘yin qoidasi.

O‘yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar hulqini, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O‘yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar hamma vaqt ham o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rs atgichi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarning hamma tarkibiy komponetlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birortasining bo‘lmasligi mumkin emas.

"Adashgan harfni toping". Bir necha o‘rganilgan harflar qo‘yilib orasida bitta o‘rganilmagan harf ham aralashtirib qo‘yiladi. O‘quvchilar o‘rganilgan harflarni ongida tiklab o‘rganilmagan harfni topib o‘qituvchiga ko‘rsatadilar.

Ijodiy izlanish o‘yini. Bunda o‘qituvchi hikoyadagi noto‘g‘ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo‘lmagan gapni topishni aytadi. O‘quvchilar izlanadilar va bunday gapni topib,

nega ortiqchaligini isbotlaydilar. Bunday o‘yinlar ko‘p vaqtni olmaydi, maxsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi.

Bilishga doir o‘yinlar - sayohat. O‘quvchilar O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lganlaridan keyin bilimlar yurtiga "sayohat" o‘tkazishi mumkin. Sayohat davomida o‘quvchilarga yangi bilimlar ham beriladi, ularning bilimlari tekshirilib ham ko‘rilishi mumkin. Bu mustahkamlash - umumlashtirish darslarida tashkil qilinsa, yanada samarali bo‘ladi. O‘quvchilarning ma'lum bir bo‘limni qanday o‘zlashtirganlari haqida o‘qituvchi tasavvurga ega bo‘ladi.

Mazmunli - rolli o‘yinlar. Bu o‘yin o‘quvchilar darsda o‘qituvchi belgilangan maqsadga muvofiq hikoyalar yoki ertaklardagi qahramonlar rolini o‘ynaydilar yoki davra suhbati tashkil etib, turli rollarni bajaradilar. Masalan, muxbir, tarixchi, qishloq xo‘jaligi xodimi va b.q. Bunday o‘yinlar bolalarda bilimga qiziqish uyg‘otadi, ularni ijodiy izlanishga undaydi, shuningdek, kasblar bilan tanishuvlariga yordam beradi.Boshlang‘ich sinf darslarda analitik metod, sintetik metod, harfiy metod bilan birgalikda ta'limiy o‘yinlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdukarimov H.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat:o‘quv-metodik qo‘llanma.-T.:2010.-75b.

2.Jo‘rayevR.,Zunnunov A.Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash.-T.:Sharq,2005.-80b.

3.Internet materiallari: http://go.mail.ru/search?. “Ta’lim texnologiyalari"

O‘QITUVChILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANIShGA MOTIVASION TAYYoRGARLIGINI O‘ZIGA XOS JIHATLARI

K.S.Oqilova
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, katta o‘qituvchi

Annotasiya. Maqolada bugungi kun ta’lim jarayonidagi o‘ziga xosliklar, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan munosabat va uning tadqiqiga tegishli qarashlar, shuningdek, xalq ta’limi pedagog xodimlarining o‘z-o‘zini rivojlantirishga, kasbiy-metodik mahoratini oshirishga motivasion tayyorligini o‘rganishga doir ba’zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moslashuvchanlik, ehtiyoj, kasbiy rivojlantirish, ruhiy holat, motivasiya.

Respublikamizda davlat siyosatining ta’limga qaratilganligi, yangi chaqiriq va standartlar, jumladan, zamonaviy jadal taraqqiyotga erishish uchun amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar nuqtai nazaridan pedagogik faoliyat murakkablashuvi paydo bo‘ldi va natijada o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati hamda moslashuvchanligiga ehtiyoj kuchaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatiga innovasiyalarni joriy etish zarurati bir qator sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, jumladan, ta’limni shaxsga yo‘naltirish va insonparvarlashtirish, umumiy o‘rta ta’lim uchun milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi munosabati bilan o‘quv jarayonini rejalashtirishga yondashuvlarning o‘zgarishi, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim dasturlari mazmunini yangilash, ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, inklyuziv ta’limni joriy etish, umuman, ta’lim sifatini oshirish. Shunga ko‘ra, pedagog kadrlarning malakasiga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda, umumta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzluksiz malaka oshirish masalalari yangilanmoqda. Bunday holatda eng muhim omil o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish masalasi bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda ta’lim taraqqiyotiga erishish borasidagi eng keng tarqalgan nazariyalardan biri xalq ta’limi pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘lib, uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) maktablarda ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, degan tendensiyadir. UKR darajasiga erishgan o‘qituvchilarning ta’kidlashicha, doimiy erishilgan tajriba o‘qituvchilarning

bilim, ko‘nikma, malakalari, kompetentligi va mahoratini yaxshilaydi, bu esa ularning sinfdagi amaliyotini ijobiy jadallashtiradi, bunday uzviylik o‘z navbatida o‘quvchilarning natijalarida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi .Ta’lim rivoji uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o‘zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o‘qituvchilarda o‘zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda kontekstlarini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Olib borayotgan ushbu tadqiqotimiz yo‘nalishida tavsiflovchi va korrelyasion, tadqiqotlar ustunlik qilsa-da, o‘rganilgan tadqiqot ishlari ichida ba’zi bir eksperimental ishlar ham mavjud. Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta’siri bo‘yicha bir qator amaliy tadqiqotlar, korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontentga e’tibor, faol o‘rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok.

O‘rganishlarimizga ko‘ra, bizningcha, o‘qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivasiyasi bo‘lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantiradi. O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy o‘sishga bo‘lgan motivasiyasi ma’lum bir ta’lim tashkilotining ta’lim amaliyotiga innovasiyalarni kiritish va umuman butun ta’lim tizimini modernizasiya qilishning zarur shartidir. Ko‘pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o‘qituvchining to‘g‘ri rivojlanayotgan motivasion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo‘nalishidir. K.Ye. Izard insonning birlamchi motivasion tizimini tashkil etuvchi hissiyotlar inson xulq-atvorida, uning shaxsiy rivojlanishida va dunyo bilan munosabatlarida tashkilotchi omil bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. P.Taker va D.Stronglar o‘qituvchi faoliyatining samarali bo‘lish shartlarini hisobga olib, uning motivasiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydilar.

O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivasion tayyorgarligini o‘rganish ta’lim siyosatidagi tashabbuslar va o‘qituvchilarning doimiy kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish motivasiyasi darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishga tayyorligi masalasi, ayniqsa, ta’lim natijalari past bo‘lgan maktablarda keskin past darajada ekani ma’lum. Ushbu maktablarning o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish imkonini beradigan turli xil usullar, texnologiyalarni tanlab olishlari va amalga oshirishlari kerak, masalan, maktab kontingenti orasida og‘ir ijtimoiy sharoitda bo‘lgan o‘quvchilarning mavjudligi, qiyin hayotiy vaziyatlar, o‘zbek tilining ona tili emasligi va boshqalar.

Taqiqotimiz doirasiga kiritilgan ta’lim tashkilotlari bilan samarali ishlashni tashkil etish, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy ta’limga tayyorligining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq anglash niyatida hududiy markazlarga malaka oshirishga jalb etilgan pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy ta’lim rivojlanishiga ta’sir etuvchi motivasiyasi o‘rganildi hamda ma’lum bir xulosalarga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Desimone, L. M. (2009). Improving impact studies of teachers’ professional development: Toward better conceptualizations and measures. Educational Researcher, 38(3), 181-199. doi:10.3102/0013189X08331140

2. Izard Kerrol Ellis. (2009) Psixologiya emosiy. / Per. s angl.: V. Misnik, A. Tatlыbayeva. SPb.: Piter. – 2009, – 460 s.

3. Pamela D. Tucker, James H. Stronge. Linking teacher evaluation and student learning. / Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development, 2005. 132 r.

4. Su Y., Feng L. & Hsu C. Accountability or authenticity? The alignment of professional development and teacher evaluation // Teachers and Teaching, 23(6). 2017. R. 717–728, doi: 10.1080/13540602.2016.1255189.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

J. Xudoyqulov
Samarqand viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari sharhlangan. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik shart- sharoitlari asoslab berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, hamkorlik, o‘qituvchining kreativ faoliyati, ijodiy topshiriq, mantiqiy tafakkur, samaradorlik.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, ta’limi taraqqiy etgan mamalakatlar doirasida reyting bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS- (Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqiotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqoslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Mazkur xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish o‘quvchidan o‘qish savodxonligiga erishishni, matnni ongli o‘qish bilan birgalikda, tahlil qila olish, mantiqiy mulohaza yuritib o‘z munosabatini bildira olish kabi xususiyatlarni talab etadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash va badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ijobiy hal etiladi.

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarda tilga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga o‘quvchilar egallagan ko‘nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qo‘llashlari bilan bog‘liq fundamental blimlar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlay olish bilan bog‘liq murakkab masalalarni hal qila olish ko‘nikmalari, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, moslashuvchanlik, liderlik, ilmiy xabardorlik bilan bog‘liq shaxsiy fazilatlar shakllantirishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagilarga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish, o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish, tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish, har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

6. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

7. Yozma nutq bilan bog‘liq beriladigan topshiriqlarda bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish, savollarga ketma-ketlikda javob yozish, syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi nostandart topshiriqlarga alohida e’tibor qaratilgan

8. Har bir mashg‘ulot tilni o‘zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan darslarni tashkil etishda mahoratli pedagog darsning har bir daqiqasidan unimli foydalanadi. Dars jarayonida topshiriqlardan samarali foydalanish orqali, balki baholash jarayoni orqali ham o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish mumkin. Baholash o‘qituvchiga o‘quv jarayonidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va keyingi rejalarni shu asosda tuzish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o‘quv dasturi, o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro aloqasini ta’minlashga xizmat qiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanining boshqa fanlardan farqi shundaki bu fan doirasida o‘quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, ularda ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. Bu fanni o‘qitishni boshlang‘ich sinflarning barcha fanlar bilan integratsiyalashning imkoniyati katta, bu esa o‘quvchiga atrof- olamni yaxlit idrok etish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-son Farmoni

3. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari -T.: 2001.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanmasi. Qarshi, Nasaf. 2000.- 80b.

5. M.Raximqulova va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish. Uslubiy qo‘llanma.- Toshkent Qamar media nashriyoti, 2022- yil. 70 bet.

МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТ ПРИНЦИПЛАРИ

А.А.Рахимов
СамВПКТМОХМ “Педагогика, психология ва таълим технологиялари ” кафедраси доценти

Аннотация. Ушбу мақолада маънавий-маърифий фаолият принциплари тўғрисида маълумот берилиб, уни талаба шахсини ривожлантиришдаги роли изоҳланган. Шунингдек, олий таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолиятни ташкил қилишнинг айрим йўналишлари изоҳланган.

Таянч сўз ва иборалар: таълим ислоҳоти, шахс, таълим, тарбия, ривожланиш, маълумот, демократик жамият, маънавият, маърифат, фаолият, принцип, ижодкорлик, ташаббускорлик, қадриятлар, олий таълим муассасаси.

Республикамизда рўй бераётган таълим ислоҳоти шароитида баркамол авлод ўз Ватанига, халкига, она ерига, миллатига, ота - онасига содиқ бўлган ҳар томонлама камол топган инсонларни тарбиялаш энг мухим ахамият касб этади. Янгиланган давлат тизимида тарбия мазмуни максад ва вазифалари хам янгиланади. Бу янгиланиш аввало тарбияни инсонпарварлик ва демократия принципи асосида қурилиши билан фарқланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек “ таълим-тарбия – ҳар қайси давлат ва жамиятнинг нафақат бугунги, балки эртанги кунини ҳам ҳал қиладиган энг муҳим ва устувор масаладир. Шунинг учун мамлакатимизда бу масалага давлат миқёсида улкан эътибор қаратилмоқда” [1, 353]. Дарҳақиқат бугун таълим ва тарбия жараёнини сифатли ташкил қилиш ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб турибди.

Тарбияни инсонпарварлаштириш ва демократиялаш принципи талабалар, ўқитувчи - тарбиячилар ижодий фаоллик ва мустақиллигини ривожлантириши уларни турли хил ижтимоий фойдали ишларни амалга оширишда ҳамкорлигини таъминлаш учун дастуруламал бўлиб хизмат қилади.

Талаба-ёшларда ижодий фаоллик, ақлий заковат, ахлоқий салоҳият, илмий дунёқарашни шакллантириш, уларни кенг қамровли ижтимоий -фойдали ишларга фаол иштирок этишларини шакллантириш учун, олий таълим муассасаларида олиб бориладиган маънавий-маърифий фаолиятнинг алоҳида ўрни бор.

Шунга кўра биз ушбу мақолада таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолият, уни режалаштириш, ташкил этиш принциплари, шакллари хусусида фикр юритамиз.

Ўз юртига, Ватанига муҳаббат, инсонпарварлик туйғулари халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган азалий хусусиятдир. Ана шу ноёб инсоний фазилатларни асраб авайлаш ва янада такомиллаштириш фарзандларимизнинг озод ва демократик Ўзбекистоннинг муносиб ўғил-қизлари этиб тарбиялаш масаласи маънавият сохасидаги ишларимизнинг асосий йўналишини ташкил этиши даркор. Шунга асосан таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолиятни аниқ режалаштириш, маънавий-маърифий тарбия тизимини яратиш, унинг шакллари, методларини ёш авлод маънавий-маърифий дунёкарашини шакллантиришга қаратишни тақозо қилади. Ҳар қандай тарбия, тадбир, маънавий-маърифий фаолият йиғиндиси маълум қоидалар, талабларга риоя қилинганда, ёинки, уларга асосланган тақдирдагина мақсадли бўлади. Бу қоидалар, талаблар, асослар педагогика фанида «принциплар» деб номланади.

Дархакикат, маънавий-маърифий фаолият ҳам маълум принципларга амал қилади. Маънавий-маърифий фаолият принциплари - бу таълим муассасаларида баркамол авлодни тарбиялаш максадида ташкил этиладиган маърифий тадбирларнинг йўналишига, мазмунига, методлари ва ташкилий шаклларига, тарбия жараёни иштирокчиларининг ўзаро муносабатларига қўйиладиган асосий талабларга амал қилишни ифодалайдиган коидалардир.

Маънавий-маърифий фаолият принциплари ўқитувчи-тарбиячиларга йўл-йўриқ кўрсатувчи талаблар, қоидалар йиғиндиси ҳисобланиб, у баркамол инсонни тарбиялашнинг вазифалари билан белгиланади ва умуминсоний тарбия тўғрисидаги таълимотга ҳамда илмий педагогик маълумот эришган ютуқларга асосланиб, унинг қонуниятларини акс эттиради. Шунинг учун маънавий-маърифий фаолият жараёнида бу принципларга риоя килиш унинг самарадорлигини оширади, сифат кўрсаткичини ривожлантиради.

Ҳозирги замон жаҳон ва миллий педагогика назарияларига асосланиб, маънавий-маърифий фаолият принципларини қуйидагича гуруҳлаш мумкин:

- маънавий-маърифий фаолиятнинг ижтимоий йўналганлик принципи;
- ихтиёрийлик, мустақиллик, ўйин ва романтика принципи;
- ишда ижодкорлик, ташаббускорлик, янгиликка интилиш нуқтаи назаридан ёндашиш приципи;

маънавий-маърифий фаолиятнинг режалилиги ва тадбирларнинг талаба-ёшларлар кучига мос бўлишини таъминлаш принципи;

маънавий-маърифий фаолиятнинг мунтазамлилиги, давомийлиги, узвийлиги ва таъсирчанлиги принципи;

маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этишда тарбияланувчиларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини хисобга олиш принципи.

Энди мазкур маънавий-маърифий фаолият принципларини тавсифлашга ўтамиз:

1. Маънавий-маърифий фаолиятнинг ижтимоий йўналганлиги принципи. Бу принцип маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этиш ва амалга оширишда ижтимоий тараққиёт, мамлакатнинг ғоявий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маданий ривожидан келиб чиққан ҳолда, дарсдан ва аудиториядан ташқари ташкил қилинадиган ишлар мазмунини, тўгарак, клублар, бирлашмалар фаолиятини мамлакат тараққиёти билан боғланиши, шунингдек, фан, техника, маданият, санъат ютуқларига асосланишни назарда тутади.

2. Маънавий-маърифий фаолиятга иштирок этишнинг ихтиёрийлиги принципи.

Бу принцип таълим муассасаларида ташкил этиладиган маънавий-маърифий фаолият факультативлар, тўгараклар, турли секциялар, клублар ва х.к. ларга иштирок этадиган талабаларнинг қизиқиши, истак-хоҳиши, қобилиятига қараб танлаш ва бунда уларнинг ихтиёрий бўлишини таъминлашга қаратилади. Ихтиёрийлик принципи, талабалар ихтиёрийлигини инобатга олиб, уларни толиқтирмаслик ва зўриқтирмаслик учун, таълим муассасаларида ташкил қилинадиган дарсдан ташқари ишларнинг иккитадан ортиқ бўлмаслигини инобатга олишни ҳам назарда тутади.

3. Маънавий-маърифий фаолиятда талабалар-ёшлар мустақиллиги, ташаббускорлиги, ижодкорлигини ҳисобга олиш принципи.

Бу принцип талабаларнинг қизиқишлари, ташаббуслари асосида маънавий-маърифий ишларни ташкил қилиш лозимлигини назарда тутади. Ҳар қандай тадбир, аввало талабаларнинг мустақиллигига асосланиши, ўқитувчи-тарбиячи уларни рухлантириши, фаолиятини ривожлантириши лозим. Шунда талаба-ёшларда ташаббускорлик, қизиқишлар, ижодий қобилият ривожланади. Ҳар қандай тадбирни улар юқори кўтаринки руҳда қизиқиш билан, ташаббус билан мустақил ижро этишга ўрганадилар. Уларда ўз-ўзини бошқариш ҳис-туйғуси тараққий этади.

4. Тарбиявий тадбирларнинг ўйин фаолияти, романтика шаклида бўлиш принципи. Бу принципни асосан кичик ва ўрта мактаб ўқувчиларига қўллаш мақсадга мувофиқ. Чунки кичик ва ўрта мактаб ёши ўқувчилари асосан ўйин фаолиятига кўпроқ эҳтиёж сезадилар. Аммо бу таълим муассасаларида ташкил этиладиган маънавий-маърифий фаолият тарбиянинг йўналишига, мазмунига, методлари, ташкилий

шаклларига, тарбия жараёнининг иштирокчиларининг ўзаро муносабатларига кўйиладиган асосий талабларни ифодалайдиган қоидаларга қаратилгандир.

5. Маънавий - маърифий фаолиятда талабаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш принципи. Ушбу принципда тадбирларнинг вазифалари, мазмуни талаба-ёшларнинг ёш ва тайёргарлик даражаларига мос бўлиб, улар соғлигига, дунёқарашига маънавий-ахлоқий салоҳиятига ақлий заковатига салбий таъсир кўрсатишдан йироқ бўлиши лозим.

Маънавий-маърифий фаолиятнинг кайд этилган принципларига асосланилса, уларнинг яхлитлиги, ўзаро ҳамкорлиги, бир-бирини тўлдирилишига эътибор қаратилиб, улардан самарали фойдаланилса, талабаларнинг таълимий, тарбиявий ва ривожланувчанлик фаолиятлари мақсадли йўлга кўйилиши, баркамол инсоннинг тўлиқ шахс бўлиб шаклланиши кафолатланади.

Маънавий-маърифий фаолиятни мақсадли ташкил қилиш, йўналтириш унинг мазмунини аниқ белгилаш ва ривожлантириш билан белгилашдир. Агар мазмун ва режа номутаносиблиги ташкил этилса, кўзланган мақсад амалга ошмайди. Шунга кўра инсон нотўғри тарбияланади, бундан жамият ҳам, инсонлар ҳам, одамнинг ўзи ҳам азият чекади. Демак мазмунни аниқ белгилаш ва уни тўғри режалаштириш даркор. Акс ҳолда буюк мутафаккир Бедил, айтганидек, агар меъмор дастлабки ғиштни тўғри қўймаса, девор юлдузларга етса ҳам қийшиқ бўлиб қолаверади. Бедилнинг бу фикри маънавий-маърифий фаолиятга дахлдордир. Модомики шундай экан, маънавий-маърифий фаолият мазмунини аниқ тасаввур қилиш, унинг йўналишларини тўғри белгилаш ва режалаштириш лозим.

Маънавий-маърифий фаолият инсоннинг ижтимоий-маданий мавжудот сифатидаги моҳиятини англатадиган, уни руҳий покланиш ва юксалишга даъват этадиган ички оламини бойитадиган, виждони, иймони, эътиқоди, дунёкарашини, мафкуравий салохиятини мустахкамлайдиган, умуминсоний қадриятларни билиш, тарғиб қилиш, ёхуд муайян жамиятнинг мақсад ва вазифаларига мувофиқ ақлий заковати ва маънавий-ахлоқий салоҳиятинитаркиб топтириш, ривожлантириш жараёнидир. Шунга кўра жамиятни, ижтимоий-сиёсий, иктисодий-маданий ривожлантиришда олий таълим муассасаларида олиб бориладиган маънавий-маърифий фаолиятни қуйидаги йўналишлар бўйича мазмунини белгилаш ва режалаштириш талабга мувофиқдир.

I.Ташкилий-тарбиявий ишлар

II. Мафкуравий (Ғоявий-сиёсий) тарбия талабалар ижтимоий фаоллиги ва ўқишга муносабатини кучайтириш.

III. Илмий дунёқараш асосларини шакллантириш, билимларни чуқурлаштириш ва кенгайтириш, билиш фаоллигини ошириш.

IV. Умуминсоний, миллий ахлоқ ва хулк маданиятини тарбиялаш.

V. Гўзаллик, нафосат ва бадиий тарбия.

VI. Меҳнатсеварлик ва меҳнат аҳлига муҳаббат тарбияси.

VII. Иқтисодий ва экологик тарбия ҳамда табиатни муҳофаза қилиш

VIII. Ёшларнинг ҳуқуқий билимдонлигини ошириш.

IX. Соғломлаштириш ва талабалар жисмоний баркамоллиги тўғрисида ғамхўрлик қилиш.

X. Ўқитувчи-тарбиячилар ва ОТМнинг ишчи-ходимлари билан олиб бориладиган маънавий - маърифий ҳамда мафкуравий ишлар.

XI. Ота-оналар ва маҳалла билан ишлаш.

XII. ОТМ даги жамоат ташкилотлари (Ёшлар иттифоқи, Касаба уюшма, хотин-қизлар қўмитаси) билан олиб бориладиган маънавий-маърифий ишлар.

Юқорида қайд этиб ўтилганидек, олий таълим муассасаларида барча фанларни ўкитиш жараёнида талабаларнинг маънавий-маърифий маданиятини оширишга ва дарсдан ташқари олиб бориладиган ишларга қаратилмоғи лозим. Бунда ҳар бир талаба «маънавият», «маданият» тушунчаларининг туб маъносини англаб олишлари, миллий маънавиятимиз сарчашмалари, манбаларидан хабардор бўлишлари, бу манбалардан

мустақил эркин илм олиш, ўрганиш малакаларига эга бўлишлари лозим. Бизнингча, олий таълим муассасаларида ташкил қилинадиган маънавий-маърифий фаолият йўналишлари қуйидагича қамраб олинса мақсадга мувофиқдир:

I йўналиш: - мустакиллик, билимлар байрамини ўтказиш, юбилей саналарга доир байрамлар, устозлар ва мураббийлар куни, Конституция куни, Ватан ҳимоячилари куни, диний байрамлар («Рамазон» ва «Қурбон» ҳайитлари), Ҳосил байрами, Наврўз байрами, Хотира ва қадрлаш кунини нишонлаш, тарихий обидаларга, республика зиёратгохларига экскурсиялар уюштириш, йил мураббийси каби кўрик танловларни ўтказиш бўйича тадбирларни ўтказиш режалаштирилади.

II йўналиш: - мафкуравий тарбия талабаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини инобатга олиб, мамлакатимизнинг ички ва ташки сиёсатига доир маълумотларни ўрганиш, Призидентимиз асарларини ўқиб ўрганиш, Олий мажлис қарорлари, маълумотлари билан танишиш, давлатимиз рамзлари моҳиятини ўрганиш, давлат арбобларининг фаолиятлари билан танишиш каби масалалар муҳокамага қўйилади.

Ш йўналиш: - ақлий меҳнат маданияти, билиш фаоллиги ва ўқишга онгли муносабат, илмий дунёқараш асосларини тарбиялаш. “Ўкишни ўрган”, “Менинг қизиқарли машғулотим”, “Менинг қизиқишларим”, “Инсон ва техникавий дунё”, “Машҳур одамлар ҳаётидан”, “Менинг орзу ва қизиқишларим”, “Мен билган ва билмаган дунё”, “Фан тараққиёти учун” каби мавзуларда суҳбатлар, мунозаралар, илмий амалий анжуманлар ўтказиш, «Ўйла, изла, топ», «Қувноқлар ва зукколар» ўйинларини ташкил этиш ва ҳ.к.

IV йўналиш: - умуминсоний ахлоқ асосларини ташкил этган Ислом динида таълим-тарбия масалалари, алломаларимиз таълимотини ўрганиш, “Одоб-ахлоқ сабоқлари”, “Маънавият ва ҳаёт”, “Ҳаёт ва турмуш одоби” каби мавзуларда давра суҳбатлари ташкил этиш, “Қизлар иффати”, “Йигитлик ғурури”, “Аёл маданияти” мавзуларида бахс мунозара, сўзлашиш, кийиниш, муомала одоби бўйича суҳбатлар, кечалар, анжуманлар ўтказиш.

V йўналиш: - талабалар ва профессор-ўқитувчилар жамоаси эстетик маданиятини ривожлантириш мақсадида таниқли санъаткорлар, ҳақида маълумот бериш, учрашувлар ташкил килиш, “Мусиқа менинг ҳаётим”, “Сўз қалбни енгар, кийим ҳуснни» мавзуларида сухбат, “Жаҳон ичра - жаҳоним - Бухорои Шарифим”, “Мен нечун севаман, Ўзбекистонни” номли стендлар чиқариш, ижодкор, шоирлар, ёзувчилар, композиторлар, актёрлар, режиссёрлар билан учрашувлар ташкил килиш, китобхонлар конференцияларини уюштириш: бадиий ижод тўгаракларини ташкил килиш, экскурсияларга бориш, одоб гўзаллиги, хулқ маданияти, дид ва хулқ қоидалари кўрик танловларини уюштириш.

VI йўналиш: - меҳнат илғорлари, каҳрамонлари, фахрийлари билан учрашувлар уюштириш: ижтимоий-фойдали меҳнат шанбаликлари, якшанбаликларга иштирок этиш: техник ижодий тўгаракларга, клубларга, ремонт - қурилиш отрядлари ишига катнашиш: “Меҳнатнинг қадрига ет”, “Касб ва меҳнат”, “Касбим-фахрим” стендларини чиқариш: касблар, меҳнат қахрамонлари витриналари, “Шаҳримиз мустақиллик йилларида” фотомонтажини чиқариш ва ҳ.к.

VII йўналиш: - иқтисодий тарбия ва табиатни муҳофаза қилиш: иқтисодий билим, тежамкорлик тўғрисида маълумотларини бериб бориш: ўқув хонаси жиҳозларини дарслик, ўқув қўлланмаларини асраш тўғрисида суҳбатлар ўтказиш: “Иқтисод ва маориф”, “Сув оби–ҳаёт” стендларини ташкил килиш: иқтисодчилар, ҳисобчилар, банк ходимлари билан учрашувлар, савол – жавоб кечаларини ташкил қилиш.

VIII йўналиш: - талаба-ёшларнинг ҳуқуқий билимдонлигини ошириш бўйича: талаба-ёшларда юксак фуқаролик сифатларини тарбиялаш, мустақил Республика конституцияси, қонунларига ҳурмат ҳис-туйғуларини ўстириш: миллий истиқлол ғояларига садоқат, диний экстремизм ва фундаментализмга муросасиз бўлишни шакллантириш: халқ депутатлари, ҳуқуқни ҳимоя қилиш органлари ходимлари билан суҳбат, учрашув, савол-жавоб кечаларини уюштириш: “Ўз уйингни ўзинг асра”, “Милиция - менинг қўриқчим”, “Ҳуқуқий онглилик - давр талаби” кўргазмали стендлар ташкил қилиш: Йўл ҳаракати

қоидалари, “Ёш ҳуқуқшунос” тўгарагини ташкил этиш: “Сиз қонунни биласизми?” кўрик танловини ўтказиш.

IX йўналиш: - соғломлаштириш ва талабалар жисмоний баркамоллиги тўғрисида ғамхўрлик қилиш. Ўқув муассасаларида эрталабки соғломлаштириш машғулотларини ташкил қилиш: жисмоний тарбия ва жисмоний маданият дарслари, тўгаракларини фаолиятини такомиллаштириб бориш: Талаба-ёшлар ҳаракат органларини чиниқтиришга эътиборни кучайтириш: спорт секцияларини ташкил қилиш: ўқув йилида ўтказиладиган спорт ўйинлари, мусобақалари жадвалларини ишлаб чиқиш: “Кичик универсиада”, “Олимпиада резервлари” каби спорт ўйинларини мунтазам ўтказиш, соғлом турмуш тарзи ва уни фаол амалга ошишини кенг тарғиб қилиш: “Соғлом танда соғ ақл” кўрик танловини ўтказиш.

X йўналиш: - ўқитувчи-тарбиячилар ва талаба-ёшлар ўртасида олиб бориладиган маънавий-маърифий фаолият. “Маънавият - миллат гултожи”, “Ислом маънавият машъали”, “Ҳадис илми - ҳаёт илми”, “Маънавиятимиз дарғалари” мавзуларида суҳбатлар, кечалар уюштириш, “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси”, “Меҳнат қонунлари”, “Оила кодекси”, “Жиноят кодекси”, “Таълим тўғрисида қонун”, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” каби қонун ва меъёрий ҳужжатларни ўрганиш соатларини ўтказиш, “Ўқитувчилик шаъни”, “Тарбиячилар маҳорати”, “Касб маданияти”, “Ёш авлод мураббийси” мавзуларида кечалар уюштириш.

XI йўналиш: - ота-оналар ва маҳалла билан ишлаш. Ўқув юрти ҳудудида талаба-ёшлар ота-оналарининг педагогик маълумотларини аниқлаш мақсадида “Аҳолининг маънавий-маърифий” билимдонлиги кўрик танловларини ташкил қилиш: “Бир болага етти маҳалла ота-она” мавзусида суҳбат, кечалар уюштириш: синф, гуруҳ ота-оналар мажлисларини амалга ошириш: “Очиқ эшиклар куни” тадбирини ўтказиш: ота-оналар комитети фаолиятини йўлга қўйиш: “Ота-оналар бурчаги”, “Оила ва жамият” семинарларини ташкил қилиш: талаба-ёшлар, ота-оналар билан байрамлар, кинофилъмлар кўриш, театрларга бориш тадбирларини йўлга қўйиш “Обод маҳалла”, “Маҳалла - маданият ўчоғи”, “Масъулиятли оила” учрашувлари, кечаларини ташкил қилиш ва ўтказиш.

XII йўналиш: - олий таълим муассасаси жамоат ташкилотлари билан олиб бориладиган маънавий-маърифий фаолият. Ёшлар иттифоқи, касаба уюшмаси, хотин-қизлар қўмитаси каби жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда фаолиятни йўлга қўйиш, жамоат ташкилотларининг илмий, техник, маданий, спорт ва физкультура уюшмаларини ташкил килиш. Дарсдан сўнг талаба-ёшларнинг маънавий-маърифий ишлари устидан педагогик раҳбарликни йўлга қўйиш. Қайд қилинган маънавий-маърифий йўналшдаги ишлар ўқув йилида режалаштирилади. Йиллик режа асосида ойлик ва ҳафталик бошқариладиган ишлар тузилади.

Юқорида кайд этиб ўтилган йўналишларда маънавий-маърифий фаолият олиб бориш мақсадида ишлар ўқув йилида ёки бош йилга мўлжаллаб тузилади ва режалаштирилади.

Маънавий-маърифий фаолият турли шаклларида ташкил этилади. Буни тахминан уч гуруҳга бўлиш мумкин:

Якка тартибдаги (Индивидуал) ишлар.

Тўгарак ишлари.

Оммавий ишлар.

Якка тартибдаги маънавий-маърифий фаолиятга олимпиадалар, иқтидорли талабалар билан ўтказиладиган танловлар, конкурслар, кўргазмалар киради. Гарчи бу шаклдаги тадбирларга кўпчилик иштирок этсада унда ҳар бир иштирокчи якка ҳолда иштирок этиши, ўқув юрти, вилоятини тадбирнинг маълум тури бўйича якка тартибда ҳимоя қилгани учун уни якка шаклдаги маънавий-маърифий фаолият деб атаймиз. Фан олимпиадалари - бу билимларга қизиқишини ривожлантиришнинг энг муҳим воситасидир. Унинг тарбиявий қиймати шундаки, гарчи маълум фан бўйича ўтказилсада, унда тузиладиган якка

ҳолатдаги топшириқлар, саволлар талабани ижодий тафаккурини ривожлантиришга хизмат қилади, билим олишга интилишини кучайтиради.

Якка тартибдаги маънавий-маърифий фаолиятнинг танлов ва кўргазма шаклидаги тури ҳам талаба-ёшларга ижодкорликни, мақсадга интилувчанлигини ривожлантиради. Масалан: талаба "Моҳир қўллар", "Техник ижодкорлик", "Шеърият маскани" каби танловлар ва кўргазмаларда иштирок этиб, ҳар бири ўз ижодкорлиги, қобилияти, истеъдодини намойиш этади. Бу танловлар олий таълим муассасасидандан бошланиб, республика миқёсида ўтказганлиги туфайли талабада масъулият, фахр, шаън учун кураш ҳис-туйғуларини тарбиялайди.

Ҳозирги кунда ўқув юртларида энг кўп тарқалган маънавий-маърифий фаолият шакли бу тўгарак ишидир. Олий таълим муассасаларидаги фан тўгараклари, бадиий ҳаваскорлик, фото, радио, кинохаваскор тўгараклари, "Ёш адабиётшунос", "Ёш китобхон", "Ёш педагог" каби тўгарак ва клублар хам катта тарбиявий аҳамиятга эга.

Тўгараклар ва клубларда иштирок этиш талаба-ёшларга билиш қобилиятлари, ижодий тафаккурини ривожлантириш билан бирга уларда юрт, Ватан, халқ олдидаги масъулиятини кучайтиришга хизмат қилади ва шунинг учун ҳам ёш авлоднинг маънавий-маърифий салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

Маънавий-маърифий фаолиятнинг яна бир шакли оммавий тадбирлардир. Бунга эрталиклар, мавзуий кечалар, диспутлар, савол-жавоб кечалари, анжуманлар, фестиваллар, спорт байрамлари ва ўйинлари, экскурсиялар ва х.к.лар киради.

Шундай килиб, маънавий-маърифий фаолият кенг қамровлидир. Зеро, маънавият ва маърифат - Олий қадрият. У халқимизнинг урф-одатларини, мутафаккирларимизнинг сермазмун таълимотларини, тарихий миллий қаҳрамонларимизнинг ҳаёт йўлини, истиқлол, эрк учун курашганларнинг машаққатли турмуш сахифалари ўзида акс эттиради. Шунинг учун ҳам у олий қадрият. У ўз йўналишларига кўра комил инсонни тарбиялаш каби буюк мақсадни амалга оширади.

Юқорида айтилган фикрлар, ишларни амалга оширсак, маънавий-маърифий фаолият ўз муддаосига етган, баркамол авлодни шакллантиришга тамал тоши қўйилган бўлади. Бунинг учун эса доимо изланиш, харакат килиш лозим. Маънавий - маърифий фаолиятда бу борадаги бор имкониятлардан максимал фойдаланишлари зарур.

Шундай килиб, таълим муассасаларида ташкил қилиб ўтказиладиган маънавий-маърифий фаолият талаба-ёшларни билимга чанқоқликларини ошириб, ақлий салохият ва заковатларини ривожлантириш билан бирга, уларни маънавий баркамол бўлиб тарбияланишлар учун замин яратади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – 400 б.
2. «Таълим тўгрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, - Тошкент, 1997.
3. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». - Тошкент, 1997.
4. Педагогика.// ўкув кўлланма. А. Мунавваров тахрири остида - Тошкент, «Ўкитувчи», 1996.
5. Ўкувчи маънавиятини шакллантириш «Шарк», 2000.
6. Умаров Б, Олимов Ш. Олий ўкув юртларида маънавий-маърифий тарбия асослари. - Т: «Фан», 2004.

MAHALLIY TILDA O‘QITILADIGAN MAKTABLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G‘.E.Xusanov
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
E. U.Xudoyberdiyev
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti

Annotatasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Yevropa mamlakatlarining ta’lim tili milliy va boshqa tilda bo‘lgan maktablarga munosabati qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, aholining ta’lim tilini tanlashda e’tibor berishi zarur bo‘lgan omillar, ona tilida ta’lim olishning muhimligi, O‘zbekiston sharoitida ta’lim tili rus tilida bo‘lgan maktablarga ehtiyojning yuqoriligi sabablari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ отношения Узбекистана и стран Европы к школам с национальным и другими языками обучения. Также обсуждались факторы, на которые следует обращать внимание населению при выборе языка обучения, важность образования на родном языке, причины высокого спроса на русскоязычные школы в Узбекистане.

Annotation. This article provides a comparative analysis of the attitudes of Uzbekistan and European countries towards schools with national and other languages of instruction. They also discussed the factors that the population should pay attention to when choosing the language of instruction, the importance of education in the mother tongue, the reasons for the high demand for Russian-language schools in Uzbekistan.

Tayanch iboralar. Milliy til, mintaqaviy (hududiy) yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillar, hududiy bo‘lmagan tillar, ta’lim tili, ozchiliklar tilini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tili rus tilida bo‘lgan maktablarga talabning ko‘pligi sabablari, ona tilida ta’lim olishning muhim omillari.

O‘zbekiston ko‘p millatli davlat bo‘lsa-da, aholisining asosiy qismini o‘zbek millatiga mansub qatlam tashkil etadi. Shu sababli mamlakatda o‘zbek tili milliy va yagona davlat tili hisobladi. Ammo boshqa tillarda ham erkin muloqat qilish, ta’lim olish cheklanmagan. Jumladan, ta’lim tili rus, qaraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman tili bo‘lgan maktablar mavjud. Ta’lim tashkilotlarida o‘qitish tilidan foydalanish tartibi “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 33-moddasida “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinishi ta’kidlangan[1;13]. “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi berilishi belgilab qo‘yilgan[2;2].

Kuzatishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, dunyo mamlakatlarining ko‘pchiligida ham milliy tildan boshqa tillarda ta’lim beradigan maktablar mavjud. Ammo ularning har birida o‘qitish tili milliy tildan boshqa til bo‘lgan ta’lim muassasalariga nisbatan o‘ziga xos yondashuvlar shakllangan. Bu holatni O‘zbekiston hamda Yevropa davlatlar misolida qiyosiy tahlil qilishga harakat qildik. Yevropa Ittifoqining ta’limni tahlil qilish milliy bo‘linmalari tarmog‘i bo‘lgan “Eurydice” ning 2019-yildagi Yevropa maktablarida mintaqaviy yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillarni o‘rgatish bo‘yicha hisobotida Yevropada ko‘plab tillarning uyg‘un, birga yashashi Yevropa Ittifoqining xilma-xillikda birlashishga intilishining kuchli ramzi va Yevropa loyihasining asoslaridan biri ekanligi ta’kidlangan [4;3]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida 24 ta rasmiy til va 3 ta alifbo mavjud bo‘lib, ularning ba’zilari butun dunyoni qamrab olganligi, 60 ga yaqin boshqa tillar ham Yevropa Ittifoqi merosining bir qismi bo‘lib, ular muayyan mintaqalarda yoki ma’lum guruhlar tomonidan iste’molda ekanligi ma’lum qilingan [4;3].

Yevropada haqiqatan ham turli tillar iste’molda va ular milliy yoki rasmiy, mintaqaviy yoki kamsonli kishilar, migrantlar tomonidan ishlatiladigan tillardir. Kamsonli kishilar gaplashadigan tillar har bir davlatdagi ma’lum bir geografik hududga bog‘langan bo‘lsa-da,

ularning bir nechtasi aynan bir geografik hudud bilan bog‘lanmagan bo‘lishi ham mumkin. Yevropa Ittifoqida taxminan 40 dan 50 milliongacha odam mintaqaviy yoki iste’molchilar soni kam bo‘lgan tillarda gaplashadi (Yevropa Parlamenti, 2016) [4;6].

Davlat yoki milliy tillardan boshqa tillarga “Eurydice” hisobotida quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Mintaqaviy yoki kamsonli kishilar gaplashadigan tillar: “davlatning ma’lum bir hududidagina an’anaviy ravishda ushbu davlat fuqarolari tomonidan qo‘llaniladigan va hudud aholisining qolgan qismidan soni jihatidan kichikroq guruhni tashkil etuvchilarning tillari”; u davlat til(lar)idan farq qiladi (Yevropa Kengashi, 1992). Umumiy qoidaga ko‘ra, bular tegishli hududlarda etnik ildizlarga ega bo‘lgan yoki asrlar davomida ma’lum bir hududda joylashgan aholi tillaridir. Mintaqaviy yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillar rasmiy til maqomiga ega bo‘lishi mumkin, ammo ta’rifga ko‘ra, bu maqom ular so‘zlashadigan hudud bilan chegaralanadi. Hududiy bo‘lmagan tillar: Davlat fuqarolari tomonidan qo‘llaniladigan til yoki hududning qolgan aholisi ishlatadigan tillardan farq qiladigan, lekin an’anaviy ravishda davlat hududida qo‘llanilsa-da, uning ma’lum bir hududi bilan aniqlab bo‘lmaydigan til. (Mintaqaviy yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillar bo‘yicha Yevropa Xartiyasiga asoslangan ta’rif (Yevropa Kengashi, 1992)). Masalan, roman tili hududiy bo‘lmagan tildir” [4;7]. Roman tillari 60 dan ortiq mamlakatda (mas,: fransuz tili 30 ta, ispan tili 20 ta, portugal tili 7 ta, italyan tili 3 ta mamlakatda) milliy yoki rasmiy til sifatida qo‘llanadi: ularda 600 mln.dan ortiq kishi so‘zlashadi [5].

Yuqoridagi ta’rifdan tushunish mumkinki, ma’lum bir mamlakat hududida ko‘psonli asosiy aholi guruhi bilan birga bir nechta, hatto yuzlab kamsonli aholi guruhlari yashaydi va ular turli xil tillarda gaplashadi. Xuddi shunday guruhlar davlat yoki davlatning ma’lum bir ma’muriy bo‘linmasiga tegishli hududlarida asrlar davomida istiqomat qiladi. Bunday toifa kishlari foydalanadigan tillar mintaqaviy (hududiy) yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillarga misol bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, ma’lum bir tuman (shahar) lar yoki tuman (shahar) larning ayrim hududlarida qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman tilida so‘zlashuvchi aholi guruhlari yashaydi. Demak, O‘zbekistonda bu tillarni mintaqaviy (hududiy) yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillar qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, asosan viloyat va ayrim tuman markazlarida rus tilida so‘zlashuvchi aholi qatlami ko‘pchilikni tashkil etsa-da, bu tilning ishlatilish ko‘lamini aynan bir hudud bilan chegaralash qiyin. Shuning uchun rus tilini hududiy bo‘lmagan til deb atashimiz maqsadga muvofiq. Chunki bu tildan respublikada yashovchi rusiyzabon aholidan tashqari turli millat vakillari ham har xil hududlarda foydalanadi. Aholining demografik xususiyatlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston maktablarida ta’lim milliy va boshqa tillarda tashkil etiladi. Respublikamizda milliy tildan boshqa tillar (mintaqaviy (hududiy) yoki kamsonli aholi gaplashadigan va hududiy bo‘lmagan tillar)da o‘qitishni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar tayyorlanib, amaliyotga joriy etilgan. Yevropa Kengashi ham o‘z a’zolariga milliy o‘quv rejasi yoki ta’lim dasturlarida, milliy baholash yoki imtihon hujjatlarida, tanlangan maktablar sonida amalga oshiriladigan yoki ma’lum bir geografik hududdagi barcha maktablarga ta’sir qiluvchi kichik miqyosli chora-tadbirlar ko‘rinishida ushbu tillarni qo‘llab-quvvatlashni, bunday tillardan o‘quv resurslari sifatida foydalanishni tavsiya qiladi[4;8]. Ammo Xorvatiyadagi maktablarda o‘qitiladigan barcha ozchilik tillari uchun o‘quv dasturlari va qo‘llab-quvvatlovchi hujjatlar mavjud emas. Oltita davlatda (Fransiya, Italiya, Vengriya, Polsha, Ruminiya va Serbiya) esa rasmiy ta’lim hujjatlari o‘ndan ortiq tillarga ishora qiladi, rasmiy hujjatlar Polsha va Serbiyada eng ko‘p tillarni qamrab oladi. Yana oltita davlatda (Ispaniya, Xorvatiya, Litva, Slovakiya, Shvetsiya va Shimoliy Makedoniya) beshdan o‘ntagacha bo‘lgan ozchilik tillarga e’tibor qaratadi”[4;8]. Bunda nafaqat mintaqaviy yoki ozchiliklar tillarini o‘qitish, balki ulardan ta’lim tili sifatida foydalanish ham nazarda tutiladi. “…Bunday siyosiy va moliyaviy majburiyatni bajarishda mintaqaviy yoki ozchiliklar tillarini o‘qitishni amalga oshirishda resurslarning mavjudligi juda muhimdir. Bunday resurslarga mintaqaviy yoki kamsonli aholi gaplashadigan til o‘qituvchilarini tayyorlash, qo‘llab-quvvatlash, tegishli o‘quv materiallari hamda qo‘shimcha resurslar, masalan, madaniyat markazlari, veb-saytlar, ko‘rgazmalar va

boshqalar kiradi”[4;13]. Shu bilan bir qatorda aytilayotgan resurslarga ta’lim tili milliy til bo‘lmagan maktablar uchun mintaqaviy yoki ozchiliklar tilida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tadigan fan (kasb-hunar) o‘qituvchilarini ham kiritish zarur.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan bilish mumkinki, O‘zbekistonda ham, Yevropa mamlakatlarida ham ta’lim tili milliy va iste’molchilari soni kam bo‘lgan tillarda o‘qitadigan maktablar mavjud. Masalan O‘zbekistonda 2021-yil 20-sentabr holatiga ko‘ra, 6 246 491 nafar o‘quvchidan 5 346 791 nafari o‘zbek tilida, 636 463 nafari rus tilida, 124 231 nafari qoraqalpoq tilida, 66 959 nafari tojik tilida, 53 407 nafari qozoq tilida, 7 795 nafari qirg‘iz tilida, 10 845 nafari turkman tilida ta’lim oladi [6;69]. Demak, O‘zbekiston ham, Yevropa davlatlari ham kamsonli aholi gaplashadigan tillarni qo‘llab-quvvatlashga, ushbu tillarda ta’lim olishga barcha sharoitlarni yaratishga, ta’lim sifatini oshirishga e’tibor qaratgan. Shu o‘rinda bir farqli jihat borki, Yevropa davlatlarida mamlakatning asosiy aholisini tashkil etuvchi qatlam milliy tilda ya’ni o‘z ona tilda ta’lim olishadi va boshqa tilda ta’lim olishga u qadar katta ehtiyoj sezishmaydi. Masalan, Ispaniyada rasmiy til ispan tili bo‘lib, bable va aragon tillarida, Fransiyada fransuz tili rasmiy til bo‘lib, Melanez tillari (drehu, nengone, paiki, aije), Elzas va Mozelning mintaqaviy tillari (shu jumladan nemis va uning dialektal variantlari) da ispan yoki fransuz tilida so‘zlashuvchi aholi ta’lim olishga ehtiyoj sezmaydi. Balki kamchilik gaplashadigan tillarning yo‘qolib ketishining oldini olish maqsadida bu tillar qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj. O‘zbekistonda esa aholining o‘zbek tilida gaplashadigan asosiy qismi qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillarida ta’lim olishga ehtiyoj sezmasa-da, rus tilida ta’lim olishga jiddiy e’tibor qaratishadi. Hatto qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillarida gaplashadigan aholi ham farzandlarini ta’lim tili rus tili bo‘lgan maktab va sinflarda o‘qitishga harakat qilishadi. Bunga sabab nima? Ta’lim tili rus tilida bo‘lgan maktab va sinflarda o‘qitish sifati yuqorimi? Moddiy-texnika bazasi boymi? Balki eng malakali va bilimli o‘qituvchilar dars berishar? Bu savollarning barchasiga yo‘q degan javobni olishingiz mumkin. Chunki bu maktablar ham ta’lim tili milliy til bo‘lgan maktablar bilan bir xil boshqaruv mexanizmlari asosida boshqariladi, yagona davlat standartlari bo‘yicha o‘qitiladi, davlat budjeti asosida shakllantiriladigan va bir-biridan katta farq qilmaydigan moddiy-texnik bazaga ega. Shuningdek, ta’lim tili rus tilida tashkil etiladigan maktablarda shu tilda dars o‘tadigan fan (kasb-hunar) o‘qituvchilari yetishmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ushbu maktablarga ehtiyoj yuqori. To‘g‘ri, bu maktab o‘quvchilarida boshqa tilda o‘qitiladigan maktab o‘quvchilariga qaraganda erkin, mantiqiy fikrlash, hayotga real qarash ko‘nikmalari yaxshiroq shakllanishi haqiqat. Ammo bizning fikrimizcha, har bir inson, avvalo, o‘z ona tilida ta’lim olishi, shu tilda fikrlashi zarur. Shundagina o‘zlik, mintalitet, milliy g‘urur, milliy tafakkur, madaniyatga putur yetmaydi, yo‘qolib ketmaydi. Bu bilan boshqa tillarni o‘rganishga qarshi emasmiz, albatta. Bizningcha, boshqa tillarni, madaniyatlarni o‘rganishda o‘z ona tili va madaniyatidan poydevor sifatida foydalanish kerak. Ya’ni dunyoni, olamni anglashni o‘z tarixi, Vatan tarixi, millat tarixi, madaniyati, ona tilini bilishdan boshlashi har bir insonning o‘zligini anglashi uchun muhim omildir. Fikrimiz tasdig‘i sifatida Yevropa Ittifoqining ta’limni tahlil qiluvchi bo‘limlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijlarining 2020-yilgi hisobotida kamsonli aholi gaplashadigan tillar toifasiga mansub o‘z tillarida ta’lim olgan bolalar “asosiy” ta’limdagi bolalar, ya’ni milliy tilda o‘qiyotgan o‘quvchilarga qaraganda ham matematika, tabiatshunoslik, tarix va geografiya kabi fanlarni nisbatan yaxshiroq o‘zlashtirganiligini, bu sohalarda samarali mehnat qilishayotganligi haqida ma’lumotlar mavjudligini aytish mumkin [3;6].

Bundan xulosa qilish mumkinki, rasmiy yoki milliy tilda gaplashadigan asosiy aholi qatlami ham, kamsonli aholi so‘zlashadigan tillarga mansub aholi tofasi ham o‘z ona tilida savod chiqarishi, ta’lim olishi maqsadga muvofiq.

Fikrimiz so‘ngida O‘zbekiston sharoitida ta’lim tili rus tilida bo‘lgan maktab yoki sinflarda o‘qishga bo‘lgan talabning yuqoriligi sabablarini keltirmoqchimiz. Bizningcha ular quyidagilar:

barcha MDH davlatlaridagi kabi O‘zbekistonda rus tiliga nisbatan mustamlaka davrida shakllangan strotiplar. Rus tilini bilgan odam jamiyatda yuqori mavqeli shaxs sifatida tan olinishi, bilmaganlarga nisbatan esa past nazar bilan qaralishi (Bunday qotib qolgan qarashlar

bugungi kunda biroz yumshagan bo‘lsa-da, hali mavjud). Shu sababli ta’lim olish bilan bir vaqtning o‘zida rus tilini ham o‘rganib olish istagi. Ota-onalarning o‘zidagi kamchilikni farzandlarida bo‘lmasligiga harakat qilishi;

ta’lim tili rus tilida bo‘lgan maktablardagi boshqaruvning nisbatan demokratik ekanligi, ta’lim muhitining erkin, ijodiy, mantiqiy fikrlashga, hayotga real qarashga imkon berishi. Bu kabi ko‘nikmalarga ega o‘quvchilar ta’lim tili milliy tilda bo‘lgan maktab o‘quvchilariga nisbatan hayotda ko‘proq muvaffaqiyatga erishayotganligi. Bunga sabab esa bitiruvchilar sonining baribir ham milliy tilda ta’lim olgan bitiruvchilardan kamligi;

rus tilida ilmiy, badiiy, o‘quv-metodik manbalarning ko‘pligi. Bu rus tilida ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun yangi, zamon talabiga mos bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim tili milliy va boshqa tilda bo‘lgan maktablardagi o‘qitish sifatini bir xillashtirish, jumladan, milliy tildagi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni, xalqaro standartlarga mos o‘quv-metodik materiallar bazasini shakllantirish zarur. Umuman olganda, o‘zbek tilida ilmiy, kasbiy, badiiy, o‘quv-metodik va shu kabi manbalarni yaratish, boshqa tillardan tarjima qilish dolzarb masaladir. Shu kabi muhim vazifalarni amalga oshirish orqali milliy tildagi ta’limga nisbatan aholi va jamoatchilikning ijobiy fikrini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni, T.: 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” gi Qonuni (yangi tahriri), T.: 1995.

3. European Commission, 2020. Good practices of multilingual and minority language medium education. Council of Europe Publishing. F-67075 Strasbourg Cedex. http://book.coe.int. Council of Europe, November 2020.

4. European Commission/EACEA/Eurydice, 2019. The Teaching of Regional or Minority Languages in Schools in Europe. Eurydice Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

5. O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi. Birinchi jild. T.: 2000.

6. Radjiyev A., Ibragimov A., Muradov I. Xalq ta’limi raqamlarda. Risola. – T.; “Yangi kitob”, 2022.

ИНДИВИДУАЛЬНО - ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГА В УСПЕШНОСТИ ПРЕОДАЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ БАРЬЕРОВ

Ф.Б.Нарзикулова
доцент кафедры «Педагогики, Психологии и образовательных технологий»
Самаркандского Регионального Центра Повышения и Переподготовки
Квалификации Работников Народного Образования, Узбекистан

В данной статье рассматриваются структурные составляющие профессионального имиджа современного учителя, способствующие преодолению психологических барьеров. В статье, на основе проведенного автором исследования, выделен ряд обобщённых индивидуально-психологических особенностей учителя: стремление к саморазвитию, развитые организаторские способности, способность к саморегуляции, адаптивность личности, коммуникативные способности, умение преодолевать жизненные трудности, способность к рефлексии, которые обеспечивают успешность преодоления возникающих психологических барьеров педагогической деятельности.

Ключевые слова: психологический барьер, профессиональная деятельность учителя, личность учителя, психофизиологическая нагрузка, общение, трудности, психологическое препятствие, психическое состояние, мотив, эмоции и т.д.

STRUCTURAL COMPONENTS OF THE PROFESSIONAL IMAGE OF A MODERN TEACHER FOR OVERCOMING PSYCHOLOGICAL BARRIERS

This article examines the structural components of the professional image of a modern teacher that contribute to overcoming psychological barriers. In the article, on the basis of the research conducted by the author, a number of generalized individual psychological characteristics of a teacher are highlighted: the desire for self-development, developed organizational skills, the ability to self-regulation, adaptability of the personality, communication skills, the ability to overcome life difficulties, the ability to reflect, which ensure the success of overcoming emerging psychological barriers to teaching.

Key words: psychological barrier, teacher's professional activity, teacher's personality, psychophysiological load, communication, difficulties, psychological obstacle, mental state, motive, emotions, etc.

На основе проведённого нами исследования выделен ряд обобщённых индивидуально-психологических особенностей учителя (стремление к саморазвитию, развитые организаторские способности, способность к саморегуляции, адаптивность личности, коммуникативные способности, умение преодолевать жизненные трудности, способность к рефлексии), обеспечивающих успешность преодоления возникающих психологических барьеров педагогической деятельности. Результаты сопоставление позволяют нам констатировать, что все они входят в ранее выделенную модель структуры профессионального имиджа современного учителя начального образования. В частности:

- стремление к саморазвитию - входит в четвёртый компонент подготовленной модели и психодиагностируется с помощью Опросника диагностики уровня саморазвития и профессионально-педагогической деятельности Л.Н. Бережновой;
- развитые организаторские способности - входит во второй компонент предлагаемой модели и психодиагностируется с помощью Тест-опросника коммуникативных и организаторских склонностей (КОС) В.В. Синявского, В.А. Федорошина;
- способность к саморегуляции - входит в третий компонент подготовленной модели и психодиагностируется с помощью Тест-опросника самоконтроль в общении М. Снайдера;
- адаптивность личности - входит в первый компонент разработанной модели и психодиагностируется с помощью Многоуровневого личностного опросника «Адаптивность» А.Г. Маклакова, С.В. Чермянина;
- коммуникативные способности - входит во второй компонент предлагаемой модели и психодиагностируется с помощью Тест-опросника коммуникативных и организаторских склонностей (КОС) В.В. Синявского, В.А. Федорошина;
- умение преодолевать жизненные трудности - входит во второй компонент предлагаемой модели и психодиагностируется с помощью Опросника выхода из трудных жизненных ситуаций Р.С. Немова;
- способность к рефлексии - входит в третий компонент подготовленной модели и психодиагностируется с помощью Опросника диагностики уровня развития рефлексивности А.В. Карпова (рис. 1).



Рис. 1. Индивидуально-психологические особенности учителя, обеспечивающие успешность преодоления возникающих психологических барьеров педагогической деятельности.

В целях изучения структурных составляющих профессионального имиджа современного учителя, способствующих преодолению психологических барьеров педагогической деятельности было организовано и проведено эмпирическое исследование путём дообследования 317 (учителей), ранее участвовавших в исследование современного состояния развития структурных компонентов имиджа учителя начального образования. [3] При этом дообследование проводилось с помощью Анкеты исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются многие педагоги Т.М. Шамовой. [1] Для повышения достоверности полученные психодиагностические данные нами не интерпретировались, т.е. рассматривались в сырых баллах. Все это позволило провести корреляционный анализ, в результате которого были выявлены статистически значимые связи между показателями, отражающими структурные составляющие профессионального имиджа учителя и показателями, отражающими наличия барьеров в педагогической деятельности учителя (таб. 1).

Таблица 1

Корреляционный анализ результатов эмпирического исследования структурных составляющих профессионального имиджа современного учителя, способствующих преодолению психологических барьеров педагогической деятельности (n=317)

	Наименования признаков сравнения	**Коэффициент корреляции Спирмена при p<0,01**
1	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Опросник диагностики уровня саморазвития и профессионально-педагогической деятельности Л.Н.Бережновой	-0,73

	Наименования признаков сравнения	**Коэффициент корреляции Спирмена при p<0,01**
2	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Опросник выхода из трудных жизненных ситуаций Р.С.Немова	0,30
3	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Тест-опросник коммуникативных и организаторских склонностей В.В.Синявского, В.А.Федорошина (шкала организаторские особенности)	-0,20
4	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Тест-опросник самоконтроль в общении М.Снайдера	-0,19
5	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Тест-опросник коммуникативных и организаторских склонностей В.В.Синявского, В.А.Федорошина (шкала коммуникативные особенности)	-0,19
6	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Опросник диагностики уровня развития рефлексивности А.В.Карпова	-0,17
7	Анкета исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются педагоги Т.М. Шамовой; Многоуровневый личностный опросник «Адаптивность» А.Г.Маклакова, С.В.Чермянина	-0,16

В частности, наиболее значимая корреляционная связь выявлена между результатами обследования по Анкете исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются многие исследователи и результатами обследования по Опроснику диагностики уровня саморазвития и профессионально-педагогической деятельности Л.Н. Бережновой (r= - 0,73 при p<0,01). Эта корреляция наглядно демонстрирует высокую взаимосвязь между стремлением к саморазвитию учителя и наличием у него психологических барьеров педагогической деятельности, т.е. повышение уровня саморазвития сопровождается понижением количества психологических барьеров педагогической деятельности.

Следующая корреляционная связь выявлена между результатами обследования по Анкете исследования барьеров педагогической деятельности, с которыми сталкиваются исследователи Т.М. Шамовой и результатами обследования по Опроснику выхода из трудных жизненных ситуаций Р.С. Немова [2] (r= 0,30 при p<0,01). Данная корреляция отражает статистически значимую взаимосвязь между умением учителя преодолевать жизненные трудности и наличием у него психологических барьеров педагогической деятельности, т.е. повышение уровня умений учителя преодолевать жизненные трудности сопровождается понижением количества психологических барьеров педагогической деятельности.

TALIS – Teaching and Learning International Survey

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta’sis etilgan.

Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari rahbarlarini ta’lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo‘naltirish, ta’lim siyosatining asosiy aspektlari bo‘yicha ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish Xalqaro konsorsium, o‘qituvchilar assosiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib o‘quvchilarimizda maktabda olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, buning uchun ma’sul vazirlik va idoralar tomonidan quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz zarur bo‘ladi:

-Ta’lim sifatini xolisona monitoring qilish imkonini beradigan milliy baholash tizimini yaratish.

-Ta’lim sifatiga tasir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish.

-Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

-Xalqaro tadqiqotlar asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlarni yaratish.

-Xalqaro tadqiqotlar yo‘nalishilaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish .

-Xalqaro tadqiqotlariga asoslangan holda tegishli fanlardan o‘qitishning shakillari metodlari va texnologiyalarini yangilash va o‘quvchilarning bu borada xabardorligini oshirish,tayyorgarligini kuchaytirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish

-Pedagok kadrlar tayorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini xalqaro tadqiqotlar talabalarga moslashtirish.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o‘sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Ismailov, G.O.Tog‘ayeva va boshqalar. «Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash», metodik qo‘llanma, Toshkent, «Sharq» nashriyoti, 2019 yil, 112-114- bet

2. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma» 1-son, Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 2020-yil, 128-129-bet.

3. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va boshqalar. «O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma» 2-son, Toshkent, 2020-yil, 128-129- bet.

BOLALAR KITOBXONLIGI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTI VA SINFDAN TASHQARI OLIB BORILADIGAN ISHLAR O‘RNI

M.A.Rahmonqulova
Sirdaryo viloyat Guliston shahar 6-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar adabiyoti asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari, bolalarning yosh xusussiyatiga oid asarlarni o‘rganish yo‘llari va maktablarda bu borada olib boriladigan ishlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, bolalar adabiyoti, ertak, hikoya, tez aytish, maqollar, qo‘shiq.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi avvalgisidan biroz farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi. Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning hajmi avvalgisiga nisbatan kattaroq, ma’no va mazmuni murakkabroq bo‘lishidan tashqari, harflari ham yirik-yirik bo‘lib, rasm va bo‘yoqlarga boy bo‘lishi talab etiladi.

Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda avvalo, badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g‘oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida tilni «ko‘ngil xazinasining qulfi», deb ta’riflaydi, kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, so‘z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho‘qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o‘rgatadi. Kitob xalqimizning o‘tmishi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg‘ularini o‘stiradi.

Bu davr bolalar kitobxonligida kichkintoy, albatta, bajarishi zarur bo‘lgan mas’uliyat bor. Masalan, ota-ona, tarbiyachi, muallim topshirig‘ini so‘zsiz ado etish, namunali o‘qish, yurish-turishda o‘zgalarga ibrat bo‘lish, ona-Vatanni sevish va boshqalar.

Xalq og‘zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o‘ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo‘shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o‘qiydilar. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so‘z ma’nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyligi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag‘ishlaydi, uni o‘ziga mahliyo etadi, chunki folklorda qayta takrorlash bir fikrni boshqa so‘zlar bilan takrorlashga o‘xshashdir.

Bolalar kitobxonligi rivojlantirishda ularning psixofiziologik qobiliyatlari va individual xususiyatlarini inobatga olish muhim omillardan biridir. Shunga ko‘ra bolalar qiziqishiga ko‘ra she’r va qo‘shiqlar, ertaklar, masallar, hikoyalar, tez aytish, topishmoqlar, maqollar o‘qish va yodlashga yo‘naltirish lozim. Bola tarbiyasida qo‘shiqning roli juda katta. Qo‘shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, kuylashga mo‘ljallangan bir necha bandli she’rdan iboratdir. Qo‘shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba’zan qo‘shiq o‘yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo‘shiq uchun she’r va kuy kerak. Qo‘shiq xalq og‘zaki ijodining eng ko‘p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi.

Xalq ogʻzaki ijodida maqollar yetakchi oʻrinda turadi. Xalq yaratgan gʻoyat ixcham, chuqur va tugal maʼnoli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib koʻrgan, turmushdagi hodisalarga aql koʻzi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob mehnat ahlining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (koʻproq bolalar uchun) yoʻl koʻrsatuvchi boʻlib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatning badiiy ifodasi sifatida yaratib kelinmoqda.

Deyarli barcha maqollarda, birnchi navbatda, bola tarbiyasi, odobi yotadi.

Eʼtibor bering: Avval oʻyla, keyin soʻyla, Bola aziz-odobi undan aziz. Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan, Odob bozorda sotilmas, Odobning boshi til, Otang bolasi boʻlma, odam bolasi boʻl, Yaxshi xulq kishining husni, Toʻgʻri oʻzar, egri toʻzar. Bunday ibratomuz maqollar roʻyxatini ancha davom ettirish mumkin.

Qadim-qadim zamonlarda ham oʻzbek xalqi oʻz bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan.Oʻsha paytlarda hali bolalarga taʼlim-tarbiya beradigan iaktablar yoʻq edi. Ana shuning uchun ham xalq turli oʻyinlar va boshqa vositalar oʻylab topgan. «Bekinmachoq», «Chillak»ka oʻxshash oʻyinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo boʻla borgan. Xoʻsh, endi bolalarning zehnini charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy oʻyinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Kichkintoy tarbiyasi juda muhim va oʻta masʼuliyatli va nozik ishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun bolalarni oʻz tuygʻu va oʻy-xayollari dunyosiga olib kirish lozim. Bu yoʻlda ota-onaga, buvi-boboga, tarbiyachiga masal juda qoʻl keladi. Masal bola aqlining rivojiga, qiziqishiga boy imkoniyatlar ochib beradi. Koʻp masallar yordamida bolalarning goʻdaklik chogʻlaridanoq adolatparvarlik, doʻstlik, oʻrtoqlik tuygʻularining shakllanishi, ularning tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbatlarining oshishi uchun keng yoʻl ochiladi. Chunki ular kamol topar ekanlar masal eshitadi. Har bir masaldagi yaxshi-yomonni, gunoh-savobni bilib, magʻzini chaqib, tushunib oʻsadilar. Bu esa, ularning kelajagida oqkoʻngil, mehnatkash, ota-onaga, ona-Vatanga, hayvonot olamiga muhabbatli boʻlishlari uchun koʻprik vositasini ado etadi.

Bolaning tilini ravon, burro qilishdan tashqari, aqliga-aql qoʻshadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, oʻzini qurshab olgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Boshqacha ibora bilan aytganda, yangi avlod har gal oʻzidan avvalgi avlodlar kashf etgan narsalarni hisobga oladi, oʻzlashtiradi. Bu yoʻl, shubhasiz, boshqalariga qaraganda oqilona, foydali, porloq kelajak yoʻlidir.

Tez aytish qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnni osongina diliga, tiliga jo qilib olish har tomonlama foyda soʻz oʻyini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zamirida bir nechta vazifalar yotgan boʻladi. Shulardan birinchisi qayta-qayta mashq qilish, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi oʻsadi, tili ravon boʻladi. Bularning hammasi yigʻilib kelib bola tarbiyasiga bogʻlanadi.

Bolalar kitobxonligini rivojlantirishda maktablarda quyi quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

- Oʻquvchilarni kutubxonaning faol aʼzosi boʻlishlarini taʼminlash;
- Kitob yarmarkalari tashkil etish;
- Yuruvchi koʻchma kutubxonalar faoliyati bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish;
- Yangi adabiyotlar koʻrgazmasi;
- “Bu kitobni oʻqiganmisiz?” koʻrgazmasi;
- Adib va mutafakkirlarimiz tavallud kunlarida ularning asarlari asosida kitoblar koʻrgazmalari.

“Kitobxonlik bayrami” doirasidagi 7 ta tadbir: “Adabiyot kunlari”, “Kitobim –oftobim”, “Kitob taqdimoti”, “Maktab, kutubxona, oila, jamoat tashkilotlari xayriya tadbiri”, “Bir farzandga uch kitob”, “Eng yaxshi kitobxon oʻquvchi”, “Kitobxon maktab” mavzularidagi tadbirlar ham tizimli ravishda olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kitob o‘qishga o‘rgatish orqali badiiy adabiyotga qiziqish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13- sentabr “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Qarori.

2. K.Qosimova «Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi» T.O‘. 2009.

3. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.

4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

5. A.Zununov. Badiiy asarni tahlil qilish T."O‘qituvchi" 1998.

INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISHDA YOZMA SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Sh.X.Toshmatov
Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani XTB ga qarashli 35-umumiy o‘rta ta'lim maktabining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
D.S.Ergasheva, Sh.Sh.Mamirova, M.T.Turanova
Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani XTB ga qarashli 35-umumiy o‘rta ta'lim maktabining Xorijiy til o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilida og‘zaki nutq va yozma savodxonlikni rivojlantirishning foydali usullari haqida ma'lumot keltirilgan. Mamlakatimizda ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatishni ahamiyati tabora ortib bormoqda. Bugungi kun yoshlarini zamon talablariga mos va yetuk kadrlar qilib tarbiyalash oldimizda turgan asosiy vazifadir. Bu jarayon bugungi kun pedagoglaridan tinimsiz izlanish, mehnat talab qiladi.

Kalit so‘zlar: so‘zlashuv, muloqot ko‘nikmasi, talaffuz, nutq sofligi, aqliy qiyinchilik, jismoniy qiyinchilik.

Mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni tobora o‘sib, xalqaro aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir paytda yoshlarga xorijiy tillarni puxta o‘rgatish fan o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Xorijiy til o‘qitilishida o‘quvchilarning lisoniy, kommunikativ, kognitiv va

madaniyatlararo kompetensiyalarini shakllantirish hamda muloqot dialogida erkin ishtirok eta olish kabi ta‘limiy va rivojlantiruvchi maqsadlar ustuvorlik qiladi.

O‘quvchi yozma nutqining o‘sishi, fanga bo‘lgan qiziqishi va o‘qishga ijobiy

munosabati o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Bunday motivatsiya birinchi sinfdan boshlab o‘qituvchilar tomonidan ilg‘anib, ta‘lim jarayonida rivojlantirib borilishi zarur. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini uyg‘un ravishda oshirish maqsadida qiziqarli o‘quv materiallari, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyat va bahsmunozaralar bilan birga, to‘g‘ri yozishga o‘rgatuvchi turli xil qiziqarli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu ma‘noda, ta‘lim sohasi o‘qituvchidan doimiy izlanishni talab etadi.

O‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini maksimal darajada o‘stirish o‘qituvchining darsni qanday tashkil qilishiga bog‘liq. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi ham ularning yozma nutqining boyishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlari, jumladan, qobiliyat, iste‘dod ham alohida e‘tiborni talab etadi.

O‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida darslarda ertak, she‘r va topishmoqlar, shu jumladan, kichik matnlardan foydalanish o‘rinlidir. Darsga tayyorlanishda o‘qituvchi matnning hajmi, unga sarflanadigan vaqtni ham aniq belgilab olishi, maqsadga muvofiq matnlarni tanlash lozimligini ham unutmasligi kerak. Matn bilan ishlashga

ortiqcha vaqt sarflash o‘quvchilar faoliyatini sustlashtiradi. O‘quvchilarni matnlar bilan ustma-ust band qilib qo‘yish ta‘lim samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, matnlarning sharti o‘quvchilarning yosh xususiyati va o‘quv imkoniyatlariga to‘la mos kelishi zarur. O‘quvchi kichik hajmli matnlarni yaxshi o‘zlashtirib olishi uchun, unda matnni yaxshilab o‘qish, mazmunida nimaga ishora qilinayotganini tushunish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Matnlar o‘quvchilarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish, tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladigan mazmun kasb etishi kerak. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarga yozma nutqni rivojlantirishga oid vazifalar qo‘yilishi o‘quvchilarning nafaqat fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, balki yozma nutq ko‘nikmalarini ham rivojlantirib boradi.

Xorijiy til darslarida foydalaniladigan ertak, masal, she‘r va topishmoqlar, shu jumladan, kichik matnlar o‗quvchilarni dars jarayonida zerikishdan saqlaydi, ularni mustaqil ishlashini ta‘minlaydi. Buning uchun ularga matn haqida tushuncha berib, uni yaxshilab o‘qish, mazmunida nimalar ifodalaganini farqlash kerakligi o‘rgatiladi. O‘quvchilarning og‘zaki nutq bilan bir vaqtda yozma nutqini rivojlantirish, savodxonligini oshirish xorijiy til darslarida muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining bilimi nafaqat xorijiy tilda gapira olishi, balki xorijiy tildagi so‘z, gaplarni ham orfografik, ham grammatik jihatdan to‘g‘ri yoza bilishi bilan ham baholanadi.

Ingliz tilida yozish ko‘nikmasi bilan bir qatorda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirib

borish zarur. Buning uchun eng avval talaffuzga e‘tibor berishimiz kerak. Agar ingliz tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmasak, nutqimiz boshqalar uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. So‘z boyligimizda mavjud bo‘lgan barcha ingliz tilidagi so‘z va iboralarimizning to‘g‘ri talaffuzini birma-bir tekshirib, o‘rganib chiqishimiz kerak bo‘ladi.

So‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rganish uchun ingliz tili fonetikasini to‘liq o‘zlashtirishingiz shart emas. Alohida so‘zlarning qanday talaffuz qilishinishini bilish uchun lug‘atlarda beriladigan so‘zlarning transkripsiyasini o‘rganib chiqishimiz yetarli bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari bugungi kunda internet orqali ingliz tilidagi barcha so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini eshitish orqali o‘rganib olishimiz mumkin. Misol uchun, www.dictionary.com saytiga kirib, istalgan ingliz tilidagi so‘zni qidirsangiz, so‘z ma‘nosi bilan bir qatorda so‘zning to‘g‘ri talaffuzini eshitish imkonini beruvchi kichik eshitish belgisi ham ko‘rinadi. Bu orqali biz ingliz tilidagi barcha so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rganib olishimiz mumkin.

Ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yana bir mashg‘ulot – bu ingliz tilidagi nutqni tinglash. Nuqt shaklining qanday bo‘lishi ahamiyatsiz – dialog, monolog, qo‘shiq, she‘r, hikoya, kinofilmdan olingan audio nutq… Muhimi, nutq sof ingliz tilida bo‘lishi kerak. Ko‘pchincha o‘rganuvchilar ingliz tilida gapirishni o‘rganish uchun ko‘proq o‘qish kerakligi haqida bosh qotirishadi. Ingliz tilidagi matnlarni, kitob va jurnallarni o‘qish so‘z boyligingizni oshirishda yordam berib, gapirish ko‘nikmasining rivojlanishiga ma‘lum darajada ijobiy ta‘sir qilishi mumkin. Lekin hech bir boshqa mashg‘ulot gapirish ko‘nikmangizni rivojlantirishga tinglashdek yaxshi ta‘sir ko‘rsata olmaydi. Shunday ekan, gapirishni xohlasangiz kitoblarni chetga surib qo‘yib ingliz tilidagi nutqni ko‘proq tinglashga harakat qiling. Ingliz tilida filmlar ko‘ring, qo‘shiq, dialog va monologlarni tinglang. Tinglash orqali so‘z boyligingizni oshirish bilan bir qatorda, so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini ham o‘rganib olasiz. Bugungi kunda til o‘rganishda anchayin ommalashgan Booknomy intensiv kitobi ham ingliz tilida eshitish orqali o‘rganish uchun yaxshi samara bera oladi.

Ingliz tilida gapirishni o‘rganish jarayonida o‘zingizni erkin tuting va hayajonlanishsiz, butun e‘tiborni gapirishga qarating. Gapirish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yish tabiiy ekanligini tushuning. Hech kim xatolarsiz o‘rganmagan. Siz ham gapirishni o‘rganishda xatolarga yo‘l qo‘yasiz. Muhimi, bu xatolarda to‘xtab qolmasdan, gapirishning yuqoriroq, keyingi bosqichiga ko‘tarilish va o‘z ustida tinimsiz ishlash, ekanligini doim yodda tuting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. www.ziyo.uz

3. www.saviya.uz

MATN ASOSIDA O‘QISH SAVODXONLINI RIVOJLANTIRISH

S.A.Yuldosheva
Samarqand VPYMO‘MM dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA xalqaro tadqiqotida matn asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish, matnning mazmuniy turlari, matnni bilish mezonlari hamda nazorat sinovlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qish savodxonligi, o‘rganish, anglash, tahlil qilish,matn, matn turlari, mezon, nazorat sinovlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития читательской грамотности учащихся на основе различных типов текстов (содержательных, контрольных, знаниевых) по программе оценки учащихся Международного уровня PISA.

Ключевые слова. Грамотность чтения, обучение, понимание, анализ, текст, виды текста, критерии, контрольные тесты.

Annotation. This article discusses the textual development of students' reading literacy in the international PISA study, types of text content, criteria for knowledge of the text and control tests.

Keywords. Reading literacy, learning, understanding, analysis, text, types of text, criteria, control tests.

Hozirgi kunda xalqaro PIRLS va PISA tadqiqotlari talablariga ko‘ra matndagi mazmunni hamma fanga daxldor tarzda uyg‘unlikda o‘rganish va tahlil qilishni taqozo etmoqda. O‘quvchi o‘rgangan serqirra bilimlarini integrativ topshiriqlarni bajarishda amaliy tatbiq etishi, muammoli vaziyatlarga individual yondashuvini ifodalashi, shu orqali o‘z shaxsiy nuqtayi nazarini, fikr va g‘oyasini jamoadoshlari orasida taqdim etishi va himoya qilishi kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishi e’tiborga olinmoqda. Mustaqil hayotga qadam qo‘yganda ham o‘z maqsadlariga erishishida matn mazmunidan, undan olingan ma’lumotlardan foydalana olishi nazarda tutildi.

O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning o‘qish texnikasini nazarda tutmaydi. Aksincha, umumta’im maktab bitiruvchi-o‘quvchisining berilgan badiiy asardan parcha, biografik ma’lumot, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang mavzulardagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, turli chizma va jadvallarda berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olishi, matn mazmuniga baho berishi va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Demak, “o‘qish savodxonligi" tushunchasi o‘z maqsadiga ko‘ra, insonning yozma matnlarni tushunish qobiliyatini va ular haqida fikr yuritishni, o‘z maqsadlariga erishish uchun uning mazmunidan foydalanish bilan bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishni va jamiyatda faol ishtirok etishni taklif qiladi.

O‘qish savodxonligini shakllantirishda matnga asosiy urg‘u berilar ekan, “matn” tushunchasiga izoh keltiraylik. Matn nima? Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidan tashkil topadi. Har bir matn ma’lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi, u haqida xabar beradi, so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi. Turli fanlarning mazmunini o‘rganish ham aynan matn asosida amalga oshiriladi. Ilmiy, badiiy, ijtimoiy-maishiy, siyosiy mazmundagi matnlar borki, ularni har birini o‘qib o‘zlashtirish uchun ham ma’lum bilim, ko‘nikma va salohiyat kerak bo‘ladi. Ilmiy manbalarda matnning rivoyat, tasviriy, muhokama, ilmiy-grammatik, ma’rifiy, ixtisosiy, munshaot, nazmiy kabi matn turlari tasniflanadi. Maktab amaliyotida matnning tasviriy, rivoya va muhokama kabi bayon usullaridan ko‘proq foydalaniladi.

Xalqaro tadqiqotda matnlar hayotiy (shaxsiy, ijtimoiy, ta’limiy, rasmiy) vaziyatlarga ko‘ra, matn shakllari (yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, aralash, murakkabligi)ga ko‘ra, matnning mazmuniy turlari (ta’rif, hikoya qilish, izoh berish, tadqiqiy fikrlash, yo‘riqnomalar, muzokaralar kabilar)ga

ko‘ra tasniflanib, ularni o‘zlashtirishda o‘qish malakalari (matnga tayanish va matndan tashqari bilimga tayanish) rivojlantirilishiga e’tibor qaratiladi.

PISA xalqaro tadqiqoti doirasida qo‘yilgan talablarga ko‘ra matnni to‘liq tushunishda quyidagi besh jihat hisobga olinadi:

- matn mazmuniga umumiy yo‘naltirilganlik va uning yaxlit ma’nosini tushunish;
- matndan axborotni aniqlash;
- matnni sharhlash;
- matn mazmuniga munosabat bildirih;
- matn shakliga munosabat bildirih.

O‘qishning barcha bo‘g‘inlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ularning biri ikkinchisining muvaffaqiyatli bajarilishiga bog‘liq. Matnning har bir bo‘g‘iniga ko‘ra to‘liq tushunilishi o‘quvchi kompetentliligining ma’lum bir darajasini taqozo etadi. O‘quvchi kompetentliligi darajalari taqdim etilgan vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan savol va ko‘rsatmalar yordamida aniqlanadi.

2018-yil PISA tadqiqotida matnni bilish (kognitiv) jarayonida quyidagi mezonlarga asoslanganligini ko‘rishimiz munkin:

a) erkin va ravon o‘qish;
b) matn ichidagi ma’lumotlarni olish va foydalanish;
c) tegishli matnni qidirish va saralash;
d) so‘zma-so‘z ma’nosini tasvirlash;
e) shakl va mazmun ustida mulohaza yuritish;
f) sifat va ishonchlilikni baholash;
g) qarama-qarshiliklarni aniqlash va qayta ishlash;
h) xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini ko‘rsatuvchi darajalar belgilandi:

1-,2-daraja: Aniq yoki ochiq bayon etilgan bir yoki bir nechta mustaqil bo‘laklarni topish, muallifning maqsadini bilib olish.

3-,4-daraja: Asosiy g‘oyani aniqlash, munosabatlarni tushunish so‘z yoki iboraning ma’nosini tushunish uchun matnning bir nechta qismlarini birlashtirish, mazmuni yoki shakli notanish bo‘lishi mumkin bo‘lgan uzun yoki murakkab matnlarni aniq tushunish.

5-, 6-daraja: Mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to‘liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma’lumotlarni birlashtirish.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan tavsiya etilgan qo‘llanmalarda “Chad ko‘li” , “Asalarilar” , “Sigir suti”, “Gripp”, “Graffiti”, “Sovg‘a” , “Yuguruvchi-lar” , “Amanda va Gersoginiya”, “Siz tishingizni qanday tozalaysiz?”, “Qon topshi¬rish”, “Kadrlar”, “Yangi me’yorlar” , “Suvni te¬jash dasturi”, “Tele-kommuting”, “Dori konsen¬trasiyasi”, “Parandachi¬lik forumi”, “Politsiyaning ilmiy quroli”, “Para Nui”, “Yangi me’yor¬lar”, “Ishchi kuchi”, “Internet orqali suhbat” kabi matnlar va ularga doir topshiriqlar majmui, baholash mezonlari keltirilgan. Mazkur matnlarda garchi xorijiy joy, qahramon nomlari bo‘lsa-da, mazmunida ifodalangan vaziyatlar umumbashariy real voqea-hodisalarga daxldor hikoya matnlar keltirilgan.

Ushbu matnlar bilan ishlashda to‘rt xil nazorat sinovidan foydalanilgan:

1. Bir javobli testlar.
2. Bir necha javobli testlar.
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar.
4. Biror muammoning yechimi bo‘yicha o‘quvchi fikrini aniqlashga qaratilgan testlar.

Xulosa qilib aytganda, PISA tadqiqoti talablari doirasidagi matnlarni o‘zlashtirish va unga doir topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarning ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etishga qodirligi, hayotlarida duch kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishga hamda mustaqil hayotga qay darajada tayyor ekanligi

aniqlanadi, umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent: Ma’naviyat”, 2008.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999.
4. Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2001.
5. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.

KITOB VA KITOBXONLIK

Z.G.Narkuvatova, V.M.Turopov
Samarqand viloyati PYMO‘MM

Annotatsiya

Xalqimiz tilida kitob o‘qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Go‘zallik – ilm-u ma’rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Аннотация

Существует множество пословиц о важности чтения книг на языке нашего народа, получения достойного образования, овладения профессией. Например, «Ум без книги — птица без крыльев», «Знание — светильник ума», «Красота — в знании и просвещении». Такие мудрые изречения можно продолжать долго. Книги занимают особое место в жизни молодежи. Потому что хорошая книга повышает в человеке чувства любви к Родине, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, побуждает к добру и добру.

Annotation

There are many proverbs about the importance of reading books in the language of our people, getting a decent education, and learning a profession. For example, "A mind without a book is a bird without wings", "Knowledge is a lamp of the mind", "Beauty is in knowledge and enlightenment". Such wise sayings can be continued for a long time. Books have a special place in the lives of young people. Because a good book increases a person's feelings of love for the Motherland, respect for national and universal values, and encourages goodness and goodness.

Ma’lumki, kutubxonalar qadim-qadimdan insonlar uchun ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib xizmat qilgan. Inson zoti esa doim kitoblarga intilib yashab kelgan.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai ”.

Yosh avlodni komil inson bo‘lib voyaga yetishishida albatta kitob, kutubxona muhim ro‘l o‘ynaydi.

Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish kutubxonaning asosiy maqsadi bo‘lib, ularni axborot va adabiyotga bo‘lgan talablarini imkon boricha to‘liq qondirishdan iboratdir.

Kutubxona – bu kitoblar va kishilik jamiyati tarixi majmuasidir, shu ma’noda u insonparvar muassasadir.

Sog‘lom fikrga ega, har jihatdan barkamol, intellektual yetuk avlodni tarbiyalashni asosiy maqsad qilgan mamlakatimizda, yoshlarimizning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, iste’dodlarini namoyon etishiga keng imkoniyat yaratilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni kompyuter, mobil telefon kabi texnikalardan biroz bo‘lsa-da chalg‘itib kitob mutoaalasiga undash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mutolaa ma’naviy ozuqa beradi, yoshlarni yetuk inson bo‘lib kamol topishiga undaydi.

Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Kitob mutolaasi inson dunyoqarashini keng, tafakkurini boy, qilish bilan birga, mulohazali, turli yot g‘oyaviy, mafkuraviy, insoni kamolotiga ta’sir qiluvchi illatlar doimiga tushib qolishdan asraydi. Kitobxonlik insonni hayotiy muammolariga yechim topishga, odillik, adolatlilik, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarini yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni muntazam ravishda kitob o‘qishga jalb etish uchun turli ommaviy tadbirlar ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan “Yilning eng yaxshi kitobxoni”, “Kitobxon oila” va “Kitobxonlar bayrami” doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlar, kitobxonlik festivallari, bahs munozaralar va boshqalardir. Bularning hammasi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida o‘quvchilar kitobxonligini tashkil etish bo‘yicha mamlakatimizda ham bir qancha samarali ishlar tashkil etilmoqda. Jumladan:

Respublikamiz bo‘yicha 2013 yildan beri Xalq ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarida 3 bosqichli “Kitobxonlar bayrami” tadbiri tashkil etilgan bo‘lib, tadbir doirasida “Adabiyot kunlari”, “Kitobim-oftobim”, “Kitob taqdimoti” nomli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, “Eng yaxshi kitobxon o‘quvchi” va “Kitobxon maktab” tanlovlari, “Maktab-kutubxona-oila-jamoat tashkilotlari” xayriya tadbiri va ota-onalar o‘rtasida “Bir farzandga-uch kitob” aktsiyasi o‘tkazib kelinmoqda.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, kutubxonachi hamkorlikda ish olib bormog‘i maqsadga muvofiqdir. Shundagina, o‘quvchilarni kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish mumkin.

Yosh ijodkorlar bilan uchrashuv kechasi. O‘quvchilarni kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishning yana bir usullaridan biri yosh ijodkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etishdan iborat .

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, to‘garakka a’zo bo‘lgan o‘quvchilar bilim doirasini kengaytirish, qo‘shimcha ma’lumotlar berish maqsadida ekologik, texnik, iqtisodiy, huquqiy bilimlardan keng xabardor etish maqsadida kutubxonada burchaklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan «Maktab – kutubxona – oila – jamoat tashkilotlari» xayriya marafoni butun Respublikamiz xududidagi umumta’lim maktablarida o‘tkazilmoqda. Mazkur marafon natijalariga ko‘ra kutubxona, homiy shaxslar, tashkilotlar tomonidan turli miqdorda pul mablag’lari kutubxonaga yordam sifatida berilmoqda, natijada tushgan pul mablag’lari hisobiga kutubxonalar moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, kutubxona fondi darsliklar, badiiy-ilmiy-ommabop, uslubiy va ma’lumotnomali adabiyotlar bilan to‘ldirilmoqda.

Ammo hozirgi kunda rang-barang voqea va hodisalarga boy filmlar, sarguzashtlar haqida hikoya qiluvchi boshqa vositalar (televizor, kompyuter, internet)ning ta’siri kuchayib bormoqda. Bular o‘quvchi-yoshlarimizga qo‘shimcha axborot berish bilan birga, farzandlarimizning ko‘p vaqti televizor ekranida yoki kompyuter yonida o‘tishi tufayli, bolalarimizning salomatligiga ta’sir etish bilan birga, ularning kitob o‘qishiga ham salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Televizor hech qachon kitob o‘rnini bosolmaydi.

Kutubxona – bu haqiqiy madaniy-ma’rifiy maskan sifatida faoliyat ko‘rsatishi kerak. Bu ziyo va ma’naviyat maskani bolajonlarning eng sevimli dargohiga aylanishini va o‘z bag‘riga ko‘proq bolalarni chorlashi lozim.

Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan ana shunday ulug‘ maqsadni ko‘zlab yangi “Bolalar adabiyoti” jurnali nashr etila boshladi. Jurnal o‘z nomi bilan bolalar va o‘smirlarning adabiy-badiiy nashri hisoblanib, 2016 yilning yanvaridan har oyda bir marta bosmadan chiqadi. Bolalar jurnali sahifalarida o‘zbek va jahon bolalar yozuvchilarining eng sara asarlari, xalq

og‘zaki ijodiyotidan maqollar, topishmoq va tez aytishlar, ertaklar, shuningdek, pedogog xodimlar uchun bayram tadbir ssenariylarining chop etilgan. Quvonarlisi, yurtimizda ilk marotaba bolalar jurnaliga ilova CD disk taqdim etilib, undan jurnal sahifalarida e’lon qilingan asarlarning elektron va ovozli shakli o‘rin oladi. “Bolalar adabiyoti” o‘zining mazmundorligi, zamonaviy axborot texnologiyasiga o‘rinli murojaati bilan ham o‘quvchilarga manzur bo‘lmoqda.

Gruzinlar madaniyat va ma’naviyat belgisi sifatida har bir kelin sepiga Shota Rustavelining «Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» kitobini qo‘shib berar ekan.

Xulosa o‘rnida Abdurahmon Jomiy hazratlarining quyidagi misralarini yodga olish o‘rinlidir:

Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q jahonda,
G‘amxo‘ring bo‘lgay u g‘amli zamonda.
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,
Joningga yuz rohat beradi takror.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent: Ma’naviyat”, 2008.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999.
4. Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2001.
5. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.

O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARINING O‘RNI

Sh.S.Boychayeva
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma’lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA, ePIRLS*

Аннотация. В этой статье был проанализирован общий обзор цели и содержания оценивания по изучению грамотности чтения у детей начальных классов в рамках международного исследования PIRLS - Прогресс в международном исследовании грамотности чтения.

Ключевые слова: *Грамотность чтения, критическое мышление, PIRLS*

Abstract. *In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS-Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.*

Key words: *Reading literacy, critical thinking, PIRLS*

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi

fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

PIRLS da o‘qish savodxonligiga ega bo‘lish malakasi eng muhim sanaladi. Sababi, matnni o‘qish va tushunish matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik uchun ham kalit vazifasaini bajaradi.

O‘quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri o‘quvchilarning yutuqlarini baholash va qayd etish tizimidir. Baholash tizimining ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir, chunki bu maktabdagi ta'lim sohasidagi eng aniq birlashtiruvchi omil, o‘quv muammolarini tashxislash va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi. PIRLS xalqaro baholashda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi va matnni tushunish darajasi o‘rganiladi. Shu bilan birga PIRLS topshiriqlarini o‘quvchilarni ijodkorlikka kretiv fikrlash qobiliyatlarini o‘stirib borishga, xotirasini ham mustahkamlashga olib keladi.

Biz ham o‘z darslarimizda o‘quvchilarning savodxonligini oshirish bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirayapmiz. Ulug‘bek Hamdamning quyidagi "Ko‘prik ustidagi do‘st" hikoyasi yuzasidan savol va topshiriqlarni quyidagicha tuzdik.

KO‘PRIK USTIDAGI DO‘ST

Har gal dala hovlidan qaytayotganimda, yo‘lda ikki yalangoyoq bolakayni uchratar edim. Birining oti – Nikita, ikkinchisiniki esa Umidjon. „Ismlarini qayerdan bila qoldingiz?“ demoqchimisiz? O‘zlaridan-da. Voqea bunday bo‘ldi: hovlimdagi chog‘roq bog‘da ishlab, kechga tomon torgina yo‘ldan shaharga qaytayotsam, muyulishda qo‘qqisdan ro‘paramdan bir mashina chiqib qoldi. Yo‘l chetida bolalar o‘ynab o‘tirishardi. Shitob bilan kelayotgan mashinani o‘tkazib yuborish uchun shartta tormozni bosib, mashinani bolakaylarning shundoq tumshug‘iga tirab to‘xtatdim. Ular yalt etib menga qarashdi.

Jilmayib qo‘yishdi. Jilmayib deganim juda yumshoq chiqdi, „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ desam, ularning sevinchlarini aniqroq ifodalagan bo‘laman.

– Salom! – dedim men ham bolalarning sevinchidan ta’sirlanib.

– Salom! – deya mashinaning ochiq oynasidan qo‘lini suqdi ularning mallatobi.

– Oting nima seni? – so‘radim men.

– Nikita, – deb javob berdi bola.

– Seniki-chi? – deb so‘radim nariroqda iymanibroq turgan qoramag‘izdan.

-Umidjon!

– Yoshing nechada, Nikita?

– To‘qqizda.

– Seniki-chi, Umidjon?

– O‘n ikkida.

– Bo‘ylaring teng-ku.

Ular javob o‘rniga yana jilmayishdi.

– Xayr, bolalar!

– Xayr, amaki!

Men mashinani yurg‘izib, yo‘limda davom etdim. Odatda, dam olish kunlarim dala hovlida kechadi. Bu yerga kelib-ketarkanman, deyarli har safar Umidjon-u Nikitaga ro‘para keladigan bo‘ldim. Ular ham uzoqdan mening mashinamga ko‘zlari tushishi bilan o‘yinlarini tashlab, ko‘rishish uchun hozirlik ko‘rishardi.

O‘z navbatida, men ham beg‘ubor bolalarning shugina istagiga peshvoz chiqmasdan o‘tolmayman: tormozni bosaman, ular chopib kelib, biri sarg‘ish-qizil, boshqasi qoramag‘iz

yuzlarida menga tanish, menga qadrdon bo‘lib borayotgan quyoshchalarni porlatgancha birin-ketin qo‘llarini oynadan uzatishadi.

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, muyulishdagi ko‘prik ustida ko‘rib qoldim. U yo‘lga ikki ko‘zini tikkancha oftobda javdirab turardi.

To‘xtadim. Bolakayning kayfiyati yo‘q edi. Kiyimi rosa kirlangan, yuzida ham quyoshcha aks etmasdi negadir. U mashinaning ochiq oynasidan indamaygina qo‘lini uzatdi.

–Salom! – dedim men.

–Salom! – dedi u.

–Umidjon qani?

–Umidjon mashg‘ulotga ketdi.

–Qachon keladi?

–O‘n ikki-yu o‘ttizda.

Soatga qaradim: mil o‘n ikki-yu o‘ttiz beshni ko‘rsatardi.

–Keladigan vaqti allaqachon bo‘libdi-ku.

–Ha.

–Qachondan beri kutyapsan?

–Ertalabdan beri.

–Qayerda, shu yerda, ko‘prikning ustidami?

–Ha.

–O‘ynagani boshqa bolalar yo‘qmi?

–Bor.

–Nega o‘ynamayapsan?

–Umidjonni kutyapman.

Men Nikitaga boshqa savol bermadim. Berolmadim. Chunki tomog‘imga bir nima kelib tiqildi. Asta qo‘zg‘alib yo‘limda davom etdim...

Mening Nikitadek biron do‘stim bormi, deyman xayolan. O‘zim ham biron Umidjonni do‘st tutib, quyoshning tig‘ida Nikita kabi kutdimmi?..

Mavzu bo‘yicha savollar.

1. Yozuvchi Nikita va Umidjon bilan qanday tanishdi?

2. Yalangoyoq deganda nimani tushunasiz? Fikringizni bayon qiling.

3. Bolalarning ismlari nima edi?

A) Nikita Umidjon
B) Umidjon Vova
C) Nurxon Nikita
D) Maykl Umidjon

4. Ushbu berilgan rasm matndagi qaysi so‘zga nisbatan berilgan deb o‘ylaysiz?

5. Nikita bilan Umidjonning yoshlari nechada edi?

A) Umidjon 12 yoshda Nikita 8 yoshda
B) Umidjon 10 yoshda Nikita 8 yoshda
C) Umidjon 12 yoshda Nikita 9 yoshda
D) Umidjon 10 yoshda Nikita 9 yoshda

6. Yozuvchining dam olish kunlari asosan qayerda o‘tar edi?

A) Tog‘ yon bag‘irlarida
B) Qishlaoqda
C) Shahar chetidagi uyda
D) Dala hovlida

7. Ro‘para so‘zini tushuntirib bering, yoki ro‘para deganda nimani tushunasiz?

8. „Bolakaylarning yuzlarida quyosh porlardi, quyosh!“ degan gapni siz qanday tushundingiz? Yozuvchi nima uchun bolalarga quyosh yuzli deb murojat qiladi. Nima bolalarning yuzlari quyoshga o‘xshaydimi?

9. Muyulish so‘zining ma'nodoshini topib matnni o‘qing.

Kunlardan bir kun Nikitani uzoqdan, ... ko‘prik ustida ko‘rib qoldim.

10. Nikita nima uchun g‘amgin edi?

11. Siz Nikitaning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz? O‘z fikringizni bayon qilishingiz mumkin.

12. Ayting-chi, sizning ham shunday do‘stingiz bormi? Agar do‘stingiz bo‘lsa uning ismini yozing.

13. Do‘stlik mavzusiga oid maqollar keltiring.

Kabi topshiriqlar berishga harakat qilaman. Bu topshiriqlar o‘quvchilar bilim darajasini kengaytirish bilan birga mavzuni yaxshi tushunib oladi. Mavzuni o‘rganish jarayonida

o‘quvchilardagi bilim,ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalari yanada rivojlanib boradi.

Adabiyotlar

1. http://www.pedagog.uz - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.
2. http://www.ziyonet.uz. - axborot ta'lim portal
3. S.Matchonov, A.Shojalilov 4-sinf O‘qish kitobi 2017 yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR QIZIQISHINI OSHIRISHDA O‘YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Z.N.Sodiqova
Samarqand shahar 122-MTT

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyasi, Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yin turlari haqida fikr yuritilgan. Pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar*:* o‘yin texnologiyasi, interfaol, mashg‘ulot, faoliyat, mashq, sharoit.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o‘yindir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo‘lishiga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan o‘zining kuchi ham yetmayligan, haddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Biroq tabiiyki bola o‘zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Bu o‘rinda savol tug‘iladi, bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama - qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi?. Bu qarama qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali ya’ni bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni shu bilan izoxlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas.

Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuni bilan bog‘liqdir. Ikkinchidan esa, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, hohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan uyg‘un ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom xayol, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujjasamlangandir, ya’ni mana shu jarayonlarning barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllanadi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil eta olishga bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshda bolalar o‘yin faoliyatini o‘zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo‘qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi.
6. Bolalar shaxsi srukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.

Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlarni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash quyidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi:

- birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o‘yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi.

- ikkinchidan, o‘yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g‘ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog‘ozlar, konstruktor-mexanik majmualarida turli rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi.

- uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta’minlash maqsadida ularni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig‘ida sifatli bajarilishini ta’minlash darkor.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o‘yinlar jarayonida bola passiv ob’ektdan faol sub’ektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o‘yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o‘yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to‘g‘ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o‘rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o‘yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o‘yinlarni samarali o‘tkazish uchun quyidagi qoidalarga e’tibor berish lozim:

1. Mashg‘ulot oldidan bolalar o‘yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish.
4. O‘yin jarayonida bolalarga qiziq bo‘lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e’tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to‘g‘ri taqsimlash.
7. O‘yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O‘yinning asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo‘lish va natijalarini tahlil qilish.

Pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir.

O‘yin texnologiyasi an’anaviy ta’limdagi o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, o‘yin faoliyati orqali bolalarda harakatning yangi ko‘rinishi, ya’ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo‘ladi va shuning uchun o‘yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko‘rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o‘yinning muxim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o‘z ifodasini topadi. Bola o‘yin faoliyatida maktab ta’limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi.

Bola o‘ynab turib dunyoni biladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi Ilk qadam davlat o‘quv dasturi Toshkent. 2022
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Toshkent. 2018.
3. M.Rasulova ,M.Fayzullayeva ‘’Bolalarni maktabga tayyorlash dasturi’’- Toshkent “O‘qituvchi” 2004

“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNI TASHKIL ETISH

F.T.Mirzayeva
Samarqand tuman 24- MTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim muassasining " Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublakasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy huquqiy hujjatdir.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy muhit, o‘quv- tarbiyaviy faoliyat, o‘quv dasturi, tamoyil, mashg‘ulot, rivojlantirish.

Bolalarning to‘laqonli rivojlanishiga faqat uning ichki dunyosi emas, balki unga keng imkoniyat va kattalar dunyosi kerak bo‘ladi. Shu boisdan ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar bola harakatlanishi uchun barcha imkoniyatlar manbai bo‘lmog‘i zarur. Bolalar nima bilan shug‘ullanishlarini esa o‘zlari tanlab olishlari uchun muayyan vaqt ajratishlari lozim. Tanlash qiziquvchanlikni, muammolarni hal etishga, boshqalar bilan muomalada bo‘lishga hamda oldinga qo‘yilgan maqsadlarga mustaqil erishishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasi - bu o‘ziga xos olam , unda bola o‘zini qulay va erkin sezishi lozim. O‘sish va rivojlanish sharoitlari mohiyati juda oddiydir . O‘sib kelayotgan yosh avlodni ehtiyotkorlik bilan zinama- zina tepaga rivojlanish zinapoyasidan olib boradilar. Biz esa faqatgina ushbu harakatning xususiyatlarini tushunishimiz va bolani vaqtida qo‘llab-quvvatlash, ushbu o‘sish uchun muvofiq sharoit yaratishimiz darkor. Bu borada ta’lim jarayoni muhim ahamiyatga ega "Ilk qadam" dasturi maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishda ilk dadil qadam hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi 2022-yil “Ilk qadam” o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrini asdiqlandi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi O‘zkiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me`yoriy huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim muaasasining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan , shuningdek, bolaningta’limning keyingi bosqichga o‘tishdagi asosiy kompitensiyalari belgilangan.

Mazkur dasturda o‘quv-tarbiya jarayoni bola qobilyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ular shaxsini shakillantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonning masuldorligi pedagogning bolalarni yaxshi bilishi, ta’lim tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo‘llashga bog‘liq. Mtt larni o‘yinchoqlar, bola yoshiga mos o‘quv dasturlari, tarqatma materiallar, mebel jihozlari va AKT texnik vositalari bilan jihozlash me`yorlari asosida maktabgacha talim muassasalari turli yosh guruhlarida rivojlantiruvchi muhut shunday tarzda yaratilishi kerak-ki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini beradi. Har bir guruh xonasi bir necha markazlarga bo‘linadi. Rivojlantiruvchi erkin faolyat markazlari bolalarga o‘zlarning shaxsiy ko‘nikma va qiziqishlaridasn kelib chiqqan holda ta’lim jarayonini mustaqil indivudallashtirish imkonini beradi.

Rivojlantiruvchi markazlar quydagilar:

1. Qurush-yasash konstruksiyalash va matematika markazi.

2. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi.
3. Til va nutq markazi.
4. Ilm-fan va tabiat markazi.
5. San`at markazi.

1. Qurush-yasash konstruksiyalash va matematika markazi.

Ko‘p jihatdan matematik va ilmiy tafakkur, mayda va yirik motorika ijodini rivojlantiradi.

Markazni tashkil etishda faol harakatlanish mavjud bo‘lgan joyni tanlash zarur. Faoliyatning ko‘p qismi polda o‘tirgan holda amalga oshiriladi shu sababli yumshoq gilam to‘shash lozim.

2. Syujetli- rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi.

Syujetli-rolli o‘yinlarning xuddi aniq belgilanishi va o‘yinda ishtirok etayotgan bolalarning bu hududga kirishiga o‘yinni buzishiga yo‘l qo‘ymaydigan chegaraga ega bo‘lishi lozim.

Bolada kichik sahna ko‘rinishlarini o‘ynashga xohish-istak uyg‘otish uchun albatta kerakli jihozlar bo‘lmog‘i lozim.

Bu markazda quydagi faollik markazlarini tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

“Shifoxona”, “Oshxona”, “Atilie”, “Bank” kabilar shular jumlasidandir.

3. Til va nutq markazi

Markazni tashkil etishda bolani o‘zaro so‘zlashga chorlovchi vositalar bilan jihozlashga alohida e'tibor berish kerak.

Ertak kitoblar, kesma harflar, kesma bo‘g‘inlar, hikoyalar, ikkinchi tilda o‘rganiladigan narsa buyumlar bo‘lishi kerak.

4. Ilm-fan va tabiat markazi.

Bolaning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalarini shakillantiradi.

Markaz yil fasllari va dastur bo‘limlari mavzularining o‘zgarishiga qarab o‘zgartirib boriladi. Amaliy mashg‘ulotlar uchun maxsus joy ajratish mumkin. Bolalar tug‘ma tadqiqotchi, o‘zlarini o‘rab turgan muhit to‘g‘risida faol ma’lumot yig‘uvchi hisoblanadi. Markazni tashkil etishda quyosh nuri tushadigan deraza oynalari yoniga joylashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Markazda urug‘ undirib xona o‘simliklari o‘stirish mumkin. Qum, suv va boshqalardan tashkil topgan tajriba maydonini yaratish zarur bo‘ladi.

5. San`at markazi.

Markaz bolalarga quvonch, hayajon baxsh etadi, turli funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, bolalrning ijodkorligi, qiziquvchanligi, tassavuri va tashabbusiga ozuqa beradi.

Bu markazda ozining ijodiy qobilyatlarini namoyon etadi va o‘zning tasavvuridagi obyektlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tasvirlab berishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgach yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent 2022 yil
3. Umarova F. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.T.: 2012

KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH QOIDALARI

D.A.Niyozova
Narpay tumani 12-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolaning maktabga borishi va maktab muhitiga moslashishida tarbiyachi, o‘qituvchi va ota-onalarning roli xususida fikr yuritilgan. SHuningdek, farzandi birinchi sinfga borayotgan ota-onalarga bir nechta tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, dars, psixik jarayon, moslashuv, tavsiya, me’yor, qoida, diqqat.

Maktabga ilk qadam bola hayotidagi eng muhim va murakkab bosqich bo‘lib, o‘quv yilining boshlanishi bola hayotini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Endi beparvo o‘yinlar o‘rniga bola har kuni maktabga borishi, kun tartibiga rioya qilishi, maktab hayotining yangi qonunlariga

bo‘ysunishi, o‘qituvchining talablarini va uy vazifalarni muntazam bajarishi, o‘qishda yaxshi natijalarga erishish uchun intilishi kerak.

Bu me’yorlarga moslashish vaqtni talab etadi. Birinchi ikki hafta bolalarda sezilarli zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Faqatgina 5-6 haftaga kelib sekin-asta ko‘nikish paydo bo‘ladi. Aytish kerak-ki, yangi faoliyat (o‘quv)ga kirishish boladan barcha yuqori psixik jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, idrok)ni yangi darajada tashkil etishni talab etadi.

Bolaning maktabga borishi o‘z-o‘zidan bu darajani paydo bo‘lishini ta’minlamaydi. Bu jarayon sekin-asta rivojlanadi, ya’ni diqqatning hajmi kengayadi, uning taqsimlanishi yaxshilanadi, yorqin hissiy voqea-hodisalarni ixtiyorsiz ravishda xotirada saqlab qolish ixtiyoriy tarzga aylanadi. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur mantiqiy tafakkurga aylanadi.

Bu jarayonda juda ko‘p narsa birinchi sinf o‘quvchisining ota-onalariga bog‘liq. Bolaning maktab hayotiga jiddiy munosabatda bo‘lish, bolaning yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga e’tiborli bo‘lish, uning maqsadga erishish uchun harakat va intilishlarini rag‘batlantirish, hissiy qo‘llab quvvatlash zarur.

Bolaning o‘z faoliyati ahamiyatli ekanligini his etishi o‘z-o‘ziga bahoning va o‘ziga ishonch hissining yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘ziga ishonch hissi o‘qishdagi muvaffaqiyatning garovidir! Bolani maqtashdan qo‘rqmang, uning kichkinagina yutug‘idan ham xursand bo‘ling! SHuni unutmangki, bola o‘ziga kattalar unga qanday munosabatda bo‘lishsa, shunday munosabatda bo‘ladi.

Shu bilan birga birinchi sinf o‘quvchisining ota-onalariga quyidagi qoidalarni tavsiya etgan bo‘lar edik.

1-qoida.

Bolani bir vaqtning o‘zida ham birinchi sinfga, ham biron-bir sport seksiyasi yoki to‘garakkka bermang. Chunki, maktab hayotining boshlanishi olti –etti yoshli bola uchun og‘ir stress hisoblanadi. Agar bolada sayr qilish, o‘ynash, dam olishi va darslarni shoshmasdan tayyorlashi uchun imkoniyati etarli bo‘lmasa, uning salomatligida muammolar yuzaga kelishi va buning oqibatida nevroz boshlanishi mumkin.

Agar farzandingizning musiqa yoki sport bilan shug‘ulanishini uning tarbiyasi uchun muhim deb hisoblasangiz, ushbu mashg‘ulotlarni uni maktabga berishdan bir yil avval yoki 2-sinfdan boshlaganingiz ma’qul.

2-qoida.

Shuni yoda tutish kerakki, 6-7 yoshli bola o‘z diqqatini faqatgina 10-15 daqiqaga safarbar eta oladi. Shuning uchun bola bilan dars tayyorlayotganingizda unga har 10-15 daqiqada, mashg‘ulotdan chalg‘itgan holda, joyida 10 marta sakrash, musiqa ostida raqsga tushish, yugurish kabi mashqlarni bajartirish lozim.

Uy vazifalarni bajarishni yozuv darslaridan boshlash maqsadga muvofiq. Yozma topshiriqlarni og‘zaki topshiriqlar bilan almashtirib bajarish ham mumkin. Uy vazifalarni bajartirish uchun vaqt bir soatdan oshmasligi kerak.

3-qoida.

Ko‘rish a’zolaridan yuqori diqqatni talab etadigan televizor ko‘rish, kompyuter o‘yinlari va boshqa mashg‘ulotlar kuniga bir soatdan oshmasligi lozim. Bu xulosani okulist hamda nevropatolog shifokorlar ham alohida ta’kidlaydilar.

Bir necha qisqa maslahatlar.

-bolaning yutuqlarini emas balki uni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishingizni doimo farzandingiz his etsin;

-hech qachon bolaga boshqalardan yomonroqsan deb ayta ko‘rmang, uni boshqa bolalar bilan taqqoslamang;

-bolaning har bir savoliga imkon qadar rost va sabr bilan javob berish lozim;

-har kuni farzandingiz bilan yolg‘iz qolish uchun vaqt ajratishga harakat qiling;

-bolani faqatgina tengdoshlari bilangina emas balki kattalar bilan ham erkin va bemalol muloqot qila olishga o‘rgating;

-u bilan g‘ururlanishingizni ta’kidlashdan uyalmang;

-bolaga nisbatan o‘z hissiyotlaringizni baholashda rostgo‘y bo‘ling;

-bolaga har doim rost gapiring, agar bu siz uchun foydasiz bo‘lsa ham;

-bolani aybi uchun jazolamoqchi bo‘lsangiz (masalan, biror bir narsani sindirib qo‘ysa yoki kiyimini iflos qilib kelsa) unga ayni vaqtdagi aybi uchun tanbeh bering;

-kuch bilan bolaga ta’sir o‘tkazmang, majbur qilish bolaning ma’naviy tarbiyasiga, shaxsini rivojlanishi uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

-bolangiz xato qilishga haqli ekanligini tan olin;

-bolaning yodida faqat baxtli onlar muhrlanib qolishiga harakat qiling;

-kattalar bolaga qanday munosabatda bo‘lishsa, bola ham o‘ziga xuddi shunday munosabatda bo‘ladi;

-hech bo‘lmaganda ba’zi-ba’zida bolaning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring, ana shundagina bolaga qanday munosabatda bo‘lishingizni anglab etasiz.

Farzandlarimizning tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta’sir etadigan quyidagi fikrlarga kundalik turmushimizda amal qilsak, kelajak avlodning mustaqil fikr egasi, ma’nan va aqlan barkamol bo‘lib etishishiga, davlat va jamiyatimizning ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga erishamiz.

Bolalar yashashni hayotdan o‘rganadilar.

Agar bola muntazam tanqid qilinsa, u nafratga o‘rganadi.

Agar bola adovat(yovgarchilik, zidlik, xusumat) muhitida yashasa u tajovuzkorlikka o‘rganadi.

Agar bola muntazam mazax qilinsa, u indamas, odamovi bo‘lib qoladi.

Agar bola faqat tanbeh eshitib katta bo‘lsa, uning o‘ziga ishonchi yo‘qoladi.

Bolalar yashashni hayotdan o‘rganadilar.

Agar bola sabr-toqat muhitida katta bo‘lsa, u boshqalarni fikrini hurmat qilishga, ular bilan murosada bo‘lishga o‘rganadi.

Agar bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi ortadi.

Agar bola tez-tez maqtab turilsa, unda minnatdorlik hissi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi Ilk qadam davlat o‘quv dasturi Toshkent. 2022

2. Xasanboeva O., Xolikov D. va boshqalar. Oila pedagogikasi. Toshkent. 2007 yil.

3. Mavlyanov A. va b.q O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – 142 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA TABIATDAN FOYDALANISH

A.B.Rahmanova
Narpay tumani 16-MTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirish, estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalashda tabiat bilan tanishtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida batafsil ma’lumot beriladi,

Kalit so‘zlari: tabiat, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, ta’lim, ta’lim-tarbiya, rivojlantiruvchi muhit, bola, mas’uliyat

Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarni har tomonlama rivojlanishida tabiat bilan tanishtirish asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir yoshda o‘zini o‘rab turgan muhitdan aynan o‘zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o‘ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma’naviy kamolotga etkazuvchi jarayon bo‘lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi ortadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - bu ularda tabiatga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta'limiy vositasidir.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari - mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat narsa-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o‘rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.

Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob'ektlarning rangini ko‘zi bilan, tovushlarni qulog‘i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib etib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to‘g‘risida bilim paydo bo‘ladi, ularning ko‘rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur. Bolaning axloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish asosiy o‘rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo‘l ular o‘sib ulg‘ayotgan joydir. Maktabgacha ta'lim muassasasida hayvonlar, qushlar va o‘simliklar mavjud bo‘lsa, bolalar ularni kuzatadi va boqadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o‘z-o‘zidan shakllanadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o‘simliklarni sug‘orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o‘rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o‘zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo‘lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go‘zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o‘ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o‘rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o‘z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go‘zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko‘rgazma asosida berilishi shart.

Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan - murakkabga tizimli ravishda yakindan - ya'ni o‘z o‘lkasi tabiatidan boshlab uzoq ya'ni boshqa o‘lka tabiatini tanish, o‘rganish asosida amalga oshiriladi. O‘z o‘lkasi tabiati bilan tanishish bevositasi bolani tevarak - atrofdagi, bog‘chasidagi yer maydonchasidagi o‘simliklar, gullar, ko‘chatlar, daryo va ko‘l nomlari, tog‘lar, yo‘lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami; ya'ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizim asosida ish tashkil etilsa, o‘zga o‘lkaning tabiati bilan tanishish yengil, oson kechadi.

Bolalarni atrofdagi olam, tabiat bilan tanishtirishda bilim, ko‘nikma va malakalarning mazmuni: Kichik guruhda bolalar tabiatning alohida ob'ektlari: tabiiy material (qum, suv, qor, muz) va uning xususiyatlari, o‘simliklarning tuzilishi (poyasi, barglari) haqida bilimlarni, ya'ni o‘ziga xos xususiyatlarini (poya, barg, gul) va ularning namlikka bo‘lgan ehtiyojini; hayvonlarning ko‘rinishi (baliqlar, qushlar, sutemizuvchilar) va ularning harakatlanish usullari va oziqlanishi bilan tanishtirish lozim. Bolalar ba'zi hayvonlarning poloponlari bilan tanishadilar. Fasllarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida birlamchi bilimlar beriladi. O‘rta guruhda bolalarning jonsiz tabiat ob'ektlarining xossalari va sifatlari haqidagi tasavvurlari

kengayadi va oydinnlashadi (masalan, suv - bu shaffof suyuqlik, ba'zi narsalar suvda suzadi, boshqalari cho‘kib ketadi; qor va suv xususiyatlari havo haroratiga qarab o‘zgaradi). Katta guruhda asosiy vazifa bolalarda tabiatda mavjud bo‘lgan aloqalar va munosabatlar haqida bilimlarni shakllantirishdir: yashash sharoitlari va holatiga qarab o‘simliklar va hayvonlarning ehtiyojlari, ayrim organlar va ularning funksiyalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida. Maktabga tayyorlov guruhida asosiy vazifa - jonsiz tabiat hodisalarining muntazam o‘zgarishini aniqlashtirish va kengaytirish, ularni keyinchalik tizimlashtirish va umumlashtirish asosiy masaladir. Fasllarning o‘zgarishi, kunduz va kechaning davomiyligining uzayishi (yoki qisqrishi), havo haroratining muntazam o‘zgarishi, yog‘ingarchilikning tabiati haqida fikrlarni shakllantirish kerak.

Shunday qilib, maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar tabiat haqidagi bilimlarning boshlang‘ich tizimini egallaydilar, bu aqliy faoliyatni rivojlantirishga va tabiatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaev T., G‘afurov Z. Tabiatni e’zozlash umumbashariy muammo – T: Yangi asr avlodi, 2001. – 135 b.

2. Hasanboyeva O. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2020. – 128 b.

3. Sodiqova Sh. A., Rasulxo‘jaeva M. A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. - 2018.

4. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi – T: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – 2005.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

O.Q.Sanaqulova
Ishtixon tumani 17-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida elementar matematikani o‘rgatishning ahamiyati, matematik tushunchalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, ularning idrokini, ya’ni sensor tuyg‘ularini o‘stirishi, idrok qilinadigan obyektlarning xususiyatlarini analiz va sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirishning eng sodda bog‘lanishlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elementar, miqdor, o‘lchov, sanoq, geometrik shakl, vaqt, fazo, kattalik, izchillik.

Maktabgacha yoshdagi bolada elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda biz hissiy jarayonlarga (ko‘zlarning harakatlanishi, narsaning shakli va hajmini kuzatish, qo‘llar bilan his qilish va boshqalar) tayanamiz va ularni bir vaqtning o‘zida rivojlantiramiz. Idrokning rivojlanishi idrok harakatlarini takomillashtirish (tekshirish, his qilish, tinglash va boshqalar) va insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan hissiy me'yorlar tizimini (geometrik figuralar, miqdor o‘lchovlari va boshqalar) o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi

Matematik bilimlar bolalarga, ular nimani bilib olganliklari va nimaning uddasidan chiqa olishlarini hisobga olgan holda, aniq tizim va ketma-ketlikda beriladi. Bolalarning matematik tushunchalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, ularning idrokini, ya’ni sensor tuyg‘ularini o‘stirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolada elementar matematika orqali maktabgacha yoshdagi bolalar son va sanoq, geometrik shakllar, vaqt va fazo haqida, kattaliklar haqida boshlang‘ich bilimlarni oladilar. Bu bilimlar yordamida bolalar idrok qilinadigan obyektlarning xususiyatlarini analiz va sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirishning eng sodda bog‘lanishlari hamda ular orasidagi munosabatlarni tushunib oladilar.

Ilk sodda matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:
- geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi;
- fazoviy munosabatlarni tushunish va fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmasi hosil qilinadi;
- vaqt haqida tasavvurlar shakllantiriladi;
- miqdor (kattalik) haqida tasavvurlar hosil qilinadi;
- son va sanoq haqida bilimlar berilib, birinchi va ikkinchi o‘nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi

Ta’limiy faoliyatlar davomida bolalar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o‘yinlarni o‘ynab, ijod qilgan holda yangi matematik tushunchalarni o‘rganib, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab boradilar.

Tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini bilishi lozim.

Bu unga o‘z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda boshlang‘ich matematik tasavvurlarni o‘stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tizimida har bir ta’limiy faoliyatning qanday muhim rol o‘ynashi va o‘rin egallashini ko‘z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi. Zero, ta’lim-tarbiyani izchil rivojlantirish ona Vatanga sadoqatli, bilimli, chinakam komil insonlarni voyaga yetkazishning asosiy shartidir.

Matematik bilimlar bolalarga qat’iy aniqlangan sistema va izchillikda beriladi, bunda yangi materiallar bolalar o‘zlashtira oladigan darajada bo‘lishi kerak. Har bir vazifa bir qator kichik topshiriqlarga bo‘linadi. Bu kichik topshiriqlar ketma- ket o‘rganiladi. Masalan, tayyorlov guruhi bolalarini buyumlarni bo‘laklarga bo‘lish bilan tanishtirish shunday ketma-ketlikda amalga oshiriladi: bolalar birinchi ta’lim faoliyatida buyumlarni ikkita teng qismga bo‘lishni mashq qiladilar va yarim nima ekanini o‘zlashtiradilar; ikkinchi ta’lim faoliyatida bolalarning teng ikkiga bo‘linadigan buyumlar haqidagi tushunchalari kengaytiriladi va shunga mos lug‘at faollashtiriladi; tarbiyachi uchinchi ta’lim faoliyatida bolalarga buyumlarni teng to‘rt qismga bo‘lish usullarini tanishtiradi, shuningdek butunning qismga munosabatini ko‘rsatadi; keyinroq bolalarga geometrik shakllarni ikki va to‘rt qismga bo‘lishning har xil usullarini ko‘rsatadi, bolalar butun bilan qism orasidagi munosabatlarni o‘rganishadi. Shunday qilib, dasturning har bir bo‘limi ketma-ket o‘tkaziladigan bir necha (uch-olti) ta’lim faoliyatlarida amalga oshiriladi.

Bolalarning bilimlari bir ta’lim faoliyatidan ikkinchi ta’lim faoliyatiga o‘tganda kengayadi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Shu munosabat bilan bir mashg‘ulotning o‘zida dasturning bir bo‘limiga yoki har xil bo‘limning, ya’ni «Miqdor», «Sanoq», «Kattalik», «Shakl» va boshqa bo‘limlariga oid masalalar o‘rganilishi va takrorlanishi mumkin. Hamma bo‘limlari bo‘yicha dasturni bolalar izchil o‘rganishini va ularda elementar matematik bilimlar tizimini shakllantirishni shunday qilib ta’minlash mumkin bo‘ladi. Matematika o‘qitishda ta’limiy faoliyatning har xil turidan foydalaniladi.

Buyumlar miqdori ularning kattaligiga bog‘liq bo‘lmasligini o‘rta guruh bolalariga ko‘rsatib, tarbiyachi katta va kichik buyumlar bilan bir qatorda uzun va qisqa (kalta), baland va past buyumlardan foydalanish va buyumlarning kattaliklarini belgilash uchun aniq so‘zlardan foydalanish mashqlarini mustahkamlashi mumkin.

Buyumlar va geometrik shakllarning har xil belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratishga doir mashqlar katta ahamiyatga ega, bunday mashqlar shu vaqtning o‘zida bolalarning shakl, kattalik, miqdor va hokazolar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Bilimlarni mustahkamlash uchun tarbiyachi har xil xarakterdagi, ya’ni amaliy, o‘yin, musobaqa elementlari bilan bog‘liq mashqlardan, interfaol usullardan foydalanadi. Uch-to‘rt yoshdagi bolalarni o‘qitishda, ayniqsa, o‘yin elementlaridan keng foydalaniladi. Shuni esda tutish muhimki, didaktik materialni va usulni almashtirish bilim va ko‘nikmalarni alohida zo‘riqishlarsiz o‘zlashtirishni ta’minlovchi vositadir. O‘yin jarayonlariga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak, chunki o‘yin asosiy

narsadan – matematik ishdan chalg‘itishi mumkin, natijada bolalar mashg‘ulot rejasida nazarda tutilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olmaydilar

O‘qitish jarayonida savollar bolalar fikrlashini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda asosan oddiydan boshlab, predmetlarning aniq belgilarini, xossalarini, amaliy harakat natijalarini yoritishga yo‘naltirilgan, bog‘lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni, ularni tushuntirish va asoslashni, oddiy isbotlashdan foydalanishni talab etuvchi murakkabroq savollardan ko‘proq foydalaniladi. Ko‘proq bunday savollar tarbiyachi tomonidan namunani namoyish etgandan keyin yoki bola topshiriqni bajargandan keyin beriladi. Masalan, bolalar qog‘oz to‘g‘riburchakni ikkita teng qismga bo‘lganida, ulardan so‘raladi. Sen nima qilding? Bu qism qanday nomlanadi? Nima uchun har bir bu ikkita qismni yarim deb nomlash mumkin? Qismdan qanday shakl hosil bo‘ldi? Kvadrat hosil bo‘lganini qanday isbotlash mumkin? To‘g‘riburchakni to‘rtta teng qismga bo‘lish uchun nima qilish kerak?

Xulosa qilib aytganda, elementar matematika kognitiv imkoniyatlar va qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan, maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik dunyoqarashini kengaytiradi, matematik rivojlanishiga yordam beradi, matematik tayyorgarlikni sifatini yaxshilaydi, bolalarga ko‘proq imkoniyat yaratadi. Atrofdagi voqelikning eng sodda qonunlarini aniq ko‘rib chiqadi va kundalik hayotda matematik bilimlardan yanada faol foydalanishga asoslanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi Ilk qadam davlat o‘quv dasturi Toshkent. 2022

2. Bikbaeva N.U “Bolalar bog‘chasida matematika mashg‘ulotlarini rivojlantirish” T.: 2002.

3. Mavlyanov A. va b.q O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – 142 b.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

D.B.Shukurova
Jomboy tumani 16-MTT majburiy ta’lim guruh tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda davlatimiz maktabgacha ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan xolda bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish hamda maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash kabi talablar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat talablari, farmon, dastur, ilg‘or tajribalar, mashg‘ulot, bola, bilim, ko‘nikma, malaka

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samaradorlikning sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar asosida kutilgan natijaga erishish uchun faqat tarbiyachi emas, tarbiyalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko‘zda tutilgan maqsad amalga oshirilishi va natijali bo‘lishini rejalashni tarbiyachi-o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Tarbiyachi-o‘qituvchining bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy yondoshuvlarni to‘g‘ri tashkil eta bilishi barkamol avlod tarbiyasi va mamlakat kelajagini ham belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198–son farmonida ta’kidlaganidek, Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘in hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tayyorlash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini

yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iborat.

Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilgor xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni intellektual axlokiy estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash kabi talablarini belgilaydi.

Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta'limiga tayyorgarlik darajalari davlat talablarda nazarda tutilgan mashg'ulot va faoliyatlarni o'tkazish jarayonida indikatorlarning bajarilishini kuzatish, o'rganish, tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egalla bolib, o'z-o'zini yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, racm qirqib yopishtirish, ko'rish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib uning rivojlanishiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yini davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda yozish va o'qishdan tashqari qo'shiq kuylash, she'r aytish, raqsga tushish o'rgatiladi, eng kichik yoshdagilar esa eng mayda motorika mashqlarini bajaradilar, abstract fikr yuritishga mo'ljallangan o'yinlar o'ynaydilar, bir birlariga yordam berishda ularda o'zaro hamkorlik ko'nikmalari shakllantiriladi. SHu bilan birga ranglarni ajratish, raqam va harflarni o'rganadilar. MTTlarida tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy – rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash juda foydali usul deb hisoblaydilar.

AQSHda bolalar tarbiyasining asosiy jihatlaridan biri bolaga kattalardek munosabatda bo'lish hisoblanadi. Bola shaxs va unga quloq tutish va fikrini hurmat qilish lozim. Albatta uni yo'naltirib turish kerak, lekin buyruq tariqasida emas nima yaxshi- yu, nima yomon ekanligini tushuntirish orqali.

Mashg‘ulot bolalar bog‘chasida bolalarga ta’lim berishning asosiy shaklidir. Mashg‘ulot - tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’im tashkilotlarida zamonaviy yondashuvlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish garovidur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni // www.lex.uz

2. “Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari” Toshkent.2017 yil.

3. Maktabgacha ta’lim jurnali. 2022 yil 2 - son

KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH

J.X.Shodiyeva
SVPYMO‘MM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada bolalarni badiiy adabiyot asosida dunyoqarashini shakllantirish, badiiy janrlarni o‘tish usullari, ularni o‘rganish darslarining qurilishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: ertak, hikoya, she`r, matn, sujet, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, baholash ko‘nikmasi, tahlil qilish, xulosa.

Badiiy adabiyotni bola ichki dunyosining eng ichki qavatlarigacha kirib bora oladigan, u yerda o‘ziga xos o‘zgarishlar yasay oladigan mo‘jizaviy qurol deb hisoblash mumkin.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Badiiy adabiyot o‘quvchilarning ongi, fikrlashi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin ishtirokini ta’minlashga xizmat qila oladi.

Badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg‘ular va o‘zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o‘z ta’sir kuchiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: hikoyalarda bolalar so‘zlarning lo‘ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she’rlarda o‘zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligini ilg‘aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko‘rsatadi.

Bolalar badiiy ertaklar qaxramonlariga qayg‘urishni o‘rganganlaridan so‘ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg‘ulari - birovning dardiga sherik bo‘lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko‘rsatish qobiliyati uyg‘ona boshlaydi. Bu esa halollik, haqiqiy fuqarolik xislari tarbiyalanadigan poydevordir. His-tuyg‘ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo‘lsa, u buni tushunmagan va tanimagandir.

Hikoyalar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning hayolot olamini, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o‘z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o‘zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarni o‘qib chiqilgan ertaklar bo‘yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy ertaklardan olishlari lozim. O‘qib chiqilgan ertak bo‘yicha haddan tashqari ko‘p nasixat qilish katta, ko‘pincha esa tuzatib bo‘lmas ziyon etkazadi: mayda-chuyda savollar bilan “sochib tashlangan” ertak bolalar ko‘z

o‘ngida o‘zining barcha jozibadorligini yo‘qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo‘qoladi. SHuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to‘liq tayanish zarur.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo‘lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorqin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo‘lgandan so‘ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jihatlarni esga olish va ularning ertakdagi so‘zlar bilan takrorlashga majbur bo‘lsin.

O‘qituvchi bolalar bilan xalq hikoya va dostonlarini qahramonlarining qo‘shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so‘zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o‘z nutqlarida qo‘llay boshlaydilar.

Maktabgacha bosqichdagi bolalarga o‘qib berish uchun unchalik katta bo‘lmagan hikoya va she’rlar tavsiya qilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emotsiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yaqin bo‘lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: qofiyalar o‘xshash, she’r qatorlari qisqa. Bolalar ularni takrorlar ekan, qatorlarning jarangdorligini, she’rning musiqiyligini ilg‘ab oladilar, ularni oson qabul qiladilar. So‘ngra esa butun she’rni esda saqlab qoladilar.

Bolalarni kichik yoshda ko‘proq she’rlar o‘ziga jalb qiladi, chunki ular aniq qofiyalari, ohangdorligi va musiqiyligi bilan alohida ajralib turadi.

Takror o‘qishda bolalar she’r mazmunini o‘zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni his qiladilar, ayrim so‘zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o‘z nutqlarini boyitadilar.

Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she’r o‘qishda kichkintoylarga har bir so‘zni aniq aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o‘rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so‘zlarga urg‘u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg‘ularni to‘g‘ri qo‘yishi va bolalarning ham she’rni to‘g‘ri aytishlariga erishishi lozim.

Bola adabiy ertaklarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O‘ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o‘yinchoqlarda xursand bo‘lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan ko‘zatib boradi.

Kichkintoylarga mo‘ljallangan badiiy ertaklar soni unchalik ko‘p emas. Shuning uchun ular ko‘p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy ertakni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Kichik yoshdagi bolalarga o‘qib beriladigan ertaklar doirasini asosan o‘zbek folklori ertaklari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda kichik yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so‘z, ohang, musiqa va harakatni o‘zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg‘om», «Bo‘g‘irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshqalar.

Bolaning adabiy ertakni yoki o‘zi to‘qigan ertakini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o‘qish va kattalar bilan dialogda o‘qish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq, badiiy ertak faqat so‘z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar bilan ko‘rsatilishi mumkin.

Bolalarning adabiy ertaklarning o‘ziga xos tuzilmasi haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida «Agarda ..... bo‘lsa, nima bo‘lar edi» toifasidagi ijodiy o‘yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o‘yinlarda tipik qahramonlar, syujet elementlari erkin qo‘shiladi, natijada g‘ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo‘nalish beruvchi alohida so‘zlar va jaranglashlar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o‘yinlari, so‘z ijodkorligi, she’rni davom ettirish va she’r to‘qish, tashbehlar va taqqoslashlar o‘ylab topishlariga asoslangan o‘yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag‘batlantiradi.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik xajmdagi adabiy hikoyalar syujetlari asosida o‘yinli “hayolotdagi olamni” yaratishlariga ko‘maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy hikoya (mualliflik hikoyasi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu hikoyaning “hayolotdagi

olamini" olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o‘yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagog bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o‘ylab topilgan she’rlar va ertaklarni to‘plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o‘zlari tomonidan kitob yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to‘qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo‘shiqlar, sanoq she’rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to‘plami, qo‘lyozma jurnali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo‘jayev A. Badiiy asar tahlili. Qashqadaryo, 2016.
2. D.A.Abduraxmonova, R.A. Mavlonova "Pedagogtk mahorat" Toshkent 2012 yil
3. Husanboyeva Q. va boshqalar Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi. - Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2022 yil.
4. Matjon Safo. Kitob o‘qishni bilasizmi? – T.: O‘qituvchi, 1993. 11-bet.
5. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). – T.: O‘qituvchi, 1996. 37-bet.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAISHIY- XO‘JALIK MEHNATI

Z.Sh.Qarshiyeva
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlari va uylaridagi hayoti va qiziqishi hamda ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan ularning kuchi yetadigan mehnat bolalar faoliyatining asosiy turlaridan biri hamda muhim ta’limviy vositalardan hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi bolalarda mehnatga to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirishdir. Bu vazifa faqat mehnat faoliyati xususiyatlarini hisobga olishni o‘yin, mashg‘ulotlar bilan solishtirish va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin.

Bolalarda mehnatsevarlikni shakllantira borib, ularni maqsad qo‘yishga, maqsadga erishish yo‘llarini qidirib topishga, maqsaddan tegishli natija olishga o‘rgatish va bunda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnati faoliyatining xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarning jamoa mehnat shakllarida ishtirok etish imkoniyatlari hali chegaralangan bo‘ladi. Bolalarning bu ishi katta guruhdagilarniki singari muntazam xarakter kasb etmaydi, biroq bari bir bu bolalarni ham ayrim topshiriqlarni bajarishga tez-tez jalb qilish lozim: o‘yinchoqlarni yig‘ishtirishga yordamlashish, qo‘g‘irchoq burchagini tartibga keltirish, uni yig‘ishtirishda qatnashish.

Masalan, bolalar tarbiyachining qo‘g‘irchoq kiyimlarini yuvishini, dazmollashinn kuzatib turadilar, so‘ngra u bilan birgalikda qo‘g‘irchoqlarni kiyintiradilar. Qilingan ishdan zavqlanib tarbiyachi: «Qo‘g‘irchoqning kiyimlari toza bo‘lsa, qanday chiroyli!» deydi.

Kichkintoylarni ko‘pchilik bo‘lib guruh xonasini yig‘ishtirish ishiga jalb qilish ham mumkin. Bayram oldidan qilinadigan bunday ishlarga bolalar ayniqsa faol qatnashadilar. Ularga: yaqinda bayram bo‘ladi, bayramda hamma narsa: guruh xonasi bezaklari ham, qo‘g‘irchoq kiyimlari ham chiroyli bo‘lishi kerak» — deyiladi.

Bunday paytda bolalar tarbiyachi topshirig‘ini bajonu dil bajaradilar va hamma ishni yaxshi bajarishga harakat qiladilar.

Maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida mehnatga qaralar ekan, bunda bolalarning mustaqil maqsad qo‘yish va uni amalga oshirish qobiliyatlarini o‘stirish muhimdir. Bu maqsadga muvofiq faoliyat kichik bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilishida, paypog‘ini, botinkasini mustaqil kiyishida, o‘yinchoqlarni o‘z o‘rniga olib borib qo‘yishida namoyon bo‘ladi. Dastlab maqsad uning uchun aniq, yaqqol ko‘rinib turadi: o‘yinchoqlarni yig‘ishtirdingmi —burchak tartibga

keltirildi va endi o‘ynash mumkin; qo‘g‘irchoqni kiyintirdingmi, uni aravachaga o‘tqazish va uchirish mumkin.

Har quni takrorlanib turadigan dastlabki harakatlar u yoki bu ishni bajarish malakalarini mustaxkamlaydi, biroq bu hamma vaqt ham mustaqillikni rivojlantirmaydi. Bola u yoki bu mehnat jarayonini bajarish ko‘nikmasini egallab borgani sari unda bu jarayonga bo‘lgan qiziqish yo‘qoladi, chunki bu jarayon endi boladan zo‘r berishni talab qilmay qo‘yadi va endi bu ishni uning uchun boshqa bolalar yoki kattalar bajarishiga beparvo qarab turaveradi.

O‘rta va katta maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni odatdagi vaziyatlarda kundalik ishlarda maqsad qo‘yishga, ya’ni: jovondagi kitoblarni tartibga keltirish, qurilish materiallarini yig‘ishtirish, qo‘g‘irchoq kiyimlarini yuvish, yo‘lkalarni qordan tozalash, yashikdagi qumga suv sepib qo‘yish va ko‘pgina boshqa ishlarga o‘rgatib boriladi. Tarbiyachi bolalar diqqatini betartib, sochilib yotgan narsalarga yo‘naltirib, bolalarning o‘ziga bu tartibsizlikni bartaraf etish haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bolalar dastlab mehnat topshirig‘inn oldindan o‘ylab ko‘rmaydilar va uni darxol bajarishga intiladilar.

Bolalar mehnatga oid harakatlarni kishilariing har xil mehnat turlari tasvirlangan rasmlarda ko‘rishlari va u haqda so‘zlab berishlari mumkin. Masalan, tarbiyachi turli mehnat jarayonlari: nihol o‘tqazish, jo‘yak qazish, olma terish, oyoq kiyimlarni tozalash, kir yuvish tasvirlangan illyustratsiyalarni ko‘rsatadi. Bolalarga rasmga qarab kichik hikoya tuzish taklif qilinadi. Shunga o‘xshash aniq ishni rejalashtirish tajribalari ortgan sari bolalar bunday ishlarni qiynalmay bajaradilar.

Bolalar qiziqishi doirasiga kiruvchi motivlarni va faol faoliyatda qatnashishga qodir hamda unda qatnashishga tayyor turishni vujudga keltiruvchi motivlarni ta’sir ettirib, ularda mehnatga bo‘lgan munosabatning qanday o‘zgarishini sezish mumkin. Bolalardagi istalgan natijaga erishishning o‘zi faoliyat motiviga aylanadi.

Kattalarning mehnat natijalari bolalarga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ular kattalarning mehnatini kuzatar ekanlar, o‘zlari ham shunday natijaga erishish uchun o‘z imkoniyatlari haqida fikr yurita boshlaydilar. Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarining mehnatga bo‘lgan qiziqishi bajarilayotgan ishning sifatiga nisbatan talabni orttiradi.

Mehnat faoliyatining asosiy komponenti (maqsad qo‘yish, rejalashtirish va natijaga erishish) saqlana borgan sari, bolaning mehnatga bo‘lgan munosabati ham o‘zgarib boradi. Endi mehnat jarayonining o‘zi bolalarga quvonch baxsh etadi. Ularning emotsional holatlari shundan dalolat beradiki, ularning nima va qanday qilayotganlariga tarbiyachi muntazam suratda diqqat-e'tibor va qiziqish bilan munosabatda bo‘lishi zarur. Ijobiy hissiyotlar ularning faoliyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarinn va, ayniqsa, ularda mehnatsevarlikning dastlabki shakllanish davrini belgilaydi.

Eng muhimi, bola ishni muvaffaqiyatli hal qilishiga ishonsin. Bolaning bunday kayfiyati tarbiyachi tomonidan, uning yordam berishga tayyor turishi bilan qo‘llab-quvvatlaniladi. Ba’zida bu ma’qullash, ba’zida boshqacha qilish to‘g‘risida maslahat berish, ba’zida bolalardan kimnidir ishga jalb qilishni taklif etishda ifoda qilinadi, boshqa hollarda esa biror qiyinroq ishni bajarishda bolaga amalda yordam bernshadi, bunda bola ishni o‘zi bajarayotganini va unga vaqtincha yordamga kelishganini his etishi zarur.

Bolalarda mehnatga qiziqishni tarbiyalab borishda eng muhimi, ulardan ishni sifatli bajarishlarini asta-sekin talab qilish va ularning kuchi yetadigan ishlarga bo‘lgan malakasini hosil qilib borish kerakligini nazarda tutish lozim. Ularning oddiy mehnat jarayonlarini aniq va to‘g‘ri bajarishlarini avval boshdan tarbiyalab borish zarur. Bunda murakkab (o‘yinchoq yasash ia ularni remont qilish, dazmollash, tikish) ishlarni bajarishda ish natijasidagi ba’zi bir kamchiliklar (sifatsizroq chiqishi) bo‘lishiga vaqtincha e'tibor bermaslik lozim. Bolani ishni qayta-qayta bajarishga majbur qilmaslik kerak.

Bolalarning mehnatda erishgan yutuqlari tarbiyachi tomonidan haqqoniy baholanishi zarur. Bu baho hamma vaqt o‘rinli bo‘lishi kerak. Bola agar biror ishning uddasidan chiqolmayotgan bo‘lsa, bunday vaqtda unda bu vaqtincha holat ekanligi, harakat qilsa, albatta bu ishni juda

yaxshi bajara olishi mumkinligi haqidagi ishonchni qo‘llab-quvvatlash lozim. Shu bilan bir qatorda bolaning hali yaxshi egallab ololmagan malakalarini mashq qildirish uchun turli vaziyatlardan foydalanish zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan xilma-xil mehnat ko‘pincha jamoa talabini qondirishga yo‘naltiriladi. Hatto bolaga individual tarzda topshiriq berish ham ko‘pincha jamoaga xizmat qilish maqsadiga ega bo‘ladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda mehnat ta’limi o‘ziga xos ravishda amalga oshiriladi. Mehnatning asosiy mazmuni kundalik turmushda o‘z-o‘ziga xizmat qilishdan iboratdir. O‘z-o‘ziga xizmat qilish malakasini egallab borib bola o‘zida ko‘proq mustaqillikni, kattalarga kamroq tobelikni his qila boshlaydi. Biroq o‘z-o‘ziga xizmat qilish kichkintoylarga ancha qiyinlik qiladi, chunki mustaqillik bolalardan ma’lum kuch, diqqat-e'tiborlilikni talab qiladi. O‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini o‘rganish jarayonida o‘yin vaziyatlariga kam duch keligadi.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish mazmunini aniqlayotib, kishilari mehnatining xarakterli xususiyatlarini (hayot uchun zarur predmetlarni yaratadilar, faqat o‘zlari uchun emas, balki boshqalar unun ham mehnat qiladilar, har qanday buyum ko‘pchilik ishchilar mehnati bilan yaratiladi, ular yaxshi mehnat qilishga harakat qiladilar, chunki ularning mehnati hamma uchun kerak) ko‘rsata borish muhimdir. Kattalar mehnati haqida tasavvur hosil qilish bolalarda mehnatga qiziqish uyg‘otadi, mehnatning xilma-xil turlari haqida bolalarda bunday aniq tasavvurlarni to‘g‘ri rejalashtirish esa ularni har qanday tanish mehnat turida o‘ziga xos xususiyatlarni ajrata olish ko‘nikmasiga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bolalarning axloqiy rivojlanishida ularda kattalarning jamoa mehnati haqida tasavvurlarning shakllakishi eng muhimdir. Bu juda murakkab vazifa hisoblanadi. Kattalar mehnatini kuzatish maqsadida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda bolalarning diqqati kattalar faoliyatining ma’lum bir tomoniga, aytaylik mehnatning jamoa xarakteriga (hosilni yig‘ib olishda qishloq mehnatkashlarining o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi va boshqalarga) jalb qilinadi.

Mehnat ta’limi jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash amalga oshiriladi. Bola asta-sekin kattalar mehnatini hurmat qilishni va ular mehnati mahsulini ehtiyot qilish kerakligini anglaydi va barcha kishilar uchun bizning Vatanimiz qanchalik qimmatli ekanligini hamda uning gullab yashnashi uchun nimalar qilish zarurligini tushuna boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalar Vatanga muhabbat, bu so‘zda emas, balki amaliy ishda, umum foydasi uchun mehnat qilishda ekanligini tushunadi. Shu boisdan ham bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda ularning umumfoydasi uchun mehnatda ishtirok etishlariga sharoit yaratish zarur.

Bolalar muassasasida mehnat natijasi hayotiy muhim bo‘lgan faoliyat tarzida tashkil etiladi. Bu faoliyat asta-sekin o‘yindan ajratiladi, mashg‘ulotdan alohida bo‘lib chiqadi va u maktab yoshigacha davrning ilk bosqichidayoq mustaqil ahamiyatga ega bo‘la boradi. Bolalarning mehnat tarbiyasi, maktab ta’limiga tayyorligiga oid ba’zi masalalar bo‘yicha biz o‘tkazgan tadqiqotlar faoliyatning ancha yuqori bosqichi — o‘qishga o‘tishning muhim sharti, bu bolada uning shaxsiy istagi va tasodifiy kayfiyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda, kuchi yetadigan vazifalarni sistemali bajarish qobiliyatini ta’limlash deb ko‘rsatdi. Maktabgacha yoshning oxirida bola uncha murakkab bo‘lmagan ishlarning uddasidan chiqsa, o‘z-o‘ziga xizmat qilish vazifasini muntazam bajarsa, oshxonada, mashg‘ulotlarda, jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilishda, navbatchilik qilishda ishtirok etsa, bu holda uni maktabda beriladigan murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyor deb hisoblash mumkin.Vazifalarni bajarish maktabgacha yoshdagi bolani tevarak-atrofdagi kishilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bola o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni his eta boshlaydi va tushunadi, topshiriqni yaxshi bajarishga, ish jarayonida duch kelgan qiyinchiliklarni yengishga intiladi.

Umuman aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotida qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini samarali yo‘sinda tashkil etish va o‘tkazish bolalarda faqat mehnat o‘quv-malakalarini tarkib toptirishda emas, balki ijodiy ishlash qobiliyatini tokomillashtirishning, birgalikda ishlash,

o‘zaro yordam, kattalar mehnatiga hurmatni shakllantirishning hamda ularni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vazifalarini kompleks hal qilishning ham muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

2“Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T., 2001 yil.

3. Xasanboyeva O ”Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi”T.,2006yil

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING SOG‘LOM AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

M.Z.Nigmatova
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Inson bolasi dunyoga kelar ekan u tashqi olam bilan doimiy ravishda, tashqi olam ta’siri asosida kamol topadi, o‘sadi, ta’lim-tarbiya oladi. Kelajak vorislari bolalarni to‘g‘ri o‘sib ulg‘ayishida eng muhim omillardan biri oila tarbiyasi bo‘lsa, yana muhim omillardan biri ta’lim-tarbiya beruvchi muassasalar hisoblanadi.

Yosh avlodning sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib etishishida maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyos. Shunday ekan maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari zimmalarida katta ma’suliyat bor ekangligini ko‘ramiz. Bunda biz avvalo maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘zi gigienik nuqtai nazardan talabga javob bermog‘i lozim deb o‘ylaymiz. Shu bilan birgalikda maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyachilari ham fiziologik, pedagogik - psixologik nuqtai nazardan talabga javob berishi lozim. Bular albatta yosh avlodning sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib etishishida kata ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri va samarali tashkil etish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- harakat faolligining etarli bo‘lishi;
- to‘g‘ri ovqatlanish;
- toza suv va havoning mavjudligi;
- doimiy ravishda chiniqib borish;
- imkon boricha tabiat qo‘ynida ko‘proq bo‘lish;
- shaxsiy gigiena qoidalariga rioya etish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- dam olish va mehnat qilish;
- kun tartibidan unumli foydalanish va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining bola salomatligini saqlashdagi asosiy vazifalari jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantirsh bo‘lsa, keyingisi esa to‘g‘ri ovqatlantirish va uxlash tartibiga amal qilish hisoblanadi. Albatta yosh bolalarni fizologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, ular ko‘proq harakatda bo‘lishlari kerak, bu sog‘liklariga foyda beradi. Agar ular harakatsiz qolsalar zerikadilar, organizmda ham o‘zgarish sezilmaydi, yani ulg‘ayish sekinlashadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarida chaqqonlik, chidamlilik, epchillik, mehnatsevarlik singari sifatlarni shakllantirish uchun bir qancha o‘yinlar tashkil etilgan.

Masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarda o‘tkaziladigan «Sog‘lomjon - polvonjon» musobaqasini olib qaraydigan bo‘lsak, bu musobaqa orqali bolalarnining jismoniy harakati faolligini, mehnatga munosabatini, qiziqishini, fikrlashini, tasavvur qilishini shakllantiriladi. Bularni tashkil qilishda va jismoniy mashqlarni olib borishda maktabgacha ta’lim tashkilotlar tarbiyachilari quyidagilarga e’tibor bersalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- gigiena jihatidan joyining holatiga qarab mashg‘ulot tashkil etish;
- ekologik holatni hisobga olish;
- bolalarning maxsus kiyimlari va poyafzallarda bo‘lishi

Mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan joy har doim toza va ozoda bo‘lmog‘i lozim. Shu bilan bir qatorda bolalrni o‘z vaqtida ovqatlantirilishi va dam olishlariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, so‘nggi vaqtlarda bolalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining buzilishini keltirib chiqaruvchi ko‘plab sabablar uchramoqda.

Bu sabablar orasida asosiylari kun tartibiga rioya qilmaslik, ota - onalarning ovqatlanish rejimiga e’tiborsizlik bilan qarashlari, bolalarning shaxsiy gigiena, aqliy va jismoniy mehnat qoidalariga amal qilmasliklarini uchratish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda shuni xulosa qilamizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarda bolalarning o‘z salomatliklariga xavf soladigan omillarga qarshi kurasha oladigan barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishishlariga, ularda sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratmog‘imiz lozim.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

F.I.Kudratova
Pastdarg‘om tumani 26-DMTT direktori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-sentyabrdagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ PF-5198–son farmonida ta’kidlaganidek, Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘in hisoblanib, u har tomonlama sog‘om va barkamol bola shaxsini tayorlash va maktabga tayorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayorlash darajasini tubdan yaxshilash ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart–sharoitlar yaratishdan iborat. Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayorlash kabi talablarini belgilaydi. Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta’limiga tayorgarlik darajalari davlat talablarda nazarda tutilgan mashg‘ulot va faoliyatlarni o‘tkazish jarayonida talablarning bajarilishini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Demak, mashg‘ulot bolalarni maktabga tayorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulot orqali bolalar o‘quv malakasini egallab boradi. O‘z-o‘zini anglay boshlaydi hamda bilim olishga intiluvchan bo‘lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega. Birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topag‘onligini namoèn qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar ishiga zo‘r berishni talab etuvchi vazifa qo‘yilganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o‘rgatadi.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib uning rivojlanishiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yini davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayorlashda yozish va o'qishdan tashqari qo'shiq kuylash, she'r aytish, raqsga tushish o'rgatiladi, eng kichik yoshdagilar esa eng mayda motorika mashqlarini bajaradilar, abstract fikr yuritishga mo'ljallangan o'yinlar o'ynaydilar, bir birlariga yordam berishda ularda o'zaro hamkorlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga ranglarni ajratish, raqam va harflarni o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar bolalarning rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasashni juda foydali usul deb hisoblaydilar.

AQShda bolalar tarbiyasining asosiy jihatlaridan biri bolaga kattalardek munosabatda bo'lish hisoblanadi. Bola shaxs va unga quloq tutish va fikrini hurmat qilish lozim. Albatta uni yo'naltirib turish kerak, lekin buyruq tariqasida emas nima yaxshi- yu, nima èmon ekanligini tushuntirish orqali. Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot bu tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigiyenik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq -hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Xulosa tariqasida aytish joizki, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib, zamonaviylashtirishga imkon yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

2"Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T., 2001 yil.

4. Xasanboyeva O "Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi"T.,2006yil

PIRLS TADQIQOTLARI MUVAFFAQIYATLI TA'LIM MEZONI SIFATIDA

X.A.Orzikulova
NamDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotlarining ta'lim-tarbiya jarayoni sifatiga hamda o'quvchining axborot olishiga bo'lgan ijobiy ta'siri haqidagi ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar; PIZA ,PIRLS, tadqiqotlar, ta'lim sifati, matn o'qish,axborot, o'quvchi.

Annotation: This article provides some feedback on the positive impact of PIRLS research on the quality of the educational process as well as on student learning.

Keywords; PIZA, PIRLS, research, quality of education, text reading, information, reader

Ayni paytda butun dunyo hamjamiyati ta'lim sifati samaradorligini oshirish masalasiga e'tibor qaratgan bo'lib, bu o'rinda yetakchi g'arb davlatlari ta'lim tizimida muvaffaqiyatli natijalarni ko'rish mumkin. Ta'lim sifatining bosh ko'rsatkichi bilim oluvchining natijasidandir. Bilim bevosita o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonda kitob o'qish va uni tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

yangi asr ostonasida dunyo ta'limining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan umumiyo‘rta ta'limni rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Bu baholash tizimi o‘quvchilarning bilim olishlarini oshirishga katta yordam berdi. Bulardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligida tushunib va eslab qolish darajasini baholash xalqaro dasturi PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) fikrimizning yaqqol namunasi. Bu o‘rinda rivojlangan davlatlarda bilim oluvchining, jumladan boshlang‘ich sinflarda o‘qish va o‘qib tushunish malakalarini baholashning PIRLS (Progress in International Reading Literace Study) tizimi 2001 yildan beri qo‘llanib kelinmoqda. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) –turli ta'lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tatqiq qilishdir.Turli davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish sifati, matnni tushunish va eslab qolish darajasini, shuningdek har xil davlatlar ta'lim tizimidagi o‘zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tatqiqod metodidir. Ayniqsa, yangi asr ostonasida dunyo ta'limining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan umumiyo‘rta ta'limni rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Bu baholash tizimi o‘quvchilarning bilim olishlarini oshirishga katta yordam berdi. PIRLS – bu o‘quv savodxonligini baholashning mustaqil tizimi bo‘lib, u IEA xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan har besh yilda amalga oshiriladi. Ushbu tashkilot ta'lim tizimida keng qamrovli tadqiqotlarni 1958 yildan beri amalga oshirib kelmoqda. PIRLS natijalari xalqaro ekspertlar tomonidan doimiy taxlil va muhokama qilib kelinadi. PIRLS ta'lim tiziminig kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga yordam beradi. [2]

PIRLS tadqiqotlari muvaffaqiyatli ta'lim negizida muvaffaqiyatli shaxs, muvaffaqiyatli kelajak va muvaffaqiyatli kasb egasi yotganini ta'kidlaydi. Bolalarning maktabda kitob o‘qishi va bolalarning adabiy kompetensiyasi hamda savodxonligini rivojlantirish dasturlari, "Kitobning olg‘a siljishi" va OAV yordamida mutolaa maqomini oshirish, bolalar uchun radio va televideniyada maxsus dasturlar yaratish zarurati tug‘ilmoqda.Bu zaruratni paydo bo‘lishi esa o‘quvchilarimizni PIRLS tadqiqotlarida ishtirok etishiga tayyorgarligini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.[1]

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni “badiiy tajriba orttirish”, “axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratiladi.

Badiiy kitoblarni o‘qishda o‘quvchilar voqealar, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti , hissiyotlar va g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan matnlarni o‘qib undan huzurlanadi [1].

PIRLS xalqaro dasturi doirasida beriladigan badiiy adabiyot orqali o‘quvchi hayoliy voqealarni real hayotda bo‘lgani kabi tasavvur qiladi va o‘zi boshidan kechirayotgandek his qilish imkonini beradi.Axborot beruvchi matnlar orqali esa o‘quvchi tanqidiy yondoshgan holda ma'lumotlarni aniq va to‘liqligini baholash,voqealarning sodir bo‘lishi boshqasining oqibatini keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar ishtirok etish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘zlashtirilgan ma'lumotlarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetentsiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnomasining 3-soni .-Toshkent, 2021 yil.- 140 b

2. Xalqaro tatqiqodlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) “SHARQ” nashriyoti. Toshkent -2009 y

PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH DARAJALARINI RIVOJLANTIRISH

M.X.Samidjonova
Namangan viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim meodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada PIRLS – xalqaro baholash dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajalarini rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: PIRLS, ta’lim yutuqlarini baholash, konseptual yondashuv, o‘lchov mezonlari, bilim, ko‘nikma va malakani baholash, savodxonlik va kompetensiyani baholash, elektron va interfaol topshiriqlar.

Аннотация. В данной статье рассказывается о развитии навыков чтения и понимания у учащихся начальных классов на основе международной программы оценивания PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, оценка образовательных достижений, концептуальный подход, критерии измерения, оценка знаний, умений и компетенций, оценка грамотности и компетентности, электронные и интерактивные задания.

Abstract. This article talks about the development of reading and comprehension levels of primary school students based on PIRLS - international assessment program.

Key words: PIRLS, educational achievement assessment, conceptual approach, measurement criteria, knowledge, skills and competence assessment, literacy and competency assessment, electronic and interactive assignments.

Bilamizki, boshlang‘ich ta’lim – bola hayotida muhim ahamiyatli, tubdan yangi bosqichdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ta’lim muassasasida tizimli bilim ola boshlaydi, uning tevarak olam bilan o‘zaro munosabatlashuv sohasi kengayadi. Boshlang‘ich ta’lim ta’limining keyingi barcha bosqichlaridan uchun asos hisoblanadi. Shunga bog‘liq ravishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat o‘quv fanlari bo‘yicha bilimlarni egallashi, balki umume’tirof qilingan xalqaro ta’lim talablar va standartlarga muvofiq kasbiy faoliyatning muayyan usullari to‘plamini ham chuqur o‘zlashtirishi lozim.

Bugungi kunda, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O‘quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo‘llanilib kelinmoqda. “PIRLS tadqiqot dasturi boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilarining (4 sinf) kitobxonlik darajasini baholaydi. Ya’ni o‘quvchining matnni tushunishi va o‘qish sifatini tahlilidir” [1]. PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta'lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. O‘quvchilarga aynan PIRLS sinovlariga va muayyan dasturda yaxshi natija ko‘rsatishga emas, balki, ularni maktabdan keyingi hayotga

tayyorlanayotganini tushuntirishga e'tibor qaratish, o'qituvchilik faoliyatiga aniq mezonlar asosida tanlab olish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonida ta'lim tizimining kuchsiz tomonlariga e'tibor qaratib, kuchli tomonlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik hamda uni qadrlashi lozimligi hamda boshqa fikrlar bildirilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish darajasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Matnni o'qish va tushunishga o'quvchilar 1-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak degan savol tug'ilishi tabiiy. Boshlang'ich sinf darsliklari va internetdan o'quvchining yoshiga mos kichik hikoya va ertaklarni, she`rlarni yoki axborot matnlarini olib, dars jarayoni vaqti o'qish darslarida hamda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda matnni ifodali o'qish, matnning mazmunini tushunish malakalari shakllantirilib boriladi. Ayrim matnlar uyga vazifa qilib ham berilishi mumkin. Berilgan topshiriq matnlari asosida keyingi dars mashg'ulotida savol-javob va tahlillar o'tkaziladi. Matnni o'qigach, o'quvchilar matn mazmunini tushunish, xulosalar chiqarish, matn mazmunini tushuntirib berish, ma'lumotlarni izohlash, tahlil qilish, matn mazmunini baholash, matnda berilgan so'zlarni tahlil qilish, matn qurilishi yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish ko'nikmalariga ko'ra baholanadi. Bilamizki, hozirda maktablarimizda ona tili va o'qish darslari birlashtirilib, milliy o'quv dasturi asosida yagona " Ona tili va o'qish savodxonligi" darslari joriy etildi. "Ona tili" va "O'qish" fanlarining integratsiyasi to'liq ta'minlanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanida matnni o'qish va uning asosida mashq va topshiriqlarni bajarish orqli o'quvchida o'qish ko'nikmasi rivojlantiriladi hamda tilga oid ko'nikmalar shakllantirib boriladi. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Matnlar va she'rlar bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy va informativ, ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan 2-sinfi uchun mo'ljallangan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida "Men tabiatni asrayman" mavzusi berilgan. O'quvchilar ushbu mavzu doirasida loyiha ishlab chiqishlari topshiriq qilib berilgan. Unda o'quvchiga tabiatni asrash uchun nimalar qilish mumkin? Isni nimadan boshlaysiz? Hamda bu ishlarni qilganingizdan so'ng nimalar o'zgaradi degan savollar hamda turli rasmlar berilgan. O'quvchilar o'z oila a'zolari yordamida loyiha tuzadilar va taqdimot qiladilar. Bu orqali o'quvchilar o'z fikrlarini taqdi etishni o'rganib boradilar. Bundan tashqari darslikda yana "Bahor" she`ri berilgan. [2.] O'quvchilar she`ri matnini ifodali o'qigach, she`rdagi bahor tasvirini ifodalovchi misralarning mazmunini o'z so'zlari bilan gapirib berishlari lozim. O'quvchiga she`rdan kelib chiqib turli topshiriqlar berilgan. Rustamning boshi qotdi. U she`rdagi ayrim jumlalarga tushunmadi siz buni tushundingizmi kabi . Masalan, Ko'kda quyosh gulxan yoqdi

Soylar yana to'lib oqdi.
Yoki, Chiqib xazon ko'rpasidan
Boychechaklar kulib boqdi.
O'ylab ko'ringchi, quyoshning qo'li bo'lmasa qanday qilib gulxan yoqadi?
Boychechaklar ham kuladimi?
O'z mustaqil fikringizni yozing.

Bu kabi topshiriqlarning barchasi boshlang'ich sif o'quvchilarini PIRLS -xalqaro tadqiqotiga tayyorlab boradi. Albatta, maqsadga erishish uchun esa o'qituvchidan biroz ijodiy yondashuv kerak bo'ladi.Shuningdek, o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib mazkur hikoyalar asosida ishlangan multfilm, lavhalar ko'rsatish hamda o'quvchilar ijrosida sahna ko'rinishlarini namoyish etish orqali ham o'quvchining kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish mumkin. Bolaga bola tilida tushuntirish metodini tavsiya etish ham mumkin. Bunda isde'dodli o'quvchilarni o'qituvchi vazifasiga tayinlab, boshqa o'quvchilarga rivoyat mazmuni tushuntiriladi, asardan parcha olinib, sahna ko'rinishlari ijro etiladi. Bu usuldan jahon miqyosida keng foydalaniladi. O'quvchi matn mazmunini tushunsa, she`riy va nasriy asarlarni janr

xususiyatidan kelib chiqqan holda ifodali o‘qiy oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish malakasini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dars jarayonida o‘quvchilar nutqining aniq va ravon bo‘lishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo‘ysunishiga e’tibor qaratilishi zarur. Ta’lim yutuqlarini baholashdagi konseptual yondashuv, o‘lchov mezonlarini o‘ziga xos tomonlari va xususiyatlarini hisobga olish, bilim, ko‘nikma va malakani baholashdan savodxonlik va kompetensiyani baholashga o‘tish, baholash va uning mezonlarining konseptual chegaralarini o‘zgartirish, ma’noli matnga ega hamda strukturali topshiriqlar miqdorini oshirish, elektron va interfaol topshiriqlar asosida texnologiyani o‘zgartirish, ta’limdagi ustuvorlikni o‘zgartirib borish, savodxonlikni rivojlantirishga o‘tish kabi masalalar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

2. “ Ona tili va o‘qish savodxonligi” 2-sinf darsligi Respublika ta’lim markazi 2021-yil

ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

М.К.Якубжанова
старший преподаватель Национального центра по обучению новым методикам педагогов Самаркандской области

Аннотация. В статье исследуются общие принципы обучения чтению на уроках русского языка как иностранного. Рассматриваются виды и приёмы чтения в зависимости от коммуникативных задач.

Ключевые слова: чтение, аспекты чтения, техника чтения, виды и приёмы чтения.

Чтение - репродуктивный вид речевой деятельности, направленный на извлечение информации, которая содержится в письменном тексте.

Чтение - это база для развития таких коммуникативных умений, как говорение и письмо, так как основным способом их формирования является анализ текста-образца. Умение читать необходимо для того, чтобы проанализировать текст. Все виды речевой деятельности (т. е. говорение, чтение, аудирование и письмо) должны развиваться одновременно, так как они взаимосвязаны. Развитие у человека способности самому создавать сообщение зависит от его умения понимать сообщаемое.

Чтение является и целью, и средством обучения. "В качестве цели чтение формирует, развивает и совершенствует умения извлекать информацию из текста любого стиля и жанра. В качестве средства - это выполнение разнообразных упражнений.[1. Щукин А.Н., 2003, с. 202]. Таким образом, обучение чтению - это понимание речевого произведения, представленного в письменном виде.

Условием для чтения как вида речевой деятельности является техника чтения - " умение соотносить знак и звук, буквосочетание и звукосочетание, фонетический комплекс с комплексом слов." [2. Иванова-Лукьянова Г.Н., 1988, с. 30]. Также, существенную роль играет интонационное оформление предложения.

Обучение чтению складывается из двух аспектов:

1. Обучение технике чтения
2. Обучение чтению с целью получения информации.

Работа над техникой чтения связного текста должна вестись в определённой последовательности:

- образцовое чтение преподавателя

- снятие трудностей произношения и интонирования
- чтение учащихся (хоровое, групповое, парами или индивидуальное).

Итак, обучение начинается с громкого чтения, с умения озвучивать слоги, слова, словосочетания, предложения и микротексты (3-4 предложения).

Сначала читает преподаватель, а студент имитирует. Далее громкое чтение заменяется шепотным, а затем идет уже просто восприятие текста глазами, про себя, но внутренняя речь всегда сопровождает чтение.

Цель работы над техникой чтения - прийти к зрелому, беспереводному чтению про себя, когда все внимание направлено на содержание, а не на языковую форму; пословную расшифровку текста нельзя назвать чтением.

В зависимости от коммуникативных задач, которые ставит перед собой читающий, и соответствующих им приемов чтение делится на:

- изучающее
- ознакомительное
- просмотровое

Изучающее - это чтение со стопроцентным пониманием информации, детальное чтение, которое может сопровождаться выписками и рассчитано на использование в последующей деятельности информации, полученной из текста. Для изучающего чтения выбирают тексты, объём которых в несколько раз меньше текстов для ознакомительного чтения; чаще используются тексты описательного типа. Информационная насыщенность таких текстов высока. В таких текстах не должно быть незнакомых учащемуся грамматических конструкций. Количество незнакомой лексики может быть выше, чем при ознакомительном чтении, но оно не должно быть чрезмерным, чтобы чтение текстов не превращалось в их расшифровку.

Приёмы изучающего чтения:

1. Постановка вопросов после прочтения либо до прочтения текст.

Наиболее эффективна постановка предварительных вопросов. Например: Из скольких частей состоит текст? Почему сначала говорится о ..., а потом о...? Какие примеры даются в тексте?

2. Постановка вопросов к тексту самими учащимися.

Ознакомительное - это чтение с общим охватом содержания, т. к. читающий уделяет внимание только главной информации, пренебрегая второстепенными деталями. Для ознакомительного чтения используют относительно большие тексты. Наиболее пригодны для этого вида повествовательные, сюжетные тексты. Степень информационной насыщенности этих текстов невысокая, их понимание допускает потерю части второстепенной информации (более 25%). Языковой материал не должен вызывать особых затруднений, незнакомые слова (не более 5-7 на страницу) не должны затрагивать основную информацию текста.

Для овладения навыками ознакомительного чтения важны умения выделять главное и второстепенное в тексте, находить ключевые слова, которые несут основную информацию в тексте. Для формирования этих умений могут быть предложены задания типа:

- Разделите текст на части. Озаглавьте каждую часть.
- Выпишите из каждого абзаца ключевые слова.
- Найдите слова, которые могут быть опущены.
- Найдите в тексте слово или предложение, в котором выражена главная мысль каждого абзаца и т. д.
- Сжато перескажите содержание абзаца или текста.

Просмотровое чтение - беглый просмотр текста, при котором отмечается интересное/неинтересное, ценное/ненужное. Для просмотрового чтения объём текстов должен быть в несколько раз больше текстов для ознакомительного чтения.

Информационная насыщенность текстов существенного значения для этого вида чтения не имеет.[3. Акишина А.А., Каган О.Е., 2002]

Чтобы сформировать у учащихся навыки просмотрового чтения, можно использовать следующие задания:

- Назвать ключевые слова предложения или абзаца.
- Прочитать абзацы или предложения и сказать, какая тема их объединяет.
- Выделить предложения, которые определяют новую микротему текста.
- Продолжить текст с данным названием.

Навыки просмотрового чтения необходимы при работе с текстами из художественных, публицистических или научных произведений.

На начальном этапе изучения русского языка обычно предлагаются микротексты, которые содержат изученную лексику и грамматику. Они тематичны. Далее тексты усложняются и увеличиваются в объеме (2,3, потом 4 абзаца). В текст включается все больше новых слов, о значении которых можно догадаться по корню и словообразовательным элементам, но новых слов не должно быть очень много, чтобы чтение не превращалось в пословную расшифровку текста.

Сначала даются элементарные тексты из учебников, потом начинают давать адаптированные тексты, извлеченные из художественных произведений. Неадаптированную литературу можно предлагать лишь на продвинутом этапе обучения. Наряду с этим постепенно вводится газетный и научный тексты.

При изучении темы «Фразеологизмы», когда два слова, сливаясь воедино, приобретают новое значение можно использовать прием «Облако слов». В готовом облаке зашифрованы фразеологизмы о труде и работе. Учащимся предлагается расшифровать фразеологизмы и объяснить их значение; иногда во время урока можно предложить им самим составить облако слов из фразеологизмов на определённую тему. Обучающиеся могут работать как в паре, так и индивидуально.

Использование приема «Облако слов» при изучении темы «Фразеологизмы»

Модель формирования и развития функциональной грамотности представлена в виде плодового дерева. Как любому дереву необходим уход, полив, тепло, свет, так и маленькой личности, приходящей к учителю на урок, необходимы знания, умения и навыки. Поливая это дерево, спланированной, чётко продуманной, слаженной работой, используя современные педагогические технологии, дерево незамедлительно даст плоды – замечательные, достойные восхищения, яблочки (ключевые компетенции, т. е. образованных, успешных, сильных, способных к саморазвитию, людей.

Дерево – функционально грамотная личность

Вода – педагогические технологии

Яблочки – ключевые компетенции

Лейка – учитель (для того, чтобы поливать, должен постоянно пополняться, т. е. заниматься самообразованием).

Как без полива дерево зачахнет, так и без грамотной компетентной работы педагога нельзя сформировать, добиться развития функциональной грамотности младших школьников. При условии успешности решения выше изложенных задач, мы выполним главную цель формирования функционально-грамотной личности, т. е. формирования в организациях образования интеллектуального, физически и духовно развитого гражданина. Сегодня, как никогда, обществу нужна личность, способная сделать свой выбор и нести за него ответственность. Специально подобранные задания, тесты, используемые на уроках литературного образования, способствуют формированию функционально-грамотной личности, нравственно и духовно богатой, которая способна к самоанализу, к самореализации, творчески и правильно подойти к решению задач, которые ставит перед каждым жизнь. Работа эта очень сложная, но очень важная, и её нужно проводить систематически. От этого зависит будущее наших детей: какими они вырастут взрослыми читателями, и какими людьми. Подтверждением сказанного могут

служить слова Сесиль Лупан: “Привить ребёнку вкус к чтению - лучший подарок, который мы можем ему сделать”.

Литература

1. Щукин А.Н. Практическая методика обучения русскому языку как иностранному. - М., 2003.

2. Иванова-Лукьянова Г. Н. Чтение вслух с опорой на пунктуацию. - М., 1988.

3. Акишина А. А., Каган О.Е. Учимся учить: для преподавателя русского языка как иностранного. 2-е изд., испр. и доп. — М.: Рус.яз. Курсы, 2002. — 256 с.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

М.Х.Косимова
преподаватель школы №35 Тайлякского района

Аннотация. В статье рассматриваются способы формирования читательской грамотности школьников в обучении русскому языку. Автором описываются приёмы формирование читательской грамотности учащихся, рассматривается теория решения изобретательских задач, приводится описание творческих приёмов.

Ключевые слова: формирование читательской грамотности, креативность, творческие задачи, развитие творческих способностей, читательские умения, развития личности, работы с текстом и информацией

Читательская грамотность сегодня рассматривается как один из самых важных параметров готовности к жизни в современном обществе. Успешное обучение в начальной и основной школе невозможно без сформированности у обучающихся читательской грамотности.

Формирование грамотного читателя, умеющего читать и анализировать большой объем информации, является мировой проблемой. Проведенные исследования PISA (международное сравнительное исследование образовательных достижений) подтвердили это экспериментально.

Научить пользоваться чтением как средством обучения — важная задача, ибо работа с учебными материалами требует не только владения технической стороной навыка чтения, но и содержательной, т.е. понимания разных по форме, структуре и логике текстов.

Усилия учителей должны быть направлены не только на формирование навыка чтения как необходимого условия полноценной читательской деятельности, но и на формирование и развитие читательских умений школьника. Именно читательские умения обеспечат школьнику возможность самостоятельно приобретать новые знания, а в дальнейшем создадут основу для самообучения и самообразования на последующих ступенях обучения.

Культура чтения, умение извлекать максимум информации из прочитанного - главные факторы, определяющие успешность развития личности в целом и являются составляющей развития читательской грамотности.

Рассмотрим несколько приемов, используемых на уроках русского языка для формирования читательской грамотности.

Для формирования смыслового чтения можно предложить задания на уровне слова:

1. Найди и прочитай 5 слов, начинающихся на букву Р

РАКЕТАРЫБААНАНАСДЕТИРЕБЯТАРАКДОМ РЯБИНА

2. Прочитай слова без лишнего слога: *кородава, сокабака, молгуклоко, сокрарока, машидамна, гошинрод и т.д.*

Также можно предложить прочитать слова, которые составлены из первых слогов (соловей, барабан, карамель); добавить в слова определенную гласную, чтобы получилось слово (грд, млк, мрз, млтк – в данном примере вставляем букву О); сложить слово из перепутанных букв (касоаб – собака).

3. В послебукварный период обучения чтению детям можно предложить следующее задание: прочитайте загадку, отбросив иностранные буквы:

DYUBHFEWPCXZЬSДUIGEFHRLЬSCQLUПZVИSTDAWRHDQOWЧIJЬZЮSGГR OLDPSFИWTJQ (Весь день спит, а ночью горит. Фонарь)

4. Для смыслового обучения чтению можно предложить следующее задание: Прочитайте пословицу правильно

Здоровому - грач не нужен.
Лес рубят – кепки летят.
Слезами морю не поможешь.
Старый круг лучше новых двух.
Ус - хорошо, а два лучше.
Труд кормит, а пень портит.

5. **Поиск в тексте заданных слов:** Восстанови стихотворение А. Барто. Выбери пропущенные слова (при этом детям предлагаем обратить внимание на то, что слова «грузовик» и «машина» являются одинаковыми по смыслу, т.е. синомичными).

Нет, напрасно мы решили
Прокатить _____ в _____.
_____ кататься не привык,
Опрокинул _____.

Также можно предложить детям более сложное задание *«Выбрать тех героев сказки К. Чуковского, которые НЕ приходили лечиться к доктору Айболиту».*

Начиная со 2 класса задание усложняется: задаются 1-3 слова, которые ребенок должен как можно быстрее найти в тексте. Вначале эти слова предъявляются зрительно, в дальнейшем - на слух. Желательно, чтобы слова встречались в тексте несколько раз. Отыскав их, ребенок может подчеркнуть их или обвести в кружок.

Это упражнение формирует способность схватывать целостные образы слов и опираться на них в задаче поиска. А также развивает словесную память. Особую пользу это упражнение приобретает, если ребенку последовательно предлагать различные слова в одном и том же тексте и при этом просить его проделывать это в максимально быстром темпе.

Возможно использование приема соревнования. Сталкиваясь с такими задачами, ребенок постепенно переходит от простого просмотра текста к его осмысленному прочтению с элементами запоминания некоторых слов.

6. **Прием «Тексты с "хвостами"»** - незавершенные предложения, которые ребенок должен будет закончить по смыслу. Примером может послужить рассказ Л.Н. Толстого «Жучка»:

Несла Жучка	её тень.
Глядь, в воде	что в воде не тень, а Жучка и кост
Пришло Жучке на ум,	кость через мост.
Она и пусти свою кость,	а своя ко дну пошла.
Ту не взяла,	чтобы ту взять.

7. **Приём «Чтение по частям».** Для этого приема предлагается использовать повествовательный текст. Сначала обучающимся по названию текста и по иллюстрации (при ее наличии) предлагается определить, о чём пойдёт речь в произведении. Затем текст читается по частям. После чтения каждого фрагмента обучающиеся высказывают предположения о дальнейшем развитии сюжета. Данный прием способствует выработке у обучающихся внимательного отношения к точке зрения другого человека и спокойного отказа от своей, если она недостаточно аргументирована или аргументы оказались несостоятельными.

8. Для формирования навыка способность извлекать необходимую информацию из книг можно предложить такое задание: Определи по обложкам справочные книги, из которых можно узнать много интересных фактов об окружающем мире.

9. **«Реклама книги»** Представьте книгу так, чтобы ее захотелось купить и прочитать. Эту работу можно провести иным образом. Предложить ребятам сделать закладку для книги, на которой нарисовать иллюстрацию из этой книги и написать несколько предложений, рекламирующих данное произведение.

10. **Прием «Создание диафильма»** На уроках литературного чтения используются иллюстрирование учениками изучаемого произведения. Этот вид работы позволяет детям почувствовать радость от необычного общения с книгой. Также учит делить текст на смысловые части, к которым надо нарисовать иллюстрацию. Хорошо проходит данный вид работы в группах.

11. **Приём «Драматизация»** предполагает изобразить мимикой и жестами одного из героев произведения, которого нужно отгадать детям.

12. **Приём «Крестики-нолики»**. Этот прием предполагает два вида работы:

1. Работа проводится в парах: один ученик «крестик», а другой «нолик». После прочтения произведения на этапе закрепления или при проверке домашнего задания ученики задают друг другу вопросы. В случае правильного ответа ученик ставит в игровое поле соответствующий ему знак. Побеждает тот, кто первым выстроит полный ряд своих знаков.

2. У каждого ребенка на парте лежит таблица с номерами утверждений. Учитель читает верные и неверные утверждения к тексту. Если обучающийся согласен, он ставит в таблице «х», если не согласен – «0».

13. **Приём «Ромашка вопросов».**

Класс можно разделить на шесть групп. Вопросы к тексту записываются на лепестках ромашки. Выделяется шесть типов вопросов:

1 лепесток - простые вопросы. Отвечая на них, нужно называть какие-то факты, вспомнить и воспроизвести информацию.

2 лепесток - объясняющие вопросы. Обычно объясняющие вопросы начинаются со слов: «Почему».

3 лепесток - уточняющие вопросы. Эти вопросы начинаются со слов « Верно ли, что…», «Если я правильно понял, то.»..

4 лепесток - оценочные вопросы. Оценочные вопросы направлены на выяснение критериев оценки тех или иных событий, явлений и фактов. «Почему это хорошо, а что-то плохо?», «Чем один герой отличается от другого?»

5 лепесток - практические вопросы. Эти вопросы направлены на установление взаимосвязи между теорией и практикой.

6 лепесток - творческие вопросы. В этих вопросах есть частица «бы», в формулировке вопросов есть элементы условности, предположения, фантазии, прогноза. «Чтобы бы изменилось, если бы…», « Как вы думаете, как будут развиваться события дальше?»

Развитие навыков работы с текстом и информацией становится одним из приоритетных направлений работы учителя в школе в реалиях современных требований к образованию. Для достижения высоких результатов в формировании читательской грамотности у школьников работа в этом направлении должна вестись целенаправленно, системно и непрерывно.

Литература:

1. Лупан С. «Поверь в свое дитя» https://dom-knig.com/read_177830-1#

2. Савенков, А.И. Методика исследовательского обучения младших школьников/ А.И. Савенков. - Самара: Издательство «Учебная литература», 2007. - 208 с.

3. Зобнина, М.А. Как пробудить у младшего школьника интерес к чтению? / М.А. Зобнина // Начальная школа. - 2007. - №8. - С. 35-43.

GIFTED EDUCATION STRATEGIES

H.N.Hakimov
"Samarkand Branch of the Institute of Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists"

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtidorli ta'lim strategiyalari, iqtidorli ta'limning maqsad va vazifalari, iqtidorli bolalarning alohida ehtiyojlari, iqtidorli bolalarga qanday ta'lim berilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. iqtidor, ta'lim, iqtidorli o'quvchi, dastur, identifikatsiya, malaka oshirish.

Аннотация. Эта статья содержит информацию о стратегиях одаренного образования, целях и задачах одаренного образования, особых потребностях одаренных детей и о том, как обучать одаренных детей.

Ключевые слова. талант, образование, одаренный студент, программа, идентификация, развитие навыков.

Separate studies conducted during the last few decades have demonstrated both the need for and the benefits of gifted education programs. Of special interest are the documented benefits that occur for all children when gifted education strategies and programs are extended to other students, as well. Simply stated . . . Gifted education works!

- **Why gifted programs are needed**
- Gifted and talented students and those with high abilities need gifted education programs that will challenge them in regular classroom settings and enrichment and accelerated programs to enable them to make continuous progress in school.

- **Acceleration** Educational acceleration is one of the cornerstones of exemplary gifted education practices, with more research supporting this intervention than any other in the literature on gifted individuals. The practice of educational acceleration has long been used to match high-level students' general abilities and specific talents with optimal learning opportunities.
- **Curriculum compacting**
- This important instructional strategy condenses, modifies, or streamlines the regular curriculum to reduce repetition of previously mastered material. "Compacting" what students already know allows time for acceleration or enrichment beyond the basic curriculum for students who would otherwise be simply practicing what they already know.
- **Grouping**
- The practice of grouping, or placing students with similar abilities and/or performance together for instruction, has been shown to positively impact student learning gains. Grouping gifted children together allows for more appropriate, rapid, and advanced instruction, which matches the rapidly developing skills and capabilities of gifted students.
- **Identification**
- Identification is a critical component of effective gifted education programming. One size does not fit all. In addition to using assessments appropriate to the services provided, different strategies may be needed to ensure students with high potential are identified.
- **Pull-out and other specialized programs**
- Programming options for gifted and talented students occur in a variety of ways, and research demonstrates the effectiveness of pull-out programs, specialized classes, and other special programs and schools and the curriculum these services use in raising student achievement.

The need for gifted education

All teachers want to give their students the best, most appropriate education. Your gifted learners have varied and unique needs that require multi-faceted gifted education to help them reach their full potential. To provide gifted learners with effective instruction, you must understand the rationale, principles and goals behind gifted education.

Rationale for gifted education

Your gifted students have characteristics that set them apart from average learners. Gifted students learn at a rapid pace, are often highly creative, and think in ways that are logical, abstract and complex. The typical classroom frustrates these learners as they wait for peers to catch up to them in learning content. These students require an educational program to suit their individual needs.

The benefits of gifted education go beyond your classroom. Gifted students often have lofty career goals and the ability to reach them. Our gifted learners become doctors, scientists, artists, researchers, musicians and more. As they pursue their careers, gifted students become adults who can make important contributions to society as a whole. Perhaps the strongest argument for gifted education is that meeting the needs of our most capable students has long-term positive effects on our society.

Principles of gifted education

You understand that your gifted learners are distinct from their peers. Unfortunately, if you're like many busy teachers, you may find yourself overlooking these children while you focus on aiding students in need of remediation. You and your administration need to keep in mind two key principles:

- Gifted children deserve the opportunity to fulfill their learning potential.
- Teachers need adequate training to provide an education that delivers this crucial opportunity.

If your school does not utilize ability grouping for gifted students, you may find yourself with a mixed-ability classroom that includes a gifted cluster, or small group of gifted students in

a non-gifted class. This grouping enables you to serve your gifted learners through small group instruction that challenges them and moves at their pace.

Teachers of gifted students need adequate preparation and training. Because of the unique characteristics of gifted children, you should be trained to understand these characteristics, identify gifted learners, and develop and differentiate a gifted curriculum. This involves crafting tasks and questions to challenge learners and foster critical thinking skills.

List of Literature

1. Alexander, L.G. Longman English Grammar Practice/ L.G. Alexander. - Longman LtD, 1999.
2. Copage, J. First Certificate Use of English/ J. Copage, J. Cook. - Longman Ltd, 2000.
3. De Devitis, G. English Grammar for Communication Exercises/ G. De Devitis, I. Mariachi, K. O'Mailey. - Longman, 1992.
4. Eastwood, J. Oxford Practice Grammar/ J. Eastwood. - OUP, 1999.
5. Evans, V. FCE Use of English I/ V. Evans. - Express Publishing, 2000.
6. Evans, V. FCE Use of English II/ V. Evans. - Express Publishing, 2001.
7. Foley, M. Advanced Learner's Grammar/ M. Foley, D. Hall. - Longman LtD, 2003.
8. Graver, B.D. Advanced English Practice/ B. D. Graver. - OUP, 1996.
9. Longman Language Activator. - Longman LtD, 1995.
10. Oxford Advanced Learner's Dictionary. - OUP, 2005.

Internet resources

1. www.uzedu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.yandex.ru

4- SINF O'QUVCHILARINING BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPITENSIYASINI SHAKLLLANTIRISH

O.X.Tuxtayerv
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari aks ettirilgan. O'qish darslarida va sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning o'ziga xosligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS tadqiqoti, ta'lim, badiiy asar tahlili, kompetensiya, individual yondoshuv, dars, sinfdan tashqari o'qish, o'qish savodxonligi, samaradorlik, natija.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, xalqaro tadqiqotlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS-(Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqiotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqaslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Mazkur xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish o‘quvchidan o‘qish savodxonligiga erishishni, matnni ongli o‘qish bilan birgalikda, tahlil qila olish, mantiqiy mulohaza yuritib o‘z munosabatini bildira olish kabi xususiyatlarni talab etadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash va badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ijobiy hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limining davlat ta’lim standartida belgilab berilgan “Umumiy ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga keng dunyoqarash, aqliy kamolotga erishish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmog‘i lozim”[1.15] ekanligi belgilab berilgan.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish” fanining o‘quv dasturida fanga oid kompetensiya sifatida adabiy nutqiy kompetensiya bilan birgalikda badiiy asarni tahlil qilish kompitensiyasini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Badiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuni esa 3 va 4- sinflarda o‘qish darslarining kattagina qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Suhbatlar, hikoya qilishlar, dastlabki o‘qishlar o‘qilgan matnlar mazmuni bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi, mavzuga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarni his-hayajon bilan o‘qishga tayyorlashi va asarni to‘g‘ri tushunishga yordam berishi zarur.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

4- sinfda badiiy asarni tahlil kompetensiyasining mazmuniga dars jarayonida “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida keltirilgan xalq qo‘shiqlari, ertak, topishmioq, tez aytish, maqol, masal, rivoyatlar asosida o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho berish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini tushuna olish va izohlay olish, xalq og‘zaki ijodi namunalari va boshqa asarlarni bir-biridan farqlay olish kiritilgan. Darslikka kiritilgan “Vatanimiz o‘tmishidan” nomli bo‘limning mazmuniga kiritilgan mavzular bo‘yicha shakllantiriladigan badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuniga o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho bera olish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini izohlay olish kabilar kiritilgan.

O‘qish darslari orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslari ham keng imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi va o‘qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy – adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsa, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish, tanish bo‘lmagan muallifning kitoblari, muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundarijasi va rasmlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish,

bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurini yuksaltirish o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O‘qish darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllantiriladi. Bu esa pedagoglar zimmasidagi mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, intellektual jihatdan taraqqiy etgan, hayotiy kompetensiyalari shakllangan yosh avlodni tarbiyalashdek dolzarb vazifani ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.
2. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 304 b.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017/2020. – 216 b/160 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IJODIY TOPSHIRIQLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

H.Qoraboyev
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda darslarni tashkil etishning o‘ziga xos samarali jihatlari sharhlangan. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik - shart sharoitlari o‘rganilgan. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, pedagogik hamkorlik, ijodiy topshiriq, tarqatma material, testlar, savollar, samarali natija.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida xalq ta’limini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Farmonda “...kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish zarurligi takidlangan. Mazkur vazifani samarali hal qilishda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

O‘qish va o‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o‘z aksini topdi. O‘qish faqatgina ta’limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o‘zlashtiriladigan qobiliyat, deb hisoblanmay qo‘ydi. Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o‘z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko‘nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta’riflanadi. Jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish maqsadida inson uchun bilim olish, barcha ma’lumotlarni aniqlash, tushunish va aks ettirish qobiliyati juda muhimdir.[3.45b] O‘qish savodxonligi nafaqat ta’lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

O‘qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma’noni o‘zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog‘lashni o‘z ichiga oladi. U metakognitiv kompetensiyalarni, ya’ni matn

bilan ishlashda kerak bo‘ladigan turli strategiyalarni bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. Metakognitiv kompetensiyalar o‘quvchi fikrlaganda, kuzatganda va o‘zining o‘qish mashg‘ulotini ma’lum maqsadga yo‘naltirganda faollashadi.[4.56b]

“Savodxonlik” atamasi biror shaxsning o‘rganish, foydalanish, yozilgan va nashr etilgan ma’lumotni yetkazish kabi salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, bu atama, odatda, shaxsning ma’lum bir fan yoki sohaga oid bilimini anglatadi. Mazkur ta’rif “O‘qish savodxonligi” atamasini yoritib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘plab vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun o‘qishning faol, maqsadli va qulay shaklini ifodalash fikriga mos keladi.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilina digan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

O‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Pedagogika fanlari nomzodi U. Marasulova ham o‘z ilmiy izlanishlarida mazkur muammoga alohida to‘xtaladi. “Ta’limning o‘rta bosqichlaridan boshlab, – deb yozadi olima, – o‘quvchilar ma’lum adabiy tayyorgarlik bosqichidan o‘tadilar, qator nazariy tushunchalarni shakllantiradilar. O‘qituvchilar o‘quvchilarni bu davrga tayyorlashni boshlang‘ich sinflardan boshlab, bosqichma-bosqich amalga oshirib borishlari darkor. Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarni asar muallifi tasvirlagan voqea-hodisalar ichiga olib kirishga, o‘qiganlarini tasavvur qilishga, ko‘z o‘ngida jonlangan manzaralarni og‘zaki nutqi orqali so‘zlab berishlari uchun sharoit yaratishga o‘qituvchi intilmog‘i lozim. Shu davrda badiiy adabiyot obrazlar vositasida kitobxonni fikrlatuvchi, unga zavq beruvchi so‘z san’ati ekanligi haqidagi nazariy fikr shakllantirilishi zarur. O‘quvchilarni xilma-xil obrazlarni ko‘z oldiga keltirib, taqqoslab, qiyosan fikr bildirishga undash – bu bosqichning asosiy talablaridan biridir” [4. 225-226b] deb o‘qish savodxonlik masalasining nazariy jihatlariga oid qarashlarini ifodalaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri bu dars jarayonida ijodiy topshiriqlardan maqsadga muvofiq foydalanishdir. 1-2- sinflarda milliy o‘quv dasturi asosida joriy qilingan o‘quv fanlaridan ishlab chiqarilgan o‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar shakllantiruvchi baholashda eng qulay vosita hisoblanadi.

Ijodiy topshiriqlarni tayyorlashda e’tiborga olish lozim bo‘lgan unsurlar va har bir unsurning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

a) yo‘riqnoma

- topshiriqlarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligini tartib bilan tushuntiring;
- har bir ko‘rsatmaga raqam qo‘ying. Ko‘rsatmaga amal qilish jarayonida uni osonroq topish va tartibni aniqlash uchun bu muhim
- savollarni raqamlang;
- qalin yoki kursiv shakldan foydalanib muhim o‘rinlarni ajratib ko‘rsating;
- o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘zlardan foydalaning hamda gaplarning qisqaroq bo‘lishiga e’tibor qarating.

b) diagramma, grafik va vizual effektlar

- sodda effektlardan foydalaning;
- diagramma, grafik va ramslarni sarlavhalang (bu o‘quvchi tomonidan topshiriqni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi);
- imkon boricha rangli tasvirlardan foydalaning (ranglar soni 4-5tadan oshmasligi tavsiya etiladi).

d) sahifa tartibi

- o‘qishni osonlashtirish uchun asosiy va tagsarlavhalardan foydalaning;
- har bir sarlavha va sahifani raqamlang;

- tarqatma topshiriq sahifasini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirib oling;
- zarur o‘rinlarda harf hajmlarini turlicha qo‘llang;
- ko‘rinishning qiziqarli bo‘lishiga harakat qiling.

e) tajriba

- o‘zingiz uchun maxsus, topshiriqlarning javobi aks etgan tarqatma topshiriqni tayyorlang;
- butun sinfga joriy qilishdan oldin bir-ikki o‘quvchida sinab ko‘ring. Agar buning imkoni bo‘lmasa shaxsiy tajriba va intuitsiyangizga tayaning.

O‘qish savodxonligini rivojlantirib borish jarayonida o‘quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, xususan, badiiy matnlar bilan ham. Matn o‘qildi, dars tugadi shu bilan bu matn o‘rganilgan deb hisoblanib keyingi darsda boshqa matnga o‘tib ketilaveradi. Aslida bunday bo‘lmasligi kerak. Matn ustida amalga oshiriladigan har qanday harakat yaxshiroq o‘qishga, tilning turli jilolanishlarini, ma’no nozikliklarini yaxshiroq his qila olish imkonini oshirib boraveradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini tizimli ravishda shakllantirib borish orqali yuqori darajada o‘qish savodxonligiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

3. Марасулова У. Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг адабий- назарий тушунчаларини шакллантириш ва такомиллаштириш. Пед.фан.номз. дисс. –Т.: 2007. – Б 25-26.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009. – 424 b.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ТАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА

Н.Р.Зайналов, М.А.Вафаев, П.Насриддинова
Самаркандский филиал ТУИТ им. Мухаммада Хоразмий

Аннотация. В статье анализируются состояние образования в Узбекистане, описаны проблемы в сфере образования как глобальные, так и локальные и предлагается создание новой образовательной среды для улучшения качества преподавания.

Ключевые слова. Образование, Аль-Фараби, Глобальные проблемы.

Суверенное узбекское общество после приобретения независимости идёт по пути строительства демократического, правового государства. В этих условиях стремительно растет национальное самосознание и тяга к своим идейным истокам. Как отметил Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов, «Мы должны, брать из прошлого только то, что сегодня возвеличивает народ, поднимает нас в своих глазах. Это гуманистическое начало, которое позволяет нашей нации, нашему народу чувствовать себе уверенно в сообществе. Вместе с тем второе, что должно быть связано с этим, - это постоянное стремление осваивать высоты мировой науки и мысли».

Исторически так сложилось, что каждая нация имеет свои особенности, характерные свойства, нравственные нормы, обычаи, традиции и образ жизни. Исходя из этого, каждый народ имеет свою культуру, которая неизбежно оказывает воздействие на воспитательный

процесс. Следуя каким-то указаниям, мы стремимся воспитывать подрастающее поколение в духе прогрессивных традиций и передовой морали, прививая ему положительные качества характера, внедряя в жизнь хорошие народные обычаи. В связи с этим встает проблема оценки этих явлений. Почему мы одни качества принимаем за положительные, а другие нет?

По мере развития общества, научно-технического прогресса и общественных отношений возникают новые, подчас достаточно сложные задачи в системе воспитательной работы. На каждой ступени своего развития общество ставит перед семьей, школой и другими образовательными заведениями все новые и новые задачи. Эти особенности образовательной работы на современном этапе требуют научно-исследовательской работы по поиску и выявлению новых, более совершенных и эффективных способов воздействия на умы людей, для успешного освоения материала и воспитания молодых людей.

Педагогические взгляды классиков восточной литературы, в течение многих веков завоевывавшие умы многих ученых, имеют свои особенности и охватывают все стороны воспитания. Эти произведения призывают воспитывать детей и юношество в духе гуманизма и высокой морали; прививать у них скромность, вежливость, чуткость, трудолюбие, щедрость, чувства товарищества и дружбы; учат их мужеству, ненависти к врагам, беззаветной любви к родине и самопожертвованию во имя ее процветания. Классики постоянно говорили также о необходимости овладения науками, физиологическом и физическом развитии личности.

Здесь достаточно привести великого ученого и философа Аль-Фараби (870-950). Аль-Фараби глубоко и оригинально видел ряд сущностных педагогических проблем. Цель воспитания, по Фараби, -подвести человека к совершению добрых дел. Осознать, что именно является добрым или злым, помогают знания. Большое значение в формировании человека, его личности он предавал воспитанию, особенно духовному и нравственному. Определяя различные черты характера и нравственные достоинства: Смелость, мужество, дружелюбие, щедрость, остроумие, правдивость и т.д., он считал их результатом воспитания и самовоспитания личности.

В противовес идеям аль-Фараби, анализ ситуации в различных странах показывает, что приверженцы либерализма и гуманизма не просто разрушает народы других стран, но и целенаправленно пытаются уничтожить систему образования, а это приводит к ликвидации знаний. Сознательное ухудшение образования, ликвидация производства (постиндустриальное общество) неизбежно приводит нацию к деградации, но, по замыслу стратегов гуманизма, именно на почве отказа от национальных корней, языка, культуры и религии, должно произрасти общество, готовое принять те нравственные устои и идеологию, которую принесет цивилизованный мир. Здесь следует заметить, что по конституции в нашей республики запрещена идеология («Никакая идеология не может устанавливаться в качестве государственной» статья 12). Раз у нас нет идеологии то, каждый из нас должен для себя решить задачу, где ставить запятую в фразе “Говорить нельзя молчать”.

Рассмотрим некоторые глобальные проблемы в сфере образования, которые касаются в том числе нашей страны.

1) Платность. Одна из проблем образования это её платность. В нашей республики государство гарантирует получение бесплатно только общего образования (Конституция Республики Узбекистан, Статья 41). Коммерциализация образования привела к расширению неравенства возможностей и к закрытию доступа к обучению для большой части нашей молодёжи.

2) Тестирование. В Национальной Программе по Подготовке Кадров утверждается что будут внедрятся прогрессивные методы оценки уровня знаний абитуриентов и студентов на основе тестирования и рейтингового контроля. Прошло почти 20 лет после

принятия этой программы и мы имеем возможности оценки этого “прогрессивного” метода.

3) Болонский процесс. Именно на основе базовых принципов Болонского процесса и создавалось новое поколение образовательных стандартов с их ориентацией на компетенции и с обязательным подключением к их разработке профессиональных объединений работодателей.

4) Отчетность. Чтобы получить определённый статус на рынке научно-инновационных и образовательных услуг и произвести «капитализацию» интеллектуального и «человеческого капитала», вузам нужны исключительно формальные показатели. Следствием такой гипертрофированной установки на стандартизацию и регламентацию стало повышение роли всех видов отчётности, приобретающей самодовлеющий характер. Это привёло к активной бюрократизации образовательной сферы, представляющей собой общемировую тенденцию.

5) Оценки научного труда. Критерии научного труда претерпели резкую деформацию, став формальными. В период реформ в науку внедряются оценки труда учёного, давно распространённые на Западе: банальный подсчёт числа опубликованных статей. Число публикаций, не учитывающее их качества, не характеризует учёного, этот метод породил в науке Запада множество негативных явлений.

6) От частного к общему или наоборот. Речь идёт о демонтаже образования, потому что теперь вместо образования внедряется система по наполнению человека определёнными компетенциями. Само же образование упраздняют. Все 90-е годы его меняли, постепенно устраняя то одно, то другое. Вначале заменили знания компетенциями, потом ввели тест, потом Болонскую систему. Потом начали приватизировать и переводить на платные определённые услуги. Всё это делалось постепенно.

К чему привило эти новшества, например, учителям некогда учить детей, в их обязанности не входит теперь учить, они должны детей просто направлять, а мы родители, работающие, ведущие домашние дела, далеко не профессионалы, должны сидеть с детьми практически круглосуточно с домашними уроками.

Ребром стоит проблема с учебниками. Сейчас проблема взрослого состоит в том, чтобы понять суть задачи. Настолько все перевернуто с ног на голову, что человек с высшим образованием должен несколько раз прочитать условие задачи, чтобы просто понять что надо сделать и то не факт что понял правильно. Кажется, что составители современных учебников, ради авторских гонораров и каких-то коррупционных схем просто переводят западные книги.

Ну и конечно, нельзя не упомянуть количество учеников в классе! Ребенку интересно тогда, когда он в зоне видимости учителя, когда учитель постоянно взаимодействует с детьми, а не говорит новую тему на аудиторию где больше 30-ти человек.

Таким образом, исходя из вышеизложенного предлагаются следующие предложения:

- Для повышения статуса профессии необходимо освободить преподавателей от непрофильной и несвойственной им нагрузки.
- Повысить престиж педагогического образования.
- Подготовка кадров должна быть одним из приоритетов образовательной системы.
- Необходимо снижать объем проверок учебных заведений.
- Необходимо снизить объем бумажной нагрузки в учебных заведениях, объема бюрократии и наведение порядка с учебными материалами.
- Вернуть любовь к детям.

Литература

1. Бальсевич, В.К. Очерки истории школы и педагогической мысли Древнего и Среднего Востока: учебник / В.К. Бальсевич. - М.: Эксмо, 2001

SHARQIY UYG‘ONISH DAVRIDA ADABIYOT VA SAN`AT

G.A.Abdullayeva
Samarqand davlat universiteti Kattaqurg‘on filiali maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq uyg‘onish davri va adabiyoti, uning taraqqiyot bosqichlari hamda bugungi kundagi san`at va adabiyot haqida gap boradi. Uyg‘onish jamiyatni yuksaltirish uchun xizmat qiladigan dunyoviy masalarini. Asosiy o ‘rinni egallaydi.

Kalit so‘z; **renessans, uyg‘onish davri, san`at, adabiyot, Ilm fan, uchinchi renessans**

Annotatsiya

В данной диссертации период Восточного Возрождения и его литература, его развитие сцены и современное искусство и литература. Светские вопросы, которые служат возвышению общества

занимает главное место.

Ключевое слово; ренессанс, ренессанс, искусство, литература, наука, третий ренессанс

Abstract

Eeastern Renaissance and literature in this thesis, its progress it talks about the stages and the art and literature of today. The awakening of the secular tables that serve to elevate society occupies the main place.

Key word; Renaissance, Renaissance, art, literature,science, third Renaissance

Sharq uyg‘onish davri millatimizning ma’naviy hayotida ulkan o‘rinni egallagan.Shu ma’noda sharq allomalarini uyg‘onish davri adabiyoti va san`ati haqidagi fikrlari e`tiborga loyiqdir. Uyg‘onish davri o‘zi nima?, u qanday paydo bo‘lgan degan savollarga javob topamiz. Uyg‘onish davri (Renessans)-Markaziy osiyo, Eron, Xitoy, G‘arbiy yevropada IX-XII va XV asrlarda yuz bergan alohida madaniy tafakkur taraqqiyot davri. Renessas atamasi dastlab Italiyadagi ma’daniy ma’naviy yuksalishga nisbata qo‘llanilgan. U o‘rta asr turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholangan. Renessansning asosiy belgilari; tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste`dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, antik davr madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish, cherkov sxolastikasidan qutilib, adabiyot va san`atda dunyoviy go‘zallik, hayot taronalarini qizg‘in kuylash, inson erki uchun kurashish. Buning natijasi o‘laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug‘ badiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarkava Dante, rassom Jotto, adib va mutaffakkirlar Bokkachcho, Aristo, Tasso, Byome Renessans g‘oyalarini jarchilari bo‘lib maydonga chiqdilar.

Ammo renesans ya’ni Uyg‘onish davri faqat yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, osiyo markazida joylashgan Movarrounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrni band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A.Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq uyg‘onish davrida Yevropa Uyg‘onish davrining asosiy belgilari mujassam; jo‘shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bamisli asarlarni yaratilganligi shundan dalolat beradi. Sharq uyg‘onish davri ham allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutaffakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al- Farg‘oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug‘bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari taffakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqdi. She`riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulaloa Marriy, Abdulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy,

Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o‘lmas asarlar yaratilardilar, ishq muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamolliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi. Uyg‘onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan “Ming bir kecha”,“Kalila va Dimna”, “Qirq vazir”,”To‘tinoma “, “Sindbodnoma”, “Jome`ul hikoyot” kabi qiziqarli sarguzashtlarga to‘la, shavqu-zavq qo‘zg‘atadigan asarlarining ko‘paygani, ikkinchi tomondan “Xamsa” largada bo‘lganiday, insoniy ideallarni mujassam ertgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g‘oyalarning tasvirlanishidir. Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiyati, davatchiligi bo‘lmagan xalqda Uyg‘onish davri ham bo‘lmaydi. Markaziy Osiyoda o‘z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur’on ma’rifati bilan uyg‘unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvur ta’limoti “ishroq” falsafasida namoyon bo‘lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta’limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma xillik rivojlandi. Sharq uyg‘onish davri vakillari o‘z xalqlarining keng madaniyati bilan birga yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan.

Bugungi kundagi adabiyot va san`at;O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda imu fan, san’at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘zi jodida erishgan yutuqlari jahon tamaddudining rivojiga hissa qo‘shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. O‘zbekiston tarixning birinchi renessansi-samoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamaltoshi bo‘ldi.I kkinchi renesans-Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat movorounnahr balki butun markaziy osiyo o‘z taraqqiyotning yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Kutiladigan natija; O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining; ‘’xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan zamonda O‘zbekiston yangi bir uyg‘onish–uchinchi renesans davriga poydevor yaratilmoqda’’,- degan so‘zi yangradi. Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o‘zimizning milliy o‘zligimizni anglash, boy tarixiy-ma’naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag‘zini chaqish va uni ro‘yobga chiqarishga intilgan bo‘lsak, endilikda xalqimiz jipslanib “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” g‘oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, ungaxosham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e’tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un bo‘lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o‘zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o‘sishi bois, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas’uliyati o‘zgardi. Ayniqsa, fan sohasiga qaratilayotgan alohida e’tiborning zamirida chuqur ma’no bor.

Fan–bu tafakkur bo‘lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlab beruvchi ustuvor omillardan biridir. Fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiy etadi. Fanga bo‘lgan e’tibor inson tafakkurini o‘stirish va ulg‘aytirishga xizmat qiladi. Jamiyat tafakkuri o‘ssa, madaniyat va san’at sohasi hammana shu talablarga hamohang ravishda o‘sadi va taraqqiy etadi. Jahon ilmiy hamjamiyatining e’tirof etilishicha, O‘zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma’naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo‘ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o‘z zamonasi balki, keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

Xulosa qilib aytganimizda, Davlatimiz rahbari hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon deb e'lon qilganligining zamirida qat'iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar. Zero oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqlariga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Uyg'onish davri O'ZME. U-U-harfi. Birinchi jild.Toshkent.2000-yil.

2.Xalq so'zi.Oydin Abdullayeva oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.''Adolat'' SDP fraksiya a'zosi.

3.Xayrullayev M.Uyg'onish davri va Sharq mutaffakkiri.T.1971

4.Komilov.N Tafakkur karvonlari.T.1999

5.Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan (10-15-asrlar).T.1970.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL O'SISHNI TA'MINLOVCHI KO'NIKMALARNI SHAKILLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI

K. Suvanova
SVPYMO'MM o'qituvchisi
Z.Gulyamova
Samarqand shahar 33-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada ta'lim tizimida olib borilgan va olib boriliyatgan islohotlar tahlili, maqsadlari, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, bunda tasviriy san'at predmetining o'rni, ta'lim-tarbiyaning muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlarida bu vazifani amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi*

Tayanch so'zlar: *Tasviriy san'at, ijodkorlik, ijodiy tafakkur, ijobiy munosabat, iqtidorli, intelektual, barkamol avlod, layoqat, estetik did, dizayn*

XXI asrga kelib jahon miqyosida ta'lim tizimiga qo'yillayotgan talablar «inson kapitali» omili va uni shakllantirish bo'yicha kompleks ijtimoiy vazifalar bilan uzviy bog'langan holda qayta tashkil qilinmoqda. O'sib kelayotgan yoshlardan na faqat ularning ta'lim huquqini ta'minlash bo'yicha barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, balki aynan ularning ichidan zamonaviy jamiyatlar keskin iqtisodiy o'sish jarayonini, bugungi taraqqiyotning yangi texnologik yo'nalishlari, raqamlashgan jamiyatlarning kelgusi rivojini ta'minlab bera olish layoqatiga ega bo'lgan istiqbol avlodni tarbiya qilish vazifasi yuklanmoqda. Binobarin, bugungi kundagi xalq ta'limi tizimi noyob iste'dodlarni yetishtirib berish jarayonidan iborat bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa bolalik davridan boshlab intellektual o'sishni ta'minlovchi ko'nikmalarni, xususan badiiy-estetik tasavvur, kreativlik va ijodiylikni rivojlantirish taqozo etiladi. Yangi g'oyalarning vujudga kelishi va amaliyotga joriy etilishi aynan bolaning ijodiyligini ta'minlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab o'quvchilarida ijodiylikni rivojlantirish bugungi davrimizning eng dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

Dunyo bo'yicha ijodiylik masalasiga iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yangi, avvallari umuman mavjud bo'lmagan original hamda ijtimoiy ehtiyoji juda baland bo'lgan yangi tovarlarni, masalan, feysbuk, gugl, instagram, telegram kabilarga o'xshagan yaratish, ularni dunyo bozoriga taklif etish va jamiyatlar hayotini tubdan o'zgartirish muammosi nuqtai nazardan qarash kuchayib bormoqda. Yangilik yarata olish qobiliyati va layoqati milliy boylik sifatida qadrlanmoqda. Yangilik yarata olishning asosida esa aynan bolaning ijodiyligini ta'minlash turishi oydinlashmoqda. Shu bois, ijodiylikning asosida natijadorlik va samarani oldindan bashorat qila olish, ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qila bilish, barcha o'z g'oyasi atrofida birlashtirib, jamiyatni bir holatdan ikkinchi holatga olib chiqish negizi sifatida baholash kuchaymoqda. Shunga ko'ra, ta'limning bosh mazmuni bugungi kunda ma'lum bilim, malaka va

ko‘nikmlarni egallash bilangina cheklanmasdan, balki etik-estetik tasavvurlar, kuzatuvchanlik, mohiyatni ko‘ra bilish, qiyin vaziyatlar yechimini topish, ijodiy potensialga ega bo‘lgan shaxsni yaratishdan iborat qilib belgilanmoqda.

O‘zbekistondagi bugungi kundagi maktab ta’limi borasidagi islohotlar jarayoni ham tub o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovasion shakllari va usullari joriy etish, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini tatbiq etish qatorida o‘quvchilarda aynan ijodiylik ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish zarurligi ham belgilab olindi. Ijodiylikni rivojlantirishda esa tasviriy san’at namunalarining, rasm chizish layoqatlarining ahamiyati juda yuqoridir.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflardan boshlab tasviriy san’at darslariga alohida e’tibor qaratish lozim chunki yosh avlodni har taraflama komil inson qilib tarbiyalashda tasviriy san’at darslari muhimdir. Boshlang ‘ich sinlarda o‘quvchilarni ijodkorligini shakillantirish amalga oshishi uchun bizning kadrlarimiz ham yetuk bo‘lishi va o‘z kasbining ustasi bo ‘lishi kerak bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Ta’lim innovatsiyalari va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari”.Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent,2012 yil, 26 iyun.

2.Yo‘ldosheva N.”Darslarda interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari”. “Xalq ta’limi” jurnali,2009 yil, 3-son.

3.Hasanov R. “Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”. Toshkent,”Fan” nashriyoti,2004 yil.

4.Hasanov R. “Tasviriy san’at asoslari”. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2009 yil.

5. B. Boymetov. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san’at to‘garagi. T., 1995

6.S. Uralov. Mo‘jiza yaratish san’ati. T., “Mehnat”, 1996 y.

7. N. Oydinov. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. T., “O‘qituvchi’, 1997yil.

8. R. Xasanov. Tasviriy san’at asoslari. T., G‘.G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009 y.

9. 3. R.Xalilov Akvaryel Izdatyelstvo “Navruz”- 2013

10. 1. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York.

MATEMATIKA TA’LIM TIZIMIDA “GEOGEBRA” DASTURIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

S.S.Umarov
Samarqand VPYMO‘MM o‘qituvchisi
G.M.Donabayeva
Jomboy tumani 46 - maktab o‘qituvchisi,

Annotatsiya*: Maqolada matematika o‘qitishda “GeoGebra” o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan. Masalalalarga STEAM yondashuvga doir masalalar tahlil qilib berilgan.*

Аннотация*: В статье представлена информация о роли «GeoGebra» в обучении математике. Анализируются вопросы, связанные с STEAM-подходом к проблемам.*

Annotation*: The article provides information about the role of "GeoGebra" in teaching mathematics. The issues related to the STEAM approach to problems are analyzed.*

“GeoGebra” - bu arifmetika, algebra va geometriya yaxlit holda birlashtiruvchi dastur bo‘lib u yordamida biz shakl va chizmalarni nuqtalardan, segmentlardan va chiziqlardan yaratishimiz mumkin. Hosil bo‘lgan figuralardan turli xil geometrik formulalarni tiklashga undash va shu bilan kerakli tushunchalarni yaxshiroq o‘rganish yoki o‘rgatish foydalanishimiz mumkin. “GeoGebra” nafaqat o‘rganish yoki o‘rgatishda foydalanishimiz, shuningdek, xuddi

shu dinamik muhitda hisob va algebraik amal va masalalarni tahlil qilishda foydalanishimiz mumkin.

“GeoGebra” – bu o‘quvchilar, talabalar hamda o‘qituvchilar foydalanishiga mo‘ljallangan uchun matematik dastur. Geometriya, algebra, ma’lumotlar statistikasi va hisob-kitoblarni dinamik illyustratsiyali ravishda grafik, analitik va elektron jadvallar bo‘yicha animatsion yozuvlarga birlashtiradi. GeoGebra, erkin foydalanish darajasi hamda zamonaviy interfeysi hamma auiditoriya foydalanuvchilari mos dastur hisoblanadi.

“GeoGebra” dasturidan matematikani, tabiiy fanlarni, muhandislikni, san’atni va texnologiyani birlashtiradigan didaktik ko‘rgazmaviy manba bo‘lib bu beshta fanni hamohanglikda uyg‘unlashtirib yaxlit bir yondashuv hosil qiladi. Bu yondashuvni STEAM ta’limotida (STEAM: Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) tahlil qilamiz va bu o‘rganish va o‘qitishning asosiy va klassik masalasi uchun kuchli va innovatsion dastur sifatida o‘qituvchi va o‘quvchilarga taklif etamiz.

Masalalalarga STEAM yondashuv. Avtoturatgohda mashinalar uchun kirish joyini loyihalash masalasi. Masalaga talab - mashinani zarar yetmastdan avtoturargohda joylashtirsh kerak.

Asosiy muammo. Siz arxitektorsiz va sizning vazifangiz - ko‘chadan avtoturargohgacha bo‘lgan kirish yo‘lini loyilasini chizish. Buning uchun, rasmda ko‘rsatilganidek, avtoturargohni bog‘laydigan tekis qiyalikni loyihalash kerak.



1-muammo. agar mashinaning g‘ildiraklari radiusi 8 sm bo‘lsa va g‘ildiraklar markazlari orasidagi masofa 72 sm bo‘lsa, mashina 34º qiyalikdan o‘tib keta oladimi?

Ushbu va keyingi bir nechta vazifalarni o‘rganish uchun siz quyidagi havoladagi dinamik fayldan foydalanishingiz mumkin:

http://www.math.bas.bg/omi/cabinet/content/bg/html/d22179.html

2-muammo. Jadvalda ko‘rsatilganidek, turli xil o‘lchamdagi uchta mashinalar mavjud:

Mashinalar	G‘ildiraklar radiusi	G‘ildirak markazlari orasidagi masofa
M1	8 cm	72 cm
M2	10 cm	99 cm
M3	13 cm	111 cm

Qanday burchakdagi qiyalikda uchta mashinalar zarar yetmasdan o‘ta oladilari?

3-muammo. Agar mashina g‘ildiraklarining markazlari orasidagi masofa 72 sm bo‘lsa, 34º qiyalikni o‘tish uchun unga berilishi kerak bo‘lgan g‘ildiraklarning minimal radiusi qancha bo‘ladi?

4-muammo. G‘ildirakning radiusi 8 sm va qiyalik 34º ni hisobga olgan holda, avtoturargohda mashinani qo‘yish mumkin bo‘lgan g‘ildirak markazlari orasidagi maksimal uzunlik qancha?

Shu kabi misol, masala va muammolarni “GeoGebra” dasturidan foydalanib ishlansa o‘quvchilar uchun ishlanish yo‘li qiziq va oson bo‘ladi.

"GeoGebra" hamjamiyati ayni paytda dastur faol ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Ishlab chiquvchilar maxsus manbani – "GeoGebra bases" ni yaratdilar, unda dasturiy ta'minot foydalanuvchilari o‘z takliflari, tavsiyalari va tayyor loyihalari bilan bo‘lishishlari mumkin. Dasturning o‘zi singari, ushbu manbada taqdim etilgan barcha loyihalar mutlaqo bepul va ular nusxalanishi, sizning ehtiyojlaringizga moslashtirilishi va tijorat bo‘lmagan maqsadlar uchun cheklovlarsiz ishlatilishi mumkin. Ayni paytda resursda 300 mingdan ortiq loyihalar joylashtirilgan va ularning soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda.

Matematikada masalalarni umumta'lim maktablarda yanada kengroq, batafsilroq ko‘rib o‘tish hozirgi zamon talablaridan biridir. Shu nuqtai nazardan ushbu yondashuvdan jumladan sanoat, qishloq – xo‘jalik, iqtisodiyot qo‘shimcha mashg‘ulotda, matematik to‘garakda, fakultativ kurslarda hamda maxsus kurslarda foydalanish mumkin deb xulosa chiqaramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. www.geogebra.com - Geogebra dasturi sahifasi
3. http://www.math.bas.bg - Geogebra dasturidan tuzilgan misollar jamlanmasi sayti
4. Juraeva N.V. "Planimetriyani geogebra dasturi asosida o‘rganish"- Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 2021

OMMAVIY MADANIYATNING SALBIY OQIBARLARI VA UNI OLDINI OLISHNING AHAMIYATI

N.X.Shukurova
Samarqand viloyati PYMO‘MM Psixologiya, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi o‘qitiuvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bugungi kunda eng global va dolzarb muammolardan biri, ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlarining tobora kuchayib borishi va yoshlarimizning axloqiy madaniyatiga salbiy ta'sirini oldini olish masalalari ochib berilgan.

Bizga ma'lumki bo‘gungi kunga kelib globallashuv jarayonlari ommaviy madaniyatni jadallashtirmoqda. Bu niqob ostida ahloqiy buzuqlik, zo‘rlik g‘oyalarini tarqatish, boshqa xalqlarning asrlar davomida sayqal topib kelayotgan milliy an'ana va qadriyatlariga hurmatsizlik, bepisandlik, ularni yo‘q qilishga qaratilgan tahdidlar har qanday ma'naviyati to‘kis kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Yurtimizga chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi natijasida nafaqat yangiliklardan xabardor bo‘layapmiz, balki ularda yashiringan, mentalitetimiz, qadriyatlarimizga zid g‘oyalarga ham duch kelayotganimiz bor gap. Oqibatda "Ommavimy madaniyat" san'atimizga, qadriyatlarimizga, kiyinish madaniyatimizga, tarbiyamizga o‘z salbiy ta'sirini ko‘rsatmoqda. Qayd etilganidek, bugungi dunyoning ma'naviy qiyofasiga nazar tashlasak ahloqsizlikni, madaniyatsizlikni, ma'naviyatsizlikni erkinlik deb bilish, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar ma'naviy hayotga, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda.

XXI asrning katta muammolaridan biri «mafkuraviy ta'zyiq»dir. Uning yoshlarga yetkazayotgan ta'sirlari ko‘pgina davlatlar qatori mamlakatimizni ham chetlab o‘tmadi. Fan va texnika taraqqiy etgan ushbu asrda, ayniqsa, axborot texnologiyalari aql bovar qilmaydigan darajada rivojlanib bormoqda. Shuning bilan birga "Ommaviy madaniyat" zararlari ham kirib kela boshladi. Internet tarmoqlari, zamonaviy telefon va planshetlardan foydalanish ilk bolalik davridanoq boshlanmoqda. Yoshlarimizda axborotni filtirlash kunikmasini shakillantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Aks xolda kelajakda o‘zbek xalqining madaniyati tubdan o‘zgarib ketishi mumkin.

Avvalo madaniyat so‘zi haqidagi allomalar fikrini ko‘zdan kechirsak. Qori Niyoziy ushbu so‘zning keng qamrovli tushuncha ekani haqida shunday deydi: "Madaniyat tarixi g‘oyat darajada murakkab bo‘lib, uning hamma tomonlarini o‘z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda

yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”. Ishoqxon Ibrat esa madaniyatni oziqlantirib turuvchi omil yaxshi axloq ekanini ta’kidlaydi:

Madaniyat jahondan osoyish,
Xulq husni anga oroyish.
Madaniyat xaloyiqqa rohat,
Ko‘rmagay g‘amni hech soat.

E’tibor bersak, bu tushunchaning negizi ezgulikdan iboratdir.

G‘arbliklar o‘zlarida tarqab ketgan bu illatlarni o‘zlari yolg‘izlanib qolmaslik uchun boshqalarga ham (eksport qilish) tarqatishni niyat qilgan va bu yo‘lda sa’yu harakat qilayotgan bir paytda ba’zi vatandoshlarimizning mazkur harakatlari bilib-bilmay ularga yordam berish bo‘lmayaptimikan? Bunday ommaviy madaniyat girdobiga tushib qolgan yoshlardan hech qachon haqiqiy vatanparvar, o‘z millati uchun jonini ham beradigan inson chiqmaydi deb ishonch bilan ayta olamiz. Chunki bunday kimsalarni o‘z ajdodlarining yo‘lidan kechgan, milliyligidan yuz o‘girgan insonlar deb aytish mumkin. Yigitlarimizda yigitlik g‘ururi, qizlarimizda nomus va iffat ota-bobolarimizdan, momolarimizdan qolib kelayotgan katta boylik va oltin merosdir. Shunday qimmatbaho boyliklarini aqlan olib qaraganda ham noto‘g‘ri hisoblangan, insonlikka ham to‘g‘ri kelmaydigan qo‘shtirnoq ichidagi “madaniyatlar”ga almashtirgan kimsalardan millat ravnaqi va xalqimiz kelajagini bundanda go‘zal qilish yo‘lida nima ham kutish mumkin?

Axloqu tarbiya bobida g‘arb dunyosi hali bizdan o‘rganishi kerak bo‘lgan juda ko‘p narsalar bor. Biz ulardan hayoyu iffatsizlik, nomussizlik, ichkilikbozlik, ta’magirlik va shunga o‘xshash illatlarni o‘rganamizmi yoki ular bizdan hayo va iffatni, or-nomusni, poklik va xolislikni o‘rganadilarmi? Kuchli millat hargiz yuksak ma’naviyati toptalishiga, o‘z vakillari tomonidan oyoq osti qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi. Qo‘limizda oltin bo‘laturib birovning oyog‘i ostidagi temir parchasiga havas qilmaylik. Ota-onalarimiz, murabbiy va muallimlarimiz, qolaversa barchamiz yoshlarimizni ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun mas’ulligimizni unutmaylik. Ularni qarovsiz qoldirmaylik va ularga ota-bobolarini yuksaklarga ko‘targan ma’naviyat malhamidan berishni hargiz yodimizdan chiqarmaylik. Zero hozirgi zamon - fikriy kurashlar zamonidir. Millatni o‘zgartirish uchun uning dunyoqarashi va fikrini o‘zgartirsa kifoya.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”,2008.112-b.
2. G‘aybullayev O.M. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. -T.: ”Fan va texnologiya”, 2019, 451b.
3. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. –T.:”O‘ZBEKISTON”,2012.
4. https // president. uz/ uz /

ZAMONAVIY TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O‘QITUVCHI SHAXSINING INNOVATSION MAQSADGA YO‘NALTIRILGANLIGI

A.V.Xurramov
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Bu jarayonda davr talabiga javob bermaydigan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan tozalash, globallashuv sharoitida dunyo sahnasida o‘zining munosib o‘rnini egallashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunda innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo‘yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotgani muhimdir.

Biroq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu bilan bir joyda turib qolishi kerak emas, balki u jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hamohang tarzda rivojlanib

borishi darkor. O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida ta’lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad hamda vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish zarur.

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida **“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”** deb bejizga ta’kidlanmagan.

Pedagog kadrlar kompetentligi muammosi nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosidagi pedagog, psixolog, metodist, siyosatshunos, sotsiolog, filosof, va boshqa sohadagi olimlar tomonidan o‘rganilib kelingan. Shunga ko‘ra, tadqiqotchi olimlar Pedagog kompetensiyasini shaklan va mazmunan turlicha talqin etadilar.

O‘tgan asrning 30-yillarida AQShda “firma innovatsion siyosati”, “innovatsion jarayon” terminlari paydo bo‘ldi. 60-70-yillarda G‘arbda firmalar va boshqa korxonalar amalga oshirilayotgan yangiliklarni empirik tekshirish keng quloch yoya boshladi. Shu bilan birga, o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab dunyo miqyosida, xususan, sobiq ittifoqda maktab ta’limini yangilashga qaratilgan turli ijtimoiy-pedagogik qarashlar va harakatlar vujudga kela boshlaydi.

O‘tgan asrning 90-yillari oxirida ko‘plab innovatsion ta’lim masalalariga bag‘ishlangan qator dolzarb to‘plamlar nashr qilingan. Tabiiy ravishda innovatsion pedagogik ilmlarning va turli metodlarning keng tarqalishi G‘arb davlatlari tajribasi asosida rivojlantirilgan. Shu bois, G‘arb davlatlaridagi pedagogik ilmlar tasnifi maqsadli ravishda o‘rganila boshlangan.

N.Azizxodjayevaning fikricha: “Innovatsion pedagogika – hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan, an’anaviy pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi zamon pedagogika fanidagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim. Pedagogika – bilimlar tizimidir. Obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo‘lmaslik – uning asosiy tavsifidir. Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi asosni tashkil etuvchi tamoyillari loyihalashtiradi, birlashtiradi va ushlab turadi, ya’ni ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir” .

“Innovatsiya” atamasining o‘zi mustaqil istiloh sifatida XIX asrdagi ilmiy tadqiqotlarda ishlatila boshlangan. Adabiyotlarda innovatsiya muammolari ko‘p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o‘rganib kelindi. Innovatsiya istilohi XX asrdan boshlab keng miqyosda muomalaga kiritilgan. Mazkur atama avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter asarlarida keng qo‘llanilgan («The Theory of Economic Development», 1934).

Kompetentlik – bu soha egasining kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlar integrasiyasidir. Kompetensiya – shaxs tomonidan muayyan faoliyatni tashkil eta olishga layoqatlilik, uni tashkil etish huquqiga ega bo‘lish sanaladi. Ko‘plab kompetensiyalarning jamlanmasi muayyan tur yoki shakldagi kompetentlikni namoyon etishga xizmat qiladi. Agarda kompetentlikni tizim deb olinsa, kompetensiyalar ana shu tizimning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismlardir.

Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kasbiy kompetentlik sifatlarini aniqlanishi ham mualliflarning e’tiborini o‘ziga tortgan. Ilmiy-pedagogik tahlillarda, kompetentlik - rejalashtirish, amalga oshirish hamda talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholashni o‘z ichiga oluvchi o‘qitish jarayonini boshqarish qobiliyati (Mardia Rahman); belgilangan vazifalarni hal qilish va ishning kutilgan natijalarini qo‘lga kiritish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat (S.Uiddet, S.Xolliford); deya izohlanadi.

Mamlakatda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, ularni barcha faoliyat sohalariga joriy etish, yosh avlodda ular bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu asnoda, ta’lim jarayonining har bir bosqichida innovatsion pedagogik faoliyat

mavjud bo‘lsagina, yosh avlod tafakkurida innovatsion faoliyatga intilishni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayoni – o‘qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta’lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi.

Innovatsion faoliyat – yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuasidan iborat bo‘lib, ulardan maqsad yig‘ilgan bilim, ko‘nikma, malaka, texnologiya va ishlab chiqarish asboblarini mana shu yangi mahsulotni keng miqyosda ishlab chiqarilishiga ishlatish va uning samaradorligini ta’minlashdir.

Bugun ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko‘proq zaruriyat tug‘ilayapti. Bu darslarni samarali o‘tish, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish imkonini beradi.

O‘qituvchilarida innovatsion faoliyatga tayyorlik kompetentligini rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish obyektiv voqelikni qabul qilishdagi qarashlarini aniqlab beradi. O‘qituvchining yangicha yondashuvi, kasbiy tayyorligi uzluksiz ta’lim sharoitida pedagogik innovatsiyaning to‘liq mazmun-mohiyatini egallash bo‘yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasidir.

Yurtimizda pedagogik yo‘nalishida kadrlar tayyorlash sohasiga ham aynan mana shunday nuqtai-nazar bilan yondashilayotgani yaqin kelajakda o‘zining yorqin samaralarini berishi shubhasiz. Ta’lim tizimidagi islohotlarning muhim jabhasi sifatida barkamol shaxs tarbiyasi masalalari o‘rtaga qo‘yildi, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Unda O’zbekiston Respublikasi davlat qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va ijtimoy-siyosiy g‘oyalari, davlat dasturlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me’yoriy va huquqiy hujjatlar ta’limdagi islohotlarning mazmuni va dolzarb vazifalarini belgilab beradi. Mustaqillik yillarida yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, tibbiy, ma’naviy, shuningdek ta’limiy manfaatlarini muhofaza qilishga ko‘plab qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa turdagi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ta’lim tizimining shiddat bilan yangilanib borishi natijasida amaldagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun bugungi kun talablariga mos kelmaganligi sababli yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respulikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi. Mazkur qonunning 36-moddasi ta’lim sohasidagi ekperimental va innovatsion faoliyatga bag‘ishlanadi.

Shuningdek ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o‘quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o‘z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratishi ham nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘grisidagi”gi Qonuni ham ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni tashkil etishni tartibga soluvchi va mazkur soha rivojiga ko‘maklashuvchi muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur qoningning 3-moddasida innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularni o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faolyat deb belgilab qo‘yilgan. Shu asosga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatlarini tashkil etishning huquqiy asosi yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy takomilining potensiali, davlatchilik rivojining zahira boyligi, uning kuch va quvvati sifatida baholanadi. Har bir mamlakat o‘zining istiqboli gullab-yashnashi, xususan o‘quvchi-yoshlar taraqqiyoti shakllanishi va har tomonlama unib-o‘sishisiz tasavvur eta olmaydi. O‘quvchi-yoshlar davlatni himoya qilish, uning kadrlar zahirasini ta’minlash, iqtisodiyotni o‘stirish, mamlakatni inqirozlardan asrash, uning ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyotini ta’minlashda bosh zahira boylik va kuch hisoblanadi. Binobarin, butun mamlakat va jamiyatning

kelgusi rivoji yoshlarda nechog‘li innovatsion ong shakllanganligi, ularni nechog‘li innovatsion jarayonlarga tortilganligiga bevosita bog‘liqdir.

O‘qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini rivojlantirishning asosiy me’yoriy-huquqiy asoslaridan yana biri bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-naoyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidir.

Ushbu Farmon mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda hususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida qabul qilingan

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar yaratildi. Fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta’minlash maqsadida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari g‘rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish uchun huquqiy baza yaratildi. Mamlakatda “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi”ni har yili o‘tkazish an’anasiga asos solindi.

Ta’kidlangan barcha hujjatlarda ta’lim tizimi xodimlari, xususan o‘qituvchi-pedagog kadrlar ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishga tayyor bo‘lishi zarurligi masalasi alohida e’tirof etilmoqda. Binobarin, bugungi kunda zamonaviy ilg‘or pedagogik axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng ko‘lamda joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish eng dolzarb vazifalar qatorida alohida ta’kidlanmoqda.

Qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar albatta mamlakat taraqqiyoti uchun ta’limning naqadar quvvatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakat taraqqiyotini ta’minlash uchun bugungi kunda har sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida, shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim oqituvchilarining pedagogik faoliyatida ham axborot-kommunikasiya va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish davr talabiga aylanmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish jarayoni davom ettirilmoqda, uni zamon talablari asosida modernizasiya qilish ishlari joriy etilmoqda. Shu boisdan, bu bosqich ta’lim tizimini modernizasiyalash davri deb ataladi.

Innovatsiya har bir davrning o‘ziga xos shart-shroitlaridan kelib chiqqan holda ma’lum bir sohada amalga oshirilgan yangilik yoki bo‘lmasa amalda mavjud bo‘lgan tizimning faoliyatida insoniyat ehtiyoji uchun qulaylashtirilgan variantidir. Tarixdan ma’lumki insoniyat o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun turli yangiliklarni o‘ylab topgan va bu jarayon hozirgi kungcha uzluksiz ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Ilm va fan taraqqiyoti, yuqori texnologiyalar rivoji hamda axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy jamiyatlar oldiga inson kapitali bilan bog‘liq bo‘lgan omillarni, ya’ni bilim, ta’lim, salomatlik, insonlarning yashash sifati, yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi, ularning kreativligi, ya’ni, ijodiyligini birinchi o‘ringa chiqaradi. Shu bois, inson kapitali, shuningdek, uning tarkibida inson kapitalining chet tillarni bilishi omili – millatning ma’naviy boyligi sanaladi.

XALQ TA’LIMIDA MATEMATIKA TA’LIMI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPSIYASI TO‘G‘RISIDA

N.Sanaqulova, E.Turayeva
Guliston shahar 16-umumta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Mamlakatimizda matematik ta’lim va matematika fani taraqqiyotiga katta e’tibor berilmoqda. 2019-yil 9-iyulda imzolangan “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shu munosabat bilan matematika, kimyo,*

biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgani anashu e'tiborning amaliy isbotidir.

Kalit so'zlar: *konsepsiya, matematika, PISA, TIMSS, STEAM, fan, metodika.*

Annotation: *In our country, great attention is paid to the development of mathematical education and the science of mathematics. "State support for the further development of mathematics education and sciences" signed on July 9, 2019, as well as declaring 2020 as the "Year of Science, Enlightenment and Digital Economy Development", in this regard Development programs for mathematics, chemistry, biology and geology are a practical proof of this attention.*

Key words: *concept, mathematics, PISA, TIMSS, STEAM, science, methodology.*

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning matematika ta'limi va matematikani rivojlantirishga qaratayotgan alohida e'tiborining pirovard maqsadi "O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish, yoshlarimizni shunga munosib bilim va malaka bilan qurollantirishga qaratilgandir". Matematikaning ta'lim-tarbiya bilan bog'liq xususiyatlarini sanab chiqish yengil ish emas, ammo ulardan biri bugungi tub islohotlar davrida xalqimiz istiqboli uchun ham g'oyat muhimdir. Bu — o'quvchilar va talabalar, ya'ni ertangi kun kadrlari qiyin, murakkab masalalarning yechimini izlab topish malakasiga ega bo'lishi lozim. Zotan, har qanday islohot yuzaga chiqqan biror muammoni hal etish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday muammoni hal etish matematikadagi dolzarb bo'lgan muammolardan ham murakkab bo'lishi mumkin. Holbuki, har qanday boshqaruv muammo yechishdan iborat. Aynan mana shu qobiliyatni matematika fani shakllantiradi va charxlaydi.

Ma'lum ma'noda matematikani konkret holatdan abstract holatga o'tkazuvchi fan deb ham atash mumkin, hamda haqiqiy matematika o'qituvchisi bu — o'quvchilarga masalaning mavhum holatidan yechimini topishni o'rgatadi.

Matematika fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", Prezident Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi tizimda vujudga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish, Respublikamizning barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Konsepsiya rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlarni tayyorlash, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi.

Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Ayniqsa, o'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga munosib qatnashishi ta'minlanadi, matematika fanlari bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta'lim jarayoniga joriy etladi, matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar

yaratiladi. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvga e’tibor qaratiladi, o‘quvchilarni o‘quv loyiha va o‘quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi, umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi orqali o‘quvchilar kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etiladi, matematika fani o‘qituvchilarining fan bo‘yichha bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish maqsadida, malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilib, yagona virtual muhit - axborot ta’lim platformasi ishga tushiriladi. Matematika fani bo‘yicha elektron kutubxona, darsliklarning o‘quv-uslubiy ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha elektron resurslarni, video darslarni, virtual laboratoriya, multimediali interaktiv animatsion ilovalar joylanadi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq
ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori

3.http://www.uzedu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.

TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI AXLOQIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

J.Oripov, M. Qandaharov
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchilari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflar tomonidan ta’lim tizimida yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetini shakllantirishning muhim jihatlari va ahamiyati, tizimning vazifalari, shuningdek, axloqiy immunitetning mazmunini va uning xususiyatlari hamda axloqiy immunitetni shakllantirishning muhim jihatlari borasidagi xulosa va takliflar nazariy asosda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, axborot xuruji, axloqiy immunitet, axborot kommunikatsion texnologiyalari, Islom odobi, fundamental bilim, axloqiy immunitetning mazmuni.

Аннотация: В данной статье на теоретической основе освещены важные аспекты и значение формирования нравственного иммунитета молодежи к информационным атакам в системе образования, задачи системы, а также содержание и особенности нравственного иммунитета, а также выводы и предложения по важным аспектам формирования нравственного иммунитета.

Ключевые слова: Система образования, информационная атака, моральный иммунитет, информационно-коммуникационные технологии, Исламский этикет, фундаментальные знания, содержание морального иммунитета.

Annotation: This article, theoretically shows theoretically highlight important aspects and the importance of the formation of moral immunity of young people to information attacks in the education system, the tasks of the system, as well as the content and features of moral immunity, as well as conclusions and suggestions on important aspects of the formation of moral immunity.

Keywords: Education system, information attack, moral immunity, information and communication technologies, Islamic etiquette, fundamental knowledge, the content of moral immunity.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat axborotlar kurashi kechayotgan makonda yashamoqda. Bunday kurashlar fan yoki ijtimoiy muloqotda “axborot urushi”, “axborot tahdidlari” yoki “axborot xurujlari” kabi tushunchalar bilan ifodalanadi.

Xo‘sh nega? Bu savolga javob topish ijtimoiy-falsafiy fanlar oldida hal etilishi lozim bo‘lgan muammoli masalaladan biri bo‘lib qolmoqda. To‘g‘ri, mazkur masala yuzasidan xalqaro miqyosida bir qator ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar hamda maqolalar e’lon qilib borilayotgan bo‘lsada, bu muammoning yechimi borasida u yoki bu darajada xulosalarni berish va tavsiyalarni ishlab chiqishdagi juz’iy xatolar ya’ni o‘xshashliklar muammoning yagona strategik yechimni ishlab chiqishga to‘sqinlik qilmoqda. Aslida, mazkur masala doirasida yagona yechimga ega xulosa berish mushkul albatta. Zero, axborot urushining shakllari, ta’sir ko‘rsatish usullari hamda vositalarining turli-tumanligi muammoning hal etilishida yagona to‘xtamga kelishni murakkablashtirib yubormoqda.

Axborot urushining kuchayishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan vositalarining shakllari borasida Oyibek Musurmonqulov o‘zining “Axborot urushi va “Fleshmob” vositasida mafkuraviy tahdid” nomli maqolasida: “Hatto axborot urushlari turli xil aloqa (kommunikatsiya) vositalari yordamida amalga oshirilib, vositalar navi (assortimenti) juda boy bo‘lib, unga mashhur OAVlardan boshlab mish-mishlar, g‘iybatlar va hatto latifalargacha (anekdot) kiritib qo‘yishadi.

Darhaqiqat kechagi axborot urushlari bugungusidan batamom farq qiladi. Yangi zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanib ketishi, sun’iy yo‘ldosh televideniyelar, internet tarmoqlar boshqalar uchun yopiq bo‘lgan ma’lum hudud, ya’ni lokal konfliktlarning zudlik bilan tarqalishi ularga olamshumul ahamiyat berilishiga sabab bo‘ladi”,-deb yozadi.

Shuningdek, muallif maqoladasida axborot urushiga xizmat qiluvchi kitob va jurnallar, kinofilmlar, reklama, uyali aloqa vositalari, internetdagi ijtimoiy saytlar singari bir qancha vosita (assortiment)lari xususida to‘xtalib o‘tganligining o‘zi ham mavzu qamrovini naqadar keng ekanligidan dalolat beradi. Maqolada muallif ilgari surgan axborot urushi tushunchasi negizida axborot tahdidi va axborot xurujilari yotganligini unutmasligimiz lozim.

Modomiki, bugungi ijtimoiy hayot, globallashuv davri axborot xurujlariga qarshi doimiy kurashni insoniyat uchun zaruratga aylantirayotgan ekan, axborot xurujlariga qarshi kurashda ijobiy ahamiyatga molik bo‘lgan muhim jihatlarni aniqlashtirish va shu asosida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishning muqobil yechimlaridan iborat ilmiy tadqiqotlar o‘rtasida integratsiyani ta’minlash muhimdir. Shundan so‘ng mazkur tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarga tayanib, ta’lim tizimida yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish asosida ularda axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish bugungi axborot asrining muhim sharti va davr talabi ekanligini alohida qayd etish lozim.

Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, tushuncha, tasavvurlar hamda voqea-jarayonlar haqida yaxlit tizimli bilimlar ta’lim tizimida shakllanadi va takomillashtirib boriladi. Ayniqsa, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, milliy axloq va odob me’yorlari borasida zarur saboq va xulosalar chiqarishda ta’lim tizimi asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, tizimida ma’naviy-marifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, hayot haqida tasavvur va tushunchalarimizning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, bu boradagi qarash va xulosalarimizni yaxlit xolda yangilash orqali yoshlarni olam, fazo va borliqda amal qiluvchi qonuniyatlar va ularning o‘rtasidagi tendensiyalarni tushunib yetish, tarix, axloq-odob me’yorlari, axloqiy-estetik qadriyatlarning inson kamolatida tutgan o‘rni haqida chuqur bilimlar singdirib borish orqali yoshlarda immunitetni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Falsafa fanlari doktori, professor Otabek G‘aybullayev ta’kidlaganidek ta’lim tizimida: “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boy tarixiy, ma’naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida unda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga katta e’tibor qaratilib, Vatanni gullab-yashnashi har bir insonning mehnatiga, tadbirkorligiga bog‘liq ekanligini uning ongi va qalbiga singdirishga asosiy e’tibor qaratiladi.”

Ustozning mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasidagi ushbu fikrlari, aynan, axloqiy immunietni shakllantirishda ham qo‘l keladi. Yuqorida ustoz tomonidan mafkuraviy immunitetni shakllanirish borasida ilgari surgan me’zonlar, axloqiy immunitetga ham xos xususiyat sifatida ularni yosh avlodning ruhiyatiga, ongi va qalbiga singdirish orqali ularning amoliga aylantirishda ta’lim tizimi muayyan, aniq dastur va rejalara asosida keng qamrovli faoliyatni tashkil etish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna o‘zining “Mafkuraviy proflaktika – yosh avlodni g‘oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilga dissertatsiyasida: “Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi bilimdir. Ammo bilimning ham turlari ko‘p. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra, Vatan va xalq maqsadlari bilan mukammal bog‘liq bo‘ladi”,-deb yozadi.

Bu borada biz ham hech ikkilanmay aytishimiz mumkinki, axloqiy imminitet tizimining asosiy va birlamchi elementi ham bilimdir. Bilim, ma’rifat orqali yosh avlod shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs sifatida shakllangan har qanday kishini muyyan aniq ezgu maqsadlar sari yo‘naltirish, axloqiy tamoyillarni ularning ongi va qalbiga sindirish orqali ularda axloqiy immunitetini shakllantirish oson kechadi. Bu jarayonda, Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna aytganidek, bilmning barcha turlaridan foydalanishimiz mumkin.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning ongi va tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ta’lim-tarbiyasi masalasini ijobiy hal etish har doim jamiyatning ham, davlatning ham bosh maqsadi bo‘lgani kabi bugungi Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ularda jtimoiy ongning barcha shakllarini rivojlantirish, dunyoqarashi, teran ijodiy tafakkurni shakllantirishda zamonaviy ta’lim bilan qamrab olish maqsadida ta’lim tizimini isloh qilish va sohaga xorijiy tajribalarni joriy etish ommalashib bormoqda.

Yurtboshimiz iborasi bilan aytadigan bo‘lsak: “Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad barkamol, sog‘lom avlodni zamonaviy va milliy ruhda bilim olish imkoniyatlarini, ular ongiga bunyodkor g‘oyani singdirishning izchil tizimini yaratishdan iboratdir”.

Yoshlarda axloqiy immunitetni shakllanirishda ta’lim tizimi quyidagi:

- yoshlarga axborot xuruji va axborot tahdidi, shuningdek, axloqiy immunitet o‘rtasidagi umumiy o‘xshash jihatlari va tafavvutlari borasidagi ilmiy tushunchalar, fundamental nazariy-amaliy bilimlarni berish bevosita jonli aloqada, o‘zaro muloqot vositasida amalga oshirish;
- yoshlar axloqiy immunitetning xususiyatlari borasidagi fundamaental bilimlarni yozma, og‘zaki, savol-javob va amaliy mashg‘ulolar asosida o‘zlashtirish;
- yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va uning muhim jihatlari borasida o‘zlashtirilgan bilimlar, ilmiy dalillarni hayotda qo‘llashga o‘rgatilsh;
- eng muhimi, ta’lim tizimida yoshlarning ehtiyojlarini o‘rganish orqali keyingi o‘quv faoliyatini tadrijiylik asosida tashkil etish hamda taqdimotlar bilan tushuntirish;
- ta’lim tizimida qo‘yilgan muammolarni yechish imkoniyatining mavjudligi, fanlarni o‘zlashtirishda integratsiyani ta’minlash va o‘quvchilarni fanlararo yo‘nalishlar kesimida qiziqishlarni ortirish;
- yoshlarga zamonaviy ilg‘or tajribalar asosida ta’lim berish orqali ularning shaxsiy intelektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning maqbul yo‘llarini ishlab chiqish orqali ularni o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish imkoniyatlarining mavjudligi kabi o‘ziga xos jihatlariga ega.

Biz yuqorida yoshlarda axloqiy immunitetni shakllanirishda ta’lim tizimining muhim jihatlarini sanab o‘tdik. Mazkur jihatlarni chuqur tahlil qilish natijasida ta’lim olishning mazmunini aniqlash va shu orqali ta’lim tizimining maqsadi belgilanadi.

Darhaqiqat, globallashuv davri va axborot asri ta’lim tizimining bir qator vazifalarini mazmunan boyishi va mohiyatan o‘zgarishiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, axborot tahdidi hamda axborot xurujlarining xususiyatlarini tushuntirish va ularga qarshi kurashda muhim bo‘lgan tamoyillarni o‘quvchilarning ongi va qalbiga singdirish orqali ularda axloqiy immunitetni shakllantirish singari vazifalar shular jumlasidandir.

Shunday ekan, axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi xususiyatlarning bog‘liq jihatlarini tadqiq etish va tushuntirib borish, natijalarni aniqlash, shuningdek, yoshlarni hayot tarziga aylantirishning maqbul yechimlarni topish hamda muqobil usullarini ishlab chiqish, ta’lim tizimida yoshlarning axloqiy immunitetini shakllantirishga qaratilgan faoliyatni samarali

tashkil etish va axloqiy immunitetning mazmunini aniqlashda muhim metadologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy immunitetning mazmunini quyidagilardan:

-milliy xotirani uyg‘oish, milliy o‘zlikni anglash va axloqiy me’yorlarning mezonlarini aniqlashga o‘rgatish;

-xalqimizni tub maqsadlarini ifodasi sifaida jamiyatda muayyan axloqiy mezonlar asosida birlashtirishga undovchi xarakat manbai bo‘lish;

-insonning qalbi va ongiga ijobiy ta’sir etadigan axloqiy tushuncha va tuyg‘ular, axloqiy tamoyillar tizimini o‘zida mujassam etish;

-har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini beradigan axloqiy tamoyillarning eng maqbullarini belgilab olish;

-millat va jamiyatni muayyan tamoyillar asosida birlashtiruvchi manba sifaida yuksak ishonch-e’tiqodga yo‘naltiruvchi kuch bo‘lish;

-mamlakatimizda yashovchi barcha millat, elat, xalq va din vakillariga birdek taaluqli bo‘lgan mezon bo‘lish;

-axloqiy immunitet ijtimoiy fenomin va xodisa sifatida subektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli, har qanday insonni ezgulikka chorlaydigan g‘oyalar atrofida birlashtiruvchi hamda shu g‘oyaga barchani birdek amal qilishga undovchi adolat, erkinlik qattiy fuqarolik va o‘zining hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan ezgu insoniy fazilatlar majmuidan iborat.

Axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi elementlar bilan tahsil oluvchilarni tanishtirish, ularning ruhiyati, ongi va qalbiga axloqiy fazilatlarni singdirishda o‘rta maktab, akademik litsey, professional va oliy ta’lim bosqichidagi darslarda ilg‘or tajribalar, interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyatining mavjud ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimining har bir bosqichida tashkil etilayotgan darslar mazmun va qamrov jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi.Yani tizimning har bir bosqichi o‘ziga xos funksiyalarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Ta’kidlash lozimki, jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi yangilanishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, olam va odam hamda ularning mohiyatini tushuntirish, shuningdek, yoshlarni mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, intelektual salohiyati yuksak shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mazkur masalada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirish, ularni barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish jamiyatimizning barcha jabhalarida bo‘lganidek, ta’lim muassasalarining ham eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan”- deb ta’kidladilar.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratlgan faoliyatni tashkil etishda ta’lim tizimi, *birinchidan*, tizimning barcha bosqichlarida ma’naviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish, muammoni yechimiga oid har bir mavzuni yoritish jarayonida ta’lim oluvchilarni ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori darajada bilimlar berish, *ikkinchidan*, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va ularni milliy axloqiy tamoyillar, insonga xos axloqiy sifatlar bilan tarbiyalashda keng imkoniyatlarining mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

ЎҚУВЧИЛАРДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ

Г.Х.Тагаев
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада ўқувчиларда миллий ва умуминсоний қадриятлар компетенциясини шакллантиришда этнографик муҳит, урф-одатлар, миллий қадриятларни

таълим-тарбия жараёнларига сингдириб бориш масалалари ўрин олган. Шахс камолатида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўрни ва таъсири тизимли таҳлил этилган. Шу билан бир қаторда, ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шаклланишига ижобий таъсир этувчи педагогик тавсиялар ҳам кенг ўрин олган.

Таянч сўзлар: *Миллий ва умуминсоний қадриятлар, халқ педагогикаси анъаналари, халқлар маънавий-маданияти, маънавий мерос. урф-одатлар ва этник маданиятга оид анъаналар.*

Таълим тизимидаги замонавий ислоҳотлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳамда бозор иқтисодиёти чуқур илдиз отиб бораётган даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига мувофиқ бир қатор янги вазифаларни юзага келтиради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”[1;14] деб, ёшлар сиёсий фаоллигини оширишга даъват этдилар.

Асрлар давомида аждодлардан-авлодларга мерос бўлиб қолаётган анъана ва удум, қадрият ва маросимларнинг ҳар бирида тарбиянинг ўзига хос кўриниши мавжуд. Ёш авлодни маънан баркамол этиб тарбиялашда шубҳасиз, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланиш зарур. Бунинг учун этнопедагогикадан фойдаланамиз.

Ўзбек халқи педагогикаси тарихида ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда кўп асрлар давомида қўлланилган кўплаб усул ва воситалар, миллий урф-одат ва анъаналар, тарбия ҳақидаги ғоялар мужассамдир. Ҳалқ педагогикасида ифодаланган ғоялар, тажрибалар халқ яратган афсоналарда, оғзаки ижод намуналарида, ёзма ёдгорликларда ўз ифодасини топган, улуғ мутафаккир олимларнинг илмий ва амалий жиҳатдан асосланган асарларида баён этилган.

Инсоний фазилатлар ва қадриятлар ҳаётда устувор аҳамият касб этиб, жамиятнинг маънавий-ахлоқий нормалари сифатида тан олинган. Ёшларда ушбу фазилат ва қадриятларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, муайян тайёргарликни талаб этади.

Миллий ўзликни англаш ўз ички зиддиятларига ҳам эга. Ўз-ўзини англаш жараёни реал ҳаёт вазифаларига мувофиқ тарзда муайян ҳаракат ва фаолият йўналишини танлаш асосида олиб борилади. Бу танлов эса инсон учун етакчи бўлган қадриятлар мажмуаси билан белгиланади. Ўз-ўзини ва миллий ўзликни англаш учун танлаб олган йўналиш таъсирида идеаллик парчаланади. Бир томондан миллий ўзлигини англаш даражасидаги шаклланган тасаввури бўйича ўз миллати ва унинг маънавий қадриятларини бошқа миллатларникидан афзал деб билади[3:86-87].

Миллий қадриятлар қадимий ва тарихий илдизга эга бўлиб, унинг мазмунида жинсидан қатъий назар, ўз тили, дини, урф-одатлари, ўзига хос анъаналарига эътиқод қилиш натижасида инсон камолотига эришиш, шахсни аҳлоқий шакллантириш каби йўналишлар муҳим ўрин эгаллаган. Шу нуқтаи назардан ҳозирги кунда ёшларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш учун халқ педагогикаси ва улуғ мутафаккирлартарғиб этган таълим-тарбияга оид қарашлар тизимига таяниш зарур.

Ҳуқуқий-демократик давлат ва фуқаролик жамиятини қуриш йўлида миллий қадриятларнинг ҳаётдаги роли ва ўрни ошиб бормоқда. Миллий қадриятларга содиқ бўлган халқни қул қилиш, абадий истибдодда сақлаш мумкин эмас. “Миллатнинг таназзули миллий қадриятлар таназзулидир, бу оқибат-натижада ушбу қадриятларни эгасиз қолиш хавфини туғдиради. Инсоният тарихи муайян этносларнинг вужудга келиши, тараққиёти ва таназзули, уларнинг ўрнига бошқалари вужудга келиши билан боғлиқ жараёндир. Бундай фикр эса ўз навбатида, ғоят муҳим ва долзарб масалага, миллат ўз қадриятларининг объекти сифатида, ўз-ўзини сақлаб турмоғи лозим, деган масалага олиб келади” [5:127].

Шундай экан, миллий қадриятлар асосида ёшларни маънавий-аҳлоқий тарбиялашда, келажаги буюк давлат қуришда, ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишда миллий қадриятлар муҳим ўрин эгаллайди. Чунки, мамлакатимизда яшаётган ҳар бир ёшнинг ва бутун аҳолининг маънавий-аҳлоқий камолоти орқали инсонпарвар, демократик, ҳуқуқий фуқаролик жамияти, келажаги буюк Ўзбекистон барпо этилади.

Дарҳақиқат, бугунги кунда фақатгина чинакам маърифатли одам инсон қадрини, миллий қадриятларини, бир сўз билан айтганда, ўзлигини англаш, эркин ва озод жамиятда яшаш, мустақил давлатимизнинг инсон ҳамжамиятида ўзига муносиб обрўли ўрин эгаллаши учун фидойилик билан курашиши мумкин. Шундай экан, таълим-тарбия жараёнида шахсни ҳар томонлама маънавий-аҳлоқий шакллантириш, унинг қобилиятларини рўёбга чиқариш ҳамда ижтимоий турмуш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш муҳим аҳамиятга эга.

Шундан келиб чиқиб қуйидагиларни тавсия этиш мумкин:

- Жамият ҳаёти ва таълим сохасида рўй бераётган туб ўзгаришлар ёшларни миллий – маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжларини аниқлаш ва уни қондириш заруриятини вужудга келтирмоқда.
- Шу зарурат туфайли ҳам ўқувчиларнинг ўз-ўзларини тарбиялашлари, миллий – маьнавий жиҳатдан такомил этиб боришлари каби масалалар педагогик нуқтаи назардан алоҳида долзарблик касб этади. Бунда бадиий адабиёт, тарих, миллий санъат ва маданият намуналаридан фойдаланишга аҳамият бериш лозим.
- Чунки, маънавий оламини бойитиш, уларда масъулият туйғусини кучайтиради ва ватанпарвалликка чорлайди. Булар ўзини-ўзи англаш ўзлигини таъкидлаш, ўзини тадбиқ қилишга бўлган кучли интилишлар орқали номоён бўлади.

Бугунги кунда педагог-олимлар ёшларнинг миллий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжларни шакллантиришнинг муҳим билиш жараёни билан боғлиқ ижтимоий, эстетик, ахлоқий, тарихий ва маданий масалаларга алоҳида эътибор қаратишлари шарт.

Маънавий меросимизга жиддий эътибор қаратилаётган тарихий бир жараёнда мутахассис олимлар томонидан уларнинг ёзма тавсифини шакллантириш билан чекланиб қолмасдан, балки қадимий тарихга эга бўлган миллий қадриятларимизни халқ турмуши ҳамда анъанавий маданиятда тутган ўрни, уларнинг генезиси, ўзига хос хусусиятларини аниқлаш борасидаги тадқиқотлар муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади. Мазкур тадқиқотлар ўқувчиларда миллий ва умуминсоний қадриятлар компетенциясини шакллантириб бориш жараёнида муҳим аҳамият касб этади.

Бу борада диний эътиқодлар (бола туғилиши, тарбияси, суннат ва никоҳ тўйлари, мотам маросими), этник маданиятга оид анъаналар, символлар, моддий маданият намуналари (турар жойлар, кийим-кечаклар, озиқ-овқатлар), фольклор намуналари (эпос, мусиқа, рақс ва бошқалар) етакчи ўрин эгаллайди. **Натижада, ўқувчиларда ўзгаларнинг дунёқараши, диний еътиқоди, миллий ва этник ҳусусиятлари, анъана ва маросимларини ҳурмат қилиш каби компетенциялар шаклланиб боради.**

Шахс тарбиясида нафақат ижтимоий соҳалар тадқиқи, балки табиий соҳаларни ўрганиш ҳам устувор аҳамият касб этади. Табиат ва жамият қонунларини билишнинг ўзига хос хусусияти шуки, табиат ва унинг ҳодисалари билиш объекти, аммо уларнинг ўзлари билиш субъекти эмас. “Жамият қонунлари ҳам билиш объекти, ҳам субъектидир. Зеро, жамият бир-бири билан эҳтиёжлар ва манфаатлар муштараклигида уюшган одамлар ва ижтимоий гуруҳларнинг яхлит бирлиги, бирлашмасидир” [4:80-81].

Бу жараёнда бир авлод эгалари томонидан яратилган ижтимоий-маданий ютуқлар кейинги давр авлодлари учун фақат ворисийлик ҳуқуқини бермаган. Аксинча, аждодлар маданиятини ўзлаштириш, уни янада бойитиш вазифаси авлодлар зиммасига юклатилган мажбурият эмас, балки фуқаролик бурчи сифатида масъулият билан тан олинган. Шунинг учун ҳам аждодларимиз ўз ҳаёти давомида қандайдир янги санъат намуналарини яратишга ёки умуман янги соҳани кашф қилишга уриниб келган. Амалий санъат

турларидан кандакорлик, бўёқчилик, заргарлик, мисгарлик, сополчилик, шишасозлик, тикувчилик, тўқувчилик унга мисолдир.

Ўзбек халқи этномаданий жараёнларида этногенез, этник тарих, этник идентиклик, этнодемография, ассимиляция, консолидация, моддий ва маънавий маданият, трансформация, этник ўзликни англаш, этноконфессиал мансублик, этнолингвистика, этнопсихология, маданий муҳит, жамоавий ва оилавий муносабатлар, маҳалла, урф-одатлар, маросимлар, анъанавийлик ва модернизация жараёнлари қоришиқ бўлади[2:52-58]. Этноснинг шаклланишида маданият ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, ҳар бир элат маданий хусусиятлари билан бошқа элатлардан ажралиб туради[6:99].

Юқорида баён этилган фикрларга асосланган ҳолда хулоса қилиш мумкинки, вужудга келган зарурият асосида миллий-маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжини қондириш жараёнидавужудга келадиган қарама-қаршиликни бартараф этишмақсадга мувофиқдир. Шу билан бир қаторда ўқувчиларда миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжни шакллантириш стратегияларини аниқлаш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш воситалари, усул ва методларини белгилаб бериш ҳам муҳим вазифалардан биридир.

Бу борада қуйидаги муаммоларни ечиш зарур:

-ўқувчиларда миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжни шакллантиришнинг илмий педагогик асосларини белгилаб бериш;

-ўқув – тарбия миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжни шакллантиришга йўналтирилган педагогик тизимни вужудга келтириш.

Албатта, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одатлари ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада табиийки, маънавий мерос, маданий бойликлар, кўхна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллардан бири бўлиб хизмат қилади. Шундай экан бой тарихимиз, моддий ва маънавий меросимиз, илмий салоҳиятимиздан ўринли фойдаланиш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016.

2. Дониёров А.Х. Замонавий этнологияда этномаданият масалалари // Ўзбекистон этнлогиясининг назарий методологик муаммолари. “Академик Карим Шониёзов ўқишлар” туркумида VI Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: Навруз, 2014.

3. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент: Фан, 2001.

4. Каримов И. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. – Тошкент: Фан, 2007.

5. Назаров Қ.Н. Аксиология (қадриятлар фалсафаси): тажрибавий қўлланма. Тошкент: 2011.

6. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / таҳрир ҳайъати: Д.А.Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С.Абдуллаев ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2001.

TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOIY KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Z.T.Nazarova
Samarqand davlat universiteti Kattaqurg‘on filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda ijtimoy kompetensiyalarning o‘rni, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash va rivojlantirib borish kabi ma’lumotlar berilgan.

Annotatsiya

В статье представлена информация о роли социальных компетенций в совершенствовании профессиональной деятельности педагогов образования, рациональном решении профессионально-педагогических задач, реалистической оценке и развитии результатов их деятельности.

Abstract

The article provides information about the role of social competencies in improving the professional activities of education teachers, the rational solution of professional and pedagogical tasks, a realistic assessment and development of the results of their activities.

O‘zbekistonda maktab ta’limi samaradorligini oshirish, ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy qilish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda tarbiya fani o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonida ijtimoiy konpetensiyalarini oshirish ta’lim sifatiga bevosita ijobiy ta’sir etadi.

Tarbiya fani o‘qituvchilari kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangilashda umume’tirof etilgan kompetensiyalardan foydalanish amaliyotda ijobiy samara beradi. Kompetensiya bilim olish, tajriba, qadriyatlar, moyillikka asoslangan umumiy qobiliyat sifatida faqat bilim yoki ko‘nikma bilan chegaralanmaydi. Vakolatli bo‘lish, o‘rganish yoki o‘qishni anglatmaydi. Ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni tushunish mumkin. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish. Maxsus kompetentlik kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash va rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi: psixologik kompetentlik pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; metodik kompetentlik pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash; informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish; kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy,

ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; innovatsion kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish; kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta’lim oluvchilar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi: kasbiy takomillashib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4963-sonli qarorida sohada xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ularning doimiy malakasini oshirib borish tizimi belgilab berilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida, jumladan, Yevropa Kengashining «Yevropada o‘rta ta’lim» loyihasi doirasida mazkur Kengash tomonidan 1996 yilda Bernda o‘tkazilgan «Evropa uchun tayanch kompetensiyalar» simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari belgilangan bo‘lib, u o‘qituvchidan o‘quvchiga mazkur ko‘nikmalarni singdirishga qaratilgan kompetensiyani talab qiladi. Ular quyidagilar:

➢ **Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar:**
o‘ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo‘ravonliksiz hal qila olish;
➢ **Ko‘p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari:**
tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o‘zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatga kirishish;
➢ **Bir va undan ortiq tilda og‘zaki va yozma muloqot qila olish;**
➢ **Axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari:**
yangi texnologiyalarni bilish, ularni qo‘llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma’lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo‘lish;
➢ **Butun hayoti davomida uzluksiz ta’limni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o‘zini o‘zi o‘qitish qobiliyati.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi» da tarbiyaviy ishlarning kutilgan natijalarni berishi uchun muayyan prinsiplar ishlab chiqilgan:

- har bir tarbiyaviy tadbirni uyushtirishdan ko‘zlangan aniq maqsadni belgilash;
- erishiladigan natijani bashoratlash;
- tadbirning maqsadi, vazifalari hamda natijalarini nazariy jihatdan asoslash;
- har bir tadbir loyihasini yaratish;

- fan, texnika, texnologiya va tajribaning eng yangi, ilg‘or yutuqlarini natijani kafolatlashga safarbar qilish;

- tarbiyaviy ishlarni intensiv asosga, ya’ni, maksimal ilmiy aniqlik, kam resurs sarflab samarali natijaga erishish asosiga qurish;

- tarbiyaviy kinetik jarayonni boshqariluvchi jarayonga aylantirish;

- maqbullik, ilmiy-amaliy yo‘nalishga o‘tish (masalan, tarbiyalanuvchilarda «vatanparvarlik» to‘g‘risidagi tushunchani shakllantirishdan ularda vatanparvarlik kompetensiyasini tarbiyalash);

- tadbirni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadning natijalanganligini tahlil etib borish, ekspert baholash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida pedagoglarni tayyorlashning metodik ta’minoti qoniqarsizligi, shuningdek, davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgani qayd qilindi. Ushbu hujjatda uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimini rivojlantirish uchun:

o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini ta’limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e’tibor qaratgan holda, o‘quv materiallarini va pedagogik baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish; Shuningdek, Prezident Farmonida pedagoglarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, ijtimoiy kompetensiyalariga talablar oshirildi. Unda Xalq ta’limi tizimi xodimlari odob-axloq qoidalarining (Etika kodeksi) yangi tahririni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari belgilab berildi. Ushbu yangiliklar eng avvalo tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash tizimiga mazkur islohotlarni tezkor o‘zlashtirish va ushbu asosda ta’lim tizimini yangi davr talablaridan kelib chiqib isloh qilishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” – 2017. – B. 29.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent.:“O‘zbekiston”,2017.–B.488.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.T. Tib-kitob, 2010.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

5. Колесникова И. А., Борытко Н. М., и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособие. М.: Академия, 2006 – с. 333.

TALABALARNI PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDAGI NIZOLI VAZIYATLAR PROFILAKTIKASIGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI (Oliy va Umumiy o‘rta ta’lim hamkorligi misolida)

T.E.Eshquvvatov
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, Maktabgacha ta’lim va pedagogika kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada pedagogik yo‘nalish talabalarining pedagogik amaliyot jarayoni nizolari, o‘rganilganlik darajasi, sabab va motivlari, ko‘rinishlari, “o‘qituvchi-o‘quvchi” tipidgi nizolar va ularning tahlili, ularni boshqarish usullarini o‘rganishlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular oliy va umumiy o‘rta talim maktablariga psixologik xizmat ko‘rsatish maqsadida bajarilgan va bo‘lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o‘ylaymiz

Аннотация: В статью включены исследования конфликтов, уровня обучения, причин и мотивов, проявлений, конфликтов типа «учитель-ученик» и их анализ, методы их управления, и проводились они в целях оказания психологической помощи высшим и общим средних школах, и мы думаем, что они помогут будущим педагогам методически

Annotation: The article includes studies of conflicts, the level of education, causes and motives, manifestations, conflicts of the "teacher-student" type and their analysis, methods of their management, and they were carried out in order to provide psychological assistance to higher and general secondary schools, and we think that they will help future teachers methodically

Xalq ta’limi tizimi, boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan, funksional jihatdan, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlarning murakkabligi va noaniqligi pedagogik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy va hayotning boshqa ko‘plab sohalarini qamrab olishida ko‘rinadi. Bunday turlilik manfaatlar, munosabatlar, fikrlar, pozitsiyalar va odamlarning ehtiyojlari to‘qnashuvini yuzaga keltirishi tabiiy.

Xalq ta’limi muassasalarida sub’ektlar o‘rtasidagi muloqot shakllari ko‘p jihatdan yuqoridagi komponentlar bo‘yicha ijtimoiy-madaniy va individual psixologik sifatlarga, shuningdek, jamoada o‘rnatilgan an’analar, me’yorlar va o‘rnatilgan qoidalariga bog‘liq.

Bugungi kunda jahon miqyosida turli pedagogik vaziyatlarda nizolarning yuzaga kelish bosqichlari, ularda sub’ekt xususiyatlarining o‘rni, ijtimoiy-pedagogik muhit ziddiyatlari, nizoli muammolarni bartaraf etishning aniq mexanizmlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

A.Zasobina, S. L.Kabilniskaya, N. V.Savinlarning fikriga ko‘ra pedagogik ziddiyatning o‘zi oddiy ijtimoiy hodisadir. Biroq o‘qitishdagi ziddiyatlar ko‘pincha o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini doimiy ravishda izdan chiqarashi sababli nizoli vaziyatlarning oldini olish va hal etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi lozim [1; 42-b].

S.V.Banikina va Ye.I.Stepanovlar o‘z ilmiy izlanishlarini konfliktologik ta’limga qaratilgan, ularning fikricha pedagogik ziddiyatlarni o‘rganilishining amaliy vazifasi ta’lim muassasalarining asosiy sub’ektlari – nafaqat o‘qituvchilar va o‘quvchi, balki ma’muriyat va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni normallashtirish va insonparvarlashtirishga erishishdan iborat deb ko‘rsatgan [2].

O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda nizolarning quyidagi sabablari keng tarqalgan:

- qadr-qiymat yo‘nalishidagi farqlar;
- munosabatdagi qo‘pollik, odobsizlik;
- hamkorlikdagi natijalardagi farqlar;
- o‘qituvchilarning kasbiy darajasi va talabaning o‘zlashtirishi.

Ta’lim jarayonidagi ziddiyatlarning asosiy muammolaridan biri, didaktika sohasida ham mavjud, jumladan [2; 118-b]:

- o‘quvchilarga taklif etilayotgan o‘quv materialining murakkabligi, tafakkurni shakllantirish darajasiga mos kelmasligi;

- materialning ortiqcha nazariyalanishi, asoslantirilmaganligi, amaliy faoliyat bilan bog‘lanmaganligi;

- o‘quvchining muayyan mavzuni o‘rganishi va muayyan kasbni egallashi uchun motivatsiyani yetishmasligi kabi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va muammoni amaliy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlash jarayonining metodologik, nazariy va texnologik asoslari hali pedagogika va psixologiya fanlarida yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa talabalarning oliy ta’limdan keyingi mehnat faoliyatlari samaradorligiga salbiy ta’sirini o‘tkazib, ta’lim muassasalarining oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni o‘z vaqtida bartaraf etishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu hol, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning nizoli vaziyatlarga tayyorgarlashning dolzarbligini bildiradi. Bu dolzarblik bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashning samarali yo‘llarini aniqlash va uni oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga tadbiq etish zaruratini asoslaydi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish pedagogik tajribani umumlashtirish asosida quyidagicha muammolar mavjudligi ko‘rinadi: o‘qituvchi faoliyatida nizoli vaziyatlar pedagogik jarayonlarni izdan chiqishiga asosiy sabab bo‘lishi ilmiy asoslangan bo‘lsa-da, ayni sharoitda tayyorlanayotgan pedagoglar kelgusi faoliyatlarida ijtimoiy hamkorlikdagi inqirozlarni hal qilish, pedagogik jarayon sub’ektlari bilan yuzaga keladigan pedagogik nizolar oldini olish, bunday jarayonlarga nisbatan pedagogik jihatdan mos konstruktiv munosabatlarga kirishisha olish layoqatiga yetarlicha ega emasliklari, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashning hozirgi holati o‘quv mazmunini ishlab chiqish va o‘quv jarayonlarni tashkil etishda nizoli vaziyatlarga oid kompetensiyaviy yondashuvlar asosiga qurilmaganligi, talabalarni bu borada layoqatlarini baholash tizimi hal etilmagan.

Tadqiqotimiz davomida ilgari surilgan nazariyani eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazish hamda uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlar profilaktikasiga tayyorlash hamda pedagogik faoliyatga tayyorlashda konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida yuzaga keltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar natijasida sub’ektlar faolligining ortishi va ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini kuzatish uchun dastur asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba-sinovlarda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda qatnashgan talabalarning(jami talaba respondentlar 220 ta) 37 foizi talaba-o‘qituvchi nizolarining salmoqli qismi o‘qituvchilarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisobladilar. Aksariyat talabalar fanlar mazmunining real hayotdan ajratilganligiga, 32% talaba o‘quv kursi dasturlari tuzilishiga salbiy munosabat bildirdi.

O‘z navbatida professor-o‘qituvchilar (jami o‘qituvchi respondentlar 86ta) ta’lim jarayonining past samaradorligi va muloqotdagi nizoli vaziyatlarni quyidagi sabablar bilan izohladilar:

- bilim olishga bo‘lgan salbiy munosabat, dangasalik, o‘rganishni istamaslik (34%);

- mustaqil fikrlash yo‘qligi, umumiy ta’lim va siyosiy madaniyatning pastligi, fanlarning ahamiyatini anglamaslik (12%);

- bo‘lajak kasbiga qiziqishning yo‘qligi yoki o‘z istiqbolini ko‘rmaslik (56%);

- o‘ta izzattalablik (27%).

Ishtirokchi respondentlar “O‘qituvchi-o‘qituvchi” munosabatidagi nizoli vaziyatlarni aksariyat hollarda hamkasblarning ishchanlik salohiyatini yetarli emasligi (22%), o‘zgalarning faoliyat natijalari soyasiga o‘tib olish (27%), o‘quv materiallari mazmuniga shaxsiy xissa qo‘shmaslik (24%), faoliyatdagi o‘zaro hamkorlikning yetishmasligi bilan bog‘ladilar.

Shu bilan birga “Universitet-o‘qituvchi” munosabatlaridagi noqulay vaziyatlar omili sifatida oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘qituvchidagi tashabbuskorlikning yetishmasligi, dars o‘tishdagi bepisandlik, jamoat ishlaridagi mas’uliyatsizlik, muassasa rivojlanishi va istiqboliga befarqlik, o‘z ustida ishlamaslik, axborot texnologiyalari bilan ishlash va tillarni o‘rganishga

bo‘lgan harakatning yetarli emasligi kabilar keltirilgan bo‘lsa, professor-o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan asosiy e’tirozlar muassasadagi infratuzilmaning yetarlicha rivojanmaganligi (38%), o‘qituvchilarning mehnatiga yarasha munosabat ko‘rsatilmasligi (44%), tashabbus qo‘llab-quvvatlanmasligi (36%) kabilarda namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotning “Universitet-talaba” munosabatlariga qaratilgan qismida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra amaldagi vaziyatda oliy ta’lim muassasasi talabalarning ichki tartibga rioya qilmasliklari, shaxslararo muloqotlardagi mas’uliyatsizliklari va madaniy saviyaning pastligi, bilim olishga nisabatan dangasalik, shijoat va tashabbuskorlikning pastligi, axborot texnologiyalari va til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani yetishmasligini ta’kidlagan bo‘lsalar, talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasidagi ichki tartib-qoidalarning o‘ta rasmiyligi (72%), erkin muloqot va harakatning cheklanganligi (64%), infratuzilmaning qoniqarsizligi (64%), anonim tarzda esa ayrim hollarda yashirish korrupsiyaning davom etayotganligini bildirib o‘tdilar.

Mazkur tahlil oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilgan sub’ektlarning o‘zaro munosabatlarida ma’lum nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi uchun sharoit yaratayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida “Universitet-jamiyat” munosabatlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

“Universitet-jamiyat” o‘zaro munosabatidagi nizolarning yana bir guruhi o‘quv jarayoni va uning natijalari bilan bevosita bog‘liqligini ajratib ko‘rsatadi:

- universitet bitiruvchilarining intellektual va ijodiy darajasining zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan orqada qolishi;
- oliy ta’limning zarur yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda yetarlicha moslashuvchan emasligi natijasida bitiruvchilarining asosiy qismining malakasizligi;
- akademik (fundamental) ilm-fan, san’at, adabiyotga yo‘naltirilgan yuqori darajadagi ta’lim va aql-zakovatga ega, mutaxassislar va xodimlarga talabning mavjud emasligi.

Bizning nazarimizda “Universitet-jamiyat” munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarning asosiy mazmuni bu ikki sub’ektning bir biriga qo‘yayotgan talablarining o‘lchamli ko‘rinishga keltirilmaganligida, ya’ni o‘z funksional vazifalaridan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan natijaning o‘zaro solishtirma qiymati belgilanmaganligida. Bunda, faoliyatdagi natijaga ko‘ra sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nizoli tus olishi va siklik holatga tushib qolishi mumkinligini ko‘rsatadi. Buni quyidagi sxemada ko‘rish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat natijalari asosida sub’ektlarning siklik munosabatlari.

Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarining bevosita ishtirokchi sub’ektlari munosabatlaridagi yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasiga oid tashkiliy-pedagogik shart-sharoit yaratish orqali yuqorida ta’kidlangan “Universitet-jamiyat” munosabatlaridagi talablarni yagona o‘lchamli ko‘rinishga keltirish, ya’ni maqbullashtirish asosida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirish, kutilayotgan ta’lim sifatini ta’minlash imkoniyatlari ortadi.

Bundan tashqari talabalarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlanishiga ham ahamiyat qaratish, jumladan, ularning o‘quv-tarbiya jarayonidagi nizoli vaziyatlarda tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo‘lib yetishib chiqishlariga ta’sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Pedagogik-psixologik jihatdan bo‘lajak pedagoglarning nizolar va ularning tabiatini o‘rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham egadir. Talabalarning fani bu sohasini o‘rganishi turli vaziyatlarda yuzaga keluvchi nizolarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarni qo‘llashga yordam beradi.

Tayyorlanayotgan o‘qituvchi-murabbiylarning nizoli vaziyatlarga tayyor emasligi, bu boradagi layoqatsizligi, past malaka darajasi uning obro‘si hamda kasbiy va shaxsiy imidjiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati nizoli vaziyatlarga boy bo‘lib, ular profilaktikasiga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi natijasida pedagogik jarayonning yaxlitligi buziladi. O‘qituvchilarni kasbiy faoliyatlaridagi ziddiyatlarning oldini olish va hal qilishga tayyorligini shakllantirish oliy pedagogika sohasi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba bosqichi natijalariga ko‘ra yuqoridagi mezonlar bo‘yicha talabalarning ko‘pchiligi past darajada (41,3%), o‘rtacha darajada – 42,4%, yuqori darajada faqat 16,3% qayd baholandi.

Bu tahlillar bo‘lajak pedagog shaxsi va uning kasbiy integratsiyalashuvida nizolarni hal qila oluvchi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlari, tegishli bilimlar, ko‘nikmalar, munosabat va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda nizoli vaziyatlarni oldini olish imkonini beruvchi kompetentlikka alohida e’tibor qaratish zarurligidan dalolat beradi.

Bu esa tadqiqotimiz davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlariga nizolarning oldini olish va hal etish masalalarini integratsiyalovchi maxsus kurs ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi. Maxsus kurs maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nizolarni oldini olishga oid muayyan komponentlardan iborat fazilatlar, pedagogik faoliyatda nizolarni hal qilish uchun motivatsion bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat etib belgilanadi.

Tadqiqotimizda o‘quv jarayoni nizolari profilaktikasining ta’lim-tarbiya sohasidagi tutgan o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqib, nizo omillarini chuqurroq tahlil qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Pedagogik munosabatlarda bir ishtirokchi tashkiliy muammoni hal qilish, ikkinchisi esa uni amalga oshirish uchun harakatlarini qat’iy yo‘naltiradi. Bunda shaxslararo va shaxsning o‘zida muntazam ravishda qondirilmagan ishtiyoq, yechilmagan masala, taqsimlanmagan moddiy ob’ekt yoki ish va boshqa yechimi ochiq qoldirilgan holatlarga bo‘lgan reaksiyasi – tushunmovchilik, axborotni turlicha qabul qilish va talqin qilinishi kabilar nizodan avvalgi – “qo‘shilmaslik” holatini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, nizolar asosini bu sub’ektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ortida yuzaga keluvchi belgilar tashkil qiladi. Nizolar profilaktikasiga oid mavjud ilmiy izlanishlar nizo belgisini idrok qilish, uning nizoga aylanish chegarasini anglash va erta bartaraf etish masalalariga yo‘naltirilgan.

Bunda nizolarni hal qilishning eng maqbul va natijali yo‘li sifatida sub’ektlarning o‘zlari tomonidan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarga e’tibor qaratiladi, ya’ni sub’ektning nizoli vaziyatni bartaraf etuvchi tashabbuskorligi muhim hisoblanadi. Biroq, bu yo‘lning natijadorligi ziddiyat ko‘rinishlari (ochiq, yashirin, ob’ektli, ob’ektsiz va h.), darajalari, sub’ekt xususiyatlari, shuningdek, nizoni to‘xtatishga intiluvchi kuchlar ixtiyoridagi

imkoniyatlar va boshqa turli omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarning xilma-xilligi esa mazkur yo‘lning har doim ham aniq natija bermasligini anglatadi.

Sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatda oydinlik kiritilmagan har qanday masalaning nizoli vaziyatni keltirib chiqarishi va uni o‘z vaqtida bartaraf etishdagi natijasizlik keyinchalik ijtimoiy faoliyatlarga, ayniqsa, ta’lim samaradorligiga, kafolatlangan sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ham inobatga olish lozim.

Tadqiqotimiz doirasida olingan ilmiy natijalarga tayanib, nizoli vaziyat belgilari paydo bo‘lganda yoki harakatga aylanganida va yoki to‘laqonli nizoli vaziyatda tegishli choralar ko‘rish emas, balki ushbu choralarga qadar sub’ektlarning ma’lum funksiyasini shaxslararo munosabatga quriladigan har qanday faoliyat yakuni o‘ta ochiq va tushunarli bo‘lishiga erishish nuqtai nazaridan tartibga solish taklif etiladi.

Bunda o‘quv jarayonining har bir tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bilan bog‘liq bosqichlarida sub’ektlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olishga qaratilgan va avvaldan puxta o‘ylangan funksiyalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Засобина Г. А., Кабыльницкая С. Л., Савин Н. В. Практикум по педагогике: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1986. – 111с
2. Баныкина С.В., Степанов Е.И. Конфликты в современной школе: Изучение и управление
3. Поенко О.Н. Понимание учителем личности ученика подросткового возраста как фактор решения межличностных и педагогических конфликтов: дис. канд. психол. наук: 19.00.07. – Киев, 2001. – 199 с.
4. Зайцев, А. К.Социальный конфликт Текст. / А. К. Зайцев. — М. :1. Academia, 2000. 464 с.
5. Темина С.Ю. Конфликты школы и «школа конфликтов»? (Введение в конфликтологию образования) / С.Ю. Темина. М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО МОДЭК, 2002. — 144 с.

OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISh KONSEPSIYASINING DAVLAT TA’LIM STRATEGIYASIDAGI O‘RNI

U.S.Xurshid
TATU Samarqand filiali gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
M.O.Avg‘onova
TATU Samarqand filiali “Axborot komunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasb ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: maqolada oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, islohot, konsepsiya, ilm, savodxonlik, korrupsiya

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mamlakatimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”sining asosiy maqsadini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan ushbu konsepsiya sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda [1, 1-b.].

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiyaning mazmunida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari aks ettirildi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoriylashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berildi. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda.Ushbu konsepsiyada xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda qo‘yidagi asosiy ustivor vazifalar sifatida belgilangan. Jumladan,

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash.

Shuningdek, oliy ta’limda ijtimoiy nazorat, jumladan jamoatchilik ta’sirini oshirishga qaratilgan faoliyatni ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur funksiyani amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim kengashini tashkil etib, kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim

sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta’limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta’lim berishda qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligiga xolisona baho berish;

ta’lim berishda yuqori sifatni ta’minlash yuzasidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

oliy ta’lim muassasalarida shaffoflik, xolislik va ob’ektivlikni ta’minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo‘shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta’lim tizimiga jalb etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat vazifalar yuklatilgan.

Bugungi kunda respublikada 187 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 34 tasi universitet, 48 tasi institut, 3 tasi akdemiya, 27 tasi filial, 1 tasi konservatoriya, 43 tasi nodavlat oliy ta’lim muassasalari hamda 31 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi[2, 1-b.]. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yo‘nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so‘nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi. Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqda. Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 13,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqda.

Oliy ta’lim tizimida keyingi yillarda sohani tubdan takomillashtirish, izchil rivojlantirish, XXI asr talablariga moslashtirish, zamon bilan hamnafas qilish borasida aniq, izchil va keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, soha taraqqiyotiga yo‘naltirilgan o‘nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Oliy ta’limda islohotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, biroq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategiyasi ishlab chiqildi va bugungi kunda amalda o‘z ifodasini topmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida buyuk kelajakka qo‘yilgan asosiy strategiyalarning samaradorligi amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘lami va mantig‘iga bog‘liqdir. Qaysi soha e’tiborga muhtojligini ilg‘ab, chuqur va har tomonlama o‘ylanib, amalga oshirilgan islohotlargina xalqning mushkulini oson, og‘irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Islohotlar zamirida bugungi muammolarni yechish bilan birga uzoq kelajak ham ko‘zlangan bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ta’kidlash joizki, jamiyatning rivojlanish tendensiyalari, aholining demografik o‘sishi, salmoqli qatlam bo‘lgan yoshlarning intilishi, global texnologik jarayonlarni hisobga olgan holda ta’lim tizimida o‘tkazilgan islohotlar kutilgan samarani bermoqda. Uning asnosida depsinib turgan muammolarga yechim topilib, tizimli muammolar kamaymoqda.

Ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob’ro‘-e’tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, 2019 yil 8 oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda ham mamlakatimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Ushbu keng ko‘lamli vazifalarni bajarishda nafaqat oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, balki butun xalqimizning faol ishtiroki taqozo etilgan edi.

Albatta, mazkur hujjatlar kadrlar tayyorlashda muhim qadam hisoblanib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilishiga asos bo‘ldi. Qarorda oliy ta’lim muassasalari (OTM)da ta’lim sifatini oshirishga to‘siq bo‘lib kelayotgan bir qator muammolar, bugungi kunda uchrayotgan og‘riqli nuqtalar ochiq-oydin sanab o‘tilgani holda ushbu muammolarning yechimlari ham to‘liq ko‘rsatib berildi.

Bugungi kunda talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash borasida yangicha yo‘l tutilmoqda. Bunda ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlari inobatga olingan holda, avtomatlashtirilgan, talabalar bilimini baholashning portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat kabi zamonaviy, shaffof hamda adolatli usullari joriy etildi. Muayyan fanlardan dars bergan professor-o‘qituvchilarning yakuniy nazorat jarayonidagi ishtirokini istisno qiladigan tizimning qo‘llanilishi ham ta’lim tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlamoqda.

Yosh avlodni halollik, poklik kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali ongu shuurida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugunning dolzarb vazifasidir.

Islohotlarning dastlabki yillarida oliy ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amaliy ishlar oqsayotganligi, tizimdagi ayrim rahbarlar bu illatdan qutula olmayotganligi tanqid qilinib, oliy ta’lim sohasida korrupsiya tarqalgan yo‘nalishlar sanab o‘tilgan edi. Jumladan, korrupsiya holatlari, asosan, talabalik safiga qabul qilish, o‘qish jarayonida topshiriladigan turli sinovlar, talabalarning bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish, magistraturaga qabul, shuningdek, talabalarning o‘qish joyini ko‘chirish, o‘qish yo‘nalishini o‘zgartirish hamda o‘qishga qayta tiklashda korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi ko‘rsatilgan edi.

O‘tgan davr mobaynida oliy ta’limda qisqa muddatda olib borilgan islohotlar natijasida yuqorida keltirilgan korrupsion holatlarni bartaraf etishga qaratilgan tizim yaratildi va bu tizim o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Endilikda abiturientlarning hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish tizimi joriy etilgani, bir necha oliy ta’lim muassasasini hamda ta’lim shakllarini (kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy) erkin tanlay olishi, kirish imtihonlaridagi test savollari

tayyorlash uslublarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqilgani, ilg‘or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo‘lgan abiturientlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibi joriy qilinishi bu boradagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qildi.

Shuningdek, 2022 yil 7 iyun kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisida so‘zga chiqqan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Abduqodir Toshqulov oliy ta’limda tizimli korrupsiyani bartaraf etilgani, ammo, maishiy korrupsiya hamon saqlanib qolayotgani, asosan, o‘qishni ko‘chirish jarayonlarida kuzatilayotganini ma’lum qildi. Bu sohada kiritilgan yangi tartib yoshlarni o‘z maqsadlarini aniq belgilashiga hamda tizimda butunlay korrupsiyani yo‘q qilishga ijobiy ta’sirini o‘tkazishi shubhasizdir.

Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilmaganligi ushbu sohada ko‘plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘layotgan edi. Bugungi kunda barcha OTMda talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o‘qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, “korrupsiyasiz oliy ta’lim” shiorini to‘laqonli ruyobga chiqarishda o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ta’limi va tarbiyasidagi o‘ziga xosliklar deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ta’kidlaganidek: “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Albatta, jahon yoshlari faoliyati va ijodi to‘g‘risida ko‘plab ijobiy misollar keltirish mumkin: fan va texnika, ijod, san’at va sportning barcha turlari bo‘yicha yoshlar tomonidan qo‘lga kiritilayotgan natijalar, albatta, insonni quvontiradi. Ushbu ijobiy holatlar va voqeliklar bizning davlatimiz yoshlari orasida ham sodir bo‘layotganini mamnuniyat bilan qayd etishga to‘la haqlimiz.

Ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan bugungi kunda ushbu talabdan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim sohasidagi islohotlar, aytish mumkinki, jahon andozalariga mos, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan ilmli yoshlarning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, bu yo‘lda bor bilim va salohiyatni safarbar etishga qodir bo‘lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun muhim masaladir”. Shunday ekan, belgilangan vazifalarning ijrosi sohada ilmiy salohiyatning yanada oshishiga, bozor talablariga mos mutaxassislarning tayyorlanishiga, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Zero, oliy ta’lim oliy darajada bo‘lishi, korrupsion illatlardan holi bo‘lishi hamda hayotiy kafolatga ega bo‘lishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://lex.uz/docs/4545884

2. https://edu.uz/uz/otm/index

3. Mardonov R. Features of educational services in modern conditions //Archive of Conferences. – 2021. – T. 22. – №. 1. – C. 100-103.

4. Ризаев И. И. и др. Коэволюционное развитие самоорганизации: взаимосвязь стабильности и нестабильности в социальной системе //Человек. Знак. Техника: II междунар. междисциплинар. молодеж. форум:[сб. ст.].-Текст: электронный.-Текст: электронный.-2022. – 2022.

5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of Makhdumi Azami Kasani). – 2021.

6. Усмонов Ф. Н. Эпистемологическая эволюция рационализма //Наука и современность. – 2012. – №. 19-1. – С. 194-198.

7. Саматов Х., Исомиддинов Й. Система социальной защиты «химойят» как в система общения с людьми по идея ходжа ахрара валиойят» как в система общения с людьми по идея ходжа ахрара вали //InterConf. – 2020.

8. Mardonov R. Humanization and humanitarization of higher education in the conditions of the information society //Conferencea. – 2021. – С. 21-28.

9. Husan M. Dialectics of Potentiality and Virtuality in Space and TIME //European Scholar Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 40-42.

ЎҚУВЧИЛАРДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ

Г.Х.Тагаев
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази
Ш.А.Шарипов
Пастдарғом тумани 22-мактаб тарих фани ўқитувчиси

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада ўқувчиларда миллий ва умуминсоний қадриятлар компетенциясини шакллантиришда этнографик муҳит, урф-одатлар, миллий қадриятларни таълим-тарбия жараёнларига сингдириб бориш масалалари ўрин олган. Шахс камолатида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўрни ва таъсири тизимли таҳлил этилган. Шу билан бир қаторда, ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шаклланишига ижобий таъсир этувчи педагогик тавсиялар ҳам кенг ўрин олган.

Таянч сўзлар: *Миллий ва умуминсоний қадриятлар, халқ педагогикаси анъаналари, халқлар маънавий-маданияти, маънавий мерос. урф-одатлар ва этник маданиятга оид анъаналар.*

Таълим тизимидаги замонавий ислоҳотлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳамда бозор иқтисодиёти чуқур илдиз отиб бораётган даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига мувофиқ бир қатор янги вазифаларни юзага келтиради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”[1;14] деб, ёшлар сиёсий фаоллигини оширишга даъват этдилар.

Асрлар давомида аждодлардан-авлодларга мерос бўлиб қолаётган анъана ва удум, қадрият ва маросимларнинг ҳар бирида тарбиянинг ўзига хос кўриниши мавжуд. Ёш авлодни маънан баркамол этиб тарбиялашда шубҳасиз, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланиш зарур. Бунинг учун этнопедагогикадан фойдаланамиз.

Ўзбек халқи педагогикаси тарихида ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда кўп асрлар давомида қўлланилган кўплаб усул ва воситалар, миллий урф-одат ва анъаналар, тарбия ҳақидаги ғоялар мужассамдир. Халқ педагогикасида ифодаланган ғоялар, тажрибалар халқ яратган афсоналарда, оғзаки ижод намуналарида, ёзма ёдгорликларда ўз ифодасини топган, улуғ мутафаккир олимларнинг илмий ва амалий жиҳатдан асосланган асарларида баён этилган.

Инсоний фазилатлар ва қадриятлар ҳаётда устувор аҳамият касб этиб, жамиятнинг маънавий-ахлоқий нормалари сифатида тан олинган. Ёшларда ушбу фазилат ва қадриятларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, муайян тайёргарликни талаб этади.

Миллий ўзликни англаш ўз ички зиддиятларига ҳам эга. Ўз-ўзини англаш жараёни реал ҳаёт вазифаларига мувофиқ тарзда муайян ҳаракат ва фаолият йўналишини танлаш асосида олиб борилади. Бу танлов эса инсон учун етакчи бўлган қадриятлар мажмуаси билан белгиланади. Ўз-ўзини ва миллий ўзликни англаш учун танлаб олган йўналиш таъсирида идеаллик парчаланади. Бир томондан миллий ўзлигини англаш даражасидаги шаклланган тасаввури бўйича ўз миллати ва унинг маънавий қадриятларини бошқа миллатларникидан афзал деб билади[3:86-87].

Миллий қадриятлар қадимий ва тарихий илдизга эга бўлиб, унинг мазмунида жинсидан қатъий назар, ўз тили, дини, урф-одатлари, ўзига хос анъаналарига эътиқод қилиш натижасида инсон камолотига эришиш, шахсни аҳлоқий шакллантириш каби йўналишлар муҳим ўрин эгаллаган. Шу нуқтаи назардан ҳозирги кунда ёшларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш учун халқ педагогикаси ва улуғ мутафаккирлартарғиб этган таълим-тарбияга оид қарашлар тизимига таяниш зарур.

Ҳуқуқий-демократик давлат ва фуқаролик жамиятини қуриш йўлида миллий қадриятларнинг ҳаётдаги роли ва ўрни ошиб бормоқда. Миллий қадриятларга содиқ бўлган халқни қул қилиш, абадий истибдодда сақлаш мумкин эмас. “Миллатнинг таназзули миллий қадриятлар таназзулидир, бу оқибат-натижада ушбу қадриятларни эгасиз қолиш хавфини туғдиради. Инсоният тарихи муайян этносларнинг вужудга келиши, тараққиёти ва таназзули, уларнинг ўрнига бошқалари вужудга келиши билан боғлиқ жараёндир. Бундай фикр эса ўз навбатида, ғоят муҳим ва долзарб масалага, миллат ўз қадриятларининг объекти сифатида, ўз-ўзини сақлаб турмоғи лозим, деган масалага олиб келади” [5:127].

Шундай экан, миллий қадриятлар асосида ёшларни маънавий-аҳлоқий тарбиялашда, келажаги буюк давлат қуришда, ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишда миллий қадриятлар муҳим ўрин эгаллайди. Чунки, мамлакатимизда яшаётган ҳар бир ёшнинг ва бутун аҳолининг маънавий-аҳлоқий камолоти орқали инсонпарвар, демократик, ҳуқуқий фуқаролик жамияти, келажаги буюк Ўзбекистон барпо этилади.

Дарҳақиқат, бугунги кунда фақатгина чинакам маърифатли одам инсон қадрини, миллий қадриятларини, бир сўз билан айтганда, ўзлигини англаш, эркин ва озод жамиятда яшаш, мустақил давлатимизнинг инсон ҳамжамиятида ўзига муносиб обрўли ўрин эгаллаши учун фидойилик билан курашиши мумкин. Шундай экан, таълим-тарбия жараёнида шахсни ҳар томонлама маънавий-аҳлоқий шакллантириш, унинг қобилиятларини рўёбга чиқариш ҳамда ижтимоий турмуш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш муҳим аҳамиятга эга.

Шундан келиб чиқиб қуйидагиларни тавсия этиш мумкин:

- Жамият ҳаёти ва таълим сохасида рўй бераётган туб ўзгаришлар ёшларни миллий – маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжларини аниқлаш ва уни қондириш заруриятини вужудга келтирмоқда.
- Шу зарурат туфайли ҳам ўқувчиларнинг ўз-ўзларини тарбиялашлари, миллий – маънавий жиҳатдан такомил этиб боришлари каби масалалар педагогик нуқтаи назардан алоҳида долзарблик касб этади. Бунда бадиий адабиёт, тарих, миллий санъат ва маданият намуналаридан фойдаланишга аҳамият бериш лозим.
- Чунки, маънавий оламини бойитиш, уларда масъулият туйғусини кучайтиради ва ватанпарвалликка чорлайди. Булар ўзини-ўзи англаш ўзлигини таъкидлаш, ўзини тадбиқ қилишга бўлган кучли интилишлар орқали номоён бўлади.

Бугунги кунда педагог-олимлар ёшларнинг миллий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжларни шакллантиришнинг муҳим билиш жараёни билан боғлиқ ижтимоий, эстетик, ахлоқий, тарихий ва маданий масалаларга алоҳида эътибор қаратишлари шарт.

Маънавий меросимизга жиддий эътибор қаратилаётган тарихий бир жараёнда мутахассис олимлар томонидан уларнинг ёзма тавсифини шакллантириш билан чекланиб қолмасдан, балки қадимий тарихга эга бўлган миллий қадриятларимизни халқ турмуши ҳамда анъанавий маданиятда тутган ўрни, уларнинг генезиси, ўзига хос хусусиятларини аниқлаш борасидаги тадқиқотлар муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади. Мазкур тадқиқотлар ўқувчиларда миллий ва умуминсоний қадриятлар компетенциясини шакллантириб бориш жараёнида муҳим аҳамият касб этади.

Бу борада диний эътиқодлар (бола туғилиши, тарбияси, суннат ва никоҳ тўйлари, мотам маросими), этник маданиятга оид анъаналар, символлар, моддий маданият намуналари (турар жойлар, кийим-кечаклар, озиқ-овқатлар), фольклор намуналари (эпос, мусиқа, рақс ва бошқалар) етакчи ўрин эгаллайди. **Натижада, ўқувчиларда ўзгаларнинг дунёқараши, диний еътиқоди, миллий ва этник ҳусусиятлари, анъана ва маросимларини ҳурмат қилиш каби компетенциялар шаклланиб боради.**

Шахс тарбиясида нафақат ижтимоий соҳалар тадқиқи, балки табиий соҳаларни ўрганиш ҳам устувор аҳамият касб этади. Табиат ва жамият қонунларини билишнинг ўзига хос хусусияти шуки, табиат ва унинг ҳодисалари билиш объекти, аммо уларнинг ўзлари билиш субъекти эмас. “Жамият қонунлари ҳам билиш объекти, ҳам субъектидир. Зеро, жамият бир-бири билан эҳтиёжлар ва манфаатлар муштараклигида уюшган одамлар ва ижтимоий гуруҳларнинг яхлит бирлиги, бирлашмасидир” [4:80-81].

Бу жараёнда бир авлод эгалари томонидан яратилган ижтимоий-маданий ютуқлар кейинги давр авлодлари учун фақат ворисийлик ҳуқуқини бермаган. Аксинча, аждодлар маданиятини ўзлаштириш, уни янада бойитиш вазифаси авлодлар зиммасига юклатилган мажбурият эмас, балки фуқаролик бурчи сифатида масъулият билан тан олинган. Шунинг учун ҳам аждодларимиз ўз ҳаёти давомида қандайдир янги санъат намуналарини яратишга ёки умуман янги соҳани кашф қилишга уриниб келган. Амалий санъат турларидан кандакорлик, бўёқчилик, заргарлик, мисгарлик, сополчилик, шишасозлик, тикувчилик, тўқувчилик унга мисолдир.

Ўзбек халқи этномаданий жараёнларида этногенез, этник тарих, этник идентиклик, этнодемография, ассимиляция, консолидация, моддий ва маънавий маданият, трансформация, этник ўзликни англаш, этноконфессиал мансублик, этнолингвистика, этнопсихология, маданий муҳит, жамоавий ва оилавий муносабатлар, маҳалла, урф-одатлар, маросимлар, анъанавийлик ва модернизация жараёнлари қоришиқ бўлади[2:52-58]. Этноснинг шаклланишида маданият ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, ҳар бир элат маданий хусусиятлари билан бошқа элатлардан ажралиб туради[6:99].

Юқорида баён этилган фикрларга асосланган ҳолда хулоса қилиш мумкинки, вужудга келган зарурият асосида миллий-маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжини қондириш жараёнидавужудга келадиган қарама-қаршиликни бартараф этишмақсадга мувофиқдир. Шу билан бир қаторда ўқувчиларда миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эхтиёжни шакллантириш стратегияларини аниқлаш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш воситалари, усул ва методларини белгилаб бериш ҳам муҳим вазифалардан биридир.

Бу борада қуйидаги муаммоларни ечиш зарур:

-ўқувчиларда миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжни шакллантиришнинг илмий педагогик асосларини белгилаб бериш;

-ўқув – тарбия миллий-маънавий қадриятларни эгаллашга бўлган эҳтиёжни шакллантиришга йўналтирилган педагогик тизимни вужудга келтириш.

Албатта, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одатлари ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада табиийки, маънавий мерос, маданий бойликлар, кўхна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллардан бири бўлиб хизмат қилади. Шундай экан бой тарихимиз, моддий ва маънавий меросимиз, илмий салоҳиятимиздан ўринли фойдаланиш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016.
2. Дониёров А.Х. Замонавий этнологияда этномаданият масалалари // Ўзбекистон этнлогиясининг назарий методологик муаммолари. "Академик Карим Шониёзов ўқишлар" туркумида VI Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: Навруз, 2014.
3. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент: Фан, 2001.
4. Каримов И. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Назаров Қ.Н. Аксиология (қадриятлар фалсафаси): тажрибавий қўлланма. Тошкент: 2011.
6. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / таҳрир ҳайъати: Д.А.Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С.Абдуллаев ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2001.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY ISH: OILA VA BOLALARGA YO'NALTIRILGAN IJTIMOIY XIZMATLAR

J.T.Ibragimov
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi
M.S.Abdusaitova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Yurtimizda inson kamoloti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab faoliyat turlari mavjud, lekin ijtimoiy ish alohida o'rin kasb etadi.

Ijtimoiy ish - bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga ko'maklashishga yo'naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kasbiy faoliyatdir.

Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan hozirgi ijtimoiy siyosatda oilalar va bolalarga manzilli yordam ko'rsatish asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Davlat tomonidan turli ijtimoiy xizmatlarning taqdim etilishi, ya'ni an'anaviy tarzda "tarqatish(taqsimlash)" tamoyili asosida ijtimoiy ta'minot idoralari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalariga ko'mak berib kelinmoqda. Ko'plab xayriya tashkilotlari va jamg'armalar, o'zini o'zi boshqaruv organlari tomonidan "yordam so'ragan" muhtojlarga moddiy va o'rni bilan ma'naviy yordam berib kelinmoqdaki, bu albatta, aholi farovonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda bir necha savollar paydo bo'ladi:

1.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj deb hisoblanuvchi, turli daftarlarga kiritilgan aholining aynan qanday muhofaza yoki ko'makka muhtoj ekanligi ilmiy va amaliy, professional tarzda o'rganilmoqdami?

2. Davlat g'aznasidan har yili ajratilayotgan mablag'lar ijtimoiy ko'makka muhtoj aholining ertasi, kelajagini ham hisobga olib taqsimlanmoqdami yoki shu kuni farovon o'tsinchi, keyini bir gap bo'lar yoxud "davlat bobo bor ekan – biz och qolmaymiz", qabilida shunchaki tarqatilmoqdami?

3. Ijtimoiy murakkab, og'ir vaziyatga tushib qolgan kishilarga o'zlarini tiklab olishlari uchun turli resurslar yo'naltirilmoqda, tadbirkorlik qilib, o'z o'zini ta'minlasin degan ezgu maqsadda katta katta kreditlar berilmoqda. Ular bu sohani yuritib ketishlari uchun yetarlicha malakaga egami, kimdir ularni amaliy va nazariy jihatdan bozor munosabatlari sharoitiga tayyorlamoqdami?

4. O'zi umuman, hozir aholining ijtimoiy zaif toifalari bilan ishlash uchun tayinlangan xodimlar huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, IT bilimlari, psixologik, hisob-kitob va buxgalteriya kabi bilimlar bilan yetarli darajada qurollanganlarmi? Bu savollarga javob izlab ko'rilsa mamlakatimiz ijtimoiy muhofaza tizimi faqatgina taqsimotdan iborat ekanligi, aholining real

muammolarini joyida ilmiy-dasturiy asosda o‘rganib, professional yondashuvni amalga oshiradigan mutaxassislar yetarli emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy ko‘mak nima? Keng ma’noda aytganda ijtimoiy ko‘mak tushunchasi aholini xotirjamligini ta’minlashga yo‘naltirilgan barcha tashkiliy muammolarni o‘z ichiga oluvchi faoliyat. U o‘z ichga ta’lim, sog‘liqni saqlash, reablitatsiya, kattalar va bolalarga ijtimoiy himoya, ijtimoiy ko‘mak, ijtimoiy sug‘urta, kishilarga moddiy yoki ma’naviy xizmat ko‘rsatish, konsultatsiya va aholini xotirjamligini ta’minlovchi boshqa barcha sohalarni o‘z ichiga oladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatlar uchun xos bo‘lgan bi xususiyat shuki, bu juamiyatlarda aholi tabiiy ravishda turli ijtimoiy qatlamlarga ajralib qoladi. Xususan, kam taminlangan oilalar, imkoniyati cheklanganlar, qariyalar, ota-ona qarmog‘isiz qolgan bolalar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini muhofaza qilish ularning huquq va manfaatlarini himoyalash davlatning ijtimoiy siyosatini asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Ijtimoiy ish - ijtimoiy ta’minotning, ijtimoiy ko‘makka va madadga muhtojlarga ijtimoiy yordam berish bilan amaliyotidagi shakli hisoblanadi. U samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy ishchi odamlarning muammolarini tushuna olishi va shu bilan birgalikda ularni qo‘llay olishi kerak. Ijtimoiy ish ijtimoiy xizmat bilan birgalikda ijtimoiy ko‘mak tushunchasiga ham alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozimdir.

Ijtimoiy ish ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ildizlari ijtimoiy hodisa sifatida inson va jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Ijtimoiy xizmatning ko‘rinishlari asosini katta qismini xayriya sifatida ifodalangan. Dastlaki ko‘rinishlari turli jamiyatlar har xil ko‘rinishlarda yuzaga kelgan masalan: Qadimgi Misrdagi ibodatxonalarda yordam marosimlari amalga oshirilgan: muhtojlarga bepul non tarqatilgan. Qadimgi Yunoniston, so‘ngra Qadimgi Rimda kambag‘allarga non, kiyim-kechak, pul tarqatish ko‘rinishlarida amalga oshirilgan. Sharqda ijtimoiy yordamning o‘ziga xos mexanizmi rivojlangan bo‘lib, ijtimoiy yordam turlari alohida va jamoa shakliga ega bo‘lgan. Yordamning keng tarqalgan shakli har bir musulmon tomonidan islomning asosiy qonunlarini bajarish-muhtojlarga xayr-ehson va moddiy yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Jamoatchilik yordamining jamoa shakllari orasida keng tarqalgani – hashar-jamoa yordami, qurbonlik-xudoyi, tibbiy yordam, maxsus bepul shifoxonalar tashkil etish hisoblangan.

Ijtimoiy ishning mamlakatimizda professional faoliyat ko‘rinishi sifatida shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy hayotni barcha sohalarini qamrab olgan sifatiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuv markazlari orqali yo‘naltirilgan ijtimoiy-insonparvarlik faoliyatining alohida tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 7 ustuvor yo‘nalishining aynan 4- yo‘nalishi, “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan bo‘lib yo‘nalishning tub maqsadi aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish jarayonini yanada yaxshilash va yanada zamonaviylashtirish yo‘lida xizmat qilishdan iborat.

Yo‘nalishning 6 ta asosiy vazifalari bo‘lib ulardan bazilari bilan tanishib chiqamiz. Keksa avlod vakillariga etibor va g‘amg‘o‘rlik ko‘rsatish ularni har tomonlama ezozlash. “Uch avlod uchrashuvi”, “Keksalar haftaligi” singari ma’naviy-marifiy tadbirlarni ko‘paytirish, Ota-onasidan ajragan mehrga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim tarbiya berish, kasb hunarga o‘qitish va turarjoy bilan taminlash, jamiyatimizda munosib o‘rin egallashiga jiddiy e’tibor qaratish. Xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash va yana ko‘plab vazifalar jamlangandir. “Mehribonlik uylari” va maxsus maktab-internatlarda yashayotgan bolalarni oilalarga qaytarish, hamda oilaga yaqin bo‘lgan muhitda bilimli va kasb-hunarli qilib tarbiyalash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish.

Oila- bu jamiyatning asosiy bug‘uni hamda nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini o‘taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nuklear oila

deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynota-qaynona birga yashovchi) tiplarga ajratishadi. O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasida turli yillarda umummilliy davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan, 1997 - "Inson manfaatlari" yili; 1998 - "Oila" yili; 1999 - "Ayollar" yili; 2000 - "Sog‘lom avlod" yili; 2001 - "Onalar va bolalar" yili; 2002 - "Qariyalarni qadrlash" yili; 2003 - "Obod mahalla" yili; 2004 - " Mehr-muruvvat " yili; 2005 - "Sihat-salomatlik" yili; 2006 - "Homiylar va shifokorlar" yili; 2007 - "Ijtimoiy himoya" yili; 2008 - "Yoshlar" yili; 2009 - "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili; 2010 - "Barkamol avlod" yili; 2011 - "Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik" yili; 2012 - "Mustahkam oila" yili; 2013 - "Obod turmush" yili; 2014 - "Sog‘lom bola" yili; 2015 - "Keksalarni e'zozlash" yili; 2016 - "Sog‘lom ona va bola" yili; 2017 - "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari" yili; 2018 - “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash" yili; 2019 - "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish" yili; 2020 - "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish"yili; 2021-"Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili; 2022 - "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla" yili” deb e’lon qilindi. Bu dasturlarda oila manfaatlarini ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila qadriyatlarini mustahkamlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida davlat siyosati darajasida tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi, juda katta miqdorda mablag‘lar yo‘naltirildi.

Rejalashtirilgan tadbirlarning natijalariga ko‘z yumish albatta, noto‘g‘ri bo‘ladi, lekin shu tadbirlarni idoralararo muvofiqlashtirish, integratsiyasini ta’minlash, aniq shaxs yoki oila darajassida yo‘naltirilishini ta’minlay oladiga ijtimoiy ishchilar orqali amalga oshirish natijalarning samardorligini yanada oshirgan bo‘lar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi, Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to‘g‘risida" 1994-yil 22-avgustdagi Farmon bilan muhtoj oilalarga moddiy va ma’naviy yordam berishning ko‘lami yanada kengaytirildi.

Asosan ijtimoiy himoyaga hozirgi kunda keksalar, bolalar, o‘smirlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘proq muhtoj bo‘lmoqda. Quyudagi hollarda bolalarni ijtimoy himoyaga olish rejalashtirigan bo‘lib shular jumlasidan:

- Ota-ona qarmog‘isiz qolgan bolalar
- Nogironligi bo‘lgan bolalar
- Og‘ir ruhiy kasalliklari bo‘lgan bolalar
- Vasiy va ota-ona nazoratisiz qolgan bolalar
- Masul shaxslar va ota-onalar tomonidan zo‘rovonlikka uchragan bolalar
- Huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoji bo‘lgan bolalar

Shu kabi holatlarda bolalar ijtimoiy xodim tomonidan nazoratga olinadi va ularning muammolari o‘rganib chiqilib yechim topiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 64-65 moddalari bolalarni himoya qilishga yo‘naltirilgan.

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

2019 yil 21-22 noyabr kunlari Toshkentda “O‘zbekistonda bolalar va oilalar farovonligini ta'minlashda ijtimoiy ishni mustahkamlash” mavzusida forum bo‘lib o‘tdi. Respublika

bolalarning Ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen Yolgiz Emassan" jamg‘armasi, “Oila” markazi, Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari, O‘zbekiston Milliy universiteti va BMT UNICEF jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbir “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning 30 yilligiga bag‘ishlandi. Unda ijtimoiy sohaning turli jabhalarida ishlayotgan mutaxassislar, jumladan xalqaro va mahalliy ekspertlar, siyosatchilar, parlament a’zolari, davlat idoralari vakillari, tadqiqotchi va amaliyotchilar ishtirok etdilar.

Ushbu tadbirning asosiy maqsadi O‘zbekistonda ijtimoiy soha ishlarini samarali rejalashtirish va bu sohani rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu sohaga muntazam ravishda investitsiya kiritish va shu orqali himoyaga muhtoj oilalar farovonligini ta’minlash uchun barqaror yondashuvni qabul qilish uchun hukumatning harakatlar strategiyasiga hissa qo‘shishdan iboratdir. Shuningdek, tadbirda bolalarni himoya qilish bo‘yicha islohotlarni kuchaytirish uchun ijtimoiy xizmat xodimlarini o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash, ushbu tadbirlarni rejalashtirishning samarali usullari ko‘rib chiqildi. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha munozaralar sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud modeldan ijtimoiy modelga o‘tish zarurligi ta'kidlandi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda bolalarni himoya qilish muassasalari mavjud bo‘lsa ham, ular bir qator omillar, masalan agentliklar o‘rtasida muvofiqlashtiruvning sustligi, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning yaxlit tizimi yo‘qligi va malakali mutaxassislarning etishmasligi kabi sabablar uchun samarali ishlamayapti.

Forum ishtirokchilari samarali ijtimoiy xizmat kadrlarini rivojlantirish uchun asosiy shartlarni belgilab oldilar. Ijtimoiy ishchilar uchun kasb va lavozimlarni aniqlash va ishlab chiqish zaruriyati mavjudligi aytib o‘tildi. Bu sohadagi o‘quv dasturlari tegishli fanlar bo‘yicha ta'lim va o‘qitish sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi lozimligiga e’tibor qaratildi. Ijtimoiy xizmat xodimlari kam ta'minlangan oilalarga tashrif buyurishlari, ularning ahvolini baholashlari va yordam ko‘rsatish uchun zarur choralar ko‘rilishi zarurligi ta’kidlandi. Respublikamizdagi O‘zbekiston Milliy universitetida ixtisoslashtirilgangan ijtimoiy ish bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida ham bir necha qarorlar tasdiqlandi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan har bir bola uchun alohida yordam ko‘rsatish bo‘yicha dastur ishlab chiqarilishi lozimligi haqida aytib o‘tildi.

Bolalar soni bo‘yicha statistikaga nazar tashlasak O‘zbekistonda 2022-yil 1-yanvar holati bo‘yicha 0–14 yoshdagi jami bolalar soni 9 million 870 ming 276 nafarni tashkil etgan. Shundan, 5 million 112 ming 470 nafari o‘g‘il bolalar bo‘lsa, 4 million 757 ming 806 nafari qiz bolalardir. Respublikamizda 0–14 yoshdagi o‘g‘il-qizlarning 4 million 559 ming 212 nafari shaharda, 5 million 311 ming 64 nafari esa qishloq joylarda istiqomat qiladi. Statistika ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki yurtimizda bolalarga bo‘lgan e’tibor yanada tez suratlarda o‘sib bormoqda shu sababli ham sog‘lom va bilimli oila davrasi bo‘lgan bolalar ko‘rsatkichi yildan-yilga oshib bormoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida **“Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” uchun**: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish va **Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida qayd etilib bu borada salmoqli tadbirlar amalga oshirilmoqda.**

Lekin aynan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo‘yicha mutaxassis kadrlar – oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli ijtimoiy ishchilar tayyorlash borasida aniq vazifalar belgilanmaganligi uchun o‘liy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida bu soha bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash uchun kvotalar mavjud ehtiyojlarga qaraganda anchayin past darajada.

Bizning ta’lim tizimimizda mutaxassislar tayyorlash uchun kvotalar aksar hollarda mehnat bozorini o‘rganish orqali shakllantiriladi, ammo shuni alohida qayd etish shartki, Ijtimoiy ishchi mutaxassislarga talab mehnat bozori vositasida shakllanadi, deb o‘ylashlik ijtimoiy siyosat

borasida savodsizlikdan boshqasi emas. Chunki, davlat o‘z ijtimoiy siyosatini yurituvchi mutaxassislarni nazariy jihatdan mustaqil faoliyat yuritadi, deb hisoblanuvchi mehnat bozoriga qarab emas, jamiyat a’zolari – davlat fuqarolarining ijtimoiy holatiga qarab belgilashi, aholiga taqdim etilishi maqsad qilingan ijtimoiy xizmatlar va muhofaza ko‘lamidan kelib chiqib belgilaydi.

Qisqasi, ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun tayyorlanadigan mutaxassislar soni, sifati – shu sohaga ajratilishi ko‘zda tutilgan e’tiborning son va sifatini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda ijtimoiy ishchilar tayyorlash son va sifat darajasining pastligi pirovard natijadan nima kutilayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/oz;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-58410633;

5. Ijtimoiy xizmat. D.Raxmonov. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2007. - 164 b.

6. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 268 bet.

7. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 168 b.

8. Ganiyeva Ma’rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma’ruf Boltayevich. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: VNESHVESTPROM nashriyoti. 2020. – 276 bet.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi - https://www. mineconomy.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi - https://stat.uz/uz/

IJTIMOIY ISHCHINING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI

J.T.Ibragimov
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘g‘on filiali o‘qituvchisi
H.B.Mallayeva
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘g‘on filiali talabasi

Annotatsiya: maqolada ijtimoiy ish, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy ishchining funksiyalari, kommunikatsiya, kommunikatsiyaning shakllari, ijtimoiy ishchining kommunikativ funksiyasi, kommunikativ funksiyaning insonlar turmushini yengillashtirishdagi ahamiyati, jamiyat hayotini tartibga solish va boshqarishdagi ahamiyati, ijtimoiy kommunikatsiyalar bo‘lmaganda nima bo‘lardi kabi tushunchalarga izohlar va ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy, ijtimoiy ish, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy institutlar kommunikativ funksiya, tashxislash funksiyasi, istiqbolni belgilash, ogohlantiruv-profilaktika, ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy-pedagogika, ijtimoiy-ruhiy muhit, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy kommunikatsiya, ijtimoiy reklama-targ‘ibot, tashkiliy funksiya, adolat, insonparlik, sir saqlash, kommunikator.

Ijtimoiy ish - bu butun dunyo hamjamiyatida qabul qilingan insonning insonga bo‘lgan munosabatini, insonning jamiyatga moslashishini yengillashtirish uchun qaratilgan faoliyatni anglatuvchi atamadir. Ushbu soha boshqa sohalardan o‘zining faoliyati bilan ajralib turadi.

Kundalik ongda ijtimoiy ish ko‘pincha haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalar bilan bog‘liq, ammo ular shunga qaramay, juda qat’iyatli. Masalan, ijtimoiy ishning kelib chiqishi haqidagi savolni olaylik. Ijtimoiy ish faqat o‘rta asrlarga borib tarqaladigan diniy xayriyaning zamonaviy, dunyoviy versiyasidir, degan fikrni eshitish odatiy hol emas. Aslida, xayriya va ijtimoiy ish faqat umumiy alturistik munosabat bilan birlashadi. Boshqa barcha asosiy parametrlarida-ijtimoiy xodimlarning maxsus tayyorgarligi bilan bog‘liq bo‘lgan maqsadlar, usullar bilan sezilarli darajada farqlanadi. Masalan: xayriya bilan shug‘ullanuvchi odamlar axloqiy burch va yaxshilik qilish maqsadida xayriya faoliyatlarini olib borishgan. Xayriya faoliyatlarining asosiy e’tibori yaxshilikka qaratilgan bo‘lib, uzoq muddat davom etgan. Zamonaviy ijtimoiy ish xodimlari esa ijtimoiy ishchilarning axloq kodeksida nazarda tutilgan vazifalari va majburiyatlariga muvofiq tarzda yordam ko‘rsatishadi. Shu bilan birga ular ko‘rsatadigan yordam ma’lum muddatli, ya’ni ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxsning ehtiyojlari qondirilib, o‘z hayotini o‘zi davom ettira oladigan darajaga yetkuniga qadar ijtimoiy xodim tomonidan ko‘mak ko‘rsatiladi. Demak yuqoridagi fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki ijtimoiy ish xodimlari odamlarga yordam berish, turmush sharoitini yaxshilash va jamiyatni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi xodimlardir.

Ijtimoiy ishchilar jamiyatdagi barcha fuqarolarning himoyasini ta’minlaydi. Asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj, aholining zaif toifalari (voyaga yetmagan yoshlar, yetim bolalar, jazoni o‘tash muassalaridan ozod qilingan shaxslar,muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslar, deviant xulqlilar, ko‘p bolali muhtoj oilalar, yolg‘iz keksalar, doimiy yashash manziliga ega bo‘lmaganlar) bilan ishlaydi. Ijtimoiy ish xodimi o‘z kasbiy faoliyati davomida adolatlilik, insonparlik, xushmuomalalik, sir saqlash kabi tamoyillarga amal qilishi kerak. Ular o‘z faoliyatida barcha fuqarolarni bir xil ko‘rib, ya’ni adolatlilik prinsipiga ko‘ra muammolarini hal qilishi kerak.Ularning asosiy vazifasi insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bunda e’tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minlash, kishilarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirilishi, ijtimoiy yordamga muhtoj va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyat va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi.

Ijtimoiy ishchining yana bir xususiyati shundaki, ijtimoiy ishchilar hech qachon davlat idorasining itoatkor ijrochilari emas. Ular kasaba uyushmalaridan farqli o‘laroq, ko‘pincha o‘z a’zolarining emas, balki mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy ish xodimining quyidagi funksiyalari mavjud:tashxislash funksiyasi, istiqbolni belgilash funksiyasi, ogohlantiruvchi profilaktik funksiya, huquqni muhofaza qilish funksiyasi, ijtimoiy-pedagogik funksiya, psixologik funksiya, ijtimoiy-tibbiy funksiya, ijtimoiy-maishiy funksiya., kommunikativ funksiya, reklama-targ‘ibot funksiya, tashkiliy funksiya.

Ijtimoiy ish xodimining yuqoridagi barcha funksiyalari katta ahamiyatga ega. Ulardan kommunikativ funksiyasini quyidagicha izohlaymiz.

Kommunikativ funksiya- aholining yordamga muxtoj bo‘lgan qatlami bilan turli xil ijtimoiy institutlar o‘rtasida axborot almashinuvini va o‘zaro aloqani ta’minlashga qaratilgan.

Kommunikativ faoliyatni ma’lumotni manbadan qabul qilivchiga ma’lum bir kanal orqali uzatish faoliyati deyshimiz mumkin.kommunikator va qabul qiluvchi o‘rtasida “teskari aloqa” amalga oshirilishi mumkin, ya’ni kommunikator qabul qiluvchining ma’lumotini qabul qilish darajasi va sifati to‘g‘risida ma’lumot olish jarayoni deyishimiz mumkin.

Umuman olganda ijtimoiy ishchilar kommunikativ funksiyasini amalga oshirish jarayonini quyidagicha baholaymiz: ijtimoiy ish xodimlari mijozlari, hamkasblari va ijtimoiy institutlar bilan aloqada ish olib boradi. Masalan, ijtimoiy ish xodimining faoliyati bevosita mijoz bilan aloqadorlikda amalga oshadi. Hamda ijtimoiy ishchi o‘z vazifasini amalga oshirishi jarayonida ma’lum muammoga duch kelishi ham mumkin. Bu vaqtda ular hamkasblaridan maslahat so‘rashadi. Shu bilan birga ijtimoiy xodimlar mijozlarining muammolarini hal qilish jarayonida

bevosita ijtimoiy institular va tashkilotlar bilan ham kommunikatsiya o‘rnatadi. Yuqoridagi fikrlar ijtimoiy ish xodimining o‘z faoliyati davomida amal qiladigan kommunikativ funksiyasiga misol bo‘la oladi.

Kommunikativ funksiyaning quyidagi shakllari mavjud: taqlid, dialog, boshqaruv.

Taqlid qilish deganda muloqot qiluvchining harakatlari, oluvchi tomonidan takrorlanishi tushuniladi.

Dialog- inson tili va nutqining shakllanishida antropogenez jarayonida odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan aloqaning o‘zaro ta’sir shakli. Muloqot ishtirokchilari bir-biriga ma’lum ma’nolarga ega bo‘lgan teng sub’ektlari sifatida munosabatda bo‘lishadi.

Boshqaruv- kommunikant qabul qiluvchini o‘z maqsadlariga erishish vositasi, nazorat sub’ekti sifatida ko‘rganida aloqa qiluvchi va oluvchi o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi.

Ijtimoiy ish xodimi kommunikativ funksiyasi bilan aholining zaif toifalarinining muammolarini hal qiladi, ularning turmush sharoitini yengillashtirishga yordam beradi. Masalan, ijtimoiy ishchining yoniga moddiy tomonlama muxtoj bo‘lgan shaxs ko‘mak so‘rab keldi. Bu vaziyatda ijtimoiy ishchi uning sharoitini, daromadini o‘rganib chiqib, tashkilotlar bilan hamkorlikda mijoziga moddiy yordamni tashkil qiladi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki ijtimoiy ishchi ham mijoz bilan ham tashkilot bilan kontakka kirishayapdi.

Ijtimoiy ish xodimi jamiyatni tartibga solish va boshqarishda bevosita o‘zining ma’lum o‘rniga ega. Jumladan,jamiyat a’zolari o‘rtasidagi turli xil kelishmovchiliklar, muammolarni hal qilish asosan ijtimoiy ish xodimining zimmasiga borib tushadi. Bu jarayonda ijtimoiy ish xodimi bevosita barcha funksiyalaridan, xususan asosan kommunikativ funksiyasidan foydalanadi. Negaki deganda barcha funksiyalarini amalga oshirishi uchun albatta eng birinchi o‘zaro kommunikatsiyaga ya’ni aloqaga kirishishi talab etiladi. Demak kommunikatsiya jamiyat hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy kommunikatsiya bo‘lmaganda nima bo‘lardi? Ushbu savolga quyidagicha javob beramiz. Ijtimoiy kommunikatsiya bo‘lmaganida jamiyatda muloqot, axborot almashinish bo‘lmasdi. Jamiyatda muloqot, axborot almashinish bo‘lmasa jamiyatni ham tasavvur qilaolmaymiz.

Xulosa ifoda etishda eng avvalo kommunikatsiyaning ahamiyati qanchalar ulkan ekanligidan boshlamoqchiman. Ijtimoiy ishchining kommunikativ funksiyasi insonlar turmushini yengillashtirishda, xususan jamiyat hayotini tartibga solish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Negaki ijtimoiy ishchi o‘z funksiyalarini amalga oshirishida bevosita atrofdagilar bilan aloqaga kirishadi. Aloqa esa bu kommunikatsiyadir. Bu esa kommunikativ funksiyaning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Chunki ijtimoiy ish xodimi aloqaga kirishmasdan turib biron-bir muammoni hal qila olmaydi. Nafaqat ijtimoiy sohada balki jamiyat hayotida ham kommunikatsiyaning o‘rni ulkandir.Biz jamiyatni kommunikatsiyasiz tasavvur qilaolmaymiz. Chunki har bir xatti-harakatni amalga oshirishda albatta kommunikatsiyaga murojat qilamiz. Zero kommunikatsiyasiz jamiyatda individlar faolligiga erisha olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/oz;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-58410633;
5. Ijtimoiy xizmat. D.Raxmonov. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2007. - 164 b.
6. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 268 bet.

7. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 168 b.
8. Ganiyeva Ma'rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma'ruf Boltayevich. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: VNESHVESTPROM nashriyoti. 2020. – 276 bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - https://www. mineconomy.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi - https://stat.uz/uz/

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ШКОЛАМИ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Н.Р.Махамаджанова
Докторант национального исследовательского института профессионального развития и обучения педагогов новым методикам имени А.Авлоний

Аннотация
Сегодня цифровизация образования является сильным трендом в плане реформирования и модернизации образовательной среды, а также её мониторинга. Образовательным учреждениям действительно нужны лидеры, способные адаптироваться к меняющимся временам и реализовывать ожидаемые организационные результаты в синергии цифровизации. В сегодняшний период цифровизации в Узбекистане важной задачей является пересмотр управления деятельностью школьных учителей и развитие их на основе современных тенденций. В данной статье описаны теоретические основы совершенствования деятельности учителей общеобразовательных школ посредством цифровизации.

Annotation
Today, the digitalization of education is a strong trend in terms of reforming and modernizing the educational environment, as well as its monitoring. Educational institutions really need leaders who can adapt to changing times and deliver expected organizational outcomes in the synergy of digitalization. In today's period of digitalization in Uzbekistan, an important task is to review the management of the activities of school teachers and develop them based on modern trends. This article describes the theoretical foundations for improving the activities of teachers in secondary schools through digitalization.

Ключевые слова: образование, цифровизация, учитель, школа, метод, информатизация, цифровые технологии, индивидуальный подход.

Введение

Сегодня основные исследования, проводимые в Узбекистане, сосредоточены на разработке и внедрении образовательных технологий в школах, а на важность активного привлечения учителей не обращают внимания. Возрастающая цифровизация многих направлений образования потребовала разработки методики вовлечения педагогов в освоение цифровых технологий. В современных условиях на учителя возлагается ответственность за достижение воспитательных целей, организацию разнообразной деятельности учащихся, формирование из них образованных, верных, трудолюбивых, всесторонне развитых людей.

Цифровизация образования является сильным трендом в плане реформирования и модернизации глобальной образовательной среды. Оцифровка означает перевод всех видов информации (звуков, текстов, видео, визуальных образов и другой информации из различных источников) на цифровой язык. При обсуждении феномена цифровизации следует отметить, что переход образовательного процесса на цифровую ступень различные аналитики и специалисты-прогнозисты считают переломным моментом в истории образования [1]. Цель цифровизации образования – интеграция цифровых

технологий в образовательный процесс. Оцифрованный процесс управления образованием позволяет использовать широкий спектр возможностей в управлении качеством образования. Традиционные методы управления создают препятствия для эффективного и результативного использования времени в работе.

Движение развития в сторону цифровизации происходит как в сфере образования, так и во всех сферах жизни. В такой ситуации требуется более быстрая адаптация к процессу оцифровки. (Christianingsih) Hiristianingsih не зря сказал: «Чем выше цифровая адаптация, тем более продвинутой и квалифицированной является школа» [2]. На наш взгляд, стиль директора учреждения влияет на развитие школы. Способность быстро адаптироваться к процессу цифровизации, реализуемому в системе общего среднего образования, также зависит от усилий директора школы. Образовательным учреждениям действительно нужны лидеры, способные адаптироваться к меняющимся временам и реализовывать ожидаемые организационные результаты в синергии цифровизации [3].

Методология

Спорные позиции по вопросам цифровизации образования делают актуальным обзор научных представлений и научной литературы, результатов эмпирических исследований по данной теме. Необходим системный анализ потенциальных рисков, связанных с внедрением цифровых технологий в образование и его деструктивных факторов. Междисциплинарный характер процессов, связанных с цифровизацией образования, объясняется сложностью их изучения в рамках предмета одной дисциплины.

Свое мнение в области развития цифровизации образования высказали ученые разных стран. В частности, Selwyn из Австралии, Ilina из России, Martin из Испании, Fenwick из Великобритании, Edwards представили свои новые творческие идеи по преодолению проблем, возникающих при цифровизации образовательного процесса, поиску их решений и представлению новых творческих идей через их статьи и тезисы. Кроме того, предпринята попытка выявить новые тенденции, преимущества и риски цифровизации образования, косвенно связанные с внедрением цифровых технологий в образование.

Полученные результаты

Изучение проблем цифровизации образования имеет особое значение. Сравнительный анализ этих процессов показывает необходимость более рационального подхода к определению сути и содержания вопроса. В ряде исследований подчеркиваются следующие особенности информатизации: использование автоматизированных банков данных, ресурсов дистанционного обучения, фрагментарное использование информационно-коммуникационных технологий в процессах передачи и мониторинга деятельности учителей. [4].

Обсуждение

Ряд концептуальных выводов можно сделать, сопоставив основные тенденции и особенности цифровизации образования с информатизацией образования. Прежде всего, отсутствие четкого разграничения этих понятий может привести к нарушению оценки эффективности внедрения цифровых технологий. Внимание руководителей образовательных организаций сосредоточено на увеличении цифровых ресурсов (видео-лекции, презентации, контент) с использованием элементов дистанционного обучения или цифрового представления результатов обучения (электронный дневник). Эти практики составляют суть информатизации образования, а цифровизация включает в себя переход на качественно новое содержание образовательного процесса (использование технологий виртуальной реальности, интерактивных методов, горизонтальных сетевых связей и т. д.).

Возрастающее внимание официальных организаций к внедрению цифровых технологий в систему образования ориентирует общеобразовательные школы на улучшение своего положения в этом отношении. Однако, учитывая слабость технологической базы и недостаточную подготовку педагогического коллектива, эти практики не обеспечивают требуемых показателей, а иногда могут вызывать побочные эффекты. Например, многие школы требуют, чтобы учителя разрабатывали электронный

контент по своим предметам и даже предоставляли видеозаписи своих лекций. Электронный формат нельзя рассматривать как содержательное описание цифровизации образования.

В современных условиях меняются подходы к организации учебного процесса в вузах и школах. Эксперты опасаются, что сегодня ведущие вузы могут утратить лидерские позиции и быть заменены сетевыми поставщиками образовательных услуг.

Кроме того, представляют интерес и вопросы об изменении личности молодежи в условиях цифровизации. Современное образование на основе цифровых технологий — это процесс производства не только знаний и навыков, но и самосознания и личных ценностей [5] (McLay, Renshaw, 2019). Цифровизация оказывает значительное влияние на нормы неформального общения. Неформальные цифровые практики меняют модели общения и коллективных действий перед лицом социального и академического неравенства. Расширение границ социального взаимодействия и появление новых форм самовыражения формируют новые альтернативные идентичности студентов [6]. В связи с этим возрастает риск увеличения дистанции между новыми поколениями студентов и преподавательским составом.

Сравнительный анализ концептуальных правил, представленных в научной литературе, позволил выявить несколько биполярных тенденций цифровизации образования. С одной стороны, наличие библиотечных ресурсов, электронного контента, лекционных материалов лучших преподавателей мира создает условия для получения студентами качественного образования вне зависимости от их дохода и места жительства. С другой стороны, по мнению экспертов, только часть населения, обладающая цифровой грамотностью и онлайн-навыками, может воспользоваться преимуществами цифровизации. Кроме того, ученые связывают развитие информационных и коммуникационных технологий с формированием нового цифрового разрыва. В условиях цифровизации возрастающие требования рынка труда к квалификации и навыкам личности снижают конкурентоспособность молодых специалистов, не имеющих материальной и финансовой базы для своего формирования. Кроме того, отсутствие цифровой грамотности можно рассматривать как серьезное препятствие для образовательных услуг в ближайшем будущем.

Уровень цифровой компетентности педагогов, их мотивация и готовность к внедрению цифровых технологий является одним из важнейших условий успешного использования цифровых технологий в образовании. Именно фигура учителя является центральным звеном и проводником перехода от провозглашения цифровизации образования к их практической реализации в школьных аудиториях или аудиториях вузов. Без активного вовлечения педагогического сообщества в процессы цифровизации, без заинтересованности в успешности и эффективности своего цифрового образования становится актуальной опасность имитации деятельности в этой сфере, примитивизации целей и задач цифровизации.

Вывод

Цифровые технологии являются неотъемлемой частью реальности нового общественного развития и существенно меняют образовательный процесс в школах и вузах.

К основным преимуществам цифровизации образования можно отнести: индивидуальный подход к обучающимся за счет использования искусственного интеллекта, формирование персональных образовательных траекторий, интенсификацию учебного процесса и повышение интереса к нему обучающихся, повышение эффективности обучения, учебный контроль материала и знаний, развитие социального и культурного капитала человека. Однако, несмотря на очевидные преимущества использования цифровых технологий в образовательном процессе, существуют определенные риски и фатальные последствия, связанные с деформацией педагогической деятельности учителя и практики обучения и воспитания молодежи. С точки зрения

педагога это означает вытеснение из образовательного поля опытных педагогов с недостаточными цифровыми компетенциями; изменение критериев оценки учителей; увеличение дополнительной нагрузки, смещение вектора педагогической работы в электронной образовательной среде, сужение границ непосредственного взаимодействия преподавателей и студентов.

Использованная литература

1. Stuart, K. (2014). What every parent needs to know about video games: a crash course. Date View 06.05.2017 https://www.theguardian.com/technology/2014/jun/02/parents-guide-videogames-playstation-xbox-wii-apps-children

2. Christianingsih, Endah. "Manajemen Mutu Perguruan Tinggi: Studi tentang Kepemimpinan Visioner dan Kinerja Dosen terhadap Mutu Perguruan Tinggi Swasta di Kota Bandun." Manajerial 9, no. 18, (2011): 31-41

3. Hambali. "Kepemimpinan Visioner." Madrasah 5, no. 1, (2012): 9-30.

4. Стрекалова, Н.Б. (2019). Риски внедрения цифровых технологий в образование. Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 25(2): 84-88. [на русском]

5. McLay, Renshaw, 2019. Making 'us' visible: Using membership categorization analysis to explore young people's accomplishment of collective identity-in-interaction in relation to digital technology. British educational research journal. DOI: 10.1002/berj.3565

6. Timmis, Munoz-Chereau, 2019 – Timmis, S., Munoz-Chereau, B. (2019).Under-represented students' university trajectories: building alternative identities and forms of capital through digital improvisations. Teaching in higher education. DOI: 10.1080/13562517.2019.1696295

GOOGLE SERVISLARI VA OFIS ILOVALARIDAN FOYDALANISHDA O‘RGATUVCHI VIDEOMA’RUZALARNING SAMARASI

D.A.Shodmonov, B.O‘.Mardiyev, A.A.Vahobov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Ushbu maqolada hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri, intensiv ta’lim texnologiyalarni qo‘llab, samaradorlikni oshirish masalasi qaraladi. Shundan kelib chiqib, axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda videoma’ruzalarning samarasi kattagina. Fanni o‘qitishda videoma’ruzalarni tayyorlab, saytga joylashtirib boramiz.

Hech kimga sir emaski, xozirgi kunda Internet va umuman, axborot texnologiyalari xayotimizni keskin o‘zgartirib yubormoqda. Jumladan, axborot texnologiyalarining ta’lim tizimiga tatbiq etilishi o‘z samarasini bermoqda.

Kitoblarning elektron nusxalari paydo bo‘lib, barcha jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘qish imkoniga ega bo‘ldi. Natijada, elektron kutubxonalar shakllana boshladi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim tizimi samaradorligini oshirdi va mukammalashtirish imkonini berdi. Bunday kutubxona adabiyotlaridan foydalanishda ayrim noqulayliklar yuzaga keladi. Eng asosiysi, kompyuter monitori oldida uzoq o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Bunda videoma’ruza va videodarslardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda turli texnologiyalarni videolar, aniqrog‘i, videodarslar orqali o‘rganish tobora odat bo‘lib bormoqda. Sababi ma’ruzalarni video shaklda yozish muammo bo‘lmay qoldi. Buning uchun bir qancha texnologiyalarni bilish kifoyadir. Shuning uchun videodarslar orqali o‘rganish ommaviy tus olmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ulardan foydalanilmoqda. Videodarslar orqali o‘rganish juda oson va tez samara beradi xamda ixtiyoriy inson o‘z bilimlarini video formatida yozib borib o‘rgatish imkoniga ega bo‘ladi.

Endilikda ko‘plab qalin va ayrim tushunarsiz kitoblarni o‘qishga vaqt sarflanmaydi. Ularning o‘rnini videodarslar egallaydi.

Biroq, xamma ham sifatli va foydali videoma’ruzalar va videodarslarni yarata olmaydi. Aytish mumkinki, hozirgi kunda turli xil veb-texnologiyalarni, Photoshop va Flash dasturlarini o‘rgatuvchi videoma’ruzalar mavjud. Ularning aksariyati rus va ingliz tilida, shu bois, o‘zbek tilida videoma’ruzalarni yaratish dolzarb masalalardan biridir. Veb-dasturlash soxasi bo‘yicha Adobe Dreamweaver SS4 dasturini o‘rgatuvchi multimediali o‘qitish tizimi yaratilgan. Ularning mavjud analoglaridan farqi shundaki, videodarslar to‘lik; o‘zbek tilida yaratilgan. Foydalanuvchi menyusi imkon darajasida soddalashtirilgan.

Biz videoma’ruzalarni Camtasia Studio dasturida yozib olamiz, Camtasia Studio dasturi to‘rtta yordamchi qismlardan iborat: Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater va Camtasia Recorder. Dasturning asosiy qismi, shubxasiz, Camtasia Recorder hisoblanadi. Barcha darslar aynan shu dastur yordamida yaratildi. Camtasia Studio dasturi oynasining pastki qismida “timeline” deb nomlanuvchi ishchi stoli mavjud bo‘lib, u orqali audio va video fayllar ustida turli xil amallarni bajarish mumkin.

Bular jumlasiga fayllarni bir-biriga bog‘lash, keraksiz qismlarni qirqib tashlash kabilar kiradi. Asosiy oynaning markazida dastur ishlashi mumkin bo‘lgan fayllar ro‘yxatini ko‘rsatuvchi Clip Bin qismi joylashgan. Shu fayllarni o‘ng tarafdagi videopleerda ko‘rish mumkin. Bu kichkinagina Camtasia Player dasturi faqatgina bitta vazifani bajaradi – AVI fayllarini namoyish etadi.

Camtasia Studio dasturi yordamida tayyorlangan videoma’ruzadan foydalanish metodikasini ko‘rib chiqamiz. Demak o‘quv rejasida ko‘rsatilgan mavzulardan biri Google Classroom. Google servislari va ofis ilovalari fanining bitta darsida Google Classroomdan foydalanishni o‘rgatamiz. 1-rasm.

Saytning Google Classroom menyusini tanlaganimizda quyidagi oyna ochiladi. Bu oynada mavzuning nazariy qismi, Google Classroomdan foydalanish yo‘riqnomasini tushintiradigan videoma’ruza joylashtirilgan

1-rasm.Saytning umumiy ko‘rinishi.

Navbatdagi darsimizda Google meet va undan foydalanish. Bu mavzuda ham oldingisidagi kabi barcha resurslar joylashtirilgan.2-rasm.



2-rasm. Fan resurslari.

Xulosa qilib aytganda talabalarga har bir amaliy mashg'ulotlarni Camtasia Studio dasturi yordamida tayyorlangan videoma'ruzalar yordamida tashkil etsak, ta'lim berish sifati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Шодмонов Д.А. Эффективность применения мультимедийных технологий в современном образовании// Журнал "Вестник Науки и Творчества". Материалы Международных мероприятий Общества Науки и Творчества. Город Казань за января 2016 г.

2.https://meet.google.com

ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ

З.И.Ахмеджанова
Ташкентский университет информационных технологий Самаркандского филиала.
У.Авазов
Ташкентский университет информационных технологий Самаркандского филиала.

Аннотация: Развитие информационных технологий по обеспечению грузовых перевозок. Элементы современных технологий, использование которых повышает эффективность перевозок. Внедрение в производственный процесс автоматизированных информационных систем.

ИТ-решения для автоматизации отрасли стали незаменимыми на современном транспортно-логистическом рынке. В свою очередь, автоматизация означает оптимизацию логистики, снижение затрат, повышение прозрачности логистических процессов, улучшение контроля над транспортными партнерами и персоналом, поиск новых деловых партнеров.

Сегодня как крупные, так и малые компании активно интересуются ИТ-решениями в логистике, ведь использование этих технологий в транспортной логистике приносит пользу всем участникам цепочки поставок: грузоотправителям, получателям, логистам и транспортным компаниям.

Информационные и коммуникационные технологии (ИКТ) являются в настоящее время главными инструментами, с помощью которых осуществляется модернизация в транспортной сфере. Современные информационные системы характеризуются созданием единого информационного пространства для всех участников взаимодействий. В виду обширности территории и охвата транспортными услугами самых отдаленных регионов и

точек страны, именно транспорт является самой территориально-распределенной отраслью. По этой причине главной особенностью транспортной инфраструктуры является ее высокая технологическая зависимость.[1]

Оптимизация загрузки транспортных единиц и маршрутов перевозки, отслеживание грузов в онлайн режиме на протяжении всего пути – такие задачи требуют скорости обработки, высокой точности и согласованности в логистических цепях. Только современные инновационные ИКТ позволяют реализовывать задачи такого уровня. В наши дни существует много коробочных решений, позволяющих сократить время доставки грузов и расходы с нею связанные, оптимально планировать и отслеживать перемещения товаров. Такие решения существуют для всех видов транспорта, но особенно эта сфера нашла широкое развитие в автотранспорте с началом применения GPS-навигаций, позволяющих отслеживать в режиме реального времени местонахождение каждой транспортной единицы.[2]

Актуальны задачи логистики в сфере, где происходит стыковка в перевозке грузов между разными видами транспорта, а, следовательно, между различными системами обработки данных, обусловленными нормативами, действующими в различных отраслях транспорта. Современные инновации в виде использования GPS мониторинга (с помощью спутниковой системы ГЛОНАСС), виртуальных распределенных вычислений (или облачных вычислений) и сервисов Интернета позволяют реализовать задачи современной логистики.

Особое значение приобретают информационные технологии при пассажирских перевозках и транспортировке грузов за рубеж. Только свободный транспортный коридор позволяет обеспечить своевременную доставку грузов, а это – залог повышения конкурентоспособности компаний. Создание единой евразийской транспортной системы, единого открытого информационного пространства на базе Интернет, единых стандартов обработки и передачи информации – основы глобальной интеграции в сфере транспортной логистики [3].

Транспортная логистика уже не видится без специальных Интернет-служб, позволяющих проектировать каналы доставки товаров и логистические цепочки, без прототипов виртуальных экспедиторских служб, без планировщиков маршрутов перевозки, позволяющих в интерактивном режиме составлять маршруты. Интернет-услуги дают возможность диспетчерам транспортных компаний отслеживать ситуацию в пограничных районах, в местах перегрузки товара, контролировать транспортировку по запросам. Среди наиболее популярных IT-решений, использующихся сегодня для автоматизации логистики, специалисты выделяют:

- CRM-системы;
- сервисы для учета данных;
- телефонии;
- хранилища данных;
- трекеры маршрутов;
- сервисы для поиска клиентов.

В число цифровых трендов, которые будут наблюдаться в логистике и управлении цепями поставок до 2030 года, аналитики включают:

- использование big data, облачных сервисов и интернета вещей;
- управление большинством логистических операций с помощью чат-ботов и роботов;
- активное внедрение мобильных приложений поставщиками логистических услуг;
- упор на системы логистической безопасности и кибербезопасности в индустрии логистических технологий.

Использованная литература

1. Современный инструментарий логистического управления: Учебник для вузов / Миротин Л.Б., Боков В.В. – М.: Издательство «Экзамен».

2. Монахов В. М. Методы оптимизации– М.: Просвещение.

3. Глушкова Ю. О. Информационная поддержка потоков логистической системы предприятия // Интегрированная логистика.

4. Дугин Г. С. Современные системы управления складом, цепочкой поставок и контейнерным терминалом // Интегрированная логистика

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARS MASHG'ULOTLARINI AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURI ORQALI O'QITISH

M.T.Shodmonqulov
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamlashtirish jarayonida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ―Ta'limda axborot texnologiyalari fanini elektron axborot-ta'lim resurslari AutoPlay dasturi asosida o'qitish yaratish metodikasi tadqiq etilgan. Raqamlashtirish jarayonida elektron axborot-ta'lim resurslarini joriy etish ko'zga tashlanmoqda. Ta'limga xos dasturiy ta'minotlar, masofaviy ta'limga mos interaktiv dasturlardan foydalanishning samradorligi hamda mustaqil bilim olishda axborot texnologiyalarining muhimligi, yoshlarning dunyoqarashiga mos manbaalarni zamonaviy ko'rinishdagi, interaktiv va kreativ tarzda axborot texnologiyalarida tayyorlash va uzatishning bugungi kundagi dolzarb masalalari xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, elektron resurs, IT, o'qitish metodikasi, multimedia, gipermedia, AutoPlay.

Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir. Istalgan fayl yoki fayllar to'plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorun-menyusi hosil qilishda Autoplay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin (1-rasm). Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichiMultimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin. Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta'minlovchi vosita, Web-saytllarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin. Amaliy dasturlarga oid grafik qobiqlarni yaratish va uni avtomatik ishga tushirish uchun Autoplay Media Studio barcha kerakli fayllarni o'zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diklarni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi.

Dastur foydalanuvchilarga obyektlarni o'zaro bog'lashni amalga oshirishga yordam beradigan yuzlab vositalarni taqdim eta oladi. Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarni ham bemalol qayta ishlash mumkin. Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obyektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin. Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi

“niqob”lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday — niqob” sifatida .jpg, .bmp va .png kabi formatdagi fayllardan foydalanilsa ham bo‘ladi. Qolaversa, ma’lumotlarni CD uchun tayyorlagan holda uni dasturning o‘zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o‘zi ochiluvchi arxiv ko‘rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin.

1-rasm

Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning “Label”, “Paragraph” va “Button” kabi obyektlari bilan birga ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to‘liq versiya bilan o‘rnatilgan bo‘lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug‘atlar bo‘lishi mumkin.Shunday qilib, AutoPlay Media Studio 8.0 ning yangi versiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega holda iste’molga chiqarilgan:

- Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multimedia ilovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta’minotlarni yaratish;
- Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va boshqalarni biriktira olish xususiyati;
- Web-ilovalarni yaratishga mo‘ljallangan mukammallashgan instrumentlar;
- XML, SQL va shifrlash mexanizmalari bilan ishlay olishi;
- RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi; - Slide-show bilan ishlash imkoniyati;
- Matn rangini o‘zgartirish uchun “RadioButton” obyektining mavjudligi;
- Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;
- Obyektlarni formatlash imkoniyati;
- Kalit so‘zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;
- CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hk.

Dasturning yuqoridagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini takshil etishda AutoPlay dasturidan foydalanilsa o‘quvchi yoshlarni bilim olishini bir muncha yaxshilash mumkin.



2-rasm

AutoPlay Media Studio ishga tushirilgach, avvalo loyiha bilan bog‘liq bir nechta buyruqlarni o‘z ichiga oluvchi muloqot oynasi yuzaga keladi (2-rasm). AutoPlay dasturining ishga tushirilishi Bu muloqot oynasida quyidagi to‘rtta taklif ilgari surilgan bo‘ladi: 1) Create a new project (Yangfi loyiha yaratish); 2) Open an existing project (Yaratilgan loyihalardan birini ochish); 3) Restore last open project (Oxirgi ishlangan loyihani ochish); 4) Exit AutoPlay Media Studio (Dasturdan chiqish). AutoPlay har bir buyruq tugmasi funksiyasi va unga mos scriptlar uchun tayyor kodlar to‘plamini ham taqdim etadi. Bu tayyor kodlardan qulayroq foydalanish uchun dasturning ingliz tilidagi varianti bilan ishlagan ma’qul. Shunday qilib, yuqoridagi taklifga binoan biz “Creat a new project” bandini tanlasak, u holda bir nechta yangi loyiha shablonlarini taklif etishdan iborat muloqot oynasi yuzaga keladi. Loyiha shablonlarini tanlashga oid muloqot oynasi biz yaratayotgan ilovamiz tabiatiga qarab, muloqot oynasida mavjud loyihalardan birini tanlashimiz yoki o‘zimiz istagan yangi loyihani tashkil qilishimiz mumkin.

AutoPlay dastur oynasi quyidagi tuzilmaga ega:

1. Dastur oynasining darlavha satri.
2. Dastur oynasining menyu satri.
3. Instrumentlar paneli satri.
4. Project Explorer muloqot oynasi.
5. Properties muloqot oynasi.
6. Holat satri.

Har qanday amaliy dastur-ilovalarni ishlab chiqish uchun istalgan foydalanuvchiga qulay bo‘lgan nisbatan soddaroq dasturiy ta’minotni tanlash lozim.

O‘zgartirish kerak bo‘lgan hollarda bu oson hal etiladi. Biz amaliy dasturni ishlab chiqishda AutoPlay Media Studio 8.0 dasturiy muhitidan foydalandik. Ammo buni istalgan boshqa media dasturlardan foydalanib ham amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtda vizual dasturlash tizimlarining ko‘pchiligi Web-ilovalar, ActiveX komponentlari va boshqa zamonaviy dasturiy texnologiyalar bilan ishlay olish imkoniyatiga ega. Bunday amaliy dasturlarni shu kabi vizual dasturlash tizimlaridan foydalanib yaratish ham mumkin. Amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo‘lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni taminlovchi, Web-saytllarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin. AutoPlayda istalgan obyekt uchun bir yoki bir nechta funksiyani bajaruvchi senariy yozish mumkin. Agar ishchi sohadagi biror obyekt bajarishi kerak bo‘lgan funksiyani xossalar panelidan foydalanib belgilamoqchi bo‘lsak, u holda bitta obyekt uchun faqat bitta funksiya biriktiriladi, xolos. Ammo real sharoitda bitta obyekt bir nechta funksiyani bajarishiga to‘g‘ri kelib qoladi. Bunday sharoitda xossalar panelidan tanlangan funksiyani bekor qilgan holda zarur bo‘lgan har bir funksiya uchun alohida-alohida senariy (script)lar yozish vaziyatdan chiqib ketishga ko‘maklashadi. AutoPlay dasturining eng asosiy kamchiliklaridan biri – uning ishchi sohasidagi obyektlarni klavishli boshqarish imkoni yoq. Shu sababli dastur uchun yo xususiy menyuni tashkil qilish yoki klavishli boshqarishga asoslangan senariy kodlarini yozish muhim ahamiyatga ega. Autoplay dasturida tayyor maxsulotlar (electron darsliklar) quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Sahifalarni ozingizning estetik didingiz orqali kreativ dizaynini yartishingiz mumkin (3-4 rasmlar).

3-rasm

4-rasm

Bu kabi dasturlar bilan dars jarayonlarini integratsiyalash ijobiy samara berishini tajribalarimiz natijalaridan ko‘rib kelmoqdamiz. Yosh avlodga ta’lim tarbiyani zamonaviy texnologiya yutuqlari bilan hamohanglikda bersakgina ularni fanlarga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga erishishimiz mumkin. Zero vatanimiz kelajagi biz tarbiyalab kelayotgan ilmga chanqoq yosh avlodimiz qo‘lida. Yosh avlodga munosib zamonaviy bilimlar berish esa biz pedagoglar zimmasidadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, O‘RQ-637-son, Toshkent 2020 yil.
2. T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayonida qo‘llash”, T. “Talqin”, 2012 yil.
3. Половина Г.Б. Интегратсиуа мултимедийных технологий с традиционными учебными дисциплинами в системе повышениуа квалификатсии учителей-предметников // Информатика и образование. 2009.5.
4. Муамешева Г. Добродетел в современном смарт-мире // Буллетин КазНУ. «Педагогисал ссиенсе» сериес. – 2015. - #1 (44). – с.152-157.
5. Джусубалиева Д.М., Мынбаева А.К., Сері Л.Т., Тахмазов Р.Р. Цифровые технологии в иноуазычном образовании. Дистанционное обучение: Учебно-методическое пособие. – Алматы, 2019. – 252 с.
6. http://www.findsoft.ru/. AutoPlay Media Studio 7.0 – быстрое создание мультимедиа-приложений

KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ASOSIDA QURUVCHI MUHANDISLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

J.K.Haydarov
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak quruvchi muhandislarni kompyuter modellashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakillantirish, hamda modellashtirish bosqichlari va turlari haqida xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlillari keltirilgan. Kompyuter modellashtirish asosida talabalarda obrazli fikrlash, tassavurni hosil qilish, kognitiv va kreativ fikrlash qobilyatlarini imitatsion modellar yordamida rivojlanirishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar. Modellashtirish, multimedia, axborot texnologiyalari, imitatsion modellar, model, metod.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida muhandislik va kompyuter modellashtirish bo‘yicha o‘qitish va uning samaradorligiga bo‘lgan e’tibor yanada ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishiga hamda yangi loyihalarni bajarishga imkon beradi. Ishlab chiqapish sohasidagi o‘zgarishlar bo‘lajak muhandislar malakasiga qo‘yilgan talablarning sezilarli ravishda o‘zgarishiga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Chunki ko‘plab yangi muhandislik yechimlari sifatli va ilmiy-texnik salohiyatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Muhandislik va kompyuter modellashtirish jahonning yetakchi universitetlarida yangi texnologiyalardan foydalanib, soha mutaxassisliklarini tayyorlashda, grafik dasturlar orqali tushuntirish hamda ta’limning ishlab chiqarish bilan integrasiyasini kuchaytirish, bo‘lajak muhandislarda loyihalash madaniyati pivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda individual mashinalar emas, balki yaratilayotgan mashinalarning talab darajasida ishlashini ta’minlaydigan texnik tizimlar yaratilmoqda. Ushbu yaratilgan tizimlar tobora murakkablashib, bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak muhandislar ishidagi o‘ziga xos yangi o‘zgarish va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya’ni yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo‘llanilishi, tuzilishi, ish chizmalari haqida umumiy ma’lumotlarga to‘liq ega bo‘lmaslik va grafik dasturlarni ta’lim olish jarayonlarida qo‘llab, loyihalar hamda grafik ishlarni bajarmaslik natijasida yuqoridagi sanab o‘tilgan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Muhandislar juda ko‘p ma’lumotlar bilan ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Masalan, alohida obyekt, ishlab chiqarish

texnologiyasi tizimini loyihalash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar miqdori juda katta. Eski usullardan foydalangan holda murakkab texnik tizimlarni yaratish deyarli imkonsiz. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan, kompyuter modellashtirishdan foydalanishni o‘z ichiga olgan yangi yondashuvlar, usullar, loyiha vositalari zarur. Zamonaviy muhandislarga qo‘yiladigan talablardan biri bu yuqori mahsuldorlikka ega komryuterlar bilan ishlay olish, ish muhiti hamda,eng asosiysi,ushbu tizimlardan foydalanish qobiliyati hisoblanadi.[1, 197]

1-rasm. Kompyuterda 3D modellashtirish.

Bosqichli yondashuvga asoslangan vazifalar tizimini ishlab chiqishda murakkablikning uchta darajasi ajratiladi — reproduktiv, samarali va ijodiy. O‘quv jarayonida vazifa talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat didaktik maqsadga yerishishga qaratilganligi sababli, murakkablik darajasi ma’lum bir faoliyat bilan bog‘liq bo‘lishi kerak [3].

Bugungi kunga kelib, ta’limni axborotlashtirish shakllari va vositalarining xilma-xilligi zamonaviy axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini kompyuter modellashtirishni o‘rganishda qo‘llash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, kompyuterni modellashtirish uchun an’anaviy standart vazifalar ro‘yxatini sezilarli darajada to‘ldiradi. Uchta darajaning har biri uchun vazifalar formulalari quyidagicha bo‘lishi mumkin

Reproduktiv darajadagi vazifalar turlari

- Asosiy tushunchalar tasnifi.
- Kuzatilgan hodisalarni tushuntirish.
- Tushunchalarni farqlash bo‘yicha vazifalarni bajarish.
- O‘quv, ilmiy-ommabop adabiyotlar va elektron o‘quv resurslari bilan mustaqil ishlash.
- Bir nechta manbalardan materiallarni tanlash va taqqoslash.
- Noto‘g‘ri bayonotlarni aniqlash va yo‘q qilish.
- Tushunchalarni taqqoslash va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.
- Formulalarni tahlil qilish, tegishli (hodisa, jarayon) formulalarini topish.
- Malumot diagrammalarini, eslatmalarni, oqim jadvallarini, aqliy xaritalarni tuzish.

Samarali darajadagi vazifalar turlari

- Matnli miqdoriy va sifat masalalarini hal qilish.
- Eksperimental muammolarni hal qilish.
- O‘quv materialini tizimlashtirish.
- Grafiklar, jadvallar, diagrammalar, diagrammalarni tahlil qilish.
- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.
- Obyektlarni o‘rganish, ularning muhim xususiyatlari va xususiyatlarini modellashtirish nuqtai nazaridan aniqlash.
- Modellarni bosqichma-bosqich o‘rganish.

Ijodiy darajadagi vazifalar turlari

- Gipotezalarni, taxminlarni shakllantirish, nostandart muammolarni hal qilish.
- Sinfga namoyish qilish uchun tajribalarni o‘rnatish.
- Frontal tajribalarni o‘rnatish.
- Modellarni o‘rganish natijalarini tahlil qilish.

- Optimal yechimni topish.
- Modellarni yaxshilash uchun vazifalarni bajarish.
- Yangi eksperimental variantlarni ishlab chiqish (model konfigurasiyasi).
- Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish asosida gipotezani yaratish.
- Eksperimental ish gipotezasini ishlab chiqish va tekshirish.
- Tadqiqot tajribasini o'tkazish [2,148].

Shuni ta'kidlash joizki hozirgi kunda kompyuter dasturlari ularning imkoniyatlari juda tez suratda jamiyatda o'z izini qoldirmoqda. Kompyuter tarmoqlarida amalga oshirilgan amallar tezligi hamda undagi ma'lumotlarni uzatish osonligi ham aynan yaqqol ko'rinib turadi. O'quv jarayonlarida ayniqsa Qurilishda axborot texnologiyalari fanining murakkab mavzularini o'rganishda kompyuter modellaridan foydalanish esa muhim hisoblanadi. Kompyuter modellar resurslarini yaratish va o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha mavjud ilmiy nashrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida bunday dasturiy vositalardan foydalanish masalasiga jahon miqyosida muammo sifatida e'tibor berilgan va bu borada sezilarli natijalarga erishilgan.

Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz kerakki vazifalarning darajali tizimini ishlab chiqishda o'qituvchiga turli omillarni hisobga olishga va o'quv jarayonining maksimal didaktik samaradorligiga erishishga yordam beradigan o'quv va kognitiv faoliyat turlari bo'yicha didaktik maqsadlar jadvalidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Alijonov O. Organization of experimental tests for the development of engineers design competencies through computer graphics// Jamiyatvainnovasiyalar–Obщyestvoiinnovasii–Society and innovationsSpecial Issue –11(2021) / ISSN 2181-1415 Page 195-207.
2. Моисеев. В.П., Селезнева Н.Н. Методика разработки системы задач по компьютерному моделированию в старших классах // Вестник РУДН. Серия: Информатизация образования // DOI 10.22363/2312-8631-2018-15-2-144-150// 2018 Том 15 No 2 С. 144—150
3. Левченко И.В. Методологические вопросы методики обучения информатике в средней общеобразовательной школе: // учеб.-метод. пособие для студ. педвузов и университетов. // М.: МГПУ, 2012. С 124.

RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMPYUTER MODELLASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASODLARI

R.Sh.Usanov
Samarqand shahar 15-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy va o'rta maxsus ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanib kompyuter modellashtirishni o'qitish va shu asosda ta'lim jarayonini tashkillashtirish, elektron ta'limda masofali kursni yaratish jarayonida online ochiq kodli platformasining pedagogik tamoyillarini ishlab chiqish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim, online ochiq kodli platformalar, integrativ yondashuv, elektron resurs, IT, o'qitish metodikasi, multimediya, imitatsiya.

Jahonda fan va texnologiya rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siridan kelib chiqib, fanni Moodle, LSM, Skillbox, ELS, CMS kabi zamonaviy onlayn tizimlarining imkonityalaridan keng foydalanib o'qitish uchun o'qituvchilarning kampyuter modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanib o'qitish hamda axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalarining shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilarni fanlardan o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini aniqlash, o'qitish sifatini oshirish, nazariy-metodologik va uslubiy asoslarini

takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonida kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda elektron ta’lim muhitlarini yaratish alohida parametr sifatida ko‘zda tutilgan.

Ta’lim tizimini raqamlashtiri jarayoni uchun elektron ta’lim muhitini yaratish va foydalanish metodikasini takomillashtirish, unga oid didaktik elektron o‘quv vositalarini ishlab chiqish va ularni imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishda o‘qituchilarning kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini shakillantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda [1; 12-b].

Rivojlangan davlatlarda raqamlashtirish jarayoni internet tarmog‘ida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida fanlarni chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va kampyuter modellashtirishning yangi avlodini yaratish hamda texnologik yondashuvlarning o‘qitish samaradorligiga ta’sir etuvchi xususiyatlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘qituvchilarni kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborotlar bilan ishlash va fanlarga oid kompetensiyalarni shakllantirishda ochiq onlayn rejimga mo‘ljallangan didaktik o‘quv vositalarining yangi avlodlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayni vaqda, ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, o‘quv jarayoniga zamonaviy elektron kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishdir [2; 12-b.]. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmonida «Elektron kommunikasiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini raqamlashtirish darajasini ko‘tarish; ta’limda kampyuter modellashtirish yani multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish; yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan [3]. Shu bois, bugungi kunda zamonaviy texnik vositalariga asoslangan holda kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga hamda jamiyat faoliyatining barcha jabhalariga tadbiq etish davr talabiga aylangan [2; 12-b.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarini kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini shakillantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayoniga elektron ta’lim resurslarini keng ko‘lamda tadbiq etish jiddiy zaruratga aylangan.

M.X.Allambergenovaning «Informatikadan interaktiv o‘quv majmualar yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish» [4] nomli dissertasiya ishi doirasida «Informatika va axborot texnologiyalari» oliy pedagogika o‘quv yurtlari uchun interaktiv o‘quv majmua» nomli elektron o‘quv-uslubiy majmuasi yaratilib, pedagogika oliy ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga informatika fanini o‘qitishda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshganligi, I.E.Shernazarovning «Elektronkommunikasiya va pedagogik texnologiyalar integrasiyasida organik kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish» nomli dissertasiya ishi doirasida «Elektronkommunikasiya va pedagogik texnologiyalar integrasiyasida organik kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish» nomli elektron o‘quv qo‘llanmasi yaratilib, kimyo fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan akademik liseylarda «Organik kimyo» ta’limi jarayoniga tadbiq etish orqali, ushbu fanni o‘qitish samaradorligini oshganligini ko‘rish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlarning pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari asosan fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, kompyuter texnologiyalari va uning pedagogik dasturiy vositalarini qo‘llashga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonini olib borishda kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini shakillantirishda elektron ta’lim resurslarini yaratish hamda undan foydalanish metodikasi bo‘yicha ishlar olib borilganligiga qaramay, fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslarini yaratish va foydalanishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Shu bois, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim va tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirish uchun elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish zaruriyati mavjudligi aniqlandi. Ushbu elektron ta’lim muhiti o‘quvchilarning fanga oid

qiziqishini va tasavvurlarini oshirishga, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga hamda mustaqil o‘quv faoliyatida lozim bo‘lgan o‘quv materiallari bilan ta’minlashga yordam beradi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilishimiz natijasi shundan dalolat berdiki, fanlarni an’anaviy o‘qitishga nisbatan elektron ta’lim platformasi dan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borilsa quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:

- foydalanish qulayligi;
- o‘quv jarayonini modellashtirish va boshqarish;
- hissiy organlarning ta’siri;
- audio-vizual effektlar yordamida ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida o‘qituvchilarni kampyuter modellashtirish ko‘nikmalarini shakillantirish bu elektron ta’lim muhiti o‘quv jarayonini noan’anaviy ravishda qiziqarli tashkil etish orqali o‘quvchining faol tinglovchiga aylantiradi [96; 212-b.]. Natijada, o‘quvchi ongli ravishda ta’lim faoliyatining faol tinglovchisiga aylanishi tufayli bilimlarni o‘zlashtiradi, bu albatta kognitiv fikrlashni oshirishga yordam beradi hamda faollik va o‘rganish uchun motivasiyani oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании // Автореф. дисс. ... на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. – Ульяновск, 2010. – 46 с.

2. Мирсанов У.М. Глобал Интернет тармоғига мўлжалланган электрон электронтаълим ресурсларини яратишда мустақил ҳамдўстлик мамлакатлари тажрибаларидан фойдаланиш // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириу илмий-методикалық журнали. – Нукус, 2017. – № 6. – Б. 142–145.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли Фармони.

4. Алламбергенова М. Х. Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратиш ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. –117 б.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI 3D MODELLARINI YARATISHDA FOYDALANILADIGAN DASTURIY VOSITALAR TAHLILI

S.N.Djumayev
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda eng dolzarb hamda ko‘p foydalanilayaotgan 3D grafika va modellashtirish vositalari imkoniyatalari 3 ta darajaga bo‘lib o‘rganildi. Bundan tashqari ushbu dasturlarning ayrim parametrlari bo‘yicha qiyosiy solishtirma jadvali ham keltirildi. Maqolada ushbu dasturlarni imkoniyatiga qarab turli sohalardan foydalanish tavsiyalari keltirildi.*

Kalit so‘zlar: *3D garfika, rolik, animatsiya, 3D model, platforma, modellashtirish, renderlash, konstruktsiya(tuzilma), litsenziya, fayl formati.*

Hozirgi kunda ishlab chiqarishni turli sohalarida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi dozlarb hisoblanadi. Shuni hisobga olib turli jarayonlarni loyihalashda avval jarayon, mahsulot yoki xom ashyoni loyihlalash va 3D modellarini yaratish muhim rol o‘ynaydi. Yaratilgan 3D modellar agar muvaffaqiyatli bo‘lsa, jarayonni to‘liqligicha tasavvur etish hamda ishlab chiqarishda xarajatlarni maksimal darajada kamaytirish imkonini beradi. Buning uchun 3D modellarni yaratishda dasturiy vositani to‘g‘ri tanlash masalasi juda muhimdir. Ushbu ishda 3D grafika va modellashtirishda foydalaniladigan hozirgi kundagi dozlarb dasturlarni imkoniyatlarini tahlil qilib chiqamiz.

Faoliyatimizda 3D grafika chizish, dinamik 3D model yaratish, reklama roliklarini tayyorlash, dastur uchun animatsiya yoki shunchaki yorqin taqdimot yaratish kabi vazifalar uchraydi, bularning barchasini 3D grafika vositalari yaratishga imkon beradi. Yuqori sifatli vizual modellarni yaratish uchun sizga maxsus dasturlar kerak bo‘ladi. Quyida biz eng mashhur 3D modellashtirish dasturlarini ko‘rib chiqamiz. Ular 3D modellashtrishni yangi boshlanuvchilar uchun ham mos keladi, videolarni maksimal realizm bilan ko‘rsatishni xohlaydigan ilg‘or mutaxassislar uchun ham mos keladi. Berilgan dasturlardan bo‘lajak mutaxassislar o‘z darajalariga qarab foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Havaskorlar uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi[4,5]:

Autodesk TinkerCAD

Mo‘ljallangan soha-modellashtirishni o‘rganish, oddiy modellarni yaratish.

Platforma: veb.

Eng oddiy 3D modellashtirish dasturi. TinkerCAD Minecraft va Scratch dasturlari bilan o‘zaro ishlay oladi, turli fanlarni o‘rgatish uchun maxsus dasturlarga ega, shuning uchun boshlovchilar va maktab yoshidagi bolalar uchun ushbu dasturni tavsiya qilish mumkin.

DesignSpark Mechanical

Mo‘ljallangan soha- muhandislik konstruksiya(tuzilma)larini modellashtirish.

Platforma: Windows.

Bu dastur birinchi navbatda 3D modellashtirish nuqtai nazaridan yangi boshlovchilar va havaskorlar uchun mo‘ljallangan. AutoCAD bilan solishtirganda imkoniyatlar ancha sodda, ammo bepul va samarali tarzda siz murakkabroq kompozitsiyalarda foydalanish uchun deyarli har qanday qismni osongina yaratishingiz yoki uni 3D bosib chiqarish uchun yuborishingiz mumkin. Bu dasturda murakkab teksturalar va dinamik tasvirlar haqida gap bo‘lishi mumkin emas, lekin texnik mutaxassislarga ular unchalik zarur emas.

SketchUp

Mo‘ljallangan soha- arxitekturaga oid g‘oyalarni tezkor vizualizatsiya qilish[1].

Platforma: Windows, macOS.

SketchUp oddiy foydalanuvchilar orasida 3D dizaynni modellashtirish dasturi, kvartiralar, xonalar va ichki kommunikatsiyalar modellarini tezkor vizualizatsiya qiluvchi dastur sifatida juda keng tarqalgan. Biroq, bu dasturning imkoniyatlari ancha kengroq, chunki mahsulot bir necha yil davomida Google dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Professional darajada, SketchUp sizga ko‘p vaqt va kuch sarflamasdan, butun binolar va hatto tumanlarni loyihalash imkonini beradi.

FreeCAD

Mo‘ljallangan soha- qismlar va konstruktsiya(tuzilma)larni modellashtirish.

Platforma: Windows, macOS, Linux.

FreeCAD bepul dasturiy bo‘lib, uning yordamida har qanday foydalanuvchi vizualizatsiyaning nozik tomonlarini o‘rganmasdan 3D modellashtirish olamida birinchi qadamlarni qo‘yishi mumkin. Bu dastur Python tili bilan bevosita tanish bo‘lganlar uchun juda foydali bo‘ladi - mahsulot sizga ushbu tilda yozilgan o‘z modullaringizni yaratish va birlashtirish imkonini beradi. Agar siz dasturlash va dizayn o‘rtasidagi ixtisoslik bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsangiz, FreeCAD mukammal hamkordir.

Malakali(yuqori darajadagi) foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi[4,5]:

Autodesk AutoCAD

Mo‘ljallangan soha- muhandislik konstruksiya (tuzilma)larini modellashtirish.

Platforma: Windows, macOS.

Dastlab ikki o‘lchovli muhandislik chizmalarini yaratish uchun yaratilgan dastur bugungi kunda 3D modellashtirish uchun juda kuchli imkoniyatlarga ega. Bu dastur yordamida ko‘plab kichik elementlarga ega texnik detal bo‘ladimi yoki ulkan binoning modeli bo‘ladimi bemalol yaratish imkonini beradi. Shuning uchun texnik mutaxassisliklar xodimlari ushbu dasturni

o‘zlashtirishlari foydadan holi emas. Bundan tashqari, 3D bosib chiqarish yoki kesish bilan ishlash uchun ham ushbu dastur foydalidir.

Cinema 4D

Mo‘ljallangan soha- sahnalarning grafik vizualizatsiyasi.

Platforma: Windows, macOS.

Oddiy interfeysga qaramay, Cinema4D haykaltaroshlik, renderlash, teksturalar va animatsiya effektlarini yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, sahnalarni yaratish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish uchun mo‘ljallangan bir qator vositalar mavjud. Shu bilan birga, har qanday foydalanuvchi ham dastur bilan ishlab keta olmaydi - kamida asosiy 3D modellashtirish tajribasi juda muhim.

ZBrush

Mo‘ljallangan soha- haykaltaroshlik modellari.

Platforma: Windows, macOS.

Dunyoda loy va gips bilan ishlov berishni yaxshi ko‘radigan har bir kishi ZBrush bilan ishlashdan zavq oladi. Bu dasturdan foydalanuvchi ham haykaltaroshlik sohasidan xabardor bo‘lishi zarur. Yuz yoki tananing kerakli konturlarini olgandan so‘ng, dastur yakuniy natijaga erishish uchun kerakli teksturalar, yorug‘lik va soyalarni qo‘shishga yordam beradi. ZBrush bilan ishlash shunchalik qulayki, siz uni nafaqat professional vosita, balki ko‘ngilochar dastur sifatida ham foydalanishingiz mumkin. Bu dasturdan doydalanib ko‘rgan kishi bunga amin bo‘ladi.

Blender

Mo‘ljallangan soha- haykaltaroshlik va animatsiya.

Platforma: Windows, macOS, Linux.

Blender dasturini - sifat va qulaylikning birlashmasi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu dasturda yuqori sifatli 3D modellarni yaratish, ularga teksturalarni, shu jumladan sochlar va matolarni qo‘llash, keyingi animatsiya va videoni qayta ishlash uchun vositalar mavjud. Va bularning barchasi kompyuteringiz xotirasidan 200 megabaytdan kam joy oladi. Shu bilan birga, har qanday yirik ochiq kodli loyiha singari, Blender ham kuchli dasturchilar hamjamiyatiga ega va doimiy ravishda yangi imkoniyatlar qo‘shilib boradi.

Professional foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi[4,5]:

Autodesk 3ds Max

Mo‘ljallangan soha- yuqori sifatli grafik 3D modellarni yaratish[2].

Platforma: Windows.

Bu dastur hamma joyda qo‘llaniladigan eng kuchli 3D modellashtirish dasturlaridan biri: o‘yinlarda, kino sanoatida, arxitekturada, interyer va landshaft dizaynida, har qanday mahsulot taqdimotlarida. Bu dasturda, eng yuqori darajada, har qanday murakkablikdagi g‘oyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi teksturani qayta ishlash, renderlash(natijani ko‘rish), nurlarni kuzatish, ob'ektlarning o‘zaro ta'siri imkoniyatlari amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu dastur statika va dinamikada ob'ektlarning vizual tasviri uchun mas'ul bo‘lgan barcha mutaxassislar uchun tavsiya etiladi.

Autodesk Maya

Mo‘ljallangan soha- sahnalarning grafik vizualizatsiyasi.

Platforma: Windows, macOS, Linux (Red Hat Enterprise, CentOS).

Maya maksimal realizm bilan syujetlarni yaratishi kerak bo‘lgan har bir kishi uchun ideal, ya'ni kino, animatsiya va o‘yinlar vakillari. Bu dasturda effektlarni yaratish imkoniyatlari faqat sizning tasavvuringiz bilan chegaralanadi. Misol uchun, faqat o‘rnatilgan modullardan foydalanib, siz shamol, yomg‘ir, matolar, portlashlar, sochlar va boshqa ko‘p narsalarning o‘zaro ta'sirini bir vaqtda, bir xl sahnada amalga oshirishingiz mumkin. Albatta, buning uchun siz Mayyani o‘rganishga va sahnalarni mohirona rejalashtirishga ko‘p vaqt sarflashingiz kerak bo‘ladi[3].

Bundan tashqari bu dasturlarni yana quyidagi jadvalda keltirilgan parametrlari bo‘yicha ham solishtirish mumkin(1-jadval)[6].

1-jadval

	Nomi	**Litsenziyasi**	**Qo‘llaydigan formati**
	Autodesk Tinkercad	Bepul	tl, obj, x3d, vrnl, svg
	DesignSpark Mechanical	Bepul	stl, dxf, skp, obj
	SketchUp	Sinov muddat	stl, dwg, dxf, 3ds, jpeg, png, bmp
	FreeCAD	Bepul	obj, dwg, stl, dxf, step, dae, csg, svg, iges, stel
	Autodesk AutoCAD	Bepul	tl, obj, x3d, vrnl, svg
	Cinema 4D	Sinov muddat	3ds, dae, dem, dxf, dwg, fbx, iges, skp, stl, wrl, obj
	ZBrush	Sinov muddat	obj, dfx, psd, tif, jpg, bmp
	Blender	Bepul	3ds, dae, fbx, dxf, obj, x, lwo, svg, ply, stl, vrml
	Autodesk 3ds Max	Sinov muddat	stl, 3ds, ai, abc, ase, asm, dem, dwg, dxf, dwf, flt, iges, ipt, jt, nx, obj, prj, prt, rvt, sat, skp, stp, vrml
0	Autodesk Maya	Sinov muddat	ai, aiff, dae, dxf, dwg, eps, fbx, maya, mel, obj, stl

3D modellashtirish dasturlari

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bular 3D modellashtirish uchun dasturlarning to‘liq ro‘yxati emas, lekin u dizaynerlar va konstruktorlar uchun eng mashhur vositalarni o‘z ichiga oladi. Maqolada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib, 3D garfika va modellashtirish sohasidagi bo‘lajak mutaxassislar o‘zlariga kerakli dasturiy vositani ajratob olishlari mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Петелин, А.Ю. 3D-моделирование в Google Sketch Up - от простого к сложному. Самоучитель / А.Ю. Петелин. - М.: ДМК Пресс, 2012. - 344 с.
2. Аббасов, И.Б. Двухмерное и трехмерное моделирование в 3ds MAX / И.Б. Аббасов. - М.: ДМК, 2012. - 176 с.
3. Ганеев, Р.М. 3D-моделирование персонажей в Maya: Учебное пособие для вузов / Р.М. Ганеев. - М.: ГЛТ, 2012. - 284 с.
4. https://gb.ru/posts/10-populyarnyh-programm-dlya-3d-modelirovaniya
5. https://lifehacker.ru/programmy-dlya-3d-modelirovaniya/
6. https://videozayac.ru/blog/programmy-dlya-3d-modelirovaniya-i-animacii/

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

B.I.Usmonov
SamVPYMO‘MM dotsenti
Sh.B.Abduyev
SamVPYMO‘MM o‘qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada multimediali axborot texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy ta’lim tizimiga yondashuv muhokama qilinadi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlari yoritib berilgan. Ta’limning axborot texnologiyalari sohasidagi asosiy ta'riflar berilgan. Ta’lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi. Multimediali texnologiyalar istiqbolli va ommabop pedagogik axborot texnologiyalarining vositasi sifatida ko‘rsatilgan. Xulosa va takliflar bildirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается подход к современной системе образования с использованием мультимедийных информационных технологий. Выделены основные педагогические цели использования информационных технологий в образовательном процессе. Даны основные определения в области информационных технологий образования. Определены основные направления развития информационных технологий как основного источника повышения качества образования. Мультимедийные технологии показаны как перспективное и востребованное средство педагогических информационных технологий. Даны выводы и предложения.

Annotation: This article discusses the approach to the modern education system using multimedia information technologies. The main pedagogical goals of using information technologies in the educational process are highlighted. The main definitions in the field of information technologies of education are given. The main directions of the development of information technologies were determined as the main source of improving the quality of education. Multimedia technologies are shown as a promising and popular means of pedagogical information technologies. Conclusions and suggestions are given.

Kalit so‘zlar: ta’limdagi axborot texnologiyalari, multimedia resurslari, dasturiy ta'minot, o‘quv jarayoni sifatini oshirish texnologiyasi, o‘quv jarayoni, o‘quv intizomi, elektron resurslar.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda axborot texnologiyalarining o‘rni nihoyatda muhim, bugungi kunda ular jamiyatni intellektualizatsiya qilish, uning ta’lim tizimi va madaniyatini rivojlantirish jarayonida asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llanilishi o‘rganish va idrok etishning dastlabki bosqichlaridan boshlab ular bilan tanishishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Ta’lim tizimi va fan jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ob’ektlaridan biridir. Ta’limni axborotlashtirish, bilimlarni uzatish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, axborotlashtirishda qo‘llaniladigan texnologiyalarni sinchkovlik bilan sinab ko‘rishni va ularni keng qo‘llash imkoniyatini talab qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim sohasida faol ravishda qo‘llash istagi mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Texnologiya yunon tilidan tarjima qilinganda (techne) san'at, mahoratni anglatadi. Axborot texnologiyalari - bu ob’ekt, jarayon yoki hodisaning holati (axborot mahsuloti) haqida yangi axborotlarni olish uchun ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish vositalaridan va usullaridan foydalanadigan jarayondir. Axborot texnologiyalari quyidagi pedagogik maqsadlarga erishish uchun ishlatiladi:

1. O‘qituvchi shaxsini rivojlantirish, uni axborotlashgan jamiyatida mustaqil ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash, shu bilan unga xos bo‘lgan bilimlarni rivojlantirish va axborotlarni uzatish:

- kompyuter bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli konstruktiv, algoritmik fikrlashni rivojlantirish;
- reproduktiv faoliyat ulushini kamaytirish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- qo‘shma loyihalarni amalga oshirish asosida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qiyin vaziyatda maqbul qarorlarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish;
- tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- axborot madaniyatini shakllantirish, axborotni qayta ishlash qobiliyati.

2. Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish tufayli ijtimoiy sohalardagi buyurtmalarni amalga oshirish:

- axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislarni tayyorlash;
- tinglovchilarni mustaqil bilim faoliyati uchun pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida tayyorlash.

3. Ta’lim jarayonining barcha darajalarini intensivlashtirish:

- axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish;
- kognitiv faollikni oshirish uchun rag‘batlantirish vositalarini aniqlash va ulardan foydalanish;

- turli mavzulardagi muammolarni hal qilishda axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan foydalanish natijasida fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish.

Xuddi shu pedagogik maqsadlar axborot texnologiyalarini rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Bugungi kunda quyidagi texnologiyalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- atrofdagi voqelikni anglash va o‘zini o‘zi bilish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni, o‘quv jarayoni samaradorligini va sifatini oshirish texnologiyasini kengaytirish;
- o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyasi, ta’lim muassasalari, ta’lim muassasalari tizimi;

Multimedia texnologiyalari eng istiqbolli va ommabop ta’lim axborot texnologiyalaridan biridir. Ular sizga ovoz, video, animatsiya va boshqa vizual effektlar hamrohligida tasvirlar, matnlar va ma’lumotlarning butun to‘plamlarini yaratishga imkon beradi, interaktiv interfeys va boshqa boshqaruv mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim jarayonida o‘qitishning kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy bosqichi har qanday mashg‘ulot turida kompyuterni epizodik emas, balki birinchi darsdan oxirgi darsgacha tizimli ravishda o‘qitish vositasi sifatida ishlatishdan iborat. Bunday holda asosiy muammo bu o‘quvchining o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan kursni kompyuterlashtirish metodikasidir. Yoki to‘liq qayta qurish va yangi kompyuterlashtirilgan kurslarni yaratishga yo‘naltirish yoki kursni qisman kompyuter ko‘magi bilan metodologiyasini ishlab chiqish mumkin.

Ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan ta’lim dasturlarini batafsil ko‘rib chiqamiz. Ta’lim dasturlari (TD) – o‘quvchilarning mustaqil ishlashi uchun mo‘ljallangan maxsus o‘quv qo‘llanma. Bunday dasturlar muhum ahamiyatga ega: ularda tushuntirishlar, qoidalar, topshiriqlarning namunalari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarni maksimal darajada faollashtirishga, ishlarini individual bajarishga va ularning bilim faoliyatini boshqarish imkoniyatini yaratishga yordam beradi. Ta’lim dasturi butun o‘quv tizimining faqat bir qismidir, shuning uchun barcha o‘quv materiallari bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Elektron darsliklar bu o‘quv jarayoni bo‘yicha didaktik, uslubiy va axborot-ma’lumot materiallarini hamda bilimlarni mustaqil egallash va boshqarish uchun ularni har tomonlama ishlatishga imkon beradigan dasturiy ta'minotni o‘z ichiga olgan avtomatlashtirilgan o‘quv tizimidir. Elektron darslik xuddi kitob ko‘rinishidagi darslik singari o‘z-o‘zini tarbiyalash maqsadida ham, darsning uslubiy ta'minoti sifatida ham qo‘llanilishi mumkin.

Biroq, ba'zi bir salbiy fikrlarni ta'kidlash mumkin:

- o‘qituvchi shaxsining bevosita ta'sirini kamaytirish;
- pedagogik jarayon nafaqat o‘qitish, balki shaxsni shakllantirishdir, kompyuter, afsuski, buni ta'minlamaydi;
- kompyuterlar sog‘liq uchun zararli, shuning uchun darsni rejalashtirishda sanitariya-gigiyena talablariga qat’iy rioya qilish zarur.

Kompyuter hech qachon o‘quvchilarning ustozi bo‘lmaydi, buni faqat o‘qituvchi qila oladi. Darsda o‘qituvchining roli va mahoratini hechqanday texnologiya bosmaydi. O‘qituvchi so‘z yordamida o‘quvchilarning bilim faoliyatini o‘rgatadi va tarbiyalaydi, boshqaradi. Kompyuter esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishda va ularni yuqori darajaga olib chiqishda yordam beradi.

Xulosa: hozirgi paytda talabalarning bilim olish ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qituvchi axborot ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi, shuningdek, ularning rivojlanishini hisobga olgan holda o‘z tajribasini oshirish orqali o‘zlarining axborot madaniyatini doimiy ravishda oshirib borishi kerak, ammo shu bilan birga ushbu texnologiyalardan o‘z amaliyotida foydalanishni suiiste'mol qilish va har narsaga ijodiy munosabatda bo‘lish. Media ta’lim vositalari va shakllari o‘qituvchiga ilm-fan va axborot texnologiyalarining so‘nggi yutuqlaridan foydalanish jarayonida kasbiy o‘sish va o‘zini takomillashtirish imkoniyatlarini beradi va zamonaviy ta’limning mazmuni va shakllarini yangilashga yordam beradi.

Adabiyotlar

Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikatsiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta'lim tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Raqamli transformatsiya misolida Aqlli shahar texnologiyasini qo'llash istiqbollari:

Aqlli shahar texnologiyasini qo'llash shahar oqimlarini boshqarishni yaxshilash va murakkab muammolarga tezkor javob berish uchun ishlab chiqilmoqda. Shunday ekan, "aqlli shahar" fuqarolar bilan oddiy "operativ" munosabatlardan ko'ra muammolarni hal qilishga ko'proq tayyor. Biroq, atamaning o'zi, o'ziga xosligi bilan noaniq bo'lib qolmoqda va shuning uchun ko'plab sharhlar va munozaralarga duchor bo'lib kelmoqda. [4]:

Aqilli shahar xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Mobillik;
- Hayot sifati;
- Urbanizatsiya;
- Aqilli texnologiyalar;

- Shaxslashtirish;
- Infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- Virtuallashtirish;
- Ijtimoiylashtirish.

Aqlli shahar ta'rifi mutaxassislar tomonidan noaniq talqin qilinadi. Shunga qaramay, ularning formulalari bir narsaga mos keladi: aqlli shahar ma'lumotlarga asoslangan va ma'lumotlarni boshqarish orqali aholining hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ma'lumotlar fuqarolar hayotining xavfsizlik, transport, tibbiy xizmatlar, kommunal xizmatlar, obodonlashtirish va boshqalar kabi sohalarini qamrab oladi. Ma'lumotlar manbalari qatoriga videokameralar, turli rusumdagi sensorlar, axborot tizimlari va boshqalarni ifodalasa bo'ladi.

Mamlakatimizda aqilli shahar ekotizimini yaratish bo'yicha keng ishlar olib borilmoqda, buning natijasida shahar infrastrukturasi yagona markazlashgan aqilli shahar infrastrukturasiga o'tkazilishi mamlakatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi. O'zbekiston ham global rivojlanish tendensiyalarini kuzatib, bir necha bosqichda "Aqlli shahar" loyihalarini qurish va amalga oshirishga kirishdi. 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2023-yillarda butun O'zbekistonni qamrab olgan "Xavfsiz shahar" loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. [2]:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha 2019- 2030 yilga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi, ular to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (2019-2021 yillar) – "aqlli" shaharni barpo etishning asosiy yondashuvlarini belgilash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- hududiy profilni shakllantirish;
- mavjud infratuzilmani baholash;
- rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash;

mavjud aktivlarni tahlil qilish, mavjud muammolar va muvaffaqiyat hikoyalari.

Ikkinchi bosqich (2022-2024) – bu aqlli shahar konsepsiyasini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish:

- manfaatdor tomonlarning ishtiroki;
- faoliyat yo'nalishlari va rejalarini belgilash;
- xavf-xatarni baholash;
- moliyaviy strategiyani shakllantirish;
- asosiy faoliyat ko'rsatkichlari va maqsadlarini aniqlash.

Uchinchi bosqich (2025-2027) – qurilishni batafsil rejalashtirish:

- byudjetlashtirish;
- samaradorlik prognozi;
- axborot tizimlarini avtomatlashtirish va joriy etish imkoniyatlarini aniqlash.

To'rtinchi bosqich (2028-2030 yillar) – amalga oshirish va samaradorlikni baholash:

- birgalikda (barcha manfaatdor tomonlar bilan) amalga oshirish;
- ishlash monitoringi;

baholash va qayta baholash (tendensiyalarni, investitsiya parametrlarini tahlil qilish), joylashtirishni (kengaytirishni) ta'minlash.

Shunday qilib, O'zbekistondagi "aqlli" shahar inqirozli vaziyatlarni boshqarish, monitoring qilish va ularga javob berish markaziga ega yagona tizimdir. O'zbekistonda "aqlli" shaharlarni rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi xavfsizligi darajasini oshirishga, jinoyatchilik darajasini pasaytirishga, mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirishga, investitsiya muhiti va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belyaeva A**.** Upravlenie samostoyatelьnoy rabotoy studentov / Visshee obrazovanie v Rossii, №6, 2003

2. Demeusov A. Osobennosti planirovaniya, organizatsii i kontrolya vneauditornoy samostoyatelьnoy raboti studentov.//Visshaya shkola Kazaxstana,2004. - S.52-54.
3. Furyaeva T.V. Metodicheskie rekomendatsii po organizatsii samostoya-telьnoy raboti studentov. – Krasnoyarsk, 1987.
4. S.T.Turg‘unov va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari.Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITI nashriyoti, 2014 yil.

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA ZAMONAVIY KORPUSNI ISHLAB CHIQISH

M.S.Tursunov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, korpusni yaratilishida paydo bo‘lgan nazariy va amaliy masalalar keltirilgan. O‘zbek tili korpusini yaratishda xorijiy tajribalar va dasturiy ta’minotlar o‘rganilgan. Zamonaviy korpus o‘zbek tili uchun muvozanatli, katta hajmdagi va umumiy maqsadli korpus sifatida yaratiladi. Korpusni yaratishdan avval bajarilgan nazariy va amaliy usullardan foydalaniladi. Barcha jarayonlar davomida dasturiy ta’minotning turli xil turlari muayyan vazifalar uchun ishlatiladi va yaratilgan korpus notijorat maqsadlarda foydalanish uchun bepul manba hisoblanadi. Ushbu maqolada korpuslarni yaratishni dastlabki bosqichlari va zamonaviy korpuslarni yaratish talablari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: korpus, razmetka, token, morfologik razmetka, sintaktik razmetka, semantik razmetka, ekstralingvistik razmetka, korpus menejeri, konkardans, AntConc, Sketch Engine.

Korpus – bu elektron shakldagi matnlar jamlanmasi bo‘lib, unda muayyan bir qidiruv tizimi orqali so‘zlar, so‘z birikmalari, Grammatik shakllar, so‘z mazmunlarini izlab topish va jamlash imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Korpusning bir necha xili bor: mualliflik korpusi, bir kitobning korpusi, milliy korpus.

Korpus yaratishni bir necha bosqichlardan iborat texnologik jarayon deb tasavvur qilish mumkin. Bosqichlarning eng muhimlari matnni tokenlash, razmetkalash, razmetkali matnlarni korpusni boshqaruvchi dastur formatiga o‘tkazishdir. Tokenlash deganda berilgan dastlabki matnni tarkibiy qismlarga (so‘zlar, tinish belgilari, sanalar va hakozolar) ajratish tushuniladi. Matn razmetkasi eng asosiy bosqich bo‘lib, uning natijasida korpus shakllanib boradi [1, DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351376].

Razmetkalash deb matnga va uning komponentlariga maxsus teglarni biriktirib chiqishni tushunish kerak. Maxsus teglar ikki xil bo‘ladi: lingvistik teglar va ekstralingvistik (tashqi) teglar. Lingvistik teglar matn elementlarining leksik, Grammatik va shunga o‘xshash boshqa xususiyatlarini tavsiflaydigan ma’lumotlardan iborat. Ekstralingvistik teglar esa muallif haqidagi va matn haqidagi ma’lumotlarni (muallif, nomlanishi, nashr yili va joyi, janr, tenatika va hakozo) tavsiflaydi [2, 112-b.].

Korpusning ulkan hajmi bilan mutanosib ravishda razmetkalash ko‘p vaqt va mehnat talab qiladigan jarayondir. Shuning uchun u avtomatik tarzda bajarilishi zarur. Agarda razmetkalashning biror bir turi hali avtomatlashtirilmagan bo‘lsa, u holda bu ishni qo‘lda bajarishga to‘g‘ri keladi. **Morfologik razmetkalash** uchun ishning katta qismini avtomatik tarzda bajarishga imkon beradigan teglar deb ataluvchi va sintaksis razmetkalash uchun, xuddi shunday, parser deb ataluvchi dasturiy vositalar ishlab chiqilgan.

Avtomatik morfologik razmetkalash dasturi (tegger) ishining natijasida har bir leksik birlikka, aniqrog‘i, har bir so‘z shakliga, Grammatik harakteristika (so‘z turkumi, son, kelishik, zamon, shaxs va h.k.) biriktirib chiqiladi. Avtomatik sintaksis razmetkalash dasturining ish natijasida esa so‘z va so‘z birikmalari o‘rtasidagi sintaksis bog‘lanishlar fiksirlanib, sintaksis birliklarga o‘zining harakteristikalari (gap turi, so‘z birikmasining sintaksis funksiyasi va h.k.) haqidagi ma’lumotlar biriktiriladi.

Razmetkalash dasturlarining ikki xili mavjud: 1) lug‘atlar va qoidalarga asoslangan tizimlar; 2) biror bir tajriba massivi asosida mashinali o‘qitish tizimlari [3, 206-b.].

Lingvistik razmetka turlari: morfologik razmetkasi, sintaksis razmetkasi, semantik razmetkasi va h.k.

Xorijiy terminologiyada *part-of-speech tagging (POS-tagging)* ya’ni so‘z turkumlari razmetkasi termini ishlatiladi. Haqiqatda esa, morfologik razmetka nafaqat so‘z turkumi belgisi balki bu so‘z turkumiga aloqador grammatik kategoriyalar belgilari va so‘zning normal shakli ya’ni lemmani o‘z ichiga oladi. Bu razmetkalashning asosiy turi deb aytish mumkin, chunki, birinchidan, morfologik tahlil boshqalarga nisbatan yaxshiroqavtomatlashtirilgan, ikkinchidan, u tahlilning keying bosqichlari, ya’ni sintaksis tahlili va semantik tahlil jarayonlari uchun asos vazifasini bajaradi.

Razmetkaning ma’lumotlari biror bir tuzilma ko‘rinishida taqdim etiladi. O‘zbekcha matn fragmentini morfologik razmetkalashga doir misol keltiramiz:

<?xml version=“1.0” encoding=“windows-1251”?><text>
<s>
<w> boysari <ana lemma=“BOYSARI” pos=“[ot],[at.ot.],[shaxs_n.]”/> </w>
<w> farzandli <ana lemma=“FARZAND” pos=“[ot],[tur.ot],[qar.LMG],[shaxs.ot], [b.k.], [birl.son],[3-sh.]”/> </w>
<w> bo‘ldi <ana lemma=“BO‘L” pos=“[f],[must.f.],[har.f],[14.2]”/> </w></s>
<s>
<w> shohimardon <ana lemma=“SHOHIMARDON” pos=“[ot],[at.ot.],[shaxs_n.]”/> </w>
<w> bilan <ana lemma=“BILAN” pos=“[ko‘m.], [sof ko‘m.], [vos.m.]”/> </w>
<w> tunab <ana lemma=“TUNAB” pos=“[f], [must. f.], [har. f.], [o‘-siz f.], [b-li f.], [an.n.], [sod. f.], [t.f.], [rav-sh]”/> </w>
<w> qoldi <ana lemma=“QOL” pos=“[f], [must. f.], [holat. f.], [o‘-siz f.], [b-li f.], [an.n.], [sod.f.], [t.f.], [x.m.], [o‘.z.], [III sh.b.]”/> </w>
</s> </text>

Bu yozuvlarga quyidagi teglar ishlatilgan: <text> - matn, - abzas, <s> - gap, <w> - so‘zni qo‘llash, <ana> - atributlar, <lemma> - lemma, <pos> - so‘z razmetkasi,

Sintaksis razmetka. Sintaksis razmetka morfologik tahlil ma’lumotlariga tayanganvholda bajariladi. Razmetkaning bu turi sintaksisni qabul qilingan formal modelidan bog‘liq bo‘lib, u leksik birliklar orasidagi sintaktik bog‘lanishlarni va turli sintaktik konstruksiyalarni (masalan, ergash gap. Kesim va shu kabilar) tavsiflaydi.

Morfologiyadan farqli ravishda sintaksis tuzilmalarni va sintaktik munosabatlarni tasvirlashning alohida usullariga ega emas. Odatda sintaksisrazmetkasi bog‘lanishlar grammatikasi yoki bevosita tarkibiy elementlar grammatikasi terminlari orqali bajariladi.

Semantik razmetka. Semantik teglar so‘z yoki so‘z birikmasi mansub bo‘lgan semantik kategoriyalarni va uning ma’nosini anglatadigan tor qismiy kategoriyalarni belgilaydilar. Korpusni semantik razmetkalash oldindan so‘z ma’nolarini ixtisoslashtirishni ko‘p ma’nolik va ko‘p shakllikni yechishni, so‘zlarni kategoriyalrga bo‘lishni, tematik sinflar, baholash va derivatsiya harakteristikalarini ajratish talab qilinadi.

Rus tili milliy korpusida sintaksis razmetkalashning mumkin bo‘lgan variantlaridan biri qo‘llanilgan. Unda har bir so‘z shakliga uch xil belgilar yozib chiqiladi:

1) Razryad (ism, qaytish olmoshi va shu kabilar);
2) Leksik-semantik harakteristikalar (leksemaning tematik sinfi, kauzativlik belgisi, baholar va h.k.);
3) Derivatsiya harakteristikalari.

Ekstralingvistik razmetka. Ekstralingvistik razmetka (metarazmetka) korpus matnlarini “tashqi” intelleKtual razmetkalashni (bibliografik harakteristikalar, tipologik, tematik, ijtimoiy harakteristikalar) o‘z ichiga oladi. Masalan, rus tili milliy korpusida badiiy matnlar janrlar bo‘yicha detektiv, jangari, bolalar adabiyoti, hujjatli, nasr, dramaturgiv va boshqa turlarga bo‘linadi. Badiiy bo‘lmagan matnlar esa faoliyat sohalari bo‘yicha maishiy, rasmiy ish,

publitsistika, reklama va boshqa turlarga bo‘linadi. Metarazmetka ma’lumotlari uchun belgilar to‘plami, ko‘pincha, *TEI (Text Encoding Initiative)* loyihasi tavsiyalari asosida shakllantiriladi.

Metarazmetka, birinchidan, til va uning mavjudlik shartlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishni oshkor qilish uchun va, ikkinchidan, tilning alohida qismiy to‘plamlarini tanlab olish va o‘rganish uchun kerak bo‘ladi.

Korpus boshqaruv servisi. Matnlar korpusi tilshunos qo‘lidagi kuchli ish quroliga aylanadi, qachonki maxsus dasturiy vositalar – korpus menejeri mavjud bo‘lsa.

Zamonaviy korpus menejeri quyidagi ishlarni bajara olishi kerak:

- Konkordans tuzish;
- Kontekstlarni nafaqat so‘zlar bo‘yicha, balki so‘z birikmalari bo‘yicha ham izlash;
- Ro‘yhatlarni foydalanuvchi tomonidan tanlangan bir necha me’yorlar bo‘yicha tartiblash;
- Topilgan so‘z shakllarini kengaytirilgan kontekstda tasvirlash imkoniyatini berish;
- Korpusning alohida elementlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar berish;
- Natijalarni saqlash va chop qilish;
- Nafaqat alohida fayllar bilan, balki o‘lchovi chegaralanmagan korpuslar bilan ham ishlay olish;
- So‘rovlarga tez javob qaytarish va natijalarni tez chiqarish;
- Ham boshlang‘ich darajadagi foydalanuvchiga va ham tajribali foydalanuvchiga qulay va tushunarli bo‘lishi.

Zamonaviy korpus tizimlari yanada murakkabroq masalalarni: so‘zlarning chastotali lug‘atlarini tuzish, kollokatsiyalarni (turg‘un so‘z birikmalari) ro‘yhatini tuzish, leksik-semantik guruhlarni hosil qilish kabi masalalarni hal etishi zarur.

Korpus menejerlarining umumiy ish prinsiplarini yaxshiroq tushunish uchun ularni bir necha xilini qarab chiqamiz.

Toni Makeneri va Endryu Xardi [6, 85-b.] korpus boshqaruvi dasturlarining to‘rt avlodini tavsiflab bergan. Ular korpus lingvistikasining zamonaviy dasturiy vositalarining ko‘pchiligini uchinchi avlodga mansub deb hisoblaganlar. Bu dasturiy tizimlar ko‘plab funksiyalar, shu jumladan, statistik metodlar, ko‘p tillikni hisobga olish kabi funksiyalarni ham taqdim etadi va do‘stona interfeysni o‘z ichiga oladi. Bunday dasturiy vositalarga misollar: WordSmith Tools, MonoConc Pro, ParaConc, AntConc.

Katta bo‘lmagan korpuslar uchun ko‘pincha AntConc tizimi ishlatiladi. Bu erkin tarqatiladigan dasturiy ta’minot bo‘lib, qulay interfeysga hamda turli kodirovka va turli formatdagi matnlarni qayta ishlash bo‘yicha ko‘plab funksiyalarga ega. AntConc yordamida quyidagi amallarni bajarishi mumkin:

- Matndan iborat faylni ko‘rib chiqish;
- Berilgan so‘z uchun kontekst oyna chegarasida konkordans tuzish;
- Konkordansga grafiklar chizish;
- Kontekst oyna chegarasida berilgan so‘z ishtirok etgan n-grammlarni ajratish;
- Assotsatsiya o‘lchovlari asosida berilgan so‘zning kollokatlarini ajratish;
- So‘zlarning yoki lemmalarning rang va absolyut chastotalari ko‘rsatilgan ro‘yhatlarini tuzish;
- Kalit so‘zlarni ajratib olish.

Uning katta hajmli korpuslar bilan yaxshi ishlamasligi asosiy kamchiligidir.

Korpuslarning to‘rtinchi avlod dasturiy vositalari: Sketch Engine, CQPweb, Wmatrix, Mark Devisning korpus tizimi (http://corpus.byu.edu) va boshqalar. Bu dasturiy vositalar katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatlariga ega. Ular korpuslarni web-serverning ma’lumotlar bazasida saqlaydilar va ma’lumot qidirishni tezlashtirish uchun ma’lumotlar ilgaridan indekslangan bo‘ladi.

Chexiyaning T.G.Masarik nomli universitetida Adam Kilgarrif rahbarligida yaratilgan Sketch Engine tizimida lingvistikaning ko‘plab funksiyalari amalga oshirilgan. Bu tizim obuna bo‘lib foydalanish mumkin bo‘lgan Sketch Engine nomli korpus xizmati

(https://www.sketchengine.co.uk) uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi vaqtda bu xizmat foydalanuvchilarga dunyoning turli tillari bo‘yicha 350dan ziyod korpus taqdim eta oladi. Sketch Engine tizimi korpusda kollokatsiyalarni (komponentlarni) orasidagi bog‘lanishlar kuchi ko‘rsatilgan so‘z birikmalarini) ajratish, xuddi shuning o‘zini sintaksis formulalarni (masalan, fe’l + to‘g‘ri to‘ldiruvchi) hisobga olgan holda bajarish bajarish, berilgan so‘z uchun leksik-semantik maydonlar qurish, sinonimlarning birlashuvchanligini taqqoslash, kalit so‘zlarni ajratish kabi ishlarni bajarishga imkoniyat beradi. Bu tizimning yadrosi NoSketch Engine tekin tarqatiladi (htt://nlp.fi.muni.cz/trac/noske/wiki/downloads). Bu menejer (NoSketch Engine) ko‘pgina milliy korpuslar (chex, Slovak, Bolgar, Xorvat va h.k.) uchun ishlatiladi. Ushbu dastur ilgari razmetkalangan matnlarni yuklab, ular asosida korpus yaratadi. Korpus ma’lumotlari ustida ishlash bir necha rejimda bo‘lishi mumkin: berilgan so‘z yoki so‘z birikmasi uchun konkordans rejimi yoki chastotali ro‘yhatlar tuzish rejimi.

Xulosa. O‘zbek tili korpusining yaratilishi o‘zbek filologiyasi olimlari, tadqiqotchilari, axborot texnologiyalari mutaxassislari, dasturchilar yordamida amalga oshiriladi. Korpusni yaratilishida dastlabki olingan standartlarga qat’iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi. O‘zbek tiliga tilshunoslik jihatidan qiziqqan tadqiqotchilar uchun o‘zbek tili korpusi muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. Tursunov M.S., Karshiev A.B., Karimov S.A., Development of a modern corpus of computational linguistics. Conference: 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351376, (scopus) nowember, 2020.
2. Баранов А.Н., Корпусная лингвистика // Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику. М., 2001. С. 112–137.
3. Гвишиани Н.Б., Практикум по корпусной лингвистике: Учеб. пособие по английскому языку. М.: 2008, 206-213-ст.
4. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: method, theory and practice. Cambridge University Press, 2012, 85-p.

МУЛЬТИМЕДИАЛИ ЎҚУВ КУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ТАБИИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

И.Б.Аминов
Шароф Рашидов номли Самарқанд Давлат университети
Т.Ж.Оқназаров
Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази
А.О.Шодиев
Каттақўрғон тумани 54-мактаб

Мустақиллик шароитида республикамизда таълим тизимини ислоҳ қилиш биринчи навбатда таълим-тарбия тизимига илғор педагогик ва ахборот технологиялари воситаларини татбиқ этиш билан боғлиқдир.

Бугунги кунда таълим жараёнини ахборот технологиялари воситаларисиз тасаввур қилиб бўлмайди, мана шу сабабли барчамиз "янги педагогик технологиялар" атамасини ишлата бошладик. Шу жумладан ахборот технологияларининг замонавий воситалари таълим жараёнининг барча имкониятлари ва ташкиллаштириш усулларини бутунлай ўзгартириб юборди. Компьютер техникаси ва интернет тармоғи эса таълим тизимига янги педагогик технологияларининг замонавий методларини, усулларини ва дастурий воситаларини татбиқ этиш бўйича янада кенгроқ имкониятларни яратиб берди.

Электрон ўқув адабиётларини яратиш ва тадбиқ этиш технологиясининг муаммоларини ўрганиш ва уни татбиқ қилиш ўқув жараёнининг самарадорлигини ошириш усулларидан бири бўлиб ҳисобланади. Бу соҳада стандарт кўринишдаги илмий – услубий таъминот ва кўрсатмалар тўлиқ яратилмаган, шунинг учун электрон ўқув

адабиётларини яратишдаги сифат даражаси етарлича бўлмайди, яъни қўйилган талабга жавоб беролмайди.

Ҳозирги вақтда ўқув жараёнининг барча жабҳаларида электрон ўқув адабиётларини қўллаш, кўплаб ахборот ва коммуникацион технологияла-рининг, шу жумладан дастурий жиҳозлаш воситаларининг кенг имкониятларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Дастурий жиҳозлаш воситалари – амалий дастурий жиҳозлар бўлиб, улар ўқитиш жараёнининг барча соҳаларида дастурий тизимларни яратиш, тайёрлаш, ташкилий материалларни ва маълумотларни жамлаш, график ёки анимацияларни қўшиш ва намойиш учун мўлжалланган.

Мультимедиа курслари асосида ўқитиш жараёнини ташкиллаштиришда машғулот ўтишнинг турли услублари ва технологияларидан фойдаланиш керак бўлади. Бунинг учун талабаларнинг ўқув аудиторияларида, компьютер синфларида, ўқитишнинг техник воситалари хонасида, услубий кабинетда, кутубхоналарда амалий шуғулланишларини ташкиллаштириш лозим.

Мутахассислик йўналишлари бўйича яратилган барча мультимедиа ўқув курслари амалий тадбиқдан ва тажрибадан ўтган бўлиши билан бирга, ўзига хос хусусиятларга ҳам эга бўлиши керак.

Физика- математика йўналиши фанлари бўйича мультимедиа ўқув курсларининг хусусиятлари билим ва кўникмаларни шакллантириш учун фойдаланиладиган ўқув материалларининг тасвирланиш формасига ва кўринишига боғлиқ бўлади. Улар фақатгина мисол ва масалалар ечиш, амалий ва лаборатория машғулотларини бажариш жараёнидагина эмас, балки бутун ўқув жараёнида талабаларни профессионал билим, малака ва кўникмаларини шакллантиришга қаратилиши лозим.

Бундай мультимедиа ўқув курслари математик формулалар ва теоремалар исботи тизимидан, мустақил ўрганиш учун мураккаб назарий материаллардан тузилган бўлади. Бу эса интерфаол маърузавий мультимедиа курсларини ва намойиш материалларини тўлдирувчи, традицион усулда чоп этишга асосланган электрон ўқув қўлланмалари яратиш лозимлигини кўрсатади.

Интерфаол мультимедиали маърузалар турли хил ахборотларни – матн, статик ва динамик графика, видео ва аудио ёзувларни интеграциялаш имконини беради . Талабани ўқув жараёнида фаолроқ ва диққатлироқ бўлишга ўргатади, чунки ахборотлар маълум бир ҳаракатли амалларга мос жавоблар асосида баён қилинади.

Ўқув жараёнида компьютер технологияларидан, шу жумладан мультиме-

диа ўқув курсларидан фойдаланиш маърузавий намойишларнинг сифатли видео ёзувларини, компьютерли лаборатория ишлари ва амалиётларни, физик ҳодиса ва жараёнларнинг имитацион анимацияли моделларини яратиш имконини беради, бу эса рўй бераётган жараёнларни таъсирчанлигини ва ҳаққонийлигини кўрсата олади.

Бундан ташқари замонавий компьютер воситалари реал шароитда амалга ошириладиган тренажёрлар, моделлар ва лаборатория ишларини яратиш имконини беради. Айниқса, тўғридан - тўғри тажриба ўтказиш имкони бўлмаган ҳолда улардан фойдаланиш муҳимдир. Бунга газда ҳамда суюқликларда молекуляр ҳодисалар, микро дунёнинг квант ҳодисалари ва бошқа кўпгина жараёнларни намойиши мисол бўла олади.

Математика, физика ва табиий фанлари бўйича мультимедиа курсларини яратишда шу соҳанинг асосий дидактик масалаларидан бири – ўқитишни моделлаштириш ва тасаввурлаш объектларига таъсир қилишнинг умумий методлари муҳим ўринлардан бирини эгаллайди.

Компьютер ёрдамида моделлаштириш физик жараёнлар ва объектларни асосий хоссаларини текшириш ва намойиш қилиш, у ёки бу назарий маълумотларни қўлланилиш ҳолатини ва чегарасини аниқлаш имконини беради.

Математика, физика ва табиий фанларини мультимедиали ўқув курслари асосида ўқитишда лаборатория амалиёти маълум бир қийинчиликларни ҳосил қилади. Уни ўтказишда махсус тайёрланган компьютерли лаборатория тренажёрлар ва компьютерли

моделлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ, чунки у физик жараёнларни моделлаштириб, муҳим қонуниятларни самарали кузатиш имконини беради. Бу эса талабаларни ўрганаётган жараёнлари бўйича билим ва малакаларни шакллантиришда ва оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлади.

Математика, физика ва табиий фанлар бўйича мультимедиа ўқув курсларининг асосисий хусусиятларидан бири, шу фанни ўрганишнинг маълум бир нозик жиҳатлари билан аниқланади, улар эса ўз навбатида катта сондаги кўргазмали материалларни талаб қилади, чунки уларнинг иштирокисиз жонли дунёнинг турли туманлигини, уни қуришни зарурлигини, биологик, химик ва физика жараёнларнинг ҳосил бўлиш механизмини ва ривожланишини тўлиқ намойиш қилиб бўлмайди.

Математика, физика ва табиий фанларни кўргазмали қуроллар билан таъминлаш муаммосини маълум бир ҳолда мультимедиа орқали ҳал қилиш мумкин. Мультимедиа ўқув курсларида ўқув материалларини тўлдирувчи ва унинг қабул қилиш даражасини оширувчи кўргазмали воситалари алоҳида кўргазмали жадваллар, график схемалар , расмлар ва бошқалардан иборат бўлган слайдлар, видеофильмлар ва бошқа шунга ўхшаш кўргазмали назарий материаллар орқали тасвирланилиши мумкин.

Математика, физика ва табиий фанларни мультимедиали ўқув курслари асосида ўқитишда видео-маърузалар, анимацион моделлар, компьютерли лаборатория амалиётларидан фойдаланиш ўз самарасини беради, чунки улар натурал объектлар ва кўргазмали қуролларнинг камчиликларини маълум бир миқдорда ёки тўлиқ қоплаш имконини беради.

Математика, физика ва табиий фанларни компьютер технологиялари ва мультимедиа ўқув курслари асосида ўқитишнинг асосий ўқув-услубий ва дастурий таъминоти - гиперматн, видео ва аудио-иловалар, анимациялар, катта сондаги намойиш материалларидан фойдаланиладиган мультимедиали ўқув қўлланмалари ҳисобланади. Шунинг учун уларни яратишда психологик ва педагогик принципларга асосланиш керак бўлади.

Математика, физика ва табиий фанлар бўйича мультимедиали ўқув курслари турли табақали ва иқдидорли ўқувчиларга мўлжалланган бўлади. Бу эса уларнинг тузилишининг кўп даражали ва тармоқли- модулли характерга эга эканлиги билан аниқланади.

Мультимедиа курсларини яратишда ва улардан фойдаланиш локал компьютер ва Интернет тармоғи кенг имкониятларни очиб беради. Мультимедиали ўқув курсларини бутун дуне компьютер тармоғига жойлаштирилиши, улардан ўқув жараёни фойдаланишда тўғридан-тўғри мурожоат қилиш имконини беради, бу эса ўқувчиларга информацияларни топиш , излаш ва ўрганиш фаолиятини шакллантириш ва кенгайтириш имкониятларини яратади.

Ўқув жараёнларида компьютерлардан фойдаланиш жуда катта аҳамиятга эга бўлиб, унда катта муваффақиятларга эришилади. Бу жараёнда ўқитувчидан жуда юқори савия ва кўникма талаб қилинади, яъни ўқитувчи нафақат аниқ бир мавзуни ўқувчиларга тушунтириш, балки компьютерлардан унумли ва тўғри фойдаланишни ҳам билиши зарур. Бу жараёнда ҳам замонавий дастурий жиҳозлар ва техник-электрон қурилмалар қўлланилади.

Мультимедия технологияларининг техник жиҳозларининг имконият-лари ва ривожланишлари натижасида ўқув жараёнининг барча соҳаларида қўлланилиши ва ўз самарасини бериши мумкин .

Мультимедиа воситаларидан таълим соҳасида фойдаланиш ва улар ёрдамида ўқитиш тажрибалари мультимедия технолоргияларини таълим соҳасининг турли хил педагогик фаолиятларда қўлланилишининг асосий жиҳатларини ажратиб берди.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Z.A.Marasulova
Qo'qon davlat pedagogika instituti, Fakultetlararo matematika-informatika kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.X.*Zoxidova*
Qo'qon davlat pedagogika instituti, Fakultetlararo matematika-informatika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli maktab, raqamlashtirish, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o'qitish.

Аннотация: В данной статье определены приоритеты развития высшее образовательного процесса на основе использования цифровых технологий в системе образования страны, анализ их возможностей. Также предлагаются предложения, как не только сыграть важную роль в образовании и как это реализовать, но и через изучение, систематизацию и обобщение существующей практики сделать научно обоснованные выводы о внедрении цифровых технологий в образование.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровая школа, цифровизация, современное образование, цифровые знания, интернет-система, дистанционное обучение.

Annotation: This article identifies priorities for the development of the educational process based on the use of digital technologies in the education system of the country, the analysis of their capabilities. It also offers suggestions on how to not only play an important role in education and how to implement it, but also through the study, systematization and generalization of existing practices in drawing scientifically sound conclusions about the introduction of digital technologies in education.

Keywords: digital technologies, information and communication technologies, digital school, digitization, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. [1:-B5].

Raqamli texnologiya bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. [2:-B43].

Raqamli texnologiylarga o'tishga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

• Raqamli texnologiyalarga o‘tish deganda, kompuyterlar va bilimlarga asoslangan holda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining butunlay yangicha turini barpo etishni tushunamiz;

• Raqamli texnologiyalarga o‘tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma’umotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan mobil ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar. sensor tarmoqlar, buyumlar interneti hamda sun’iy intellekt texnologiyalari misol sifatida ko‘rsatish mumkin;

• Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan texnologiyalar birgalikda “aqlli” ob’yekt va jarayonlarni *(aqlli davlat, aqlli uy, aqlli shahar, sog‘liqni saqlash, transport va tadbirkorlik)* yaratishga imkon beradi.

Hozirgi kunda jahon miqyosida raqamli texnologiyalarni umumiy bir ma’noda tushunish mavjud emas, shunday bo‘lsada, uning ko‘plab ta’riflari mavjud. Masalan, *raqamli texnologiyalar* - jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan xo‘jalik faoliyatidir. Yuqorida aytganimizdek, raqamli texnologiya gibrid dunyo sharoitlarida mavjud bo‘ladigan texnologiyadir. Ushbu ta’rif ham to‘g‘ri bo‘lib, mohiyatni aks ettiradi. Lekin kutilayotgan o‘zgarishlarni tushuntirmaydi va mos ravishda, amaliyotda undan foydalanish bir muncha murakkabdir.

«Raqamlashtirish» so‘zi aslida yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash sohalari juda katta axborot oqimlari bo‘lib, har bir kishi internetda topa oladigan, ta'lim jarayonini bunday istakka ega bo‘lgan har bir kishiga taqdim etdi. Axborot tizimlari hayotning barcha sohalariga kirdi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ko‘plab imkoniyatlarni ochib beradi. Ilm-fan va sanoatning barcha sohalarida erishilgan yutuqlar hayratlanarli va hayratlantirmasdan juda tez sur'atlarda davom etmoqda. Raqamli texnologiyalar imkon qadar qisqa vaqt ichida turli vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Raqamli maktab - ta'lim jarayonida raqamli uskunalar, dasturiy ta'minotdan ongli va samarali foydalanadigan va shu bilan har bir talabaning raqobat qobiliyatini oshiradigan maxsus ta'lim muassasasi. Raqamli maktablar odatiy va hatto yangi hodisa sifatida qaralmaydi, chunki axborot texnologiyalari maktablarda faol qo‘llanilmoqda. Raqamli ta'lim texnologiyalariga yo‘naltirilgan maktablar texnik va axborot uskunalari, o‘qituvchilarning yangi sharoitlarda ishlashga tayyorligi, ta'lim muhitini boshqarish darajasi bilan tubdan farq qiladi. Metodik ravishda "raqamli maktab" yangi ta'lim standartlariga asoslangan bo‘lib, u ko‘p bosqichli vakolatli yondashuvni qo‘llaydi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar:

- o‘quvchilarga ma'lumot va bilimlarni samarali etkazib berish vositasi;
- o‘quv materiallarini yaratish vositasi;
- samarali o‘qitish usuli;
- bu yangi ta'lim muhitini yaratish vositasi: rivojlanish va texnologik.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar:

- O‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi eksperimental tadqiqotlari texnologiyasi.
- "Virtual haqiqat" texnologiyasi.
- "Panoramali tasvirlar" texnologiyasi.
- "3D modellashtirish" texnologiyasi.
- "Ta'lim robotlari" texnologiyasi.
- ITI texnologiyasi (kichik axborotlashtirish vositalaridan foydalanish).
- Multimedia ta'lim mazmuni.
- Interaktiv elektron kontent.

Ta'lim standartlari bizni o‘quv jarayonini qayta tashkil etishga yo‘naltiradi. Bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning eksperimental faoliyati bilan bog‘liq. Nima uchun? Aslida, talabalar nafaqat

aniq amaliy ko‘nikmalarni, balki umumiy ta'lim qobiliyatlarini ham o‘zlashtirishlari kerak: tabiiy fan bilimlari usuli o‘zlashtirilishi uchun o‘quv jarayonini tashkil qilish kerak. O‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi tadqiqotlari texnologiyasi, albatta, treningda muammoli-qidiruv yondashuvini amalga oshiradi va ma'lum bir ilmiy bilimlarni amalga oshirishni ta'minlaydi: faktlar – model – natija – tajriba faktlar.

Dastlab, o‘qituvchi kuzatishlarni tashkil qiladi va namoyish tajribalarini qo‘yadi, talabalar bilan birgalikda ma'lum bir hodisa bo‘yicha xulosalar chiqaradigan faktlarni oladi. Olingan faktlardan kelib chiqqan holda, o‘qituvchi va o‘quvchilar kuzatilgan hodisalarni tushuntirishga va naqshlarni (gipotezalar ilgari surilgan) aniqlashga, natijalarni aniqlashga, sabablarni aniqlashga harakat qilishadi. Shundan so‘ng, o‘quvchilar va o‘qituvchilar qanday sinov tajribalarini qo‘yish mumkinligini, ularning g‘oyalari va maqsadlari qanday bo‘lishini, ularni qanday amalga oshirishni o‘ylaydi.

Robotlarni o‘rgatishning asosiy usuli - bu talaba o‘z vazifalarini bajaradigan va hal qiladigan ta'lim sharoitlarini tashkil etish va o‘qituvchi talabaning faoliyatiga hamroh bo‘ladi. Robotlardan foydalangan holda darslar tizim-faoliyat yondashuvi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatini yaratadi, bu esa bugungi kunda yangi ta'lim standartlarini talab qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kun sinfxonalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-2501-2020.

2.Sharonin Yu.V. Sifrovie texnologii v visshem i professionalnom obrazovanii: ot lichnostno orientirovannoy Smart-didaktiki k blokcheynu v selevoy podgotovke spetsialistov // Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya. – 2019. – № 1.

3.Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(23). izvlecheno ot https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702.

4.Norboeva N. Erkinovna, Khashimova D. Pakhritdinovna. The role of the digital economy in the development of information and communication technologies // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25

ЛОЙИҲА АСОСЛАНГАН ЎҚИТИШ ВОСИТАСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КРЕАТИВ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Д.Н.Сулайманова
Ш.Рашидов номидаги СамДУ
Мактабгача таълим кафедраси мудири

Аннотация: Таълим жараёнида бўлажак мутахассисда креатив тафаккурни ривожлантириш бугунги кундаги таълим олдига қўйилган асосий вазифалардан бири.

Ушбу мақолада лойиҳа асосланган ўқитиш воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг креатив тафаккурини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари ёритилган.

Жамиятда юқори интеллектли кадрларга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши олий таълим соҳасини изчил ривожлантириш ҳамда бўлажак мутахассисларни тайёрлашга инновацион-креатив ёндашувни тақозо қилади. Шу нуқтаи-назардан илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий таълим мазмунини модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантириш, талабаларда ижодий яратувчанлик дунёқарашини ривожлантиришга хизмат қиладиган интерфаол стратегия ва воситаларни амалиётга татбиқ этиш асосида уларда креатив тафаккурни ривожлантиришнинг педагогик-психологик механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кунда Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг барча жабҳаси каби олий таълим соҳасини ҳам изчил ривожлантириш, бўлажак мутахассислар учун муносиб шарт-шароитларни яратишга жадал интилмоқда. Хусусан, ҳукуматимиз томонидан чиқарилаётган қарор ва фармонлар айнан бўлажак мутахассисларнинг ҳар томонлама етук бўлиб шаклланишлари учун зарур шарт-шароитлар яратиш ва уларни қўллаб-қувватлашга қаратилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси устувор йўналишларига мос ҳолда, кадрлар тайёрлашнинг маъно-мазмунини тубдан янгилаш, халқаро стандартлар даражасида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратиш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон Қарорида ҳам ҳар бир олий таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий қилиш ... устувор вазифалар сифатида белгиланган.

Ана шу нуқтаи назардан илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий касбий таълим мазмунини интернационализациялаш ва модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантирилиш, талабаларда креатив тафаккурни ривожлантиришга хизмат қиладиган интерфаол стратегия ва воситаларни амалиётга татбиқ этиш асосида талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Шундай экан бўлажак ўқитувчиларни ижодий фаолиятга тайёрлаш, уларда креатив тафаккурни ривожлантириш бугунги кундаги долзарб вазифалардан биридир.

Жаҳон тажрибасида олий таълим муасассалари томонидан тайёрланган мутахассислар ва уларнинг мазкур ихтисосликда муваффақият билан иш юритиши тегишли ОТМ нуфузини белгиловчи бош мезонлардан бири ҳисобланади. Муваффақиятга эса фақатгина ностандарт ечимлар ва креатив ёндашув орқали эришилади. Демак, таълим-тарбия жараёнида талабаларда креатив тафаккурни ривожлантириш долзарб ижтимоий-педагогик заруриятдир.

Албатта, таълим жараёнида бўлажак мутахассисда креатив тафаккурни ривожлантириш бугунги кундаги таълим олдига қўйилган асосий вазифалардан бири, десак муболаға бўлмайди. Зеро, таълим соҳасида олиб борилаётган ислоҳотлар талабаларнинг атрофдагилар билан муомала қилишга, мавжуд вазифаларни тўғри баҳолашга, мустақил, танқидий, ижодий фикрлашга имкон берадиган ўқув вазиятларини ташкил этиш заруриятини қўймоқда. Бу эса таълим жараёнида бўлғуси мутахассисларнинг шу жумладан, бўлажак ўқитувчиларнинг индивидуал имкониятларига қараб, уларнинг билиш фаоллигини ошириш, креатив тафаккурини ривожлантириш орқали келгуси педагогик фаолиятга тайёрлашнинг назарий-амалий асосларини ишлаб чиқишни тақозо этади.

Тафаккур - шахснинг объектив воқеликдаги нарса ва ҳодисаларни уларнинг муҳим хусусиятларини боғланиш ҳамда муносабатларини бевосита умумлаштирилган ҳолда акс эттиришдан иборат бўлган ақлий фаолият. Тафаккур воқеликни сезги, идрок ва тасаввурларга қараганда чуқурроқ, кенгроқ, тўлиқ билишга имкон беради .

Креативлик - (лот., инг. “create”-яратиш, “creative”-яратувчи, ижодкор)-индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёргарликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилиятдир.

Креативлик - шахснинг яратувчилик, ижодкорлик хислатлари билан боғлиқ кўникмалар мажмуи сифатида намоён бўлади. Креативлик ўз ичига муаммолар нисбатан юқори даражадаги сезгирлик, интуиция, натижаларни олдиндан кўра билиш, фантазия, тадқиқотчилик ва реклексияни қамраб олади.

Америкалик олим Д. Векслер “Креативлик фикрнинг шундай турики, у шахсга бир муаммо ёки масала юзасидан бирданига бир нечта ечимлар пайдо бўлишини тақозо этади ва шаблонли, зерикарли фикрлашдан фарқ қилиб, нарса ва ҳодисалар моҳиятидаги ўзга хослик, ноёблик сифатларини англашга ёрдам беради ” - деб таъриф беради.

Креатив тафаккур - тафаккурнинг ижод жараёнини ташкил этиш ва ижод натижалари (маҳсуллари)ни башоратлашни ифодаловчи тушунча саналади.

Лойиҳага асосланган таълим (Project-Based-Learning) - бу талабалар ҳақиқий ва шахсан мазмунли лойиҳаларда фаол иштирок етиш орқали ўрганадиган ўқитиш усули. Талабалар узоқ вақт давомида - бир ҳафтадан бир семестргача бўлган лойиҳа устида ишлайдилар, бу уларни ҳақиқий муаммоларни ҳал қилиш ёки мураккаб саволга жавоб беришга жалб қилади. Улар ҳақиқий аудитория учун оммавий маҳсулот ёки тақдимот яратиш орқали ўз билим ва кўникмаларини намойиш этадилар.

Натижада талабаларда чуқур мазмунли билимлар ҳамда танқидий фикрлаш, ҳамкорлик, ижодкорлик ва мулоқот кўникмалари шаклланади. Лойиҳага асосланган таълим талабалар ва ўқитувчилар орасида ёқимли, ижодий энергияни очиб беради.

Лойиҳага асосланган таълим (PBL) - бу ўқитиш усули бўлиб, унда талабалар узоқ вақт давомида ҳақиқий, қизиқарли ва мураккаб савол, муаммо ёки муаммони текшириш ва жавоб бериш учун ишлаш орқали билим ва кўникмаларга эга бўладилар.

Бу эса ўз навбатида бўлажак ўқитувчиларда назарий билимлардан педагогик амалиётда муваффақиятли фойдаланиш компетенсияларини шакллантириш, педагогик фаолиятда ўз ташаббусларини рўёбга чиқаришга шароит яратувчи таълим муҳитини жорий қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Лойиҳанинг еттита асосий элементи мавжуд бўлиб, улар қуйидагилар:

Лойиҳа элементи Фаолият мазмуни

Қийин муаммо ёки савол Лойиҳа ҳал қилиниши керак бўлган мазмунли муаммо ёки жавоб бериш керак бўлган савол билан тузилади.

Доимий сўров Талабалар саволлар бериш, ресурсларни топиш ва маълумотни қўллашнинг аниқ, кенгайтирилган жараёни билан шуғулланадилар.

Ҳақиқийлик

Лойиҳа реал дунё контексти, вазифалар ва воситалар, сифат стандартлари ёки таъсирни ўз ичига олади ёки лойиҳа талабалар ҳаётидаги шахсий ташвишлар, қизиқишлар ва муаммолар ҳақида гапиради.

Талаба овози ва танлови

Талабалар лойиҳа бўйича баъзи қарорлар қабул қиладилар, жумладан, улар ўзлари ишлайдилар, ўзлари яратадилар ва ўз фикрларини ўз овозлари билан ифодалайдилар.

Рефлексия Талабалар ва ўқитувчилар ўрганиш, сўров ва лойиҳа фаолияти самарадорлиги, талабалар ишининг сифати, юзага келадиган тўсиқлар ва уларни бартараф этиш стратегиялари ҳақида фикр юритадилар.

Танқид ва қайта кўриб чиқиш Талабалар ўзларининг жараёнлари ва маҳсулотларини яхшилаш учун фикр-мулоҳазаларни билдирадилар, оладилар ва қўллайдилар.

Оммавий маҳсулот Талабалар ўз лойиҳасини бошқалар билан бўлишиш ва тушунтириш ёки уни синфдан ташқаридаги одамларга тақдим этиш орқали ҳаммага очиқ қилишади.

Лойиҳага асосланган таълимнинг афзалликлари.

Кўпинча анъанавий таълим ҳеч қачон фақат академик соҳадан ташқарига чиқмайди. Лойиҳага асосланган таълим талабаларни аудиториядан ташқари дунё билан боғлайди ва уларни профессионалларнинг ҳар куни қиладиган ишларини акс эттирадиган тарзда ҳақиқий дунёда қийинчиликларни қабул қилишга ва уларга жавоб беришга тайёрлайди.

Қисқа муддатли ёдлаш ва суммативрегургитация ўрнига, лойиҳага асосланган таълим талабаларга мақсадли таркиб билан чуқур шуғулланиш имкониятини беради, бу эса диққатни узоқ муддатли сақлашга олиб келади. PBL, шунингдек, талабаларни фаоллаштириш қобилияти туфайли уларнинг таълимга муносабатини яхшилайди. PBL тузилмаси ички мотивацияни шакллантиришга ёрдам беради, чунки у талабаларнинг ўрганишини марказий савол ёки муаммо ва мазмунли натижага қаратади. PBL танқидий фикрлаш, муаммоларни ҳал қилиш, ҳамкорлик ва турли хил алоқа шаклларини талаб қилади. Ўқитувчи саволига жавоб бериш ва юқори сифатли ишни яратиш учун талабалар маълумотни эслаб қолишдан кўра кўпроқ нарсани қилишлари керак. Улар юқори даражадаги фикрлаш қобилиятларидан фойдаланишлари ва жамоа бўлиб ишлашни ўрганишлари керак. Лойиҳалар талабаларнинг асосий билим, тушуниш ва муваффақият кўникмаларини эгаллашига қаратилган.

Айнан лойиҳага асосланган ўқитиш воситасида талаба келгуси педагогик (ижодий) фаолиятида ҳар бир дарсларини ижодкорлик, креативлик руҳида ташкил этади, янги ғояларни таълим жараёнида синаб кўришга интилади. Демоқчимизки, бўлажак ўқитувчи келгуси педагогик фаолияти давомида текширувчи, серфикр, қарор қабул қилувчи, синчков, қатъий, тадқиқотчи, матонатли бўлсагина ҳар томонлама баркамол шахсни тарбиялашдек давлат буюртмасини бажарган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли қарори. «Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 21 апрелдаги 79-сони.
2. Иванов П., Зуфарова М. Умумий психология. Тошкент. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2008, 480 б.
3. Ильин Е.П. Психология творчества креативности одарённости. Питер. 1998.

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK TA’LIM TEXNALOGIYASINING O‘RNI

M.A.Mansurova, N.A.Maxmudova
Samarqand shahar 5-maktab tarix fani o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kundan kunga ortib borayotganligi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining asosini tashkil qiluvchi boshlang‘ich ta’limda har bir fanni o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning fanlarni chuqur o‘zlashtirishlariga zamin yaratish usullari haqida uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktab, ta’lim jarayoni, davlat ta’lim standarti, ta’lim tizimi,kichik guruhlar, pedagogik texnologiya, muloqot, mustaqil, noan’aviy, o‘zlashtirish, davra suhbati.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedogogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Ma’lumki, uzluksiz va uzviylik ta’lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shu nuqtai-nazardan ham hozirgi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab ortib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlar asosida ko‘nikma va maiakaiar hosil qilingan bo‘lsa, ta’lim texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayev tomonidan “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan,yuksak intellektual va ma’navi salohiyatga ega bo‘lib,dunyo miqyosida o‘z tingdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi,baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz “ - deb ta’kidlashi boshlang‘ich ta’lim oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin va savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Noan’aviy darslardan ko‘zlangan maqsad muayyan bir o‘qiv predmetini o‘qitishda, ma’ruza yoki amaliy mashg‘ulotlarini yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o‘tkazishda interfaol metodlardan foydalangan holda o‘qituvchi – o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritish hamda o‘quvcilar bilimini tez va samarali baholashga erishishdir.Bunday darslarda o‘quvchi mustaqil fikrlashga, izlanishga, mavzuga ijodiy yondashib tahlil etishga, xulosa chiqarishga, o‘z – o‘zini baholashga o‘rganadi.

Jamiyat taraqqiyoti o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas`uliyatli vazifalar yuklamoqda. O‘qituvchi har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi va bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Kichik guruhlarda ishlash – dars jarayonida ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqni yechish yo‘llarini ishlab chiqshni taqozo etuvchi jarayondir. Ushbu usul qo‘llanilganda o‘quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishlash bolalarda jamoaviylikni his etish, intizomli va qiyinchiliklarni hamkorlikda yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida o‘qituvchi boshqa noan'anaviy usullarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholash imkoni bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash usulining afzalligi:

O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

Muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

Vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

Barcha o‘quvchilar jalb etiladi;

O‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan “Aqliy xujum”, “Bumerang”,

"Tarozi", "Yelpig'ich","Kichik guruhlarda ishlash", "Venn diagrammasi" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

"Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishontirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi.

"Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Bu interaktiv texnoloiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2016 yil 7 dekabr soni.

2. Ishmuhamedov R., M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.

3. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv q o'llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-bet.

TA'LIMIY O'YINLAR - ORQALI O'QUVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Sh.M.Xoldorova
Sirdaryo viloyati Guliston tumani 11-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim saviyasini oshirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish, ta'limiy o'yinlarning asosiy turlari, o'quvchilar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limiy, nutq o'stirish, qobiliyat, usul, bolalar, o'yin, ta'lim-tarbiya, kompyuter, tafakkur, ijodiy qobiliyat.

Annotation:This article discusses the use of didactic games to improve the level of knowledge of elementary school students, the main types of didactic games, and the fact that students act with interest during the game.

Key words: didactics, speech development, ability, method, children, game, education, computer, thinking, creative ability.

O‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatish va o‘yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

«Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o‘quvchiga o‘zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat’iylik, o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko‘pincha, ta’limiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi»

Ta’limiy o‘yinlar maktab o‘qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o‘yinlar maktab o‘quvchilariga mo‘ljallanadi. O‘yin orqali bola jamoani tushunadi. O‘zi bajarayotgan mashg‘ulotga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O‘yinda ilg‘orlikka, g‘alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o‘yin bilan band bo‘lib, erkin faoliyat ko‘rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o‘yin bilan bog‘liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o‘qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o‘yin elementlarini kiritishimiz va undan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim. Bugun maktabga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchining kechagi mashg‘uloti o‘yin edi. Bolada boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan materiallarni o‘zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan bilimlarning o‘zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim.

Misol uchun o‘quvchilar xotirasini mustahkamlash uchun quyidagi o‘yin turidan foydalansak bo‘ladi.



O‘quvchilarga shu tarzdagi kartochka ko‘rsatiladi. Va o‘quvchilar ushbu kartochkadagi chizmani qay holatda turganligini ko‘rishlari hamda ulardagi chiziqlarni eslab qolishlari kerak. Keyin o‘qituvchi navbatdagi kartochkani beradi, yoki o‘quvchilarning o‘zlari daftarlariga chizib olishlari ham mumkin.



O‘quvchilar usbu berilgan kartochkalardagi shakllarga uning ichida chizilgan kullarini eslab qolib chizishlari kerak. Yoki ularning joylashuvini ham eslab qay tarzda turganliklarini

chizib berishlari kerak. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning diqqati jamlanadi, xotirasi mustahkamlanib boradi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta’lim nazariyasi). O.O‘Yu uchun qo‘llanma.T., Sharq, 2006y.

O‘QUVCHILARNING HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

N.X.Umarova
SamVPYMO‘MM o‘qituvchisi

Bugungi kunda o‘quvchi shaxsining intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, ma’naviy-axloqiy qiyofasi va huquqiy ongining shakllanishida uni o‘rab turgan muhit va ta’lim-tarbiya jarayonidagi qator omillarning ahamiyati katta. Chunki, ta’lim-tarbiya jarayonining sifat-samaradorligiga erishishda asosiy omillardan biri bu noan’anaviy darslarni tashkil etish bo‘lib, bunda interfaol texnologiyalarni qo‘llash va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov: “Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq” deb ta’kidlaganlar.

Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanishni, o‘qituvchi va o‘quvchilardan yangi axborot muhitida bemalol ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bunday hollarda o‘qitishning maqsadi bilim berish va o‘zlashtirish bilan birga axborotni tahlil qilish, axborot almashish va ulardan yangi bilim olishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, ularning imkoniyatlarini to‘liq tadbiq etishga asoslanadi. Hozirda ma’lum pedagogik maqsadlarga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuqori samara beradi, jumladan:

- pedagogik tadbiq jihatidan AKT imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga ta’lim jarayonining sifat samaradorligini oshirishda;
- AKT vositalaridan foydalanib, bilim olishga intilishga erishishda;
- Davlat va huquq asoslari fani mavzulariga oid muammoli vaziyatlar yuzasidan axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan foydalanish hisobiga fanlararo bog‘liqlikni chuqurlashtirishda;
- huquqiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini har tomonlama mustahkamlash, murakkab jarayonlarni yaqqol ko‘z oldiga keltirishlari va vizual qabul qilishlari uchun foydalanishda;

Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash o‘quvchilar o‘zlashtirish samaradorligi yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

Davlat va huquq asoslari fani darslarida AKTni qo‘llash pedagogik mahoratni talab etadi. Bunda darslarni tashkil etishda o‘qituvchidan axborot madaniyatiga egalik, taxlil qila olish, tashkilotchilik qobiliyati talab etiladi. Bunday darslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanilsa, fan bo‘yicha qo‘shimcha manba, mustaqil ishlash, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy qilish hamda o‘quvchining individuallik, faollik sohasini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Davlat va huquq asoslari fani darslarida AKT qo‘llash elektron darsliklar, qo‘llanmalar, elektron o‘quv filmlari, elektron ko‘rgazmali qurollar yordamida ta’lim jarayonining sifat samaradorligining oshishiga xizmat qiladi va o‘quvchining kompyuter bilan interfaol dasturlar

yordamida muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Muloqotning axborotga boyligi, pedagogik-psixologik jihatdan o‘quvchiga mosligi jarayonda ishlatilayotgan texnik vositalar darajasiga bog‘liq. Shuningdek, o‘qitish jarayoniga kompyuter vositalarining tatbiq etilishi bilim berishning boshqacha shakllarini qo‘llashni, o‘quvchining bilim olish faoliyatini maxsus tashkil etishni va unga mos o‘qitish metodlarini tanlashni talab etadi.

Davlat va huquq asoslari fani darslarida kompyuterdan foydalangan holda “O‘rgimchak to‘ri” mashqini qo‘llash mumkin. Mashq o‘tkazish tartibi quyidagicha:

1. Ishtirokchilar tanlangan muammolar soniga ko‘ra kichik guruh (uchlik) larga bo‘linadilar.

2. Muammolar nomlari oldindan tayyorlab qo‘yilgan, videoproektor yordamida ekranda ko‘rsatiladi. Har bir guruhga bittadan muammo, A-4 hajmdagi qog‘oz beriladi. Muammolar fan mavzusi va o‘quvchilar yoshidan kelib chiqib tanlanadi.

3. Ishtirokchilar 10 daqiqa davomida guruhlarda o‘z muammolarining kelib chiqish sabablari, boshqa muammolar bilan bog‘liqligini, kelib chiqadigan oqibatlarini muhokama qiladilar. Muammoning sabab va oqibatlari A-4 qog‘ozda aks ettiriladi.

Muammolar:

- terrorizm
- ishsizlik
- giyohvandlik .
- aqidaparastlik
- iqtisodiy tanglik
- OITS
- voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarlik

4.O‘rgimchak to‘rini yasash. Har bir kichik guruhga ip bog‘lamlari tarqatiladi. Iplarning ranglari har xil bo‘lishi maqsadga muvofiq. Har bir guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Ular stullarni doira qilib qo‘yib, davra suhbatiga yig‘iladilar. Ipning uchi lider o‘quvchi qo‘lida turadi. Yonidagi guruhdoshlaridan biri kotib ipni olib, boshqa muammolar (boshqa guruh kotiblari) bilan bog‘lanadi. Keyingi ishtirokchi esa kuzatuvchi ketma-ketlikni kuzatib, qayd etib boradi.

5. Har bir davlat(guruh)ni o‘z muammosi hammadan ko‘proq bezovta qiladi. Ammo uni bartaraf etish uchun boshqa muammolar ham tugatilishi lozim. Bu muammolar qanchalik bir-biriga bog‘liq ekanligi guruhlar tomonidan asoslab beriladi.

6. Taqdimot. Taqdimotda kuzatuvchi muammoning kelib chiqish sabablari va uni keltirib chiqargan oqibatlarni e’lon qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar ipining harakatini kuzatish lozim. Shuningdek, bir muammoning sababi boshqa muammo uchun oqibat bo‘ladi.

“O‘rgimchak to‘ri” mashqi orqali o‘quvchilarga muammolarning bir-biriga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatish, shu yo‘l bilan ularning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash va o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga erishiladi.

Xullas, ta’lim muassasalarida huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda AKT vositalari va innovatsion texnologiyalarini qo‘llash ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda hamda o‘quvchi-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent, 2019-yil 26-noyabr.

2.Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, № 276 (7778).

3. Кавтерев А.Ф. Особенности использования компьютерных моделей при работе с сильными и слабоуспевающими учащимися.

4. Лебедева М.Б. Система модульной профессиональной подготовки будущих учителей к использованию информационных технологий в школе.

5.Jamiyat va boshqaruv.//Shoazm Shazamanov.XXR: ta’limni rivojlantirishning siyosiy-huquqiy asoslari//

ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

У.А.Фотима
Тошкент давлат иқтисодиёт университети Самарқанд филиали доценти, педагогика фанлари бўйича PHD

Аннотация. Ушбу мақолада замонавий таълим жараёнида олий таълимда рақамли технологияларни жорий этиш, рақамли трансформация шароитида олий таълим тизимининг ривожланиши, олий таълимни рақамлаштиришнинг муҳим жиҳатлари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: рақамли технологиялар, рақамлаштириш, рақамли трансформация, рақамли таълим, онлайн таълим, анъанавий таълим, рақамли муҳит.

DIGITAL TRANSFORMATION OF HIGHER EDUCATION

Fotima U.Anarbaeva
Associate Professor of Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics, PHD in Pedagogy

Abstract. In this article, the introduction of digital technologies in higher education in the process of modern education, the development of the higher education system in the conditions of digital transformation, and the important aspects of digitalization of higher education are mentioned.

Key words. digital technologies, digitization, digital transformation, digital education, online education, traditional education, digital environment.

Замонавий жамият ҳаётига рақамли технологияларни жадал жорий этиш, ахборот маконини шакллантириш ва рақамли таълим тизимларини ривожлантириш олий таълим муассасалари талабаларининг ўқув жараёнини ташкил этиш, олий таълимга ёндашувларни сифатли қайта кўриб чиқиш, шунингдек, олий таълим тизимини рақамлаштириш тўғрисида янги илмий ва педагогик ғояларни шакллантиришга олиб келади. Рақамли ва ахборот технологияларини олий таълим тизимига ва ўқув жараёнига кенг жорий этиш дунё миқёсидаги тенденция бўлиб, олий таълим тизимида содир бўлган энг муҳим жараёнлардан бирини англатади.

Таълим тизимининг рақамлаштириш босқичига ўтиши жамиятни рақамли даврга ишончли ўтишни ва иқтисодиётнинг рақамли трансформация шароитида ахборот технологиялари, технологик жараёнларни автоматлаштириш ва ахборот хавфсизлиги соҳасида юқори малакали кадрларни тайёрлашни таъминлаши керак.

Рақамли трансформация туфайли замонавий шароитда олий таълим тизимининг ривожланиши ўқув жараёнини қуришга, шу жумладан илғор ўқув технологияларидан фойдаланган ҳолда замонавий рақамли ахборот-таълим муҳитини яратишга, олий таълимни бошқариш стратегиясини амалга оширишга ва индивидуал хусусиятларга асосланган ўқув материалларини мослаштиришга янги талабларни қўяди.

Олий таълимни рақамлаштиришнинг ҳозирги даражаси таълимдаги тўсиқларни йўқ қилмоқда, бугунги кунда онлайн ва офлайн таълим форматлари ўртасида унчалик рақобат мавжуд эмас, тадқиқотчилар онлайн ва офлайн режим интеграцияси шароитида ўқув жараёнини қуришнинг назарий ва услубий асосларини рақамли муҳитда аралаш (гибрид) ўрганиш лозим деган фикрга қўшилишади.

Шуни қайд этиш лозимки, олий таълимни рақамлаштириш биринчи навбатда, талабалар ва ўқитувчилар ўртасида онлайн кўринишдаги мулоқот интеграциясини ривожлантирса, иккинчи томондан, талабаларнинг ўз устида илғор ўқув технологияларидан фойдаланган ҳолда мустақил ишлаш кўникмаларини шаклантиради. Бу эса ҳозирги ривожланиш жараёнида рақамлаштиришнинг янги тенденцияларини таълим жараёнига қўллашда муҳим аҳамият касб этади.

Республикамизда сўнгги йилларда олий таълим тизимига рақамли таълимни жорий этиш мақсадида, биринчи навбатда, жамиятнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш,

таълим соҳасини ахборотлаштириш, ахборот-таълим ресурсларини ишлаб чиқиш, рефлексив технологияларни ишлаб чиқиш, шахсий ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг меъёрий асослари яратилди. “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” устувор вазифалар этиб белгиланди. Натижада, рақамли технологияларни олий таълим жараёнига тадбик этишнинг дидактик таъминоти, рақамли таълим методикасини такомиллаштириш, шакл, метод, воситаларини қўллаш самарадорлигини ошириш имкониятлари кенгайди.

Таълимнинг рақамли трансформацияси таълим муассасасининг аналог таълим муҳитини рақамли муҳитга ўтказиш жараёни сифатида қаралади.

Олий таълимнинг рақамли трансформацияси уч жиҳат бўйича кўриб чиқилади:

- рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда олий таълим муассасасида ўқув жараёнини қуриш;
- олий таълим муассасасини ва индивидуал талабани бошқаришнинг рақамли тизимларини ишлаб чиқиш (масалан, материални, малакаларни ўзлаштириш даражасини баҳолаш, индивидуал таълим траекторияларини қуриш ва созлаш);
- касбий мақсадларда рақамли технологиялар бўйича ўқитиш (ўқитувчиларнинг ўзлари ва бошқа шахслар, масалан, махсус курслар ёки қайта тайёрлаш ва малака ошириш дастурлари доирасида корхона ва ташкилотлар вакиллари).

Олий таълимни рақамли трансформация қилишнинг устувор вазифалари сифатида қуйидагилар кўрилади:

1. Рақамли муҳитда ўқитувчилар таркибини тайёрлаш;
2. Олий таълимни ривожлантиришга мослашувчан таълим тизимини яратишни, битирувчиларни тайёрлашда юқори натижаларга эришишни, илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этишни, электрон ва аралаш таълимни бирлаштиришни таъминлайдиган рақамли технологияларни киритиш;
3. Таълим жараёнининг барча иштирокчиларида рақамли компетенцияларни шакллантириш. Университет иқтисодиёт эҳтиёжларига мувофиқ битирувчиларда рақамли компетенцияларни шакллантириши керак;
4. Олий таълимнинг очиқ тизимини қуриш, меъёрий тўсиқларни бартараф этиш.

Олий таълимнинг рақамли трансформациясининг мунозарали томони ахборот технологияларини таълим фаолиятига киритиш даражасидир. Баъзи ҳолларда онлайн таълимга тўлиқ ўтиш мос келмайди, чунки лабораторияларда ишларнинг анъанавий форматда сақланишини таъминлаш, экспериментал лойиҳалаш, экспериментлар, тадқиқотлар ўтказиш ва б. рақамли трансформация шароитида аралаш таълим учун асос яратиш керак.

Шундай қилиб, олий таълим трансформацияси олий таълим университетларини халқаро масофавий таълим бозорига олиб кириш, рақамли технологиялар ёрдамида нафақат билим олиш ва университетни бошқариш жараёнини, балки билимнинг ўзини қайта тиклаши, келажакдаги битирувчилар орасида рақамли компетенцияларни шакллантириши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Taylakov, Norbek Isakulovich, and Fotima Urazalievna Anarbaeva. "Pedagogical Features Of Moodle Platform." The American Journal of Applied sciences 2.07 (2020): 104-107.

2. Сомина И. В., Фалько А. И. Теоретико-методологическое исследование терминологической соподчиненности инновационной и цифровой экономики // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. 2020. № 3. С. 35–41. DOI: 10.24143/2073-5537-2020-3-35-41.

3. Арчакова С. Ю. Управление инновационной средой в условиях цифровой экономики: дис. канд. экон. наук. Воронеж, 2019. 185 с.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ - КАК ОДНО ИЗ УСЛОВИЙ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ»

Ш.Ф.Агзамова
Учитель начальных классов школы №48 г.Самарканд

Аннотация: в статье рассматривается важность использование ИКТ на уроках в начальной школе.

Ключевые слова: компьютер, технологии, деятельность, ресурс, компьютерная грамотность.

Сегодня, когда информация становится стратегическим ресурсом развития общества, а знания – предметом относительным и ненадежным, так как быстро устаревают и требуют в информационном обществе постоянного обновления, становится очевидным, что современное образование – это непрерывный процесс.

Одной из главных задач, стоящих перед учителем начальной школы, является расширение кругозора, углубление знаний об окружающем мире, активизация умственной деятельности детей, развитие речи.

Бурное развитие новых информационных технологий и внедрение их в Узбекистане наложили отпечаток на развитие личности современного ребёнка. Сегодня в традиционную схему «учитель – ученик – учебник» вводится новое звено – компьютер, а в школьное сознание – компьютерное обучение. Одной из основных частей информатизации образования является использование информационных технологий в образовательных дисциплинах.

Для начальной школы это означает смену приоритетов в расстановке целей образования: одним из результатов обучения и воспитания в школе первой ступени должна стать готовность детей к овладению современными компьютерными технологиями и способность актуализировать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования. Для реализации этих целей возникает необходимость применения в практике работы учителя начальных классов разных стратегий обучения младших школьников и в первую очередь использование информационно-коммуникативных технологий в учебно-воспитательном процессе.

Использование ИКТ на различных уроках в начальной школе позволяет развивать умение учащихся ориентироваться в информационных потоках окружающего мира; овладевать практическими способами работы с информацией; развивать умения, позволяющие обмениваться информацией с помощью современных технических средств.

Уроки с использованием компьютерных технологий позволяют сделать их более интересными, продуманными, мобильными. Используется практически любой материал, нет необходимости готовить к уроку массу энциклопедий, репродукций, аудио-сопровождения – всё это уже заранее готово и содержится на маленьком компакт-диске.

Уроки с использованием ИКТ особенно актуальны в начальной школе. Ученики 1-4 классов имеют наглядно-образное мышление, поэтому очень важно строить их обучение, применяя как можно больше качественного иллюстративного материала, вовлекая в процесс восприятия нового не только зрение, но и слух, эмоции, воображение. Здесь, как нельзя кстати, приходится яркость и занимательность компьютерных слайдов, анимации.

Использование ИКТ на различных уроках в начальной школе позволяет перейти от объяснительно-иллюстрированного способа обучения к деятельностному, при котором ребенок становится активным субъектом учебной деятельности. Это способствует осознанному усвоению знаний учащимися.

Не следует отвергать зарекомендовавшие себя на протяжении нескольких столетий методы и средства обучения. Но очевидна необходимость внедрения, наряду с традиционными методами новых, отвечающих требованиям времени. Современное

образование должно обеспечить интенсификацию процесса обучения, реализацию развивающего обучения, переход от механического усвоения знаний, уточнение содержания обучения, совершенствование форм и методов организации и управления процесса обучения, тем самым, обеспечивая уровень подготовки сегодняшних школьников, будущих специалистов и их готовность к гармоничному существованию в обществе. Именно с развитием информационных образовательных технологий связываются описанные выше изменения в образовании.

Потребность эффективного использования информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе определяет новые задачи перед профессиональным педагогическим образованием. ИКТ выступают неотъемлемым компонентом профессиональной подготовки современного учителя, в том числе, учителя начальных классов.

Информационная компетентность школьников необходима для качественного освоения всех учебных предметов. Овладение компьютерной культурой, формирование информационной компетенции школьников - необходимое условие включения подрастающего поколения в мировое информационное пространство. Организация учебного процесса в начальной школе, прежде всего, должна способствовать активизации познавательной сферы обучающихся, успешному усвоению учебного материала и способствовать психическому развитию ребенка. Следовательно, ИКТ должно выполнять определенную образовательную функцию, помочь ребёнку разобраться в потоке информации, воспринять её, запомнить. Информационные технологии только для ищущих, любящих осваивать новое учителей. Они для тех, кому небезразличен уровень своей профессиональной компетентности, кого беспокоит, насколько он, педагог современной школы, соответствует требованиям века грядущего.

6. Список литературы:

1. Крук Л. В. Использование информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе. festival.1september.ru

2.Ефимов В.Ф. Использование информационно- коммуникативных технологий в начальном образовании школьников. «Начальная школа» . №2 2009г

3. Молокова А.В. Информационные технологии в традиционной начальной школе. Начальное образование №1 2003.г

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHISINI INNOVASION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

M.E.Pulatova
SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ta’lim tizimini modernizasiya qilish sharoitida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsion muhitni yaratish va shu yaratilgan muhitda o‘z faoliyatlarini samarali olib borishlari haqida.

Mamlakatimizda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv-metodik ta’minotini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarning ilg‘or ta’lim texnologiyalari va o‘qitish usullari borasidagi tashabbuskorliklarini oshirish, boshlang‘ich ta’limni o‘qitishning interfaol metodlari orqali takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishida “....pedagoglarga ilg‘or o‘qitish metodikalari va innovatsiyalarga o‘rgatish tizimini yo‘lga qo‘yish” vazifasi ilgari surildi.

Ta’lim tizimini modernizasiya qilish sharoitida nafaqat professional bilim, ko‘nikma, balki, mutaxassisning shaxsiy fazilatlariga ham yuqori talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy maktabda

ijodkorlik, harakatchanlik, mas'uliyat, ijodkorlik kabi fazilatlarga ega, o‘z faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash, turli vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila bilish, yuqori darajada umumiy muloqot ko‘nikmalariga ega o‘qituvchiga ehtiyoj mavjud. O‘qituvchilar sifatli ma'lumotlarga ega bo‘lishi uchun ushbu fazilatlar va ko‘nikmalarni egallashi, namoyish etishiga sharoit yaratish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bunday mexanizmlardan biri, bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'limning boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonidir.

Ta'lim tashkilotlari amaliyotida innovasiyalarning paydo bo‘lishi har bir o‘qituvchining transformasiya sohasini bilishi, o‘z amaliyotini innovasion ravishda o‘zgartirishga harakat qilishi va istiqbol rejasiga ega bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta'lim tizimidagi sifat o‘zgarishlarini ta'minlash, ta'limga doimiylik xarakterini berish uchun rahbar ham, o‘qituvchi ham innovasion faoliyatni amalga oshirishga qodir bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan uzluksiz ta'lim tizimi belgilaydigan vektorlarga quyidagilar kiradi: o‘qituvchining innovasion faoliyatga tayyorligi, boshqaruv darajasi, vakolat darajasi (o‘zgarishlar)ni ta'minlaydigan institutsional tashkilotlar (tuzilmalar). Tarkibiy (institutsional) tashkilot oliy kasbiy pedagogik ta'lim, qo‘shimcha kasb-hunar ta'limi kiradi. Boshqaruv vektori transformatsiyasi strategik, taktik va operatsion darajalarda belgilanadi. Vakolat darajasi (o‘zgarishlar) individual o‘qituvchi, o‘quv muassasasi va umumiy sohada innovasion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni anglatadi.

Uzluksiz ta'lim uchun innovasion muhit yaratishning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Konseptualizasiya (kontsepsiyani ishlab chiqish, har ikkala elementni ham, butun sohani ham).
2. Modellashtirish (modelini yaratish va o‘rganish, uni shakllantirish strategiyasi).
3. Strategiyani sinash va amalga oshirish uchun sharoitlar va tadbirlarni loyihalash.
4. Komponentlarni sinab ko‘rish va butun sohaning ishlashini ta'minlash.
5. Konsepsiya va modelni tuzatish, faoliyat aksi.

Bunda, fikrimizcha, har bir bosqich, uni tasvirlash mumkin bo‘lgan jihatlar bilan tavsiflanadi.

Biz o‘z tadqiqotlarimizga tayanib, uzluksiz ta'lim uchun innovasion muhit yaratish bosqichlarining quyidagi jihatlarini ajratamiz: vazifa va maqsadlar; faoliyatning mazmuni; faoliyat usullari; uzluksiz innovasion ta'limning sohasini shakllantirishni boshqarish; mavzular, ular tomonidan uzluksiz innovasion ta'limning sohasini shakllantirishning metodologik, nazariy va amaliy masalalarini tushunish darajasi; ushbu bosqichning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar; ushbu bosqichning ob'ektiv imkoniyatlari; ushbu bosqichning ob'ektiv cheklovlari, uning ziddiyatlari.

Har bir bosqichni amalga oshirishning muvaffaqiyati yuqoridagi jihatlar qanchalik hisobga olinishi va bir-biriga mos kelishiga bog‘liq.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki uzluksiz ta'lim uchun innovasion muhit yaratish shartlari - bu ta'lim muassasalari darajasida yaxshi rivojlangan kadrlar bilan ta'minlash (ilmiy va ta'lim muassasalari bilan aloqalarni hisobga olgan holda), fan va ta'lim sohasida hamkorlikning yangi shakllarini qonuniy qo‘llab-quvvatlash.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 fevraldagi F-22-son “Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni.
2. SH.Mirziyoyev. “Ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal yetish va ta'lim sifatini oshirish”. 30.10.2022.
3. Azizxodjaeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchi mahorati.-Toshkent: Meros, 2009.-34-bet
4. Ibragimov.X. Integratsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish muammolari. // “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnali. -2019

5. Umaraliyeva.M. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar tavsifi // Pedagogika jurnali.- № 3.- 2018.
6. Qo‘shjonova. D.E.. O‘rganuvchilarning shaxsiy rivojlanishi va innovatsion ta’lim // Ta’lim texnologiyalari.- 2017.

OLIY TALIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

B.S.Mavlonova
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik qadriyatlarini, pedagogik merosini o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonini milliylashtirish, jamiyat taraqqiyotida ma‘naviyatning ustivorligini ta‘minlash va ma‘naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g‘oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jahon andozalariga mos ta’lim tizimini yaratish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta’lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar boshqaruv kompetensiyalarini dolzarb vazifasi bo‘lib qoldi.

Kompetensiya so‘ziga turlicha ta’riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so‘zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. “Kompetensiya” atamasi keng ma’noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo‘llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha“ campetere”- muvofiq bo‘lmoq so‘zidan kelib chiqqan. “Tashabbuskorlik” kompetensiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta’sir ko‘rsata olish. Doimo izlanishda bo‘lish, yangi vazifalarni, qo‘shimcha ishlarni o‘z zimmasiga olish. Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetensiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatda o‘qituvchi tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo‘ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma’lum kompetensiyaga moslashtiriladi. Test talabaning ushbu kompetensiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko‘rsatadi. Uning natijalariga ko‘ra, talabaning kompetensiyani egallash darajalari aniqlanadi. Keng ma’noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyatidir. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv talabalarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltiradi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo‘lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo‘lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi. Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati. SHuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas. Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish qobiliyatidir.Oliy ta’limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta’lim resurslarini takomillashtirish, talabalarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta’minlash, mustaqil ta’limini amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma’lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta’lim sifati

ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. Talabalar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi:

tayanch kompetensiyalar;

umumiy (predmetli) kompetensiyalar;

xususiy kompetensiyalar.

Talaba shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma’lumki, Oliy ta’lim muassasalari zimmasiga ta’lim-tarbiya jarayoni orqali talabalarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali talabalarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlarga ta’siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta’lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy va ma’lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Talabalarning kompetentligini oshirishning o‘quv-metodik ta’minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog‘liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘qitish ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o‘rganishga e’tiborni qaratish, davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa ushbu fanlar misolida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni va talabalarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi

Kompetensiya muammosining ta’lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin.

Kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari. 2006 yilda yevropa parlamenti va Kengashi tomonidan uzluksiz ta’lim uchun 8 ta tayanch kompetensiyalar tavsiya qilingan:

o‘z ona tilida muloqot qila olish;

chet tilida muloqot qila olish;

matematik kompetentlilik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;

raqamli kompetentlik;

o‘qishni o‘rganish;
ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi;
madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalay olish.

Evropa tajribasiga tayangan holda O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta’lim kompetensiyalarini tanlash va ularni ta’lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta’lim tizimi samaradorligini oshirish mumkin. Kompetentlik haqida gap ketganda «bilim darajasi» sifatida «u yoki bu ob’yektning mohiyatan realligini tafakkur qila olish» masalasining nazariy jihatlarini o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Shaxsning kompetentligi qanday aniilanadi? A.V.Xutorskiyning ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta’riflari, xususan «...ma’lum bir sohada faoliyat ko‘rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs – kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi. V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikka «o‘qimishli, bilimli, ko‘nikmali bo‘lish usuli shaxsiy o‘zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izoh beriladi.

Oliy ta’lim muassasasida kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimining formal tuzilmasi o‘qituvchilar, ta’lim vositalari, talabalar hamda o‘qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasida o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik kompetentligini shakllantirish quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi: bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadi davlat ta’lim standartlariga muvofiq mazkur, ya’ni gumanitar soha pedagogika ta’limi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalardan muayyan fan g‘oyalariga ko‘ra yetuk, malakali kadrlarni tayyorlashdir. Davlat ta’lim standartida bitiruvchi o‘zining kasbiy-pedagogik faoliyatida o‘qituvchilik, tarbiyachilik, o‘quv-metodik ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot vazifalarida faoliyat olib borishi ko‘zda tutilgan. Malakali mutaxassisni tayyorlashda, ya’ni tayanch, kasbiy-pedagogik xamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda ta’lim mazmuni (DTS va o‘quv reja, dasturlar), shakli, metodi, vositalari (darsliklar, elektron axborot ta’lim resurslari va boshqa didaktik materiallar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, laboratoriya jihozlari va hokazolar) va talim texnologiyalari (ta’lim metodlari, tashkiliy shakllari va boshqalar)dan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayoni tashkil etiladi hamda kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish va auditoriyada ideal sharoitda olingan nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarni real sharoitda tajribadan o‘tkazish maqsadida malakaviy amaliyot tashkil etiladi. Pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonida (faol, kontekstli ta'limning turli shakllarida) va tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra talabalarning refleksiv amaliyoti faktlar, material, ta'lim jarayonida o‘zaro faoliyat jarayoniga nisbatan emotsional hissiy-qadriyat va baholash munosabatlarini aniqlash maqsadida tashkil etiladi.

Kasbiy kompetentlikning tabiatini nazariy tahlil qilish, uning mazmunini modellashtirish, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning refleksiv monitoringi kontseptsiyasini ishlab chiqish ilgari surilgan gipotezani xar tomonlama asoslashga o‘tish imkonini beradi. Eksperimental nuqtai nazardan, gipotetik jihatdan oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning refleksiv monitoringi texnologiyasi uni loyihalash va amalga oshirishning asosida quyidagilar qo‘yilgan bo‘lsa, samarali bo‘ladi:

- talabalar va amalda ishlaydigan xodimlarning pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonida sifat etaloni asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘zini baholash va refleksiv tashxisining mazmunga mos tegishli adekvat shakllari;

- maqsadlar shajarasini daraxtini qurish mantig‘ida pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning didaktik asoslarini amalga oshirish orqali boshqaruvning darajalari, maqsad orientirlari (strategik, taktik, operatsion), bosqichlari va va motivatsion dasturli-maqsadli boshqaruv dasturlarini boshqarish va amalga oshirishning o‘zaro aloqasi.

Shu maqsadda oldimizda quyidagi vazifalarni hal qilish vazifasi turibdi:

- eksperimental dastur ishlab chiqish;

- oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning refleksiv monitoringi ishlab chiqilgan texnologiyasi samaradorligini tekshirish uchun maxsus tashkil etilgan empirik tadqiqot o‘tkazish;

- olingan eksperimental ma'lumotlarning haqqoniyligini, erishilgan natijalarning ishonchliligini va qo‘llanilgan usullarning validligini asoslash.

Pedagog barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ilg‘or xorijiy pedagogik tajribalar, metod va usullarni muntazam o‘rganib, pedagogik kasbiy bilim va ko‘nikmalar hamda shaxsiy sifatlarga ega bo‘ladi va uning amaliy faoliyati davomida zarur kompetensiyalari rivojlanadi . Har qanday ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning metodologiyasi tanlab olinadigan g‘oyalar, nazariya va yondashuvlar asosida o‘rganiladigan hodisa va jarayon mohiyati talqin qilinishida o‘z ifodasini topadi, obyekt to‘g‘risidagi tasavvurlar modellashtiriladi, uni samarali rivojlantirishning mexanizmlari, vosita va pedagogik shart-sharoitlari aniqlanadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiyfaoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan aloxida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki xar bir mustakil yuna- lish buyicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o‘z lashtiri- lishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muxim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lu- motlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi xolatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: - murakkab jarayonlarda va noaniq vazifalarni bajarishda; - bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda; -kutilmagan vaziyatda xarakat rejasiga ega bo‘la olishda Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis eng avvalo: - o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi xamda yangi axborotlarni uzlashtiradi; - davr talablarini chukur anglaydi va yangi bilimlarni izlab topadi; - ularni kayta ishlaydi va uz amaliy faoliyatida samarali qo‘llay oladi ;

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadindesak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XULOSA

Hozirgi zamon Oliy ta’lim talabasining kasbiy bilimdonligi va kobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro‘ orttira olish, to‘g‘ri muomala qila olish, kelajakni ko‘ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari. Pedagog o‘zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma’naviyati va madaniyati, ma’rifatliligi talabalari, bo‘lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M.Kamoldinov,B.Vaxobjonov,,Innovatsionpedagogik texnologiyalar",2006yil.

2.J.F.Yuldoshev,,,Yangi pedagogic texnologiya yunalishlari, muammolari, yechimlari". ‘‘Xalq ta'limi’’ jurnali, T., №4 1999 yil.

3. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T:, 2008-yil

5. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000-yil

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.–Karshi «Nasaf»,2000-yil
7.Rozikov O., Ogʻaev S.,Maxmudov A., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. Toshkent «Oʻqituvchi» 1999-yil
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. –Toshkent, 2003-yil

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

B.A.Atayeva
Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi, kafedra mudiri v.v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagoglarni kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik muomila, pedagogik ijod, pedagogik madaniyat, pedagogik taktning oʻrni va uni rivojlantirish imkoniyatlari koʻrsatib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: kasbiy kompetentlik, kompetensiya, pedagogik mahorat, texnika, muomila, ijod, madaniyat, takt.

«Ta'lim toʻgʻrisida»gi Qonun, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida»gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda ular asosida pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda milliy oʻquv dasturini joriy etilishi oʻrta maktab oʻqituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni koʻndalang qilib qoʻymoqda.

Shunday ekan, bu pedagogning mahorati, pedagik texnikasining rivojlanganlik darajasi, saviyasiga, yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalash ishiga boʻlgan munosabatiga bogʻliq. Oʻqituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirigʻini bajaradi, shunday ekan, yosh avlodning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda oʻqituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Pedagogik mahorat – oʻqituvchi ijodkorligining oliy namunasi boʻlib, u yillar davomida shakllanadi. Yuqori pedagogik mahoratga ega boʻlgan oʻqituvchigina oʻz kasbiga layoqatli, iste'dodli boʻlishi mumkin.

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu oʻqituvchining kasbiy kompetensiyasining rivojlantirib borish jarayonidir. Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) – u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

U oʻz ichiga quyidagilarni oladi::

- Nazariy bilimlar majmuasi;
- Pedagogik paradigma (yunoncha "paradeigma" – misol, namuna) pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasini koʻrsata olish qobiliyatiga ega boʻlishi:
- muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabatda boʻlish tajribasi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida samaradorlikda erishishda har bir oʻqituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega boʻlishi kerak. Oʻqituvchi avvalo:

-shaxsiy (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyliligi, nazokati va h.k.) fazilatlarga;

- kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u oʻz oʻquv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, yoshlarni oʻqitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yoʻllarini izlab topib, amaliy faoliyatga qoʻllashida namoyon boʻladi.

Bugungi kunda oʻqituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi jihatlarni namoyon boʻlishi muhim omillardir:

-Pedagogik texnika – o‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, ta’lim tarbiya oluvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa;

- Pedagogik muomala – o‘qituvchi kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, ta’lim - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod - o‘qituvchining mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni anglatadi.

O‘z navbatida bu sohada o‘qituvchining pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o‘qituvchining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas’uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e’tiqodini nazarda tutib, o‘qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi.

Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) – o‘qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagog o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda shaxsiy, umumiy va maxsus kompetentligini ham oshirib borishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun 2020-yil 23-sentyabr.
2. Mavlonova R , Abdurahimova D Pedagogik mahorat T., Fan va texnologiyalar . 2012 –yil.
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013-yil.

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O‘QITUVCHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAVSIFI

T.B.Kadirov
O‘zPFITI tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy masalalari to‘g‘risida mushohada yuritiladi. Xususan, o‘qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, mediakompetentlikni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar beriladi.

Tayanch iboralar: uzluksiz kasbiy rivojlantirish, axborot texnologiyalari, YuNESKO, mediakompetentlik, media, ommaviy axborot vositalari.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida islohotlarni amalga oshirishda “...axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur”ligi vazifasi belgilangan [1].

O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini rivojlantirish ta’limning barcha bo‘g‘inlarida amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash ularni pedagog kasbiga qayta tayyorlash va malakasini uzluksiz oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyixalarani joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi[3]. Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot va yangi raqamli media va o‘quv vositalarining keng tarqalishi, media savodxonlikning ahamiyati tobora ortib borishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda media

savodxonlik deyarli butun dunyo ta'lim tizimida eng asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. YuNESKO tomonidan olib borilayotgan loyihalarda media va axborot savodxonligini targ'ib qilish, pedagogik faoliyatda samarali foydalanish to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqilgan. 1982 yilda YuNESKO Xalqaro Simpoziumida qabul qilingan mediata'lim bo'yicha Gryunvald Deklaratsiyasida 19 ta a'zo mamlakat qatnashgan bo'lib, "Axborot vositalarining muqarrar kuchi muhokama qilinib, hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va singib borishini, shuningdek, zamonaviy madaniyatning ajralmas elementi ekanligi ta'kidlangan[5]. Konferensiyada dunyoda media shakllanishi, davlatlarning ta'lim sohasidagi olib borayotgan siyosati va amalga oshirilayotgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, sohaga tegishli va ijtimoiy sohaga taalluqli yangiliklar bilan tanishib borish ommaga to'g'ri yetkazishga e'tibor berilgan.

Gryunvald Deklaratsiyasida o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish bo'yicha quyidagi qoidalar tavsiya etilgan:

–ta'lim muassasalarida mediata'lim bo'yicha keng qamrovli dasturlarni tayyorlash va amaliyotga joriy etish;

–o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan sohadagi hamkorlikni yo'lga qo'yish;

–mediakompetentlikni rivojlantirish maqsadida ta'lim sohasida tadqiqotlar o'tkazish va axborotlar tayyorlanib efirga berib borish;

–o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish[5].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturlariga integratsiyalashuvi natijasida media muhit yuzaga keladi. Media muhit "media yordamida" ta'limni pedagogik vositalar sifatida ajratib ko'rsatish "media haqida" ta'lim, o'rganish ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi unga bo'lgan talabni oshirdi. Mediata'lim natijasida o'qituvchilar amaliyot davomida axborotlarga oid yangi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

"Media" so'zi lotin tilida "medium" so'zidan olingan bo'lib, "o'rta, oraliq, oraliqdagi" ma'nolarni bildiradi. Zamonaviy qo'llanishda mazkur atama bir necha ma'noga ega. Birinchidan, "media" so'zi OAVni: gazeta, televideniye, radio, kitob va Internetni anglatadi.

Ikkinchidan, undan mediakontentni - yangiliklar, reklama e'lonlari, elektron o'yinlar va filmlarni yaratishda foydalaniladi. Uchinchidan, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlarni, fotosuratchilarni, mediakompaniyalarni bildiradi. Foydalanuvchilar va auditoriya, texnologik qurilmalar, kontent hamda media ishlab chiqaruvchilari bilan turli interfaol munosabatda bo'ladi. Media tashkiloti sifatida media kommunikatsiyalarni rag'batlantiruvchi ijtimoiy-madaniy funksiyani bajaradi.

S.V.Petrova professional o'qituvchilarning mediakompetentligini shakllantirishni o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda, ularning ijodiy axborot muhitida faoliyat ko'rsata olishida, o'zgaruvchan va gipermatnli axborotlar bilan ishlay olishida, deb baholaydi[7].

O.A.Baranov tomonidan o'qituvchilarning media matnlardan foydalanish, tanishtirish va o'quv jarayonida uni qo'llashning aniq usullari bo'lgan talablarni keltirib o'tadi. Muallifning o'z tajribasi, mahalliy va xorijiy tajribalar tahlil qilinishi bilan birga mediata'lim maktab o'quvchilarining ommaviy axborot vositalarini o'rganishdan iborat, deb keltirilgan. Mediata'limning asosiy vazifasi yangi avlodni tayyorlashdir, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida hayot, idrok qilish, insonni tushunish, tushunish uchun o'rganish, uning psixikaga ta'siri, muloqot usullarini o'rganish, texnik vositalar yordamida og'zaki bo'lmagan aloqa shakllari asosida zamonaviy axborot texnologiyalari va vositalari sifatida beriladi[8].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida ko'rsatilishicha, "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega, ushbu huquq o'z e'tiqodiga to'siqsiz tarzda sodiq bo'lish hamda axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'zida mujassam etadi". Mazkur huquqning amalga oshishi mediata'lim bo'yicha 1982-yilda qabul qilingan Gryunvald deklaratsiyasi bilan ham belgilanadi. Unda siyosiy va ta'lim tizimi yordami bilan fuqarolarda

kommunikatsiya fenomeni tushunchasini rivojlantirishda va ularning OAV va (an'anaviy va yangi) kommunikatsiyalarda ishtirok etishini rag'batlantirish ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunda uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta'minlash maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlantirish davomida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni va o'quv dasturlarini takomillashtirish belgilangan[1]. O'zbekiston Respublikasi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunda axborotni erkin almashish, ilmiy, texnologik, statistikaga oid va boshqa axborotni olish, texnologiyalar transferi bilan bog'liq axborotni tahlil qilish va tarqatish masalalariga to'xtaladi[2].

Axborot sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, mamlakat media-bozorini jadal rivojlantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatining ochiqligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonining 98-maqsadi: Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda xalqaro media makonda xolisona yoritishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirishga doir vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligi va sohada mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish hamda istiqbollarni belgilab olish uchun qulay media-maydon yaratish va foydalanuvchilarda media madaniyatini rivojlantirishga alohida to'xtalib o'tilgan[4].

O'zbekistonning xalqaro axborot bozorlariga chiqishi, davlatimizning ijobiy imidjini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda belgilab berilgan. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi ko'rsatilgan. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratilmoqda[4].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mediakompetentlikni rivojlantirish o'qituvchilarda shakllangan ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediakompetentlik o'qituvchilarning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlardan foydalanishiga qarab aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategisi. O'zbekiston nashriyoti. – 2021 y. 277 bet.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).

3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 27 iyundagi «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630-sonli Qonuni. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. 24.07.2021 y., 06/21/6268/0700-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son).

6. Paramonova T.A. Mediaobrazovatelniy proyekt kak instrument professionalnogo jurnalistskogo obrazovaniya (regionalniy opit realizatsii mediaobrazovatelnix proyektov v pedagogicheskom vuze). - M.: 2017. S. 404–414. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=28819045 (data obrasheniya: 27.04.2020).

7. Fedorov A.V. Mediaobrazovaniye budushix pedagogov. - Taganrog: Izd-vo Kuchma, 2005. 314 s.

8. Baranov O.A. Mediaobrazovaniye v shkole i vuze. Tver: Izd-vo Tver. gos. un-ta, 2002. 87 s.

ELEKTRON TA'LIM PORTALI VA UNING XUSUSIYATLARI

Sh.Xujakulov

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Bugungi kunda pedagogning mahorati haqida so'z ketar ekan, uning kasbiy kompetentlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi muhim tushuncha sifatida qaraladi. Ushbu sifatlarning rivojlanishi o'qituvchining mustaqil bilim olishi, uzluksiz kasbiy rivojlanishi, innovasion, psixologik, metodik, informasion, kreativ, texnologik kompetentligini takomillashtirib borish borasidaga xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Ma'lumotlar oqimi globallashgan bugungi kunda o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishning imkoniyatlari ham talaygina. Shulardan ta'limning elektron plaformalaridir.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda raqamli axborot kommunikasiya vositalaridan ham keng foydalanish zarurriyatini dolzarblashtirmoqda. Mazkur jarayonlar pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchini qat'iylashtirishi bilan birga shu sohadagi zamonaviy yelektron portallardan samarali foydalanishi, ularni tahlil qila olishi, mazmunini anglashi, texnologik, informasion kompetentlikni egallashini nazarda tutadi. So'ngi vaqtlarda onlayn ta'limning o'ziga xos afzalliklarga ega ekanligi bot-bot ilmiy izlanishlarda va tadqiqiy nashrlarda o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "…raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri…" [1] ekanligini, pedagoglarni axborot-metodik qo'llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish elektron ta'lim portallarining raqobatbardosh platformalarni ishlab chiqish va joriy etish muhimligiga urg'u qaratishni belgilaydi. Bu bilan esa pedagoglar raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olish, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan bemalol foydalana olish uzluksiz kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda, I.Ye.Allen (I.E.Allen) va J.Seaman(J.Seaman)larning tahliliga ko'ra, axborot-ta'lim portalining faoliyatini 3 ta bosqichning o'zaro bog'liqligi asosida amalga oshirish mumkinligini aytib o'tishgan [3]:

- mazmun bosqichi; bunda taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari, portalning axborot ta'minoti, axborot-ta'lim resurslariga tabaqalashtirilgan ruxsat tizimi mexanizmi masalalari ko'riladi;
- tashkiliy bosqich; bunda portal yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, mavjud resurslarni tizimlashtirish, foydalanuvchilar kategoriyalarini aniqlash, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, resurslarni yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni o'rganish maqsadida portal foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;
- metodik ta'minot bosqichi; bunda o'quv jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Elektron ta'lim portalining web sayt ko'rinishidan tashqari hozirgi kunda keng foydalanilayotgan mobil texnologiyalarning ishlatilishi haqida ham ilmiy tadqiqotlarimizda ko'rsatib o'tilgan. Mobil texnologiyalarning ishlatilishdagi oddiyligi va qo'llanish sohasining kengligi ularni hayotda, ish faoliyatida yoki ta'lim jarayonida foydalanish uchun qulay qurilma [2] ekanligini ko'rsatadi. Mobil qurilmalardan foydalanib, portallardan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirish foydalanuvchi uchun juda ham qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham yaratilayotgan elektron portallar mobil texnologiyalarida ham qulaylik bilan qo'llanilishini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagoglarni ta'lim berishida ayrim mavzular yoki notanish terminlar ehtiyoj va kasbiy qiyinchiliklarni tug'diradi va bunday vaziyat ta'lim oluvchilar oldida o'qituvchilarda noqulaylik, o'ziga ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarini endigina tamomlab amaliy faoliyatga kirgan o'qituvchilarda tez seziladi. Karel Stokking (Karel Stokking), Friyeda Leyenders (Frieda Leenders), Jan De Jong (Jan De Jong) hamda Jan Van Tartvijk (Jan Van Tartwijk) olimlar bu his tuyg'uni "amaliyot zarbasi" [4] deb atashadi. Ammo bu olimlar qiyinchiliklarning ko'lamini ular olgan ta'limga bog'liq ekanligini, yaxshi bilim olgan talaba bu jarayondan tezroq chiqib ketishini tahlil qilganlar. Shu sababli, o'qituvchilarning bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini ta'minlash usullari katta ahamiyatga ega. Ilmiy izlanishlarimizda pedagoglarni axborot-metodik qo'llab-quvvatlashda videokontentlar orqali kerakli va qiyin bo'lgan terminlarni yoritib berish ham uzluksiz yoritib borilgan.

Tadqiqot ishimizda pedagoglar uchun maxsus "Mahorat akademiyasi" nomli elektron portal (http://mahoratacademy.uz/) ishlab chiqildi. Bu tizim umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun barcha fanlar kesimidan video va audio materiallar orqali metodik yordam beradigan elektron ta'lim portali hisoblanadi. Unda barcha foydalanuvchilar, xususan, xalq ta'limi pedagog xodimlari uchun eng so'nggi va yangi uslubiy tavsiyalar berish mo'ljallangan. Portalda pedagog-xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularga keng qamrovli ilmiy-metodik xizmat ko'rsatish, ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirishning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, ilg'or o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish hamda ularning uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish, turli psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, seminar trening, baholash tizimi va turli fan olimpiadalarini tashkillashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Yaratilgan elektron platformada umumta'lim maktab o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash diagnostikasi, fanlarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari (masalan, STEAM), xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik (PIRLS, TIMMS, PISA, TALIS) bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega, yetakchi o'qituvchilarning ilg'or tajribalari (dars loyihalari, videokontentlari, zamonaviy o'qitish usullari) taqdim etilgan va elektron muhokamadan o'tkazish yo'lga qo'yilgan, shuningdek, bildirilgan fikrlar asosida umumta'lim maktablari uchun takomillashtirilgan didaktik ta'minot yaratib borilishi nazarda tutilgan.

"Mahorat akademiyasi" platformasida 7 ta menyu bo'lib, ular quyidagilardan iborat (1-rasm):

- ✓ tahlil va tadqiq;
- ✓ fanlar;
- ✓ xalqaro dasturlar;
- ✓ biz haqimizda;
- ✓ dasturlar;
- ✓ bog'lanish

1-rasm. "Mahorat akademiyasi" platformasining elektron menyusi

Saytning bosh sahifasida barcha fanlardan tanlov imkoniyatini beruvchi tezkor qidiruv tugmalari joylashgan. Ushbu oyna orqali foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan fanlar kesimidan videomateriallarni tez va oson topish imkoniyatiga egalar.

"Tahlil va tadqiq" deb nomlangan bo'limda esa o'qituvchilarning o'z ustida ishlab, uzluksiz kasbiy rivojlanib borishlari, o'qitish metodikasini o'zlashtirishlari uchun keng imkoniyat yaratilgan. Ushbu bo'lim ham o'z navbatida bir nechta bandlardan tashkil topgan:

- ✓ kembridj metodikasi;
- ✓ pedagogik metodlar va atamalar sharhi;
- ✓ psixologik diagnostika;
- ✓ psixologik xizmat;
- ✓ mantiqiy tafakkur;
- ✓ pedagogik kvestlar.

Kelajak o'quvchilarning raqamli avlodiga javob berish uchun ta'lim amaliyotini qiyinlashtirar ekan, ta'lim metodikasiga, ayniqsa, veb-portallarning mukammalashuviga qo'yilayotgan talablar murakkablashaveradi. Bu borada esa, imkoniyatlar cheksiz, chunki ilg'or texnologiyalar nafaqat matn, balki boshqa boy formatlarda ma'lumotlarga kirish imkoniyatini taqdim etadi. Ta'lim veb-portallari muvaffaqiyatining kaliti o'qituvchilarning texnologiya va ulardan foydalanish qobiliyatiga, shuningdek, uning o'z kundalik amaliyotida foydali, deb topadigan resurslarning sifati va taqdimotiga bog'liq. Bu texnologiyaga asoslangan dunyo kontekstini hisobga olgan holda xulosa qilinganda, ahamiyatlilik darajasi ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integrasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4851-son Qarori. – QHMMB, 07.10.2020., 07/20/4851/1352-son.

2. Amankulovich K.S. Mobile Technology: Teaching Opportunities, Analysis and Research. – 2022.

3. Allen I.E., Seaman J. Digital learning compass: Distance education enrollment report 2017. // https://onlinelearningsurvey.com.

4. Karel Stokking, Frieda Leenders, Jan De Jong & Jan Van Tartwijk (2003) From student to teacher: reducing practice shock and early dropout in the teaching profession, European Journal of Teacher Education, 26:3, 329-350, DOI: 10.1080/0261976032000128175.

XXI ASR YOSHLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI

N.Tilavova, G. Matyoqubova
TDYU qoshidagi M. S. Vosiqova nomidagi akademik litsey

Annotatsiya: *Mazkur maqola yoshlarni o'qitishda foydalaniladigan metodlarga hozirgi kunda qo'yiladigan talablari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib, keng tarqalgan vaqtda pedagoglarning mahorati, ularning kasbiy kompetentlik xususiyatlari bayon qilingan.*

Bugungi kunda fan, texnika, ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Yurtimizda intiluvchan, faol, iqtidorli, kompitentli, zamonaviy bilim-ko'nikmalarga ega hamda turli kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1], degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday

ekan biz o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkillashtirishda zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish esa malakali pedagog-kadrlardan boshlanadi. Zero, o‘quv dargohi eng zamonaviy texnik jihozlar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlangan bo‘lsayu, o‘qituvchining malakasi yetarli darajada bo‘lmasa, ko‘zlangan natijaga erishish imkonsiz.

O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida duch keladigan muammolarga yechim topishda metodik ko‘makka ehtiyoj tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7-dekabr 2021-yildagi 741-son Qaroriga muvofiq, Prezident ta’lim muassasalari agentligi huzurida Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etilgan. Mazkur Markazning faoliyat yo‘nalishlari va rejalashtirilgan loyihalar o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida duch keladigan muammolarga yechim topish maqsadida Agentlik tizimida pedagog kadrlarning malakasini oshirishga mo‘ljallangan Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etilgan.

O‘qituvchi jahon bozorida raqobatlasha oladigan kadrni tarbiyalashi uchun zamonaviy fikrlashi, o‘z ustida doimiy ishlab borishi talab etiladi. Zero, 21-asr yoshlarini 20-asr ta’lim metodikalari orqali o‘qitib bo‘lmaydi. Jamiyatning boshqa sohalari singari dars o‘tish metodikasi ham doimiy yangilanishga, rivojlanishga muhtoj. Shunday ekan, har bir pedagog kadr zamonaviy pedagogika asoslarini bilishi va uni o‘quv jarayonlariga tadbiq eta olishi shart. Ushbu markaz tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar ham shunga asoslangan.

Ta‘lim sohasining eng muhim qismlaridan yana biri – bu to‘g‘ri tanlangan dastur va baholash tizimi hisoblanadi. Chunki, o‘quvchining bilimi dasturda belgilangan ta‘limiy maqsadlar asosida baholanishi kerak. Hozirda ta‘lim tizimida keng qo‘llanilayotgan test tizimi o‘quvchining real bilimi va ko‘nikmasini ko‘rsatib bera olmaydi. U faqatgina o‘quvchining ma’lumotni eslab qolish qobiliyatiga baho berishi mumkin. Ammo, hozirgi texnologiyalar asrida ma’lumotlarni xotirada saqlab qolishga katta ehtiyoj yo‘q – bu vazifalarni kompyuterlar va internet bajaradi. O‘quvchidan 21-asrda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari talab etilmoqda. Shunday ekan tanqidiy fikrlayoladigan, muammoni hal qilaoladigan kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, vaqti-vaqti bilan malaka oshirib turishi, zamonaviy axborot komunikatsiya vositalari bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilb, o‘z malakasini oshirishi, tajriba almashishi lozim.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, hozirgi paytda ta‘lim berishda axborot texnologiyalarining o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday fan o‘qituvchisi axborot texnologiyalarini bilishi zarur. Ta‘lim berish jarayonida o‘quvchilar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalaridan, onlayn kurslardan qanday foydalanaolish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. O‘quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishda ular axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish kabi jihatlarga ega bo‘ladi.

Har bir pedagok kasbiy kompetentlikni shakllantishi uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga e’tibor qaratishi lozim. Pedogogik faoliyat va muloqat jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘illanishi lozim. O‘qituvchi o‘z sohasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o‘rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko‘rib borish lozim.

Xulosa qilib aytish lozimki, Yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat ta’lim oluvchiga ta’limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligihamda

uning pedagigik mahorati muhimdir. Ayniqsa, hozirgi axborot-kommunikatsiyalar davrida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, yoshlar bilan bevosita muloqoti muhim ro‘l o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sh. Mirziyoyev. (2016). “Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi”. https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/erkin_va_farovon_demokratik_uzbekiston_davlatini_mard_va_olijanob_halqimiz_bilan_birga_quramiz

2. Z.D. Rasulova. (2021). “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning padegog shart-sharoitlari”. Science and Education. Scientific journal. 338-342 bb.

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM ASOSLARI

F.X. Xoliyarova
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali o‘qituvchisi
Sh.X.Mamirova, B.E.Ochilova
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohatlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi pedagok shaxsni shakllantirishning nazariy asoslariyoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetentlik, kompetentlilik, nazariya, pedagogika, metodika.

Zamonaviy o‘qituvchi uchun ta'lim fanini o‘zlashtirishning o‘zi etarli emas u o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadigan eng muhim elementlar sifatida innovatsion texnologiyalar bilan ishlashda malakali bo‘lishi kerak. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o‘qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o‘quvlar guruhlarini kiritish lozim[1].



***1-rasm**. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar*

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalashqobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiymas’ullik.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

«O‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin:

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi[2].

Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. Kompetensiyaning har bir turi ko‘nikmalar, bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti- harakatlari ko‘rsatkichlariga e’tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin. Kompetentlik qanday shakllanadi? O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy

ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi[2,3].

Shaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.SHamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil.14-15-betlar
2. N.A.Muslimov Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish T.,Fan2004.
3. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. – 128b.

PSIXOLOGIYADA MUSIQANING AHAMIYATI VA MUSIQA TERAPIYA

S.J.Julmatova
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezis musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta'sirini o'tkaza olishi va uning diagnostik kuchi haqida bo'lib, psixologiyadagi musiqaning ahamiyati va undan foydalanishga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: teropiya, musiqa, Avitsena, Pifogor, retseptiv teropiya, faol teropiya, integral teropiya, art terapiya.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonun" va Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi ta'lim tizimida tub burilishlar yasadi. Ta'lim tizimiga dunyo andozalariga mos tushadigan mentalitetimizni hisobga olgan holda butunlay yangi texnologiyalar kirib keldi. Sadiiy She'roziy aytganidek: "Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir". Vatanparvarlik avvalam bor o'z Ona-Vataniga mexr-muhabbat, sadoqat tuyg'ularini, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, xalqlar do'stligi uchun tinimsiz kurash olib borish, aqlan va manan yetuk tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan baynarmilal dunyoqarash tuyg'ularini tarbiyalash borish va o'quvchi-yoshlar ongida shakllantirib berishni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining Yangi O'zbekistonning bugungi bosqichida asosiy masala bo'lib, bu davr xalq ta'limi tizimi talab qilgan maqsad va vazifalar XXI – asrning ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Musiqiy terapiya- bu terapevtik vosita sifatida musiqadan foydalaniladigan psixoterapevtik usul.

"Musiqa terapiya" atamasi yunon-lotin tilidan kelib chiqqan va tarjimada "musiqa bilan davolash" degan ma'noni anglatadi. „Musiqa terapiya" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Olimlarning katta qismi musiqa terapiyasini psixoterapiyaning yordamchi vositasi, bemorlarni murakkab terapevtik usullardan foydalanishga maxsus tayyorlash vositasi deb bilishadi. Boshqa mualliflar musiqa terapiyani quyidagicha belgilaydilar:

- Somatik va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o‘qitish va tarbiyalashda musiqadan nazorat ostida foydalanish;
- Kasallik yoki ruhiy buzilishlarning fiziologik va psixologik jihatlarini davolash uchun musiqadan tizimli foydalanish;
- Ijodiy kuchlar va pedagogik-tarbiyaviy ishlarni optimallashtirish vositasi.

Musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta’sirini tasdiqlagan birinchi odamlardan biri yunon olimi va faylasuf Pifagor edi. Yamblichning „Pifagor hayoti to‘g‘risida“ asaridan ko‘rinib turibdiki, agar kimdir „chiroyli ritmlar va qo‘shiqlarni tinglasa, unda bunday odam musiqiy ta’limni ohang va ritmlardan foydalangan holda, inson axloqi va ehtiroslari davolanadi va aqliy kuchlarning dastlabki uyg‘unligi o‘rnatiladi“. Hindistonda musiqiy terapiya usullari keng qo‘llanilgan. Bu raga nazariyasiga mos keladi (har bir raga ma’lum bir kayfiyatga mos keladi, odamning holatidagi o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun depressiya va boshqa kasalliklarni davolash mumkin (hind shifokorlarining fikriga ko‘ra). Musiqa terapiyasi Xitoyda ham ma’lum bo‘lgan.

Islomiy Sharq tibbiyotining donishmandi Avitsena (Abu Ali ibn Sino, 983 — 1036) „Tib qonunlari“ da musiqaning terapevtik vosita sifatida ta’siri haqida yozgan. XII asr arman tabibi Mxitar Geratsi ham musiqa terapiyasining muhim ijobiy rolini ta’kidladi.

20-asrda musiqa terapiyaning bir nechta maktablari shakllandi.

- Nemis maktabi (Shvabe, Keler, Kyonig) insonning psixofizik birligi tezisiga asoslanib, asosiy e’tibor turli xil san’at turlarining shifobaxsh ta’siridan har tomonlama foydalanishning turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan.
- Rossiyada musiqaning insonga ta’sir mexanizmiga bag‘ishlangan birinchi ilmiy ishlar XIX asr oxiri-XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. V.M.Bexterev, I.M.Sechenov, I. M. Dogel, I. R. Tarxanov asarlarida musiqaning Markaziy asab tizimiga, nafas olish, qon aylanish va gaz almashinuviga foydali ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar paydo bo‘ldi. Musiqiy ratsional psixoterapiyaning asl kontseptsiyasi Valentin Petrushin (Moskva) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning amaliy tajribasi taniqli qadimiy texnikalar va zamonaviy ilmiy yutuqlarini sintez qiladi. Insonga yaxlit yondashish, V.Petrushin bemorlarni nafaqat jismoniy, balki psixologik va intellektual tiklanishni ham rag‘batlantiradi (tana, his-tuyg‘ular, fikrlar bilan ishlash), chunki kasalliklar ko‘pincha tananing jismoniy zaifliklarida emas, balki xarakter xususiyatlarida ham sabab bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida insonning dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Musiqiy terapiyaning 3 ta asosiy shakli mavjud: **retseptiv, faol, integral.**

- *Retseptiv musiqa terapiyasi (passiv)* bemorning musiqiy terapiya mashg‘ulotlari jarayonida unda faol ishtirok etmasligi, oddiy tinglovchining pozitsiyasini egallashi bilan ajralib turadi. Unga turli xil musiqiy kompozitsiyalarni tinglash yoki uning ruhiy salomatligi va davolash bosqichiga mos keladigan turli xil tovushlarni tinglash taklif etiladi.
- *Musiqiy terapiyaning faol usullari* musiqiy materiallar bilan faol ishlashga asoslangan: instrumentak o‘yin va qo‘shiq aytish.

Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musiqa-terapiya demans, shizofriniya va depressiyani yengishda samarali ta’sir ko‘rsata oladi. Rossiyada musiqa-terapiya bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlar va tajribalar yaratildi. Natijada Musiqiy terapiya ilmiy-tadqiqot instituti (2001-yildan), Milliy musiqa terapevtlari assotsiatsiyasi (2009-yildan), Musiqa psixologlari va psixoterapevtlari assotsiatsiyasi (2011-yildan) kabi muassasalar tashkil topdi. Bir nechta ilmiy izlanishlarga ko‘ra, Motsartning “D major” sonatasini tinglash bemorlarda epilepsiya xurujlari sonini kamaytirishga yordam bergan. Buni „Motsart effekti” deb ham atashdi. Biroq, ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligi unga qo‘yilgan cheklovlar va keyingi tadqiqotlarda natijalarni takrorlay olmaslikka sabab bo‘ldi. Ba’zi shifokorlar musiqa mushaklarning bo‘shashiga yordam beradi, ayniqsa tez yurish va yugurish paytida va semirib ketgan odamlarning yaxshi jismoniy holatini saqlab qolish uchun qo‘shimcha reabilitatsiya terapiyasi sifatida ishlatilishi mumkin deya maslahat berishadi

Muxtasar aytganda, musiqani nafaqat san’at turi deb, balki inson psixologiyasini yuksaltiruvchi tabiiy omil sifatida ham o‘rganish zarur. Zotan, musiqa bizni ona tabiatning turli

ohang va tovushlari bilan muomala qilishimizga, ularning mohiyatiga yetish va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan ichki dunyomiz mutanosibligini ta’minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T., O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O‘zbekiston, 2018.

3. Bolalar psixologiyasi va metodikasi.- Z.Nishanova, G.Alimov.

4. O‘qituvchi qobiliyati va uni psixologiyada o‘rganilishi- K.Qudratova

5. “Umumiy psixologiya, yosh psixologiya va pedagogik psixologiya” kursi. 1982-yil.

MASOFAVIY TA’LIM JARAYONIDA MAKTAB O‘QITUVCHILARINI TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRIB ILMIY METODIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH

J.T.Mannabov

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotasiya. Hozirgi kunda ta’lim sohada o‘qituvchilarning kasbiy muammolarni hal qilish, yangi bilimlarni olishi internet texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu esa o‘qituvchilarni Internet texnologiyalari sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, kompetentlik, internet-texnologiyalar, kasbiy, pedagogik, faoliyat, rivojlantirish, o‘qituvchi.

Совершенствование научно-методической подготовки учителей школ в процессе дистанционного обучения за счет повышения их технологической компетентности.

Annotasiya. В настоящее время решение профессиональных задач и получение новых знаний педагогами в сфере образования связано с интернет-технологиями. Это делается на основе развития знаний, навыков и квалификации преподавателей в области интернет-технологий.

Ключевые слова: дистанционное образование, компетентность, интернет-технологии, профессионал, педагогика, деятельность, развитие, педагог.

Improving the scientific and methodological training of school teachers in the process of distance learning by increasing their technological competence.

Abstract. Currently, the solution of professional problems and the acquisition of new knowledge by teachers in the field of education is associated with Internet technologies. This is done on the basis of the development of knowledge, skills and qualifications of teachers in the field of Internet technologies.

Keywords: distance education, competence, Internet technologies, professional, pedagogy, activity, development, teacher.

Hozirgi kunda o‘qituvchilarning Internet texnologiyalari asosida kasbiy darajasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilib, masofaviy ta’lim shaklining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi yuqori baholanadi. O‘qituvchilar malakasini oshirishga ixtisoslashgan ta’lim tashkilotlari tomonidan onlayn shaklda o‘qitishning ilg‘or pedagogik yondashuvlari, ilmiy-metodik ma’lumotlarni yetkazishning ko‘p qirrali, ko‘p yo‘nalishli va emotsional-kommunikativlik omillaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Dunyoda global va keng ko‘lamli axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning Internet texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion ta’lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, o‘qituvchilarning professionallik darajasini oshirishda masofaviy ta’lim sharoitiga xos kompetensiyalari tarkibini aniqlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limda

o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va fan, texnika, iqtisodiyot hamda jamiyat rivojlanishi oldiga qo‘yilgan yangi talablar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2019 yil 16 yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4119-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 25-son qarori hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Internet texnologiyalari sohasida o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida texnologik kompetentlikni takomillashtirish uchun predmetga yo‘naltirilgan tarkibiy tuzilmaga alohida e’tibor qaratildi. Tarkibni tuzishda bunday yondashuv masofaviy ta’lim bilan birgalikda o‘qituvchilarga o‘quv jarayonida, shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarda eng yuqori darajada o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatini beradi. Individual o‘quv ma’lumotlari modullari guruhlarini birlashtirgan holda o‘qitish mazmuniga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshiradi. Bundan tashqari, malaka oshirish jarayoni tarkibidagi modulli asos masofaviy ta’limni rejalashtirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Internet texnologiyalari sohasidagi texnologik kompetentlikni takomillashtirish, malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning nazariy, uslubiy va amaliy tayyorgarligi jarayonida amalga oshiriladi.

Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining metodik tayyorgarligi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, bu esa unga olgan bilimlarini kasbiy faoliyatida zudlik bilan ishlatishga va ta’lim oluvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish imkoniyatidan foydalangan holda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Internet texnologiyalari sohasida o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirish, nafaqat o‘qituvchini kompetensiyasini o‘zgargan tuzilishini, balki uning tarkibiy qismlarining sifatiga ijobiy ta’sirni ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, intellektual kapitalning ko‘payishi – kasbiy kompetensiyaga asoslangan ijodiy, nazariy, amaliy ko‘nikma va qobiliyatlarning yaxlit majmuidir.

Odatda, masofaviy o‘qitish quyidagilarni: matn shaklida pedagog tomonidan tayyorlangan ma’ruzalar matnini tinglovchilar tomonidan mustaqil o‘zlashtirilishi; mavzular va butun kurs bo‘yicha bilimlarning o‘zlashtirilishi tekshirish onlayn testdan o‘tish orqali amalga oshirilishi; ta’limiy videosyujetlarni ko‘rish; ZUM (ZOOM) tizimi orqali bevosita o‘qituvchilar tomonidan ma’ruzalarni tashkil etilishi hamda savol-javoblarning onlayn tarzda tashkil etilishini o‘z ichiga oladi.

Internet-texnologiyalar sohasidagi o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish vazifasi masofaviy ta’lim bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sohadagi uzluksiz ta’lim jarayoniga jalb qilingan o‘qituvchilar sonini maksimal darajada oshirish va o‘qituvchilarni ishlab chiqarishdan ajratishni istisno etadigan almashtirish muammosini hal qilishga imkon beradi.

Bundan tashqari, masofaviy ta’limning muhim omili - o‘qituvchining kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta’lim segmentida ishlay olish qobiliyati hamdir.

Masofaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini takomillashtirish modeli ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, u quyidagi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv-amaliy, refleksiv-loyihalashtirish komponentlarni o‘zida namoyon etadi. Motivatsion-qadriyatli - ta’lim jarayonida internet texnologiyalarini qo‘llashga nisbatan kasbiy-shaxsiy mushohada; kognitiv-amaliy komponent - internet texnologiyalari sohasidagi bilim, ko‘nikma va

malaka darajasini hamda pedagogik faoliyatni amalga oshirish chog‘ida ularni qo‘llash bo‘yicha metodik qobiliyatlarni belgilaydi; refleksiv-loyihalashtirish komponent - o‘z darajasini obyektiv baholashga qodirlik va uning o‘sishini ta’minlovchi sharoitlarni aniqlash; internet texnologiyalari sohasidagi kompetentlilikning komponentlari bo‘lib xizmat qiladi.

Internet texnologiyalari sohasida pedagogning texnologik kompetentliligini shakllantirish tarkibi va darajalarini ko‘rib chiqishga doir metodik yondashuvlarni tahlil qilish natijasida internet texnologiyalari sohasida pedagogning texnologik kompetentliligi quyidagi komponentlarni: ta’lim jarayonida internet texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan motivatsiyalashuv darajasini o‘z ichiga oluvchi motivatsion-qadriyatli komponent; internet texnologiyalari sohasidagi bilimlar, ko‘nikma va mahoratni, pedagogik faoliyatni amalga oshirish chog‘ida ularni qo‘llash bo‘yicha metodik qobiliyatlarni aniqlab beruvchi kognitiv-amaliy komponent; refleksiv-loyihalovchi komponent, internet texnologiyalari sohasida o‘zining kompetentlik darajasini obyektiv baholashga qodirlik va uning rivojlanish sharoitlarini aniqlab olish imkoniga ega bo‘lindi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki, keltirilgan mulohazalarni e’tiborga olib, “o‘qituvchilarni internet texnologiyalari sohasida texnologik kompetentliligi, zamonaviy kompyuter dasturiy vositalarini kasbiy faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalari, internet texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanib ta’limning sifat jihatidan yangi paradigmasini barpo etish maqsadida mohirona qo‘llash qobiliyati bilan ishlash xususiyatlarini nazarda tutadi” deb ta’riflashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori. 07/21/4963/0064
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
3. Mannabov J. “O‘qituvchilarning internet-texnologiyalari sohasidagi kasbiy texnologik kompetentligini shakllanish darajalari”. SamDU Axborotnomasi. –Samarqand. 2019 yil, №2. (116) ISSN 2091-5446. 61-65 betlar.
4. Mannabov J. “Pedagog xodimlarning masofaviy ta’limdan foydalanishda kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirish”. Sirdaryo VXTXQTMOHM “Global” ilmiy jarayonda integratsion ta’limni rivojlantirish usullari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi 2019 yil 10 may. 1121-1123 betlar.

FANDAGI INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ZAMONAVIY TUSHUNCHASI

B.A.Amirullayeva
A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti doktoranti
U.A.Kamolova
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda fandagi dolzarb muammolar, fanlarni integratsiya asosida o‘qitishning ahamiyati, integratsiyalashgan ta’lim, integratsiyalashgan ta’limning rivojlanish bosqichlari, integratsiya jarayonlarining zamonaviy tushunchasi, integrativ jarayonlarining belgilari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, fanlararo aloqalar, differensiatsiya, integrativ tendensiya, geterogen, integratsiya jarayonlarining zamonaviy tushunchasi.

XXI asr ilmiy bilimlarning tez o‘sishi bilan tavsiflanadi. Insoniyat o‘z taraqqiyotining yangi – axborot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Inson hayoti va faoliyati birinchi navbatda

axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan sivilizatsiya rivojlanishining bosqichi.

Hozir fanda ikkita parallel jarayon aniq ajratilgan. Ulardan biri ilmiy bilimlarning turli sohalarini differensiatsiya qilish bo‘lib, bu juda tor va maxsus tadqiqot muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, fandagi integrativ tendentsiyalar tobora kuchayib, yangi fanlar va fanlararo bilimlar tizimlarining tug‘ilishiga olib keladi. Integratsiya va differentsiatsiya jarayonlari bilishning ikkita tendentsiyasiga mos keladi: bir tomondan, butun dunyoni tasvirlash, boshqa tomondan, turli tuzilmalar va tizimlarning qonuniyatlarini chuqurroq tushunish. Ma’lumki, bu ikkala jarayon ham bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Differensiatsiya va integratsiya jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik dialektikasi hamma joyda namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, voqelikning har qanday ob’ektini uning tarkibiy qismlarining qandaydir yaxlitligi, birligi, elementlari integratsiyasi ifodasi sifatida qarash mumkin. Integratsiya va tabaqalanishning birligi nafaqat dunyo birligi va uning xilma-xilligi, bilishdagi analitik va sintetik yondoshuvlarning in’ikosi bo‘libgina qolmay, balki individuallik, xususiylik va umumiylik birligining in’ikosidir. Bilimlarning differentsiatsiyasi ko‘p jihatdan bilish ob’ektlarining o‘ziga xosligini, xususiyatlarini aks ettirish zarurati bilan belgilanadi, aksincha, integratsiya - o‘rganilayotgan ob’ektlarning umumiyligini ajratib olish zarurligini aks ettiradi. B.M.Kedrov asarlarida turli tarixiy davrlardagi ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va differentsiatsiyasi jarayonlarining nisbati ochib berilgan. Olimning fikricha, qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda integratsiya, yangi davrda (XVI — XIX asr o‘rtalari) fanlarning tabaqalanishi hukmron bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr oxiridan yana fanlararo integratsiyaga e’tibor kuchaydi [1]. XIX asrda ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi energiyaning saqlanish qonunining ochilishiga, termodinamikaning universal usullarining rivojlanishiga, elektr va magnetizm haqidagi ta’limotlarning birlashishiga olib keldi. Bu kashfiyotlar davriy qonun, hujayra tuzilishi kashfiyotlari bilan bir qatorda 20-asr boshlarida fanning muvaffaqiyati - xususan, nisbiylik nazariyaning yaratilishiga olib keldi: fazo, vaqt, massa birligi, M.Plank kashfiyotlari, kuchsiz va elektromagnit o‘zaro ta’sirlarning yagona nazariyasini ishlab chiqish. Bizning zamonamizda ilmiy bilimlarning integratsiyasi fanda yangi birlashtiruvchi yo‘nalishning paydo bo‘lishini ta’minladi, tabiatshunoslikning turli sohalarida umumiy qonuniyatlarni ochib berdi – sinergetika. Ko‘pgina olimlar fanlarning integratsiyalashuvi va differentsiatsiyasining zamonaviy jarayonlarini tahlil qilib, asosli ravishda fanlar integratsiyasiga birinchi darajali ahamiyat berishadi. “Hozir shartli ravishda “integratsiya portlashi” deb atash mumkin bo‘lgan narsa, o‘ziga xos “integratsiya inqilobi” sodir bo‘lmoqda, deb yozadi A.D.Ursul [2].

Ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi tabiiy jarayon bo‘lib, u ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari bilan ham, fanning o‘zida vujudga keladigan “mafkuraviy” ehtiyojlar bilan ham shartlangan, deb yozadi B. M. Kedrov.

So‘nggi yillarda zamonaviy fan va amaliyotning integratsiyalashuvi tendentsiyasi sezilarli bo‘ldi. Xususan, pedagogik adabiyotlarda maktab ta’limining barcha darajalariga ta’sir etuvchi integral jarayonlarga e’tibor tobora ortib bormoqda. Fandagi integratsiya va differensiallikning o‘zaro kirib borishi ta’limning fan tizimini takomillashtirish jarayonida fanlararo aloqalarni rivojlantirishning ob’yektiv asosidir.

Bilimlarni birlashtirish muammolari, integratsiyani umumiy ilmiy tushuncha sifatida o‘rganish, uning mexanizmlari, omillari, darajalari, tarkibiy qismlari, vositalari, turli xarakterdagi tizimlardagi eng muhim xarakteristikalari va funksiyalarini aniqlash juda ko‘p ishlarga bag‘ishlangan. (V.N. Akulinin, I.S. Antonov, V. S. Bezrukova, M. N. Berulava, B. M. Kedrov va boshqalar).

Ta’lim jarayonining integratsiyalashuvi, bizningcha, bir tomondan, turli sohalardagi bilimlarni o‘zaro boyitish, bilim va malakalarning birligi; boshqa tomondan, ta’lim zinapoyasining turli bosqichlari o‘rtasidagi uzluksizlik, ularning shaxs hayoti va kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab oladigan yagona ko‘tariladigan qatorga birlashishi.

Shunday qilib, V.A.Ignatova o‘zining "O‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish: nazariya va amaliyot" [3] asarida ta’lim mazmuniga yoki alohida o‘quv

predmetiga integratsiyani amalga oshirishga imkon beradigan quyidagi asoslarni taklif qiladi, ular bizning fanlarimizga ham tegishli.:

- olam va uning barcha quyi tizimlarining birligi va yaxlitligi;
- bilim va voqelikning rivojlanishining birligi, yaxlitligi va integratsiyasi, tafakkurning integral xarakteri;
- shaxsning birligi va yaxlitligi (uning barcha sohalarining birligi va o‘zaro bog‘liqligi), uning rivojlanish mantig‘i;
- ta’lim jarayonining birligi va yaxlitligi, uni qurish mantig‘i;
- ta’lim mazmuni va alohida o‘quv predmetining birligi va yaxlitligi;
- mavzuning maqsadli yo‘nalishi va uni qurish mantig‘i.

Ko‘pgina pedagogik tadqiqotlarda integratsiya fanlararo aloqalar variantlaridan biri sifatida qaraladi.

1980-yillarda fanlararo aloqalar integratsiya g‘oyalarini amalga oshirish variantlaridan biri sifatida talqin qilindi. Fanlararo bog‘lanishga asoslangan bilishning psixologik mexanizmlari o‘z mohiyatiga ko‘ra bog‘lanishlarni o‘zlashtirish mexanizmlarida, turli fan bilim tizimlariga oid ma’lumotlarni umumlashtirish jarayonida mavjud bo‘lib, buning natijasida o‘quvchilar bilimining yaxlitligi va tizimliligi ta’minlanadi.

Ilmiy bilimlarning maksimal integratsiyasi har bir o‘quv fani mazmuni tuzilishining uchta asosiy komponentida aks ettirilishi kerak:

- fanlararo aloqalar natijasida sifat jihatidan o‘zgargan bilimlar tizimida;
- fanlararo aloqani amalga oshiradigan o‘quv va kognitiv faoliyatda o‘ziga xoslikni egallaydigan ko‘nikmalar tizimida ;
- turli predmetlardan bilimlarni sintez qilish jarayonida ta’lim bilimlari bilan shakllanadigan munosabatlar tizimida [4, b. 27-28].

“Fan ta’lim mazmunini shakllantirishning asosidir”, deb ta’kidlaydi I.D. Zverev. Keyinchalik u shunday yozadi: «Ilmiy bilimlarning jadal rivojlanishi, ta’lim mazmunini takomillashtirish, ularni falsafiy va uslubiy umumlashtirish davrida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarkibiy qismlar alohida rol o‘ynaydi, zamonaviy o‘quvchining o‘z bilimlarini mustaqil ravishda boyitish va siyosiy, ilmiy va texnik ma’lumotlarning tez oqimida harakat qilish qobiliyati. Shuning uchun bu yerda ilmiy bilimlarni integratsiyalashuv tendentsiyalarini aks ettiruvchi ta’lim mazmunining tarkibiy qismlari birinchi darajali ahamiyatga ega. Ularning ahamiyati fanning integratsion jarayonlarining zamonaviy ilmiy tafakkur uslubi va inson dunyoqarashini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli bilan bog‘liq. Umumiy o‘rta ta’lim mazmuni nazariyasini yaratishda zamonaviy fanni integratsiyalashuv jarayoniga mos keladigan didaktik ekvivalentlarni aniqlash muhim bosqich hisoblanadi” [4].

Yuqoridagilardan xulosa qilib fanlar mazmunidagi integrativ jarayonlarning belgilarini keltirib o‘tamiz (1-jadval).

	Belgilari
1	Integratsiya geterogen (har xil jinsli), ilgari bir-biridan farq qiladigan elementlarning o‘zaro ta’siri sifatida qurilgan.
2	Integratsiya o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlarning sifat va miqdoriy o‘zgarishlari bilan bog‘liq.
3	Integratsiya o‘ziga xos mantiqiy va mazmunli asosga ega (integratsiyani qurish, birinchi navbatda, bilimlarning geterogen (har xil jinsli) elementlarini birlashtirish uchun umumiy asosni izlash, turli to‘plamlarning birligi mezonlarini izlash va
4	Integratsiyalashgan jarayonning pedagogik maqsadga muvofiqligi va nisbiy mustaqilligi: ta’lim mazmunining geterogen elementlarining o‘zaro ta’sirini yagona mantiqiy va mazmunan asosda joylashtirish ta’lim jarayonida nisbatan mustaqil funksiyalarni bajaradigan ma’lum bir yaxlitlikning paydo bo‘lishiga olib keladi; shu bilan birga, integratsiya jarayonining amalga oshirilishi yangi o‘zaro ta’sirlarni keltirib chiqaradi

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy ta'limda integratsion jarayonlarga bo'lgan ehtiyoj ilmiy-texnikaviy bilimlarning jamiyat taraqqiyotiga, shuningdek, fanlarning holatiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Integratsiya- ta'lim mazmunini yangilash strategiyasini shakllantirishning xususiyatlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кедров Б.М. Классификация наук. Прогноз К. Маркса о науке будущего. М.: Мысль, 1985, 543 с.

2. Урсул А.Д. Взаимодействие естественных, общественных и технических наук // Философские науки - М, 1981 № 32 с. 113.

3. 79. Игнатова В.А. Формирование экологической культуры учащихся: теория и практика. Монография. Под ред. В.И. Загвязинского, Тюмень, Из-во ТГУ, 1998-196с.

4. Зверев И.Д., Максимова В.Н. Межпредметные связи в современной школе-М, Педагогика, 1981 -160с.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA MAKTAB PSIXOLOGLARNING O'RNI

N.K.Rustamova
Past Darg'om tumani 48- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqola Umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik sog'lom muhitni shakllantirish omillari va maktab psixologlarning o'rni va shuningdek, bolalar psixologiyasi fanining dolzarb muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bevosita jarayonlar, idrok etish, psixik hodisalar, umumlashtirish, mavhumlashtirish.

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani predmetining kengayib borishi kuzatilmoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermoqda. Bolalar psixologiyasi — yosh psixologiyasi fanining bo'limlaridan biridir. Yosh psixologiyasi, shu jumladan, bolalar psixologiyasining psixologiya fanidagi boshqa tarmoqlardan farqi shundaki, u psixik hodisalaming o'zini emas, balki rivojlanishi va yosh bilan bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq etadi. Yosh psixologiyasining bugungi kundagi eng muhim muammolari quyidagilardan iborat.

O'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti taiimda ko'rgazmalilik tamoyliga rioya qlishdir. Bu tamoyni o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul kabi sezgi a'zolarining bir ob'ekti ustida safarbar qinishini talab etadi. Bu ish jarayoni konkret narsa va hodisalami sezish hamda idrok etishdan boshlanadi va umumlashtirish, mavxumlashtirish tomonga bor adi.

Sezgi va idrok voqelikni bo'lishning nisbatan sodda, bevosita jarayonlari bo'lib hisoblanadi. Ko'rgazmalilik tamoyili o'qitishda mazkur jarayonlarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni nazarda tutadi.

Psixologik bilimlarni egallab, talabalar ko'pincha nazariy bilimlar bilan konkret psixik hodisalar haqida ko'rgazmali tasavvurlarni bir -biriga bog'lashda qiynaladilar. Ko'rgazmali o'quv qirollarining turli usullaridan foydalanib, psixologiya o'qituvchisi talabalarga egallanayotgan psixologik bilimlami konkret ko'rgazmali mazmun bilan boyitishda, odamlar faoliyati, xatti-harakatlarida muayyan psixologik qonuniyatlami ko'ra olishga o'rganishda yordam beradi.

Quyida psixologiya o'qituvchisi foydalanishi mumkin bo'lgan bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar — anatomiya,fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ilgandan yetuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlaming maxsus sohasi bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari, rivojlanishning turli

bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandir. L. F. Obuxova ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi fanining predmeti tarixan o‘zgarib boigan.

Bugungi kunda bolalar pixolpgiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, yosh daviiari, bir yosh davridan boshqasiga o‘tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediatr bolalaming jismoniy alomatligibilan shug‘ullansa,bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik to‘g‘ri rivojlanayotgani va faoliyat ko‘rsatayotganini, bordi-yu bu sohada kamchilik bo‘lsa, uni nimaning hisobiga kompensatsiyalash mumkinligini o‘iganadi.

a) turli psixofiziologik funksiyalaming yoshga oid me'yorlarini ilmiy jihatdan asoslab berish;

b) individ, shaxsning yetuklik mezonlari va namunalarini aniqlash;

c) hayotning turli bosqichlarida insonning real va potentsial imkoniyatlari qanday bo‘lishini aniqlash;

d) inson hayotining dastlabki bosqichlari uning kelgusidagi taraqqiyotida qanday rol o‘ynashini tushunish va ilmiy bashorat qilish. Ushbu muammolami hal etish uchun inson hayotining har bir bosqichida — bolalik, o‘spirinlik, yetuklik va qarilikda uning psixikasida ro‘y bergan o‘zgarishlami chuqur o‘rganish talab etiladi. Ayrim o‘rinlarda bolalar psixologiyasiga sinonim sifatida "genetik psixologiya" tushunchasi ishlatilmoqda. Bu holatni to‘g‘ri deb baholash mumkin emas. Chunki genetik psixologiya psixik jarayonlaming paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasining predmeti esa faqat psixik jarayonlar taraqqioyti bilangina cheklanib qolmaydi.

Psixologiya fani nazariyasi va amaliyoti ajralmas birlikni tashkil etadi. Albatta, ular o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. o‘rtadagi farq ulaming maqsadlari, konseptual apparati, metodologiyasi va ular doirasida amalga oshiriladigan chora -tadbirlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Fundamental—nazariy tadqiqotlarning asosiy maqsadi amaliyot uchun bo‘lgan ahamiyatidan qa'ti nazar, psixik hodisalar haqidagi bilimlarni kengaytirib borishdan iborat. Amaliy psixologiya esa kundalik hayot bilan bog‘liq konkret muammolami hal etishga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazadi.

Fundamental tadqiqotlarda tadqiqotchi shaxsining ta sirisiz ham ilmiy metod o‘z vazifalarini bajaradi. Ammo amaliy psixologiyada psixolog shaxsi metodning ajralmas qismi boiib hisoblanadi. Ko‘rgazmalilik vositalari sanab o‘tilgan:

Ko‘rgazmali eksperiment. Bunday eksperiment ilmiy eksperiment singari muayyan psixik hodisalarni tadqiq etish maqsadini ko‘zlamaydi. Uning asosiy maqsadi nazariy mulohazalarni aniq ifodasini namoyish etishidir.

Umiy tadqiqotlaming natijalari va badiiy asarlardan olingan misollar. Mazkur elementlar nutqiy ko‘rgazmalilik vositasi bo‘lib xizmat qiladi va psixologik tushunchalarning konkretlashtiruvi uchun yordam beradi. 0‘qituvchi biror psixologik qonuniyatni tushuntirishda turli ilmiy tadqiqotlar, tajribalaming natijalariga misol tariqasida murojaat qilishi, birinchidan, bayon etilayotgan buyimlarning ishonchliligini oshiradi, ikkinchidan, nazariy qoidaning amaliy ifodasini namoyish etadi. Qolaversa, psixologik tajribalar texnologiyasi, ularning ijodkorlari,tajribalar natijalari talabalarda hamisha qiziqish uyg‘otgan. Talabalar tasavvurida yorqin obrazlar hosil qiluvchi ko‘rgazmali vositalardan biri badiiy asarlardan olingan iqtibos-ko‘chirmalardir. Iqtibos biror badiiy qahramon tilidan yoki muallif tilidan olinishi mumkin. Faqat u muayyan psixologik qonuniyat, tushuntirilayotgan qoidani badiiy aks ettirgan bo‘lishi kerak. Misol tariqasida, shuningdek malum badiiy qahramonlar keltirilishi, mashhur shaxslaming ibratli fikrlaridan foydalanish mumkin. Ko‘rgazmalilikka qo‘yiladigan asosiy talab shuki, u hajman ko‘p vaqtga moijalangan bo‘lmasligi, masalaga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqador bo‘lmagan mayda elementlar bilan talabalar e'tiborini asosiy muammodan chalg‘itmasligi lozim. Agar nazariy bilim bilan uni ifodalovchi ko‘rgazmali misolar o‘itasida talaba ongida mustalikam aloqa hosil bo‘lsa, psixologik bilimlari ongi o‘zlashtirilishiga erishish mumkin boiadi.

Xulosa: Psixologiya o‘qituvchisi faoliyatining muhim tarkibiy qismi o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishdan iboratdir. Mustaqil ish o‘quvchining bilim faoliyatini faollashtiradi, uning oldiga mustaqil ravishda hal etishi lozim boigan vazifalarni qo‘yadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. 0‘quv qo‘llanma. -T. : 2017.

2. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 b.

KOMBINATORIKANING FANLARARO TADBIQLARI

Z.Q.Erkaboyeva
Samarqand viloyati Qo‘shrabot tuman 34-IDUM matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Kombinatorika – zamonaviy matematikaning ko‘plab hayotiy tadbiqlarga ega bo‘lgan bo‘limlaridan biridir. Ushbu tezisda kombinatorikaning turli fanlarda keng qo‘llaniladigan bir qancha qiziqarli tadbiqlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar. *kombinatorika, “Kenigsbergning yetti ko‘prigi”, “yulduz va tayoqchalar” usuli, kombinatorik kimyo, kombinatorik o‘yinlar nazariyasi.*

Ma’lumki, hayotimizdagi turli jarayonlarning yuz berishi bir qancha omillarga, xususan, parametrlarga ega. Parametrlar o‘zgarishi asosida jarayonlar qanday ko‘rinish olishini o‘rganish matematikaning muhim muammolaridan hisoblanadi. Ushbu turdagi masalalarni hal etishda matematikaning kombinatorika bo‘limi keng qo‘llaniladi. Quyida shu turdagi bir nechta qiziqarli tadbiqlar keltirilgan.

Ta’rif. Matematikaning chekli to‘plamlar nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi *kombinatorika* deyiladi. Boshqacha aytganda, chekli to‘plam elementlaridan har xil guruhlar(birlashmalar) tuzishga va biror qoidaga asosan tuzilgan barcha mumkin bo‘lgan guruhlar sonini hisoblashga doir masalalar *kombinatorika masalalari* deyiladi.

Kombinatorika ko‘plab sohalarda o‘zining turli xil tadbiqlariga ega. Quyida ushbu yo‘nalishlarning bir qanchasi keltirilgan.

1. Kenigsbergning yetti ko‘prigi.

Prussiyadagi Kenigsberg shahri (hozirgi Kaliningrad, Rossiya) Pregel daryosining har ikki qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, bir-biri bilan bog‘langan ikkita katta Kneyfof va Lomse orollari va shaharning ikki materik qismidan iborat. Ushbu qirg‘oqlarni o‘zaro 7 ta ko‘prik bog‘laydi. Ushbu ko‘priklarning har birini faqatgina bir marta kesib o‘tib, barcha ko‘priklardan yurib o‘tish muammosi tarixda “Kenigsbergning yetti ko‘prigi” nomi bilan mashhur.

Ushbu qadimiy matematik muammo uchun yechim mavjud emasligi dastlab 1736-yilda L.Eyler tomonidan kombinatorika elementlari hamda graflar nazariyasi yordamida isbotlangan.

2. Yulduzchalar va tayoqchalar.

Algebra, kriptografiya hamda kompyuter arxitekturasining ma’lum turdagi teorema va masalalarini hal etishda “Yulduzchalar va tayoqchalar” nomli usuldan foydalaniladi va bu usul to‘laligicha kombinatorika elementlariga asoslangan. Quyida algebraning qiziqarli teoremasi shu usul yordamida isbot qilingan.

Teorema. Ixtiyoriy n va k musbat sonlar juftligi uchun, yig‘indisi n ga teng bo‘lgan k ta musbat sonlar berilgan. Ushbu tenglamaning yechimlar soni C_{n-1}^{k-1} ga teng.

Masalan, $n = 10, k = 4$ bo‘lganda $x_1 + x_2 + x_3 + x_4 = 10$ tenglamaning yechimlar soni $C_{10-1}^{4-1} = C_9^3 = 84$ ga teng.

Isbot. Faraz qilaylik, n ta yulduzcha k ta idishga joylashtirilgan bo‘lsin. Bunda har bir idishda kamida bitta yulduzcha mavjud. Idishlar bir-biridan farqli,masalan, 1 dan k gacha nomerlangan, lekin yulduzchalar aynan bir xil.

Masalan, $k = 3, n = 7$ bo‘lganda dastlab 7 ta yulduzchani bir qatorga qo‘yamiz:

★ ★ ★ ★ ★ ★ ★

Ushbu yulduzchalarni idishlarga joylasak, har bir idishni tayoqcha orqali ajratamiz. Quyidagi rasmda birinchi idishga 4 ta, ikkinchi idishga 1 ta va uchinchi idishga 2 ta yulduzcha joylashtirilgan:

★ ★ ★ ★ | ★ | ★ ★

Ushbu joylashtirishlarda har bir idishda kamida bitta yulduzcha mavjudligi tufayli, bu yerda doim $(k-1)$ ta tayoqcha mavjud bo‘ladi. Shuningdek, yulduzchalar orasida $(n-1)$ ta oraliq mavjud. Demak, ushbu yulduzchalarni idishlarga $C_{n-1}^{k-1} = \frac{(n-1)!}{(k-1)!(n-k)!}$ xil usulda joylashtirish mumkin.

Shuningdek, asosi kombinatorika elementlaridan iborat bo‘lgan ushbu usul graflar nazariyasi, meros masalalarida, qatorlar nazariyasida ham keng qo‘llaniladi.

3. Kombinatorikaning kimyo va qishloq xo‘jaligiga tatbiqi.

Kombinatorik kimyo sintetik materiallarni loyihalashda tengsiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Uning asosiy afzalligi shundaki, u zamonaviy kimyogarlarga turli xil va oldindan aytib bo‘lmaydigan hayotiy variantlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Tabiiy manbalar farmatsevtika sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan misli ko‘rilmagan imkoniyatlarga ega. Kombinatorik kimyoning maqsadi murakkab molekulalarni loyihalash jarayonini optimallashtirish vazifasini soddalashtirishga o‘xshaydi. Ushbu yondashuv zarur mezonlar doirasida barcha mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarni avtomatik ravishda tahlil qilishi va optimal

variantni tanlashga yordam beradi. Yangi molekulalarni kashf qilishda kombinatorika ko‘pincha istiqbolli birikmaning barcha hosilalari va almashtirishlarini tezda sinab ko‘rish uchun ishlatiladi. Bu kimyogarlarga ortiqcha chiqindilarni chiqarmasdan keng spektrli moddalarni ishlab chiqish imkonini berdi.



Kombinatorik kimyo farmatsevtika sohasida keng qo‘llanilishidan tashqari, qishloq xo‘jaligida ham ko‘plab tadbiqlarga ega. U xavfsiz va samarali pestitsidlar, insektitsidlar va o‘simliklarni zararli zamburug‘lardan tozalashga yordam beradigan moddalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, kombinatorik kimyo ma'lum o‘simliklarning o‘sishini nazorat qilish uchun ishlatiladigan birikmalarning rivojlanishi uchun javobgardir. Farmatsevtika sektori kabi, qishloq xo‘jaligi sanoatida ham kombinatorika yordamida ko‘plab yangi kashfiyotlar qilinishi mumkin.

4. Kombinatorik o‘yinlar nazariyasi.

Kombinatorik o‘yinlar nazariyasi – matematika va nazariy kompyuter texnologiyalari fanlarining bir bo‘limi bo‘lib, odatda mukammal qoidalarga ega o‘yinlardagi kombinatsiyalarni o‘rganadi. Ushbu o‘rganish asosan ikki o‘yinchi ishtirokidagi o‘yinlar bilan chegaralangan bo‘lib, o‘yinchilar o‘yindagi personaj yoki obyektlarni ma'lum usullarda o‘zgartiradilar yoki belgilangan g‘alaba shartiga erishish uchun harakat qiladilar. Kombinatorik o‘yin nazariyasi an'anaviy ravishda tasodifiy o‘yinlarni yoki nomukammal, to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlardan foydalanadigan o‘yinlarni o‘rganmagan, o‘yin holati va mavjud harakatlar to‘plami har doim ikkala o‘yinchiga ma'lum bo‘lgan mukammal qoidalar asosida kechadi. Biroq, matematik usullar rivojlangan sari, ushbu kombinatorika elementlariga asoslangan nazariya yordamida matematik tahlil qilinadigan o‘yin turlari kengayadi.

Masalan, sun`iy intellekt tamoyillariga asoslangan holda shaxmat o‘ynaydigan *“Play chess”, “Online Chess”* kabi dasturlar asosida ham murakkab bo‘lmagan kombinatorik o‘yin nazariyasi yotadi. Ya’ni *“jonli o‘yinchi”* tomonidan yurilgan har bir qadamdan so‘ng, sun`iy ong o‘zining qadamida yurishi mumkin bo‘lgan barcha kombinatsiyalarni hisoblab chiqadi va ushbu kombinatsiyalarning eng muqobil variantini o‘zining keying yurishi sifatida tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkaboyeva Z.Q., Eshbekov R.X. Kombinatorika elementlari. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim markazi. Toshkent, 2018y.

2. Aaron N. Siegel. Combinatorial Game Theory(Graduate Studies in Mathematics). American Mathematical Society. July, 2013.

3. Alan Tucker. Applied Combinatorics. SUNY Stony Brook, John Wiley&Sons, Inc. USA, 2012.

4. David Guichard. An introduction to Combinatorics and graph theory. San Francisco, California, 94105, USA, 2022.

PEDAGOG KASBIY STANDARTILAR VA UNING TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Z.M.Jiyanova
Samarqand shahar 49-maktab informatika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif ta’lim jarayoniga pedagogning kasbiy standartini joriy etishshning muhim jihatlari, standart va kasbiy standart tushunchalarining mazmun-mohiyati borasidagi nazariy fikrlar yoritib bergan.

Kalit so‘zlar: standart, kompetensiya, innovatsiya, kreativlik, malaka, qobilyat, intelektual salohiyat, shaxsiy sifatlar.

Аннотация: В данной статье автор выделяет важные аспекты внедрения профессионального стандарта педагогах в образавательный процесс, теоретические взгляды на содержание и сущность понятий стандарта и профссионального стандарта.

Ключевые слова: стандарт, компетентность, новаторство, креативность, квалификация, способности, интеллектуальный потенциал, личный качества.

Annotation: In this article, the author highlights important aspects of the implementation of the professional standard by techers in the educational process, theoretical views on the content and essence of the concepts of the standard and the professional standart.

Key words: standard, competence, innovation, creativity, qualifications, abilities, intellectual potential, personal qualities.

Jahonda o‘qituvchilarning kasbiy standtlarini ishlab chiqish va shu asosida ta’lim jarayonida faoliyat olib borishga jalb etishga qaratilgan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanini mukammal bilishi bilan bir qatorda kasbiy faoliyatiga doir kasbiy standartlarini ham ishlab chiqish va joriy etish hozir global muammolardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita ta’lim tizimi bilan uzviy ravishda, aniq strategiya va ishlab chiqilgan dasturlar doirasida, xalqaro standartlarga mos tarzda amalga oshirilmoqda. Bunday xalqaro standartlaga moslik ta’limning sifati va jozibadorligini yanada oshirishga ham ko‘chdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, ta’lim jarayonning samaradorligi pedagogning bilimlari, mahorati, ko‘nikmalari, intelektual salohiyati singari shaxsiy sifatlar, pedagogning kasbiga qo‘yiladigan talablar ya’ni pedagogning kasbiy standartlariga bog‘liqdir.

Keyingi yillarda ta’lim bilan bog‘liq ilmiy muloqotlarda innovatsiya, kreativlik va kompetensiya kabi tushunchalar tez-tez qo‘llanilayotgani hech kimga sir emas. Ana shunday atamalar qatorida pedagogning kasbiy standarti tushunchasining ilmiy kategoriya sifatida tadqiq etish, tushunchaning pedagoglar uchun ahamiyatli jihatlarini tushuntirib berish imkoniyatini beradi. Pedagogning kasbiy standartini nima ekanligini anglab yetish uchun eng avval, standart so‘zini mohiyatini bilish maqsadga muvofiqdir.

“Standart (ingilizcha standard — me’yor, namuna, o‘lcham) — keng ma’noda — boshqa ob’yektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob’yekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model;

standartlanadigan ob'yektga qo'yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy-texnik hujjat[1].

Yuqorida berilgan ta'rifga asoslanib, pedagogning kasbiy standarti deganda, pedagogning bilimlari, mahorati, ko'nikmalari, bir so'z bilan aytganda pedagogning kasbiga qo'yiladigan talablarga erishishning etaloni yoki pedagogning faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir etadigan me'yorlarni o'zida mujassam etuvchi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan qoida va tamoyillarni mujassam etuvchi namuna desak, haqiqatdan yiroq bo'lmaydi.

Pedagogning kasbiy standarti borasida turlicha qarashlar, bir-biridan farq qiluvchi ta'riflar berilgan. Bunday tariflarning mazmun-mohiyatini pedagog uchun zarur bo'lgan bilimlar, mahorat, ko'nikma singari shaxsiy sifatlar yoki pedagogning kasbiga qo'yiladigan talablar tashkil etadi. Shunday bo'lsada pedagogning kasbiy standarti: "pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi"[2, 41-modda]. Ko'rinib turubdiki, pedagogning kasbiy standarti uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalariga nisbatan muayyan talablardan iborat bo'lishi bilan bir qatorda, pedagogning kasbiy standartining o'zini ham pedagogning shaxsiy sifatlari, jumladan, uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydigan uzviy aloqador jarayon hisoblanadi.

Demak, pedagogning kasbiy standarti – ilmiy asoslangan me'yorlar, belgilangan tamoyillar va qoidalar asosida sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirishning asosini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatiga qo'yiladigan talablardan iborat me'zondir. Mana shu me'zon asosida pedagogning kasbiy bilimdonligi, kasbiy vazifalarini anglab yetishidagi idroki, layoqati va kasbiy tayyorgarligi va pedagogning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy ongning shakllanganlik darajasini aniqlashning me'yoridir.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarini jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayondir. Kasbiy tayyorgarlik – aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakarni shakllantiruvchi jarayondir[3, 162-bet].

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogning kasbiy standarti ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishning etaloni, normasi hisoblanar ekan, birinchidan, pedagogning o'z ustida muntazam ishlashini, ikkinchidan, ta'lim sohasidagi xalqaro tajribalar, andoza va standartlar bilan doimiy tanishib borishini, uchinchidan, pedagogning o'z kamchiliklarni bartaraf etishda maqsadni aniq yo'nalishga solishning nostandart yechimlarini ishlab chiqish salohiyatiga ega bo'lishni ta'lab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlat ro'yxati:

1. "Vikipediya" lug'ati.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risi"dagi Qonuni. QHMMB, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son
3. "Педагогика энциклопедия луғат" II жилд. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2015 йил. – 177 b.

MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY QILISHNING AHAMIYATI

U.I.Suvankulov
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi, va bu ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ayniqsa bugungi kunda inklyuziv ta’limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Chunki har bir O‘zbekiston fuqorosi har qanday jismoniy holatidan qat’iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta’lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan: 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish; inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanishi; inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish; 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa muassasalarida joriy qilish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish; inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish; o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo‘yildi.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy tarbiya olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har

qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyida keltirilgan tamoyillarga asoslaniladi:

Inklyuziv ta’lim– ta’limni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, ta’limning hammabopligini nazarda tutuvchi, barcha bolalarni turli ehtiyojlaridan kelib chiquvchi, alohida e’tiborga ega bolalarning bilim olishini ta’minlovchi ta’limning yangi shaklidir. Inklyuziv ta’lim nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda ta’lim tizimiga nogiron bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta’lim bolalarga yo‘naltirilgan metodologiyani rivojlantirishga intiladi va barcha bolalar ta’limda, ta’lim jarayonida turlicha ehtiyojga ega individlar ekanligini tan oladi. Bunday ta’lim o‘qitish jarayonida turli mazkur ehtiyojlarni qondirish uchun qulay bo‘lgan ta’lim berish va o‘qitishga yondashuvni ishlab chiqishga intiladi. Agar ta’lim berish va o‘qitish inklyuziv ta’lim kiritadigan o‘zgarishlar natijasida yanada samaraliroq bo‘ladigan bo‘lsa, bu barcha bolalarning yutug‘i hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

-o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

-O‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

-Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

-O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-Tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;

-Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

-O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi

-Yordamga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

Bundan tashqari inklyuziv ta’limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi.

XULOSA

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013

4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010

5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с. 6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil